

Yarashev K.D., Ziyadullaev K.Sh., Babajanov R.Yu.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MENEJMENTI

DARSLIK

(II-MODUL BO‘YICHA)

Toshkent-2019

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT
VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**

Yarashev K.D., Ziyadullaev K.Sh., Babajanov R.Yu.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MENEJMENTI

DARSLIK

(II-MODUL BO‘YICHA)

Toshkent-2019

Mazkur darslik “Jismoniy tarbiya va sport menejmenti” bakalavriyat ta’lim yo‘nalishining malaka talablariga mos ravishda yaratilgan bo‘lib, jismoniy tarbiya va sport sohasida sport menejeri, sport marketologi, menejer-iqtisodchi, ish yurituvchi, kadrlar masalalari bo‘yicha menejer, reklama bo‘yicha menejer, kreativ (ijodkor) menejer, investitsiya va innovatsion loyihalarni boshqarish bo‘yicha menejerlarni tayyorlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Darslikning bosh maqsadi –jismoniy tarbiya va sport boshqaruvining asosiy qonuniyatlari, tamoyillari, kategoriyalari, qonun-qoidalari, vazifalari, usullari, boshqaruvda axborot texnologiyasi hamda boshqaruvning samaradorlik natijalarini nazariy va amaliy tomonidan chuqur o‘rganishdan iborat.

Darslik O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining “Jismoniy tarbiya va sport menejmenti” bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar, doktorant va professor-o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi tashkilotlar, oliy sport mahorati maktablari, ixtisoslashtirilgan olimpiya zahiralari maktab internatlari, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bolalar-o‘smirlar sport maktablari, sport mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, xususiy sport klublari, sport inshootlari, sport sog‘lomlashtirish tashkilotlari (klublari), sport agentlik tashkilotlari, Milliy Olimpiya qo‘mitasi va uning tegishli bo‘limlari, sport federatsiyalari va assotsiyasiyalari, xususiy sport tashkilotlari va “Sport” erkin iqtisodiy zonalarida sport mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar rahbarlari, tadbirkorlar hamda “Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish” fanini mustaqil ravishda o‘rganayotganlar uchun ham ushbu darslik foydadan holi bo‘lmaydi.

Настоящий учебник написан в соответствии с профессиональными требованиями по направлению бакалавриата «Менджмена физической культуры и спорта» имеет большое теоритическое и практическое задание в подготовке спортивных менеджеров, спортивных маркетингов, менеджеров-экономистов, делопроизводителей, менеджеров по кадровым вопросам,

менеджеров по рекламе, креативных (творческих) менеджеров, а также менеджеров по инвестициям и инновационным проектам в сфере физической культуры и спорта. Главной целью, поставленной в учебнике, является всестороннее теоретическое и практическое изучение (всестороннее изучение теоретических и практических аспектов) развития сферы физической культуры и спорта в нашей стране и за рубежом, в том числе законов, закономерностей, принципов, категорий, правил и процедур, функций, задач, методов управления физической культурой и спортом, а также информационных технологий в управлении и эффективности управления. Настоящий учебник предназначен для пользования студентами и магистрантами по направлению и специальности “Менеджмент физической культуры и спорта,” а также окажет непосильную помощь докторантам, соискателям в своих научных-исследовательских работах и преподавателям при подготовке к занятиям по дисциплине “Менеджмент физической культуры и спорта”.

Вместе с тем этот учебник является полезной настольной книгой для руководителей и сотрудников Министерства физической культуры и спорта Республики Узбекистан и его подразделений, школ высшего спортивного мастерства, специализированных школ – интернатов олимпийских резервов, специализированных государственных школ – интернатов по видам спорта, специализированных детско – юношеских спортивных школ по видам спорта, детско – юношеских спортивных школ, предприятий по производству спортивной продукции, частных спортивных клубов, спортивных сооружений, спортивно – оздоровительных организаций (клубов), спортивных агентств, Национального олимпийского комитета Республики Узбекистан и его подразделений, спортивных федераций и ассоциаций, частных спортивных организаций, предприятий по производству спортивной продукции в “спортивных экономических зонах”, предпринимателей, а также самостоятельно изучающих дисциплину “Менеджмент физической культуры и спорта”.

This textbook is written in accordance with the professional requirements in the direction of bachelor " Management of physical culture and sports" has a great theoretical and practical task in the preparation of sports managers, sports marketers, managers, economists, clerks, managers on personnel issues, advertising managers, creative (creative) managers, as well as managers on investment and innovative projects in the field of physical culture and sports. The main purpose of the textbook is a comprehensive theoretical and practical study (comprehensive study of theoretical and practical aspects) of the development of physical culture and sports in our country and abroad, including laws, laws, principles, categories, rules and procedures, functions, tasks, methods of management of physical culture and sports, as well as information technology in management and management efficiency. This textbook is intended for use by students and undergraduates in the direction and specialty "Management of physical culture and sports," and will provide non - dusty assistance to doctoral candidates in their scientific and research works and teachers in preparation for classes in the discipline "Management of physical culture and sports."

However, this textbook is a useful reference book for Ministry leaders fizicheskoi culture and sports of the Republic of Uzbekistan and its subdivisions, schools of the highest sports skill, specialized boarding schools of the Olympic reserve, specialized state boarding schools by sport, specialized detsko – yunosheskij sports schools for sports, youth sports schools, factories on manufacture of sports products, private sport clubs, sport facilities, sports – health organizations (clubs), sports agencies, the National Olympic Committee of the Republic of Uzbekistan and its divisions, sports federations and associations, private sports organizations, enterprises for the production of sports products in the "sports economic laws", entrepreneurs, as well as self-studying disciplines "Management of physical culture and sports".

Yarashev K.D., Ziyadullaev K.Sh., Babajanov R.Yu.

Jismoniy tarbiya va sport menejmenti [Matn]: Darslik / Yarashev K.D., Ziyadullaev K.Sh., Babajanov R.Yu.: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-

maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.-T:

Ma'sul muharrir:

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida belgilab berilgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”da bevosita “... uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” masalalari belgilab berilgan¹.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatoriga faqatgina iqtisodiy omillarning o‘zi bilan qo‘shilib bo‘lmasligi barchaga ayon. Bu borada boshqa jihatlarning ahamiyati ham behad kattadir. Jamiyatda yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishda kishilarning ruhiyatini o‘zgartirish, ularda islohotlarning talabiga mos keladigan tafakkur tarzini shakllantirish nihoyatda muhim. Agar odamlarning ongida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatiga ishonch ruhi paydo bo‘lmasa – yangicha tafakkurni shakllantirishning iloji yo‘q. Zotan Vataniga sodiq, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, axborot-innovatsion texnologiyalardan boxabar bo‘lgan ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash hamma davrlarda ham davlat va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi dolzarb omillardan biri bo‘lib kelgan.

Insonning shaxs sifatida shakllanib borishida ta‘lim-tarbiya hamda innovatsion ilmiy-tadqiqotlar negizida vujudga keladigan ko‘nikmalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. O‘zbekistonda ushbu tizim doirasida bugungi kunga qadar bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Xususan, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi soha rivojida dadil qadamlardan biri bo‘lib xizmat kilmoqda.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. «Xalq so‘zi» G.// 08.02.2017 y. №28 (6722).

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, kadrlarda ilmiy layoqat yo'qligining boisi zarur malakaning talab doirasida shakllanmayotganligidir. Bu borada yoshlardagi intilish va qiziqish layoqatlarini inobatga olish bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishlarini ta'minlash, loyihalarni to'g'ri rasmiylashtirishni o'rganish, ma'lumotlarni elektron tarmoqlarda to'g'ri joylashtirish ko'nikmalarini shakllantirib borish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiya va sport sohasini kuchaytirishga ehtiyojni tizimda vujudga kelayotgan innovatsion ilmiy tadqiqotlarga bo'layotgan talablar doirasidagi tedensiyalar bilan izohlash mumkin.

Bugungi taraqqiyotning sur'atlari tobora tezlashmoqda, bu esa jismoniy tarbiya va sport tizimining turli sohalar bilan hamkorlikda rivojlanishini belgilab bermoqda. Xususan, jismoniy tarbiya va sportdagi ijtimoiy-madaniy muammolar ahamiyatining ortib borishi hamda kirib kelayotgan texnika va texnologiyalarning turli darajadagi ta'sirlari sportchilarning ijtimoiy (sotsial) qiyofasini o'rganish, ma'naviy qadriyatlar, din, madaniyat prizmasi ostida olib qarash orqali muammolarning xususiyatlarini tasniflash asosida tadqiq etish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. O'zbekiston ilm-fani bugun bozorning o'zgarib borayotgan ehtiyojlariga tez moslasha oladigan, mamlakatimiz va butun dunyoda xaridorgir bo'lgan ilmtalab, yuqori texnologik mahsulot(xizmat)lar ko'rsatishga yo'naltirilgan tom ma'nodagi innovatsion iqtisodiyotning texnologik bazasini yaratishga qaratilgan.

Ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni modernizatsiyalash O'zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish borasida hal etilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalardan biri sanaladi. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzulmani yaratish, mamlakat vakillarining xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash va o'ziga mos o'rinni egallashi uchun ilm-fanning innovatsion yutuklaridan keng ko'lamda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mas'uliyatli vazifani mukammal darajada bajarish uchun esa milliy ilm-fanni hamda kadrlar tayyorlash tizimini jadal tarzda rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Eng ilg'or axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, jismoniy tarbiya va sport sohasini modernizatsiya qilish va buning uchun ilm-fan hamda

ishlab chiqarish o'rtasidagi xalqaro integratsiya aloqalarini kengaytirish belgilangan vazifalarga erishishning eng yaqin va qulay yo'li hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishda qator tizimli muammolar va kamchiliklarning mavjudligi, ya'ni **birinchidan**, ushbu sohada davlat siyosatini samarali olib borishga va mamlakatning mavjud sport salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinliklar borligi, **ikkinchidan**, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilmaganligi, **uchinchidan**, sportchilarni tayyorlash va ular tibbiy ta'minotining innovatsion tadqiqotlari va uslubiy ishlanmalari, zamonaviy talablarga javob beradigan standartlarining mavjud emasligi sifatli o'quv-mashq jarayonining yo'lga qo'yilishini ta'minlamayotganligi ta'kidlangan.

Oxirgi o'n yilda mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasining tez sur'atlar bilan rivojlanishi natijasida yangi sport turlari, yangi sport bazalari, sport uskunalari, inventarlari va texnologiyalari, ya'ni sport industriyasi rivojlanmoqda.

Hozirgi davrda jismoniy tarbiya va sport sohasida ta'lim-tarbiya hamda ilmiy-innovatsion tadqiqotlar asosida shakllanadigan ko'nikmalarga ega bo'lgan, shiddatli davr talablariga javob beradigan malakaviy etuk, professional yosh iqtidorli menejerlarni tayyorlash talab etiladi. Jiddiy e'tibor qaratadigan bo'lsak, dunyoning rivojlangan mamlakatlari, xususan, Buyuk Britaniya, AQSH, Rossiya, Fransiya, Germaniyadagi nufuzli universitetlarda jahon ta'lim standartlari talablariga javob bera oladigan menejerlar tayyorlanayotganini ko'rishimiz mumkin. Bunday menejerlar esa xorijiy davlatlardagi etakchi sport tashkilotlari va klublarini boshqarib kelmoqdalar. Ular rahbarlik qilayotgan sport tashkilotlari va klublari nafaqat sport sohasida, balki iqtisodiy-moliyaviy jihatdan ham ulkan yutuqlarga erishmoqdalar.

Yurtimizda jismoniy tarbiya, sport va xalq milliy o'yinlari ta'lim tizimidan asosiy ta'lim-tarbiya vositalari sifatida mustahkam o'rin olmoqda. O'zbekiston sportchilari Olimpiya va Osiyo o'yinlari, jahon, Osiyo va boshqa nufuzli xalqaro sport musobaqalarida mustaqil jamoa sifatida ishtirok etib, dastlabki yutuqlarga erishdilar. Bu

jihatlarda respublika sport tashkilotlari rahbarlarini yanada tashabbuskorlik bilan faoliyat ko'rsatishga da'vat etadi.

Ta'kidlash joizki, aholining salomatligini mustahkamlash maqsadida «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarining hayotga tatbiq qilingani, o'quvchi yoshlar va talabalarning turli sport musobaqalari, «Umid nihollari», «Barkamol avlod» o'yinlari, «Universiada», xalq milliy o'yinlari festivallari hamda aholi istiqomat joylari, mehnat jamoalarida spartakiadalar, birinchiliklarning muntazam o'tkazilishi e'tiborga molikdir. Barcha hududlar va markaziy shaharlarda yirik sport inshootlari qad ko'tarmoqda, yangi sport maktablari, litseylar, kasb-hunar kollejlari tashkil qilinmoqda. Sport jamoalarining turlari va sonlari tobora oshmoqda. Bunda ommaviy sog'lomlashtiruvchi va sport mahoratlarini oshiruvchi tadbirlarni maqsadli tashkil qilish mutaxassislar, jamoat idoralari va homiylardan katta matonat, diqqat-e'tiborni talab etadi.

Shu jihatdan jismoniy tarbiya va sport harakatiga rahbarlik qilish, bu sohada etuk kadrlar tayyorlash, ularning malakalarini zamon talablari asosida oshirib borish muhim muammolardan biridir. Ana shu muammolarni o'rganish va hal qilish yo'llarini egallashni o'rgatuvchi fan jismoniy tarbiya va sportni boshqarishdir.

Fanning asosiy maqsadi bo'lajak mutaxassislarni jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarish usullari bilan qurollantirishdir.

Fanning asosiy vazifalari:

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa amaldagi qonunlar, qarorlar hamda nizomlarda ko'zda tutilgan jismoniy tarbiya va sport ishlari haqidagi hujjatlar mazmuni va ulardan kelib chiqadigan vazifalarni o'rgatish.

2.Sog'lom avlodni tarbiyalash, ishlab chiqarish unumdorligini, shuningdek, insonlarning ish qobiliyatini oshirish hamda ularning umrini uzaytirishda jismoniy tarbiya, sport va xalq milliy o'yinlarining ijtimoiy-pedagogik mohiyatlarini asoslab berish.

3.Bo'lajak mutaxassislarni ommaviy jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilish hamda uni boshqarish qonuniyatlari va amaliyoti bilan qurollantirish.

4.Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining bosqichlariga tayangan holda sport klublari, jismoniy tarbiya jamoalari va aholi turar joylarida ommaviy sport

sogʻlomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish va oʻtkazishda talabalarga boshqaruvchilik malakalarini va tadbirkorlik faoliyatini toʻla singdirish.

Bu fan, oʻz navbatida, talabalar, yosh mutaxassislar va sport tashkilotlarining xodimlariga quyidagi vazifalarni yuklaydi:

- fanning mazmunini chuqur oʻrganish va oʻtgan davrlarda uning qay yoʻsinda taraqqiy etganligini taqqoslagan holda chuqur tahlil qilish;

- davlat va jamoat tashkilotlarining sportni boshqarish va rivojlantirish boʻyicha qabul qilgan farmon va qarorlarini oʻzlashtirib olish;

- sport tashkilotlari va ularning rahbarlari erishgan yutuqlar, ilgʻor tajribalarni qunt bilan oʻrganish;

- taʼlim muassasalari va boshqa tashkilotlarda oʻtkaziladigan ilmiy-nazariy anjumanlarda ishtirok etish, qoʻyilgan muammolarni oʻrganish, maʼruzalar qilish;

- sport tashkilotlari va ularning quyi jamoalari haqidagi Nizomlarni bilish;

- ommaviy axborot vositalarining jismoniy tarbiya va sport toʻgʻrisidagi maʼlumotlarini doimiy ravishda kuzatib, oʻrganib borish;

- boshqaruv faoliyatiga tegishli huquqiy, moddiy-texnik bilimlarni toʻla oʻzlashtirish;

- hujjatlarni yuritish, rejalashtirish bilan bogʻliq boʻlgan bilim va malakalarni egallash;

- olingan nazariy bilim va amaliy malakalarni oʻquv amaliyotlari jarayonida sinovdan oʻtkazish;

- seminar va amaliy mashgʻulotlarga puxta tayyorlanish, ularga ijodiy yondoshish, reyting tizimida talablarni chuqur oʻrganish, ularni amalda qoʻllash;

- jismoniy tarbiya nazariyasi, pedagogika, psixologiya, ixtisoslik (sport turlari) va boshqa fanlardagi boshqaruv usullarini tadbirkorlik asosida ushbu fan bilan bogʻlay bilish.

Darslikning asosiy yoʻnalishlarini bayon qilishda dotsentlar R.Abdumalikov, A.K.Akramov, R.X.Nabiullinlarning darslik, oʻquv qoʻllanma va monografiyalariga tayanildi.

1-MAVZU. JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

REJA

1.1. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

1.2. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi qonun hamda qarorlar – boshqarishning asosiy manbalari.

1.3. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport taraqqiyoti.

1.4. Davlatni idora qilishda Prezidentlik instituti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi hamda vazirliklar va jamoat tashkilotlarining o‘rni.

1.5. Boshqarish tamoyillari. “Jismoniy tarbiya harakati”, “Boshqarish”, “Boshqarish tizimlari”, “Ilmiy boshqarish”, “Boshqarish usullari” “Aqlli boshqarish” tushunchalarining umumiy ta’rifi.

Tayanch iboralar: qonun, qonuniyat, qarorlar, jismoniy tarbiya va sport, boshqarish, boshqarish tamoyillari, boshqarish usullari, boshqarish funksiyasi, tizim, boshqarish tizimi, tashkilot, jamoat tashkilotlari.

1.1. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish maxsus o‘quv hamda ilmiy fan sifatida ijtimoiy-pedagogika fanlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. U aholi o‘rtasida tashkil qilinadigan ommaviy sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining yo‘llarini o‘rganadi, shu sohadagi mutaxassislarni tarbiyalashga bevosita xizmat qiladi. SHu sababdan, bu fan O‘zDJTSU va respublika oliy o‘quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlari, oliy sport mahorati maktablari, ixtisoslashtirilgan olimpiya zahiralari maktab internatlari, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlari, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bolalar-o‘smirlar sport maktablari, Olimpiya zahiralari va sport hamda pedagogika kollejlari tarkibidagi jismoniy tarbiya bo‘limlarining o‘quv rejasida o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lmog‘i lozim.

Fanning asosiy maqsadi bo'lajak mutaxassislarni jismoniy tarbiya va sport harakatining barcha faoliyatlarini tashkil qilish va ularga rahbarlik qilish yo'llari bilan qurollantirishdan iboratdir.

Shu maqsadda u o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- fan asoslari va mazmuni bilan tanishtirish;
- davlat va jamoat tashkilotlari, ularning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyatlarini o'rganish;
- yuqori va quyi sport tashkilotlarining ish mazmunlari hamda ularning usullarini o'zlashtirishni ta'minlash;
- egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda malakalarni o'quv amaliyoti jarayonida tajribadan o'tkazish;
- ilmiy-nazariy tadqiqotlar o'tkazishga da'vat etish;
- reyting tizimi talablari asosida talabalarning bilimlarini baholash;

Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fani o'quv rejasidagi "Jismoniy tarbiya va sport tarixi", "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati", Pedagogika, Psixologiya, Iqtisodiyot nazariyasi hamda barcha mutaxassislik fanlari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki boshqarishda doimiy ravishda ta'kidlanib turadigan sport taraqqiyoti, aholini jismoniy tarbiya vositalari yordamida tarbiyalash usullari, sportchilarning ruhiy holatlari hamda barcha sport tadbirlarini uyushtirishda moddiy-texnik ta'minot sohasidagi bilimlar amaliy tajribalar bilan uzviy bog'liqdir.

Fanning asosiy mazmunini quyidagi yo'nalishlar tashkil etadi:

- jismoniy tarbiya va sportni tashkil qilishning nazariy asoslari;
- boshqarishning davlat va jamoat tashkilotlari;
- boshqarishdagi asosiy vazifalar, usullar;
- jismoniy tarbiya va sport harakatidagi asosiy tarmoqlar;
- xorijiy mamalakatlarda jismoniy tarbiya va sportni tashkil qilish, xalqaro sport va Olimpiya harakatlari.

Bularning negizida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi barcha yo'l-yo'riqlar o'z ifodasini topadi. Eng muhimi, O'zbekistonda olib borilayotgan turli islohotlar, ularning ijobiy natijalari sifatida o'tkazilayotgan har

xil sport tadbirlari, sport inshootlarini qurish va boshqalarning o'z aksini topishi ifodalab beriladi.

“Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish” fani o'zining tarixiga ega. Bu haqda quyidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin. Bu fan ilgari jismoniy tarbiya va sport tarixi fanining tarkibida bo'lib, 1948 yildan boshlab mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi va taraqqiy qila boshladi. 1954-1958 yillarda “Organizatsiya fizicheskoy kulturi” degan nom bilan birinchi o'quv qo'llanma nashr etilgan.

1961 yilda professorlar I.M. Nikiforov va V.S.Polishanskiy tahririda “Organizatsiya fizicheskoy kulturi” nomli rus tilidagi qo'llanma jismoniy tarbiya o'quv yurtlari talabalari uchun nashr qilindi.

1965 yilda yana shu olimlar tahririda “Organizatsiya fizicheskoy kulturi” o'quv qo'llanmasi to'ldirilgan holda qayta nashr etildi.

1977 yilda “Upravlenie fizkulturnim dvijeniem” nomi bilan birinchi marotaba darslik tayyorlandi. Darslikni tayyorlashda pedagogika fanlari doktori, professor Kulunkovich K.A. (Belorussiya Davlat jismoniy tarbiya instituti) rahbarligidagi Belorussiya, Moskva, Kievdagi va boshqa bir qator institutlarning olimlari hamda mutaxassisleri ishtirok etdi. Keyingi yillardagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar, davlatni idora qilish, sport va jamoat tashkilotlarining tashkiliy tuzilishi hamda taraqqiyot jarayonlari bu darslikning yangilanishini va takomillashishini taqozo qildi. 1987 yilda professor Pereverzin I.I. (Moskva Jismoniy tarbiya instituti) boshchiligida “Upravlenie fizicheskoy kulturoy i sportom” degan yangi darslik nashr etildi. Bu darslik o'zining mazmuni, tuzilishi jihatidan avvalgi darslik va o'quv qo'llanmalaridan tubdan farq qilgan, jismoniy tarbiya harakatining barcha sohalarida erishilgan ilmiy-uslubiy xulosalarga tayangan bo'lsada, sobiq Ittifoq miqyosidagi ko'pgina jismoniy tarbiya va sport sohasi olimlari, professor-o'qituvchilari tomonidan yaxshi baholanmadi. Buning sababi shundaki, darslikda boshqarish tizimlari, vazifalari (funksiyalar) va turli tarmoqlardagi jismoniy tarbiya va sport ishlarini rejalashtirish, ish yuritish, musobaqalar o'tkazish kabi muhim faoliyatlarga e'tibor berilmagan yoki alohida hududlargina nazarda tutilgan edi.

Jismoniy tarbiya institutlari hamda oliy o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya fakultetlarining talabalari uchun eng qulay, tushunish oson bo'lgan o'quv qo'llanmalari 1965 yilda nashrdan chiqqan "Organizatsiya fizicheskoy kulturi" va 1972 yilda Bunchuk M.B. (Ukraina) tomonidan tayyorlangan "Organizatsiya fizicheskoy kulturi" o'quv qo'llanmasi hisoblanadi.

Keyingi yillarda jismoniy tarbiya texnikumlari, pedagogika bilim yurtlari talabalari uchun "Istoriya i organizatsiya fizicheskoy kulturi i sporta" V.V.Stolbov (Moskva, 1984) darsligi ommabop xususiyatga ega bo'lgan "Fizkultura harakatini kengaytirish yo'llari" R.Abdumalikov, T.T. Yunusov, A.K. Akramov (Toshkent, 1988) o'quv qo'llanmasi tayyorlandi. O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti tomonidan "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni boshqarishni tashkil etish yo'llari" T.T.Yunusov, R.Abdumalikov o'quv qo'llanmasi chiqarildi. Bular orasida R.Abdumalikovning "Jismoniy madaniyat va sport ixtisosligidagi talabalarni boshqaruvchilik faoliyatlariga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari" monografiyasi (1994), "Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning nazariy asoslari" o'quv qo'llanmasi (1995) muhim ahamiyat kasb etdi. Bular talabalarning boshqaruvchilikdagi nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini oshirishda katta xizmat qilmoqda. E'tirof etish kerakki, boshqarish jarayonlarida avvalgi ish tajribalari, erishilgan yutuqlar hamda ilmiy-nazariy tadqiqot natijalari muhim ahamiyat kasb etish bilan fanning asosiy omili sifatida xizmat qiladi. Bularni o'rganish va tanqidiy yondoshish zarur bo'ladi.

1.2. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi qonun hamda qarorlar – boshqarishning asosiy manbalari.

Barcha o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan fanlar kabi jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fani eng avvalo O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga tayanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi

«Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5368-son [farmoni](#), Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 3 maydagi “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 331- son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 13 noyabrdagi “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filialini tashkil etish to‘g‘risida”gi 924-son qaror, 2018 yil 22 sentyabrdagi «2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi, 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 fevraldagi “2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish konsepsiyasi” da belgilangan vazifalar orqali respublikamizda sport sohasini rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda.

2016-2017 yillarda O‘zbekiston respublikasida jismoniy

tarbiya va sportning rivojlanishi to‘g‘risida

MA‘LUMOTNOMA

1-jadval.

Jismoniy tarbiya jamoalari soni

№	Hududlar	2016	2017	Foizda
1	Qoraqalpog‘iston	869	877	100,9
2	Andijon	944	974	103,1
3	Buxoro	662	666	100,6
4	Jizzax	640	685	107,0
5	Qashqadaryo	1478	1335	90,3
6	Navoiy	436	432	99,0
7	Namangan	841	827	98,3
8	Samarqand	1512	1418	93,7
9	Surxondaryo	1076	997	92,6
10	Sirdaryo	500	502	100,4
11	Toshkent	1073	1108	103,2
12	Farg‘ona	1136	1151	101,3
13	Xorazm	710	734	103,3
14	Toshkent shahar	539	528	97,9

Respublika bo'yicha jami	12416	12234	98.5
---------------------------------	--------------	--------------	-------------

2 jadval.

Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilar soni

№	Hududlar	2016	2017	2018
1	Qoraqalpog'iston	352190	367342	373152
2	Andijon	558050	587578	591693
3	Buxoro	345630	355757	357612
4	Jizzax	274524	282164	290324
5	Qashqadaryo	651754	666480	669152
6	Navoiy	181290	191214	193871
7	Namangan	514159	524373	526486
8	Samarqand	733774	752611	754012
9	Surxondaryo	489358	506973	507112
10	Sirdaryo	159395	166148	167121
11	Toshkent	504050	498739	499842
12	Farg'ona	670707	684931	686921
13	Xorazm	372119	381046	382223
14	Toshkent shahar	494983	499674	503457
Respublika bo'yicha jami		6301983	6465030	6502978

O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'anasiga amal qilib, uni teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat,¹ deb ta'kidlab o'tdi.

Darhaqiqat, amalga oshirilayotgan ta'limiy islohotlar zahirida yurtimiz ravnaqiga xizmat qiladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish, barqaror rivojlanish yo'liga o'tish masalalasi birinchi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2017 йил 19 сентябрь куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. www.press.uz.

galda kadrlar salohiyatiga va ularni etkazib berayotgan oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga borib taqaladi. Shuningdek, 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to'g'risidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar dasturilamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasini isloh qilish, uni yanada rivojlantirishga asos bo'luvchi eng muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dastlab 1992 yil 14 yanvarda O'zbekiston respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Qonundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimiz aholisining sog'ligini mustahkamlash, ularning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratib berish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Ushbu qonun 2000 yil 26 mayda va 2015 yil 4 sentyabrda yangi tahrirda qayta qabul qilindi. Yangi va o'zgartirishlar bilan 2015 yil 4 sentyabrda qabul qilingan qonunda O'zbekiston respublikasi fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy holatidan qat'i nazar, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish, jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalarini tuzish, jismoniy tarbiya-sport harakatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga egagiligi alohida ta'kidlangan².

Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish borasida islohotlarning samarasi natijasida 2015 yil 4 sentyabrda yangi tahrirda qabul qilingan «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida bevosita jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, unga ko'ra:

- jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- har kimning jismoniy tarbiya va sport bilan erkin shug'ullanishga bo'lgan

² «Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида» (янги таҳрири) Ўзбекистон Республикасининг Қонуни Тошкент ш., 2015 йил 4 сентябрь, ЎРҚ-394-сон. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2015 й., 36-сон, 473-модда.

huquqini ta'minlash;

➤ jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat hamda jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish;

➤ fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi huquqlarining davlat kafolatlarini belgilash;

➤ jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitishga hamda zo'rvonlikka yo'l qo'ymaslik;

➤ jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi shaxslarning, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ishtirokchilari hamda tomoshabinlarining hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash;

➤ sportning barcha turlari va tarkibiy qismlarini rivojlantirishga ko'maklashish;

➤ nogironlar va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslar, shuningdek yuqori darajada ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko'maklashish;

➤ O'zbekistonning milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

➤ fuqarolarni jismoniy tarbiyalashning uzluksizligi va davomiyligini ta'minlash;

➤ xalqaro hamkorlikni amalga oshirish masalalari keltirib o'tilgan³.

O'zbekiston respublikasi Prezidentining «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 15 fevraldagi PF-4956-sonli Farmonini bajarish yuzasidan hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining samarali faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar-o'smirlar sport maktablari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazini O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va

³ 4-модда. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги давлат сиёсатининг асосий йўналишлари.

malakasini oshirish markaziga birlashtirish yo‘li bilan uni qayta tashkil etish, shuningdek, mazkur markazlarning shtatlar sonini optimallashtirish hamda ularga birlashtirib qo‘yilgan binolar, inshootlar va boshqa mol-mulknini tasarruf etish va ulardan foydalanish borasidagi muhim masalalar sifatida ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” jismoniy tarbiya va sport sohasini tubdan rivojlantirish, sohada muammolarni bartaraf etish hamda kadrlar tayyorlash tizimini tartibga solish va boshqarish tizimini rivojlantirishda tub burilish bo‘la oldi desak mubolag‘a qilmaymiz⁴.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da “Bolalar sportining ommaviyligini oshirish hamda musiqa va san‘at ta’limini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, 251 ta umumta’lim maktabi, 12 ta bolalar va o‘smirlar sport maktabida sport zallarini qurish, 9 ta yopiq suzish havzasini qurish va 2 tasini rekonstruksiya qilish” ishlarini amalga oshirish ta’kidlab o‘tilgan⁵.

3-jadval

O‘zbekiston respublikasida mavjud sport inshootlari soni tahlili, birlik (2000-2017 yillar)

№	Ko‘rsatkichlar	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2017 yilni 2000 yilga nisbati	
								%	(+;-)
1	Shahar joylarida	9149	9539	9377	23492	24852	23733	259,4	+14584
2	Qishloq joylarida	37338	41659	41291	27442	26001	27573	73,8	-9765

⁴Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон.

Jami:	46487	51198	50668	50934	50853	51306	110,3	+4819
--------------	--------------	--------------	--------------	--------------	--------------	--------------	--------------	--------------

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Respublikamiz hududlarida bunyod etilgan sport inshootlari soni jihatdan qaraydigan bo‘lsak, 2000 yilda 46487 tani tashkil etgan bo‘lsa, shundan 80,3 foizi ya’ni 37338 tasi qishloq joylarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish maqsadida bunyod etilgan. 2017 yil yakunlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, jami sport inshootlari soni 51306 tani tashkil etgan holda, qishloq joylarida tashkil etilgan sport inshootlari soni 53,7 foizni ya’ni 27573 tani tashkil etgan.

2016-2020 yillarda bolalar va o‘smirlar sport maktablari, ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash parametrlari keltirilgan bo‘lib, respublika bo‘yicha yangidan quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, kapital ta’mirlanadigan BO‘SM va IBO‘SMlarning umumiy soni jami 152 tani tashkil qilgan holda hududlar kesimida bu ko‘rsatkich turlicha keltirilgan (4-jadval).

4-jadval

Bolalar va o‘smirlar sport maktablari, ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash parametrlari (2016-2020 yillar bo‘yicha)

T/r	Hududlar nomi	Yangidan quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, kapital ta’mirlanadigan BO‘SM va IBO‘SMlarning umumiy soni	shu jumladan:				
			2016	2017	2018	2019	2020
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13	2	2	3	3	3
2	Andijon viloyati	13	3	2	3	3	2
3	Buxoro viloyati	13	2	3	3	2	3
4	Jizzax viloyati	10	2	2	3	2	1
5	Qashqadaryo	11	2	2	2	2	3

	viloyati						
6	Navoiy viloyati	5	1	1	1	1	1
7	Namangan viloyati	10	3	2	2	2	1
8	Samarqand viloyati	16	3	3	3	3	4
9	Surxondaryo viloyati	11	2	3	2	2	2
10	Sirdaryo viloyati	8	1	2	1	2	2
11	Toshkent viloyati	15	3	3	3	3	3
12	Farg‘ona viloyati	15	3	2	4	3	3
13	Xorazm viloyati	4	1	1	1	1	
14	Toshkent shahri	8	2	2	1	2	1
	Jami:	152	30	30	32	31	29

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

2017-2021 yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish borasidagi dasturda sport maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 167 ta sport inshooti, jumladan, 90 ta sport majmuasi va 77 ta suzish havzasini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’irlash, jihozlash va qayta jihozlash maqsadida 995,2 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ sarflanishi nazarda tutilgan.

Dastur doirasida 2017 yilning o‘zida 153 ta bolalar maydonchasi ta’irlangan, 232 ta zamonaviy maydoncha, Nukus shahrida sportning olimpiya va milliy turlariga ixtisoslashtirilgan sport majmuasi foydalanishga topshirilgan.

Sobiq Ittifoqning inqirozi uning tarkibida bo‘lgan barcha respublikalarning, shuningdek, O‘zbekistonning mustaqil davlat bo‘lishiga olib keldi. Sobiq Ittifoq respublikalari ichida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda Prezidentlik boshqaruvi joriy qilindi.

Qonun qabul qiluvchi organ O‘zbekiston respublikasi Oliy Majlisi shakllandi. Oliy Majlis qonunlarni ishlab chiqish va tasdiqlash huquqiga egadir. Uning tarkibida boshqa sohalar kabi fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha qo‘mita mavjud. Bu qo‘mita o‘z vakolatidagi sohalar bo‘yicha qonunlarni

tayyorlab, Oliy Majlis sessiyasiga tavsiya etadi. O‘zbekiston respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuni ham shu qo‘mita tomonidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston respublikasi Prezidentining farmonlarini, Oliy Majlis qabul qilgan qonunlarni amalda ijro etuvchi organ O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi. U o‘z faoliyatida eng muhim muammolarni hal etish uchun qarorlar qabul qiladi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid 50 dan ortiq muhim qarorlar qabul qilindi va ular hayotga tadbiiq etib kelinmoqda.

Yuqorida nomlari qayd etilgan davlat tashkilotlari bilan bir qatorda uning faoliyatiga yordam beruvchi jamoatchi tashkilotlar ham mavjud. Ular orasida O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi markaziy kengashi, siyosiy partiyalar, “Yoshlar itifoqi”, “Mahalla” va boshqa jamg‘arma yoki uyushmalar mavjud.

Boshqarishda bir qator tamoyillar mavjud bo‘lib, u O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosat hamda turli islohotlardan kelib chiqqan holda amal qiladi. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonuning 3-moddasida “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari” quyidagicha belgilangan.

- insonparvarlik;
- demokratizm;
- fuqarolar jismoniy tarbiyasining uzluksizligi va davomiyliigi;
- jismoniy tarbiya va sport tizimida davlat va jamoat boshqaruvining ustunliigi.

Bu tamoyillar negizida jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligi, sport mahoratini oshirish, faoliyatlarni ilmiy jihatdan tashkil qilish, har bir tadbiiq natijalariga xolisona yondoshish kabi muhim talablar ham mavjuddir.

Insonparvarlik prinsipida jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar, shuningdek rahbarlarning sport tadbiiqlarini tashkil qilish va o‘tkazishda sportchilar, ularning murabbiylari, hakamlar hamda

tomoshabinlarga nisbatan g'amxo'rliqi, sharoitlar yaratib berishga intilishi, jismoniy tarbiya va sport bilan aholining tobora ko'proq qismi shug'ullanishini ta'minlash kabi ishlar ko'zda tutilganligi o'z-o'zidan ma'lum.

Demokratizm tamoyili jismoniy tarbiya va sportni tashkil qilish faoliyatidagi xalqchilik, ko'pchilikning hohishiga rioya etish, tizimdagi rahbar organ va rahbarlarni saylash, shuningdek, ularning o'z jamoalari oldida muntazam hisobot berib borishlaridan iborat.

Fuqarolar jismoniy tarbiyasining uzluksizligi va uzvuyligi tamoyili, asosan, o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya darslari, sport to'garaklari mashg'ulotlarining doimiy tashkil qilinishini ko'zda tutadi. Shuningdek, mehnatkash aholi va keksa kishilarni ham jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb etishdir. Bunda turli musobaqalarni muntazam o'tkazish, sog'lomlashtirish markazlarining ish faoliyatini yaxshilash maqsad qilib qo'yilgan. Bu tamoyillarning yana bir jihati shundaki, aholini jismoniy tarbiya va sport, xalq milliy o'yinlariga jalb etish, ayniqsa, iqtidorli sportchilarning mahoratlarini oshirib borish, shuningdek, sog'lom avlod tarbiyasini yaxshilashga qaratilgandir. Sport mashg'ulotlarini tashkil qilish, ularni rejalashtirish, musobaqalar o'tkazish, mutaxassis xodimlarni tayyorlash va boshqa faoliyatlarda tadqiqotlarning natijalariga tayanish, faoliyatlarni ilmiy ravishda boshqarish muhim ahamiyatga ega ekanligi bayon qilinadi. Ayniqsa, sport musobaqalarini o'tkazish, turli natijalar, hisob-kitob, nazorat qilish kabi faoliyatlarda xolisona yondoshish masalalari ishning taraqqiyotiga ko'maklashishi hisobga olingan.

1.3. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning taraqqiyoti.

Jismoniy tarbiya va sport harakatida juda ko'p maxsus atamalar ishlatiladi va ularning mazmunida o'ziga xos boshqaruvchilik faoliyatlarini talab etuvchi ma'nolar mavjud. "Jismoniy tarbiya", "Jismoniy madaniyat", "Sport" kabi atamalarning mazmuni va mohiyati "Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati" fanida etarli darajada bayon qilingan. Shu sababdan ularga alohida to'xtalish zaruriyati yo'q. Shunday bo'lsada, qisqacha tavsif berish joizdir. Ya'ni:

- jismoniy tarbiya pedagogik jarayon sifatida inson kamolotini takomillashtiruvchi vosita va usuldir.

- jismoniy madaniyat umumtarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida jismoniy mashqlar bilan shugʻullanish, unda asbob-uskuna, kiyim-bosh, inshootlardan foydalanish, tozalikka rioya etish, gavdaning toʻgʻri hamda chiroyli oʻsishini taʼminlovchi tarbiyaviy jarayondir.

Koʻrinib turibdiki, bu ikki atama bir-birini toʻldiradi. Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat bilan uzluksiz hamda ommaviy shugʻullanish esa jismoniy tarbiya harakati demakdir.

Sport murakkab mashqlar majmuasidan tarkib topib, texnik-taktik jihatdan baxslashishdir. Bunda maxsus qoida va talablarga rioya etish zarur, gʻoliblar esa musobaqa shaklida aniqlanadi.

Davlatni idora qilishda Prezidentlik instituti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi hamda vazirliklar va jamoat tashkilotlarining oʻrni.

Davlat – oʻz hokimiyatini amalga oshirish imkonini beruvchi tashkiliy-moddiy kuchga, yaʼni davlat mexanizmiga egadir. Mexanizm davlatning nimadan tashkil topganligini koʻrsatuvchi tarkibiy va predmetli ifodasidir. *Davlat mexanizmi* - davlat organlari va boshqa tashkilotlarining davlat hokimiyatini, vazifa va funksiyalarini amalga oshirishning yaxlit ierarxik, yaʼni boʻysinuvga asoslangan tizimidir.

Davlat mexanizmining boshlangʻich va asosiy tarkibiy elementlaridan biri – bu davlat organlaridir. *Davlat organlari* - davlat funksiyalarini amalga oshiradigan va hokimiyat vakolatiga ega boʻlgan davlat mexanizmining boʻgʻinidir.

Davlat va huquq nazariyasi faniga koʻra, *davlat organlarining mazmun-mohiyatini ochib beruvchi xususiyatlarga quyidagilar kiradi:*a) davlat organi – davlat mexanizmining bir boʻlagi sifatida, maʼlum bir mustaqillikka (avtonomiyaga) egadir. Davlat organlari davlat mexanizmida oʻz oʻrniga ega boʻlib, uning boshqa qismlari bilan oʻzaro aloqada boʻladi; b) *davlat organi* – turli munosabatlarda davlat nomidan harakat qiluvchi xizmatchilardan iborat boʻladi. Aynan davlat xizmatchilarining harakatlarida u yoki bu davlat organining faoliyati

namoyon bo‘ladi; v) *davlat organlari* ichki tarkibiy tuzilmaga egadir, ya’ni ular yagona maqsad atrofida birlashgan bo‘linmalardan iborat bo‘ladi; g) *davlat organlari* ma’lum bir hajm va mohiyatga ega bo‘lgan davlat-hokimiyat vakolatiga egadir; d) *davlat organlarining* funksiyalanishini – davlat tomonidan moliyaviy mablag‘ ajratish orqali ta’minlanadi; e) *davlat organlari* – davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirish uchun, ma’lum bir shakl va uslublardan foydalanadi.

Davlat organi o‘zining mohiyatiga ko‘ra qandaydir tashkilotni, fuqarolarning jamoasini anglatadi. Bunday fuqarolarning jamoasi davlat faoliyatining u yoki bu turini amalga oshirish uchun davlat tomonidan tashkil etiladi.

Davlat o‘z organlarini bevosita tashkil etadi yoki ularni tashkil etish tartibini belgilaydi, ularning funksiyalanishining asosiy qoidalarini o‘rnatadi, davlat nomidan va davlat manfaatini ko‘zlab harakat qilishi uchun ularga ma’lum bir vakolatlarni berib qo‘yadi.

Davlat organlarining barchasi, yagonalikda - *davlat apparatini* tashkil etadi. Davlat apparati orqali davlat oldida turgan vazifa va funksiyalar amalga oshiriladi.

Davlat – fuqarolarning siyosiy tashkiloti bo‘lganligi sababli, tashkil qilinadigan davlat organlari hokimiyat vakolatiga ega bo‘ladi.

Davlat-hokimiyat vakolati keng qamrovli tushuncha bo‘lib, asosan quyidagilarni o‘z ichiga oladi: a) davlat nomidan va davlat manfaatini ko‘zlab huquqiy akt chiqarish; b) ularning amalga oshirilishini - tarbiyalash, ishontirish va rag‘batlantirish choralarini qo‘llash orqali ta’minlash; v) huquqiy aktlardan kelib chiqadigan talablar ijro etilishini nazorat qilish; g) huquqiy aktlarni himoya qilish, ya’ni huquqiy aktlarda nazarda tutilgan talablar buzilganda, ularni majburiy choralar qo‘llash orqali himoya qilish.

Davlat organlari to‘g‘risida batafsil tushuncha hosil qilish uchun, ularni fuqarolarning boshqa jamoalaridan, masalan jamoat tashkilotlaridan farqlash lozim. Jamoat tashkilotlari davlat tomonidan emas, balki fuqarolar yoki mehnat jamoasi tomonidan, davlat organi esa davlat tomonidan tashkil etiladi. Ba’zi hollarda davlat o‘z organlari orqali jamoat tashkilotlarini tashkil etish asoslarini va

tartibini, faoliyat yoʻnalishlarini belgilab berishi mumkin. Davlat organlari davlat-hokimiyat vakolatiga ega, yaʼni davlat nomidan va davlat manfaatini koʻzlab butun mamlakat boʻyicha yoki maʼlum bir hududlar (viloyat, tuman, shahar) boʻyicha harakat qiladi. Jamoat tashkilotlari ham maʼlum bir vakolatlarga ega, lekin bu vakolatlar davlat-hokimiyat vakolati hisoblanmaydi. Jamoat tashkilotlarining vakolati maʼlum bir belgilangan doirada, masalan jamoat tashkiloti dorasida yoki jamoat xodimlariga nisbatan harakatda boʻladi.

Davlat organlarining oʻziga xos xususiyatlarini korxonalar bilan taqqoslab koʻrganda ham koʻrish mumkin. Jumladan, davlat organlari davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirib, oʻzlarining xatti-harakatlari bilan bevosita moddiy boyliklar yaratmaydilar. Korxonalar esa bevosita ishlab chiqarish bilan, moddiy boyliklarni yaratish bilan shugʻullanadi.

Demak, **davlat organlari**: *birinchidan*, davlat mexanizmi (apparati)ning bir qismi hisoblanadi; *ikkinchidan*, davlat-hokimiyat vakolatiga ega boʻladi; *uchinchidan*, davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish maqsadida davlat tomonidan tashkil etiladi; *toʻrtinchidan*, maʼlum bir tashkiliy tuzilmaga ega boʻladi; *beshinchidan*, ularning faoliyati bevosita ishlab chiqarish bilan, moddiy boyliklarni yaratish bilan bogʻliq emas.

Ijro hokimiyati organlari tushunchasi va ularning oʻziga xos xususiyatlari. Turli huquq sohalari mutaxassislarining davlat organlari va xususan ijro hokimiyati organlari tushunchasi, mazmuni va ahamiyati muammolariga bagʻishlangan koʻpdan-koʻp ilmiy izlanishlari mavjuddir. 90-yillarning boshlaridan, yaʼni sobiq Ittifoqning parchalanishi, yangi davlat tuzilmalarining shakllanishi va rivojlanishi bilan, bu muammoga boʻlgan eʼtibor yanada kuchayib bordi. Bu ayniqsa davlatlar tomonidan asosiy qonunning ishlab chiqilishi va qabul qilinishi bilan yanada jonlandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiya asosida davlat hokimiyatining boʻlinishi prinsipining oʻrnatilishi bilan, davlatning – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlariga boʻlinishi mustahkamlandi.

Ijro hokimiyati organlari - davlat hokimiyatining bir bo'g'ini bo'lib, davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan hamda davlat-hokimiyat vakolatlariga ega bo'lgan siyosiy tashkilotdir.

Ijro hokimiyati sub'ektlari o'rnatilgan kompetensiya doirasida davlat boshqaruvini amalga oshiradilar. *Ijro hokimiyati* - davlat boshqaruvi organlari tizimidan tashqarida mavjud bo'lishi mumkin emas. Ijro hokimiyati – bu uning organlarini, ya'ni normativ tartibda o'rnatilgan maqsad, vazifa, kompetensiya, tuzilma va boshqaruv personalini (davlat xizmatchilari)ga ega bo'lgan davlat boshqaruvi organlarini tashkil etish va ular funksiyalanishining tizimidir.

Ijro hokimiyati organlari – bu hokimiyat organlari tizimining bir qismi bo'lgan, qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni ijro etish va ijrosini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan tashkil etiladigan, boshqaruv harakatlarining maxsus shakl va uslublaridan foydalanib, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida boshqaruv funksiyalarini amalga oshiradigan, tegishli tuzilishga, kompetensiyaga, davlat-hokimiyat vakolatlariga va davlat xizmatchilari shtatlariga ega bo'lgan tashkilotdir.

Ijro hokimiyati organlarining tushunchasi hokimiyat bo'linishi prinsipidan kelib chiqadi, uning mazmuni esa – ijro hokimiyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ijro hokimiyati organlari – mazkur davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi asosiy sub'ekt bo'lib, uning ishtirokisiz davlat-boshqaruv faoliyatini ro'yobga chiqarish, ma'muriy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish mumkin emas. Bundan tashqari, ma'muriy huquq boshqa sub'ektlarining ma'muriy huquqiy holati, aynan mana shu davlat organlarining faoliyatida namoyon bo'ladi.

Ijro hokimiyati organi - ijro hokimiyati mexanizmi (tizimi)ning tarkibiy qismi bo'lib, ijro hokimiyati sohasida davlat ko'rsatmasiga ko'ra va davlat nomidan harakat qiladi; ijro etish va farmoyish berish xususiyatidagi faoliyatni amalga oshiradi; o'zining kompetensiyasiga ega; o'zining tuzilishiga ega; faoliyatning o'ziga xos bo'lgan shakllari va uslublarini qo'llaydi.

Ijro hokimiyati organlari – davlatning ijro hokimiyati amalga oshirilishini ta'minlaydi. Mazkur organlar mazmuni va uslublariga ko'ra, o'ziga xos bo'lgan davlat faoliyatini – *davlat boshqaruvini* amalga oshiradilar.

Ijro hokimiyati organlari o'zining *davlat-huquqiy tabiatiga ko'ra*, o'zini o'zi boshqarish organlaridan, *funksional ahamiyatiga ko'ra* esa, davlat hokimiyatining boshqa organlaridan, shuningdek, davlat korxon va muassasalaridan farqlanadi.

Ijro hokimiyati organlari davlatning normal funksiyalanishini ta'minlash maqsadida vakillik (qonunchilik) va sud organlari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu munosabatlar turli xildagi tashkiliy shakllarda namoyon bo'lishi mumkin (masalan, kelishuv komissiyalari yoki vakillik organlarining majlislarida ijro hokimiyati organi mansabdor shaxsining ma'lumotlarini tinglash).

Ijro hokimiyati organlari mustaqil organlar bo'lib, yuridik mazmuniga ko'ra, ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshirib, huquqiy aktlarni qabul qilish va ularni amalga oshirish bo'yicha davlat-hokimiyat vakolatlariga ega bo'ladilar. Ular keng doiradagi huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash va huquqni himoya qilish bo'yicha vakolatlarga ega bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ijro hokimiyati organlarining mustaqilligi, huquq bilan belgilangan doirada bo'ladi. Ularga nisbatan "*taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish mumkin*" degan qoida tatbiq etilmaydi.

Ijro hokimiyati organlari – huquqiy aktlar bilan belgilangan vakolat doirasida, ma'lum bir tartibda va o'rnatilgan huquqiy shakllarda harakat qilishlari mumkin.

Ijro hokimiyati organlari huquqiy holatining muhim xususiyatlaridan biri – bu ular faoliyatining qonunosti xususiyatiga ega ekanligidir. Ular o'z faoliyatlarida Konstitutsiya va qonunlarning talablariga qat'iy rioya qilishlari, bajarishlari va o'z vakolatlari doirasida ularning boshqalar tomonidan bajarilishiga ko'maklashishlari lozim.

Ijro hokimiyati organlarining o'ziga xos xususiyatlari:

1) ijro hokimiyati organi – qonunchilik va sud hokimiyati organlari singari *davlat apparatining alohida bo'g'ini hisoblanadi*. Ijro hokimiyati organlari davlat

nomidan uning siyosatini turli sohalarda – xo‘jalik, ijtimoiy-madaniy va ma‘muriy-siyosiy sohalarda amalga oshiradilar; ma‘lum bir hajmdagi davlat-hokimiyat vakolatlariga ega bo‘ladilar;

2) ijro hokimiyati organlariga beriladigan *davlat-hokimiyat vakolatlari* ularning huquqlarida o‘z ifodasini topadi hamda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

a) davlat nomidan majburiy bo‘lgan huquqiy aktlarni qabul qilish. Bunday aktlar – bevosita ularga bo‘ysinuvchi korxonalar va muassasalarga yoki quyi turuvchi ijro hokimiyati organlariga yoki kimga bo‘yinishi va qanday mulk shaklida bo‘lishidan qat‘i nazar, barcha korxonalar va muassasalarga yoki jamoat (nodavlat) tashkilotlariga yoxud keng shaxslar doirasiga (shu jumladan, fuqarolarga) majburiylik xususiyatiga ega;

b) huquqiy aktlar bilan o‘rnatilgan talablar va qoidalarga rioya etilishi ustidan kuzatuv (nazorat)ni amalga oshirish;

v) huquqiy aktlar talablarining bajarilishini ta‘minlash va ularni turli xildagi buzilishlardan davlatning ta‘sir choralari, masalan, ishontirish, tushuntirish, rag‘batlantirish yoki majburlov choralari qo‘llash orqali himoya qilish;

3) davlat-hokimiyat vakolatlari barcha davlat hokimiyati organlariga berilganligi sababli, unda ijro hokimiyati organlari vakolatining doirasini o‘rnatish, muhim ahamiyatga egadir.

Ijro hokimiyati organlari davlat-hokimiyat vakolatlaridan, faqatgina boshqaruv faoliyatida foydalanadi.

Ijro hokimiyati organlari – xo‘jalik, ijtimoiy-madaniy va ma‘muriy-siyosiy qurilishga rahbarlik qilish jarayonida qonunlar va qonunosti hujjatlarining ijro etilishini ta‘minlash maqsadida tashkil etiladi. Shu sababli, ularga tegishli bo‘lgan davlat-hokimiyat vakolatlari, ijro etish va farmoyish berish yoki davlat boshqaruv faoliyati amalga oshiriladigan sohalar doirasida bo‘ladi.

Qonunchilik hokimiyati organlari ham qonunlarni qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish orqali, mazkur sohalarda rahbarlikni amalga oshirishi mumkin. Sud hokimiyati organlari esa, ushbu sohalarda umuman rahbarlikni amalga oshirmaydi.

Demak, ijro hokimiyati organlarining funksional ahamiyati bo‘lib, ijrochilik hisoblanadi;

4) *ijro hokimiyati organlari o‘z faoliyatlarini qonun asosida va qonunlarni ijro etish maqsadida amalga oshiradi*, ya‘ni ularning faoliyati qonunosti xususiyatiga egadir. O‘zlarining faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida mazkur organlar qonun talablarini, shuningdek, davlat boshqaruvi sohasida o‘zlari tomonidan o‘rnatilgan talablar va qoidalarning bevosita amalga oshirilishini tashkil etadilar;

5) *respublika va mahalliy miqyosda harakat qiluvchi ijro hokimiyati organlari yagona davlat ma‘muriyati tizimini tashkil etadi*. Mazkur tizim doirasida har bir bo‘g‘in, ya‘ni aniq bir ijro hokimiyati organi operativ mustaqillikka ega bo‘ladi. Bu, unga tegishli bo‘lgan vakolatlarning hajmi va javobgarlik doirasi singari, mazkur organlarning kompetensiyasida ifodalangan. Ijro hokimiyati organlarining kompetensiyasi Konstitutsiyada, joriy qonunlarda hamda boshqa normativ hujjatlarda o‘z ifodasini topadi;

6) ijro hokimiyati organlari korxonalar va muassasalar singari, *fuqarolarning ma‘lum bir jamoasi bo‘lib*, ma‘muriy-boshqaruv personalini (xodimlari)dan yoki davlat xizmatchilaridan iborat. Lekin bunday jamoaning maqsadi korxonalar va muassasaning maqsadlaridan farq qiladi; ikkinchidan esa, ijro hokimiyati organini tashkil etuvchi mazkur jamoa doirasida ma‘lum bir tashkiliy-huquqiy aloqalar vujudga keladi, funksional majburiyat va huquqlar taqsimlanadi, shuningdek, yuklatilgan ish bo‘yicha javobgarlik belgilanadi. Bu – davlat-xizmat munosabatlari bo‘lib, mazkur organning xodimlari – davlat xizmatchilari hisoblanadi;

7) ijro hokimiyati organlari – *tashkiliy tuzilishga, ya‘ni bo‘ysinuvchi tuzilmaviy bo‘linmalarni tashkil etishni nazarda tutuvchi ichki qurilishga ega bo‘lgan davlat organidir*;

8) har bir ijro hokimiyati organi – *davlat boshqaruvi faoliyatining ma‘lum bir hududiy yoki predmetli doirasiga ega*. Ijro hokimiyati organlarining faoliyati ma‘lum bir hududlarda, masalan, butun davlat yoki ma‘lum bir ma‘muriy-hududiy birliklar doirasida amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, ijro hokimiyati

organlari umumiy yoki maxsus ahamiyatga ega bo'lgan (predmetli) boshqaruv funksiyalarini, masalan, tartibga solish, ruxsat berish, nazorat va farmoyish berish kabi funksiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Demak, ijro hokimiyati organi – bu hokimiyat bo'linishi prinsipiga asoslanib, davlat tomonidan jamiyatning xo'jalik, ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy hayotining turli sohalarida ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshirish yuklatilgan hamda ma'lum bir davlat-hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan davlat hokimiyati mexanizmining bo'g'ini hisoblanadi.

Ijro hokimiyati organlari tizimini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari. Ijro hokimiyati organlari tizimi deganda – ijro hokimiyati organlarining yig'indisi va ular o'rtasida kompetensiyani taqsimlash asosida o'zaro munosabatlarining tizimi tushuniladi. Tizimlilik - ijro hokimiyatini tashkil etuvchi hamda uni amalga oshiruvchi sub'ektlar o'rtasida – *faoliyat olib borish predmeti va vakolatlarning taqsimlanishini* belgilab beradi.

Yuridik adabiyotlarda, ijro hokimiyati organlari tizimini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari turlicha ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va joriy qonunlari bilan o'rnatilgan tartibdan kelib chiqqan holda, hamda huquqshunos olimlarning ijro hokimiyati tizimini tashkil etish va ular faoliyatining prinsiplari bo'yicha bildirgan qarashlarini e'tiborga olib, ***O'zbekiston Respublikasi ijro hokimiyati organlarini tashkil etish va ular faoliyatining quyidagi asosiy prinsiplarini*** ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

1) *ijro hokimiyati organlari tizimini tashkil etilishining O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishiga mos kelishi prinsipi.* Mazkur prinsip – konstitutsiyaviy, keng qamrovli qoida bo'lib, nafaqat ijro hokimiyatining, balki O'zbekiston davlati tashkiliy-huquqiy tuzilishining xususiyatini belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi – suveren demokratik respublikadir. O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat. Demak, O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishiga

unitarlik xususiyati xos bo'lib, aynan shu asosda ijro hokimiyati organlari tizimi tashkil etiladi. (Lekin unitarlik so'zini asl ma'nosida tushunish kerak emas. Chunki, O'zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi ham mavjud. O'zbekiston Respublikasi davlat tuzilishi aralash shaklga ega, ya'ni unitarlik va federativ davlat tuzilishlarining xususiyatlarini o'z ichiga olgandir.);

2) *ijro hokimiyati organlarining fuqarolar oldida mas'ulligi prinsipi.* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasiga binoan, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar. Konstitutsiyaning 14-moddasiga binoan esa, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi;

3) *ijro hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etishda va amalga oshirishda qonuniylik prinsipi* Mazkur prinsip nafaqat ijro hokimiyati organlariga, balki barcha shaxslarga taalluqlidir. Qonuniylik prinsipi – konstitutsiyaviy asosga ega bo'lib, unga amal qilish shartdir. Ijro hokimiyati organlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari asosida tashkil etilishi, shuningdek, o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari mumkin.

4) *ijro hokimiyati organlari faoliyatida markazlashganlik va markazlashmaganlikning mavjud bo'lishi prinsipi..* Markazlashganlik ijro hokimiyati organlari tizimining yagonaligidan kelib chiqadi. Markazlashtirganlik - quyi turuvchi organlarning yuqori turuvchi organlarga bo'ysinishi, yuqori turuvchi organlar normativ hujjatlarining quyi organlar uchun majburiyligida, ayrim hollarda yagona predmet va vakolatlarni doirasida birgalikda faoliyatni amalga oshirishda yaqqol namoyon bo'ladi. *Markazlashmaganlik* esa, qonunchilik aktlari bilan ma'lum bir ijro hokimiyati organi zimmasiga faoliyat predmeti va vakolatlarning yuklatilishi bo'lib, tashqaridan (yuqori turuvchi organning) aralashuvisiz mustaqil amalga oshirishdir. Bunda vertikallik bo'yicha faoliyat predmeti va vakolatlarning taqsimlanishi, mavjud bo'lmaydi;

5) *ijro hokimiyati sohasida funksiyalar va vakolatlarning taqsimlanganligi prinsipi.* Ushbu prinsip ijro hokimiyati organlari faoliyatining predmeti va

vakolatlar doirasining tizimga kiruvchi organlar o'rtasida taqsimlanishini belgilab beradi. Har bir ijro hokimiyati organi aniq faoliyat va vakolatlar doirasiga ega bo'ladi, undan tashqariga chiqishga yo'l qo'yilmaydi.

6) *ijro hokimiyati organlari faoliyatining kollegiallik va yakkaboshchilik asosida tashkil etilishi prinsipi*. Mazkur prinsip ijro hokimiyati organlarini tashkil etishda va ular faoliyatini amalga oshirishda, davlat boshqaruv faoliyatining muhim masalalarini hal etishda jamoa fikrining hisobga olinishini ta'minlaydi. Shu maqsadda, ijro hokimiyati organlari tizimida turli xildagi maslahat, muvofiqlashtiruvchi kengash va hay'atlar tashkil etiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida deyarli barcha vazirliklar va davlat qo'mitalari tizimida Kengash va Hay'atlar faoliyat ko'rsatadi. Shu bilan birga ijro hokimiyati organlari faoliyatida yakkaboshchilik ham mavjuddir. Yakkaboshchilik - ijro etish va farmoyish berish faoliyatini amalga oshirishda, shuningdek, tegishli boshqaruv tartibini o'rnatishda zarur bo'lgan intizomni ta'minlashga xizmat qiladi. Kollegiallik – boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalidir, yakkaboshchilik esa – davlat-boshqaruv faoliyatining ajralmas belgisidir.

Ijro hokimiyati organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplariga *xalq hokimiyatchiligi, oshkoralik, insonlar va fuqarolar huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, javobgarlik* kabi prinsiplarni ham kiritishimiz mumkin.

Ijro hokimiyati organlarining tasnifi. Ijro hokimiyati organlarining turli darajalarda tashkil etilishi sababli va faoliyatining keng qamrovli xususiyatga ega ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ularni bir necha asoslarga qarab guruhlariga ajratish, ya'ni tasniflash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga asoslanib, ijro hokimiyati organlarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1) ***faoliyatining hududiy doirasiga ko'ra*** ijro hokimiyati organlari uch guruhga bo'linadi: a) *oliy ijro hokimiyati organi* (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi); b) *markaziy ijro hokimiyati organlari* (bunga respublika miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi vazirliklar, davlat qo'mitalari, korporatsiya, assotsiatsiya, kompaniya va boshqalar); v) *mahalliy ijro hokimiyati organlari*

(markaziy ijro hokimiyati organlarining boshqarma va bo'limlarini, hokim boshchilik qiladigan ijroiya apparatni kiritish mumkin);

2) ***tashkil etish asoslariga ko'ra*** ijro hokimiyati organlari quyidagilarga bo'linadi: a) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida tashkil etiladigan organlar (masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi); b) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida tashkil etiladigan organlar (masalan, vazirliklar, davlat qo'mitalari).

3) ***ijro hokimiyati organlari vakolatlarining hajmi va xususiyatiga ko'ra***, ular quyidagilarga bo'linishi mumkin:

a) *umumiy vakolatli davlat organlari*. Bu guruh davlat organlariga - O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi va hokimlarni kiritish mumkin. Bu davlat organlari, vakolat doirasida, barcha sohalarga taalluqli bo'lgan qarorlarni qabul qilishlari mumkin. Masalan, amaldagi qonunchilikda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqarishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, uning vakolati mana shu sohalar doirasida amalga oshiriladi;

b) *sohaviy vakolatga ega bo'lgan davlat organlari*. Bu davlat organlarini ikki guruhga bo'lish mumkin: birinchidan, *bir soha bo'yicha vakolatli davlat organlari* - bu organlar o'z faoliyatini aniq bir soha bo'yicha amalga oshiradi; ikkinchidan, *sohalararo vakolatli davlat organlari* - bu organlar bir necha sohalar bo'yicha harakat qilish vakolatiga ega bo'ladi.

Ko'pgina yuridik adabiyotlarda, bir soha bo'yicha harakat qiluvchi davlat organlariga – vazirliklar, sohalararo vakolatli davlat organlariga – davlat qo'mitalari kiritilgan.

Lekin hozirgi sharoitda vazirliklarning - sohalararo harakatini, davlat qo'mitalarining esa – bir soha bo'yicha harakatlanishini kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, yuridik adabiyotlarda *maxsus vakolatga ega bo'lgan davlat organlari* ham, ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidan kelib chiqadigan bo'lsak, ijro hokimiyati organlari vakolatining xususiyatiga ko'ra, ularni maxsus vakolatli

organlarga bo'lish mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ko'pgina davlat organlari (inspeksiyalar va boshqa davlat idorlari) maxsus vakolatlarga egadir;

4) ijro hokimiyati organlari **tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra** quyidagilarga bo'linadi: a) *Hukumat* (Vazirlar Mahkamasi); b) *vazirliklar*; v) *davlat qo'mitalari*; g) *agentliklar*; d) *qo'mitalar*; e) *komissiyalar*; j) *markazlar*; z) *davlat aksionerlik kompaniyalari*; i) *davlat uyushmalari*; k) *davlat konsernlari*; l) *davlat korporatsiyalari*; m) *davlat assotsiatsiyalari*; n) *departamentlar*; o) *inspeksiyalar* va boshqalar;

5) **ijro hokimiyati organlarida rahbarlikni amalga oshirish shakliga ko'ra** ular quyidagilarga bo'linadi: a) *yakkaboshchilikka asoslangan organlar*; b) *kollegial organlar*; v) *yakkaboshchilik va kollegial rahbarlik uygunlashgan (ya'ni aralash shakldagi) organlar*.

O'zbekiston Respublikasida aksariyat ijro hokimiyati organlarida yakkaboshchilik bilan kollegial rahbarlikning uygunlashganligini ko'rish mumkin;

6) **mablag' bilan ta'minlanishiga ko'ra** ijro hokimiyati organlari ikkiga bo'linadi:

a) *davlat va mahalliy byudjet mablag'laridan moliyalashtiriladigan organlar*. Mazkur davlat organlari ishlab chiqarish yoki moddiy boyliklarning muomalasi bilan bevosita bog'liq bo'lmay, mulkiy mustaqillikka ega emas; ularning majburiyatlari uchun davlat javobgardir;

b) *xo'jalik hisobidagi organlar*. Ushbu davlat organlari mulkiy mustaqillikka ega bo'lib, asosiy va muomala vositalariga ega; o'z majburiyatlari bo'yicha o'zlarining mulki bilan bevosita javobgar bo'ladilar; ularning faoliyati moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, pulli xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liqdir.

Oxirgi vaqtlarda ijro hokimiyati organlarini mablag' bilan ta'minlashning *aralash shakli* ham namoyon bo'lmoqda. Bu guruhga kiruvchi davlat organlari harajatlarning ma'lum bir qismi byudjetdan, ma'lum bir qismi esa xo'jalik yuritishdan qoplanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XX bob 98-moddasida va 2003 yil 29 avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi qonuniga binoan, ***O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi*** – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o‘zi tashkil etadigan xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgardir.

Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida: kollegiallik; demokratiya va qonuniylik; O‘zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatlarini hisobga olish prinsiplariga asoslanadi.

Vazirlar Mahkamasi tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislari kiradilar. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘i o‘z lavozimi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi tarkibiga kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi hamda uni vazifasidan ozod qiladi.

Vazirlar Mahkamasining a‘zolarini Bosh vazir taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tasdiqlaydi va vazifasidan ozod qiladi.

Vazirlar Mahkamasi yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida o‘z vakolatlarini zimmasidan soqit qiladi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlari ishini muvofiqlashtirib hamda yo‘naltirib boradi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda davlat boshqaruvining boshqa organlari haqidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobidan ta‘minlanadigan davlat boshqaruvi boshqa organlarining markaziy devoni xodimlari sonini va ular ta‘minotiga ajratiladigan mablag‘lar miqdorini belgilaydi.

Vazirlarning o‘rinbosarlari, davlat qo‘mitalari raislarining o‘rinbosarlari hamda davlat boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari va ularning o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tashkil etiladigan xo‘jalik boshqaruvi organlarining rahbarlarini hamda ularning boshqaruvlarining a‘zolarini, shuningdek, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hay‘atlarining a‘zolarini tasdiqlaydi.

Vazirlar Mahkamasi zarurat bo‘lganda o‘z vakolatiga kiruvchi davlat boshqaruvining ayrim masalalarini hal etishni, agar bu masalalarning hal etilishi qonun hujjatlarida O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining mutlaq vakolatlariga kiritilgan bo‘lmasa, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va o‘z bo‘ysinuvidagi davlat boshqaruvi boshqa organlariga berishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va davlat boshqaruvi boshqa organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvi boshqa organlarining hujjatlari amaldagi qonun hujjatlariga zid bo‘lgan hollarda ularni bekor qilish huquqiga ega.

Yangi shakllantirilgan Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko‘rib chiqish uchun o‘z vakolatlari davridagi faoliyati dasturini taqdim etadi.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining asosiy ko‘rsatkichlarini va unga kiritiladigan o‘zgartishlarni ishlab chiqadi hamda ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ko‘rib chiqishi uchun taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari Vazirlar Mahkamasi muayyan a‘zosining o‘zi rahbarlik qilayotgan davlat yoki xo‘jalik boshqaruvi organi faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitishlari hamda zarur bo‘lganda uni iste’foga chiqarish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ko‘rib chiqishi uchun taklif kiritishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining a‘zolari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari majlislarida, palatalarning qo‘mitalari majlislarida hozir bo‘lish va axborot berishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zolari tomonidan Vazirlar Mahkamasi yoki uning muayyan a‘zolari faoliyatiga taalluqli masalalar qo‘yilgan taqdirda, Bosh vazir shu masalalar yuzasidan zarur tushuntirishlar olish va tushuntirishlar berishga haqli.

Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qo‘mitalarining O‘zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyati masalalariga doir tavsiyalari va takliflarini ko‘rib chiqadi hamda ular yuzasidan chora-tadbirlar ko‘radi. Tavsiyalar va takliflarni ko‘rib chiqish natijalari haqida hamda ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tegishli qo‘mitalariga kelishilgan muddatda ma’lum qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidan, Qonunchilik palatasi deputatidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatidan, Senat a‘zosidan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining yoki unga

bo'ysinuvchi davlat yoxud xo'jalik boshqaruvi organlarining faoliyatiga doir parlament so'rovi olgan Vazirlar Mahkamasi yoxud O'zbekiston Respublikasi Hukumati a'zosi qonun bilan belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tegishli palatalarining majlislarida og'zaki yoki yozma javob berishi shart.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi va qonun hujjatlariga muvofiq ularga zarur ko'mak ko'rsatadi.

Davlat boshqaruvining, xo'jalik va ijtimoiy-madaniy qurilishning eng muhim masalalari Vazirlar Mahkamasining majlislarida hal etiladi. Vazirlar Mahkamasining majlislari yilning har choragida kamida bir marta o'tkaziladi. Vazirlar Mahkamasining majlislarini Bosh vazir o'tkazadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Vazirlar Mahkamasining majlislarida raislik qilishga haqli.

Bosh vazir va uning o'rinbosarlaridan iborat tarkibdagi **Vazirlar Mahkamasining Rayosati** Vazirlar Mahkamasining doimiy organi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bosh vazirning qaroriga binoan Vazirlar Mahkamasi Rayosatining tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Hukumatining boshqa a'zolari ham kiritilishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasi *doimiy komissiyalar* tuzadi va ularning vazifalari, vakolatlari hamda faoliyat tartibini belgilaydi.

Davlat va xo'jalik boshqaruvining ayrim masalalari bo'yicha takliflar tayyorlash, Vazirlar Mahkamasining qarorlari loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ayrim topshiriqlarini bajarish uchun Vazirlar Mahkamasining *muvaqqat komissiyalari va boshqa ishchi organlari* tuzilishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar hamda farmoyishlar qabul qiladi.

Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi yoki o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatlari **Vazirlar Mahkamasining qarorlari** shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo‘yicha qarorlari **Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari** shaklida qabul qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari Bosh vazir tomonidan imzolanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini hamda Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli.

Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

Vazirlar Mahkamasi o‘zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishi ustidan bevosita yoki vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlari orqali nazoratni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining normativ tusdagi qarorlari O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plamida e‘lon qilinadi, keng ommaga darhol etkazish zarur bo‘lgan taqdirda esa ommaviy axborot vositalari orqali ma‘lum qilinadi.

Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislariga tayyorgarlik ko‘rish, tegishli qarorlar loyihalarini, tahliliy, axborot va boshqa materiallarni tayyorlash, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining bajarilishini muntazam ravishda tekshirib borish uchun **Vazirlar Mahkamasining devoni** faoliyat ko‘rsatadi.

Vazirlar Mahkamasining devoni va uning tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining devoni asosiy tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda Bosh vazir tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda boshqa davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 8-bandiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi; respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta‘minlaydi; vazirliklar, davlat qo‘mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tasdig‘iga kiritadi.

Har bir davlatda, uning vazifalari va funksiyalarini amalga oshirilishini tashkil etilishiga qarab, vazirliklar va davlat qo‘mitalarining turlari belgilanadi.

Vazirlik - ijro hokimiyati tizimining asosiy organlaridan biri hisoblanadi. Vazirliklar belgilangan sohada davlat siyosatini va boshqaruvini amalga oshirish, shuningdek, mazkur sohadagi ijro etuvchi organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etiladi. Demak, vazirlikning ma‘muriy-huquqiy maqomi ikki asosiy holat bilan belgilanadi: *birinchidan*, vazirlik sohaviy organ sifatida faoliyat ko‘rsatadi; *ikkinchidan*, muvofiqlashtiruvchi davlat organi sifatida harakat qiladi.

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish lozimki, ba‘zi vazirliklar azaldan mavjud (masalan, ichki ishlar, mudofaa, ta‘lim, madaniyat, moliya, adliya va boshqalar), boshqalari esa ma‘lum bir holatlardan yoki davlat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil topadi (masalan, favqulodda vaziyatlar vazirligi).

Vazirliklar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysinadi. Vazirliklarning ba‘zi birlari esa, bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo‘ysindirilgan (masalan, ichki ishlar, mudofaa vazirligi).

Vazirlik o‘z faoliyatida – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, Oliy Majlisning qarorlari va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek, o‘zining Nizomiga amal qiladi.

Nizom – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatiga olinadi. Nizomda – ularning huquqiy maqomi, faoliyatining asosiy yo‘nalishlari, vazifalari, funksiyalari, tashkiliy asoslari va boshqa umumiy masalalar belgilab beriladi.

Vazirlik o‘z ishini davlat boshqaruvining boshqa organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Vazirlikning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari – vazirliklar, idoralar, joylardagi hokimiyat va boshqaruv organlari, xo‘jalik birlashmalari, korxonalar va muassasalar, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Vazirlik yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob raqamlariga va boshqa hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga, shuningdek, tegishli muhrlar va shtamplarga ega bo‘ladi.

Vazirlikka O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan, keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadigan *Vazir* boshchilik qiladi. Vazir Vazirlikka yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

Vazir: a) vazirlik, uning tasarrufidagi muassasalar, tashkilotlar va o‘quv yurtlari faoliyatiga rahbarlik qiladi; b) o‘z vakolatlari doirasida tasarrufidagi barcha tashkilotlar va muassasalar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi, ko‘rsatmalar va topshiriqlar beradi; v) vazirlik vakolatiga tegishli masalalar bo‘yicha normativ hujjatlar loyihalarini ko‘rib chiqish uchun belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritadi; g) vazir o‘rinbosarlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi; d) vazir o‘rinbosarlari, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining, shuningdek, tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar rahbarlarining ular zimmasiga yuklangan vazifalar bajarilishi uchun mas’uliyati darajasini belgilaydi;

e) Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida vazirlik markaziy apparatining shtat jadvalini, hududiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlarni, tasarrufidagi muassasalar, tashkilotlar va korxonalarining nizomlari va ustavlarini tasdiqlaydi; j) vazirlik markaziy apparati xodimlarini va vazirlikka bevosita bo'ysinuvchi muassasalar, tashkilotlar va korxonalarining rahbarlarini, hududiy bo'linmalar rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod etadi; z) vazirlik markaziy apparati xodimlarini moddiy rag'batlantirish shart-sharoitlarini belgilaydi; i) alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarni belgilangan tartibda davlat faxriy unvonlari, yorliqlar va mukofotlar berishga taqim etadi; k) qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'ladi.

Vazirlikda - Vazir hay'at raisi, lavozimiga ko'ra vazir o'rinbosarlaridan, shuningdek, vazirlik va uning tizimining boshqa rahbar xodimlaridan iborat tarkibda *hay'at* tashkil etiladi. Hay'at a'zolari, Vazir va uning o'rinbosarlaridan tashqari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Hay'at tasarrufidagi tashkilotlar, muassasalar va korxonalarining faoliyatini takomillashtirish, kadrlarni tanlash va ularni joy-joyiga qo'yish, muhim hujjatlar loyihalarini tayyorlash, qabul qilingan qarorlar ijrosini tekshirishning muhim masalalarini ko'rib chiqadi, tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi. Hay'at qarorlari Vazirning buyruqlari bilan amalga oshiriladi. Vazir bilan hay'at a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'lgan taqdirda Vazir kelib chiqqan kelishmovchiliklar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga axborot bergan holda mustaqil ravishda qaror qabul qiladi. Hay'at a'zolari ham o'z fikrini Vazirlar Mahkamasiga ma'lum qilishlari mumkin.

Vazirliklar zarur hollarda hamda o'z oldida turgan vazifalarni bajarilishini ta'minlash maqsadida qo'shma normativ-huquqiy aktlarni ham chiqarishlari mumkin.

Vazirlikda ilmiy-texnik muammolarni ko'rib chiqish va asoslantirilgan qarorlarni qabul qilish maqsadida ilmiy-texnik, maslahat kengashlari, ekspertizalar

va turli xildagi komissiyalar tashkil qilinishi mumkin. Ular to'g'risidagi nizomlar vazir tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirliklar - bosh boshqarma, boshqarma, departament, bo'lim va boshqa xildagi hududiy bo'linmalardan (tuzilmalardan) tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Davlat qo'mitasi - ijro hokimiyatining markaziy organlaridan biri bo'lib, kollegiallik asosida tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, shuningdek, faoliyatning ma'lum bir sohasida tartibga solish vazifasini bajaradi.

Davlat qo'mitalarining vazirliklardan farqi shundaki, birinchidan, ular kollegial organlar toifasiga kiradi; ikkinchidan, ular tarmoqlararo muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi.

Davlat qo'mitalari vazirliklar singari ularga yuklatilgan sohalarda muvofiqlashtirish va umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Shu jihatidan bu ikkala davlat organi bir-biriga o'xshab ketadi, ya'ni ularni yaqinlashtiradi. Amaliyotda vazirlikning davlat qo'mitasiga, va aksincha, davlat qo'mitasining vazirlikka aylantirish holatlari uchrab turadi. Lekin ularning farqini ma'muriy-huquqiy maqomini aniqlash orqali belgilash mumkin.

Davlat qo'mitalari, vazirliklar singari, o'z faoliyatlarida – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, Oliy Majlisning qarorlari va boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek, o'zining Nizomiga amal qiladi.

Davlat qo'mitalarining nizomlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yoki Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatiga olinadi.

Davlat qo'mitalari nizomida – ularning huquqiy maqomi, faoliyatining asosiy yo'nalishlari, vazifalari, funksiyalari, tashkiliy asoslari va boshqa umumiy masalalar belgilab beriladi.

Davlat qo‘mitalari o‘z ishini davlat boshqaruvining boshqa organlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlari hamda jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Davlat qo‘mitalarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari – vazirliklar, idoralar, joylardagi hokimiyat va boshqaruv organlari, xo‘jalik birlashmalari, korxonalar va muassasalar, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Davlat qo‘mitalari – yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob raqamlariga va boshqa hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi yozilgan muhrga, shuningdek, tegishli muhrlar va shtamlarga ega bo‘ladi.

Davlat qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan, keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadigan *Rais* tomonidan boshqariladi.

Davlat qo‘mitasida Rais (rais) va lavozimi bo‘yicha rais o‘rinbosarlaridan, shuningdek, davlat qo‘mitasining boshqa a‘zolaridan iborat tarkibda hay‘at (kengash) tashkil etiladi. Qo‘mita hay‘ati (kengashi) tarkibi Raisning taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maqkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Hay‘at (kengash) majlislarida davlat qo‘mitasi faoliyatining asosiy masalalari ko‘rib chiqiladi hamda tegishli bayonnomalar va qarorlar qabul qilinadi.

Davlat qo‘mitasida turli mutaxassislardan iborat ilmiy-texnik kengashlar, davlat ekspertizasi kengashlari va turli xildagi maslahat kengashlari tashkil qilinishi mumkin.

Jamiyat hayotining barcha tomonlarini erkinlashtirish va isloh qilishning hozirgi bosqichi talablariga muvofiq iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, davlat tuzilmalarining hokimiyat vakolatlarini qisqartirish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi vazifalarini aniq chegaralab qo‘yish, shuningdek, respublika davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2003 yil 9 dekabrda “Respublika

davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga binoan, *respublika davlat boshqaruvi organlariga* – vazirliklar, davlat qo‘mitalari, qo‘mitalar, agentliklar, shuningdek, ular huzurida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan davlat boshqaruvi tuzilmalari kiradi.

Mazkur Farmonga binoan, *respublika davlat boshqaruvi organlarining asosiy vazifalari va funksiyalari* quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar amalda ro‘yobga chiqarilishini, ularning ijrosi ustidan ta’sirchan nazorat amalga oshirilishini ta’minlash;
- tashqi va ichki siyosatni amalga oshirish, davlatning tashqi va ichki xavfsizligini ta’minlash;
- mamlakatni strategik rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishni tashkil qilish, iqtisodiy islohotlarni ro‘yobga chiqarish borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini, aholining ta’lim, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta’minotga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash va himoya qilish, mehnat bozorini tartibga solish, ijtimoiy sohada umumdavlat boshqaruv tizimi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish;
- tegishli huquqiy muhitni yaratish, litsenziyalash, sertifikatlashtirish va standartlashtirish orqali xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish;
- soliqlar, bojxona to‘lovlarini yig‘ish, davlat daromadlarini taqsimlash yo‘li bilan xazinaga oid vazifalarni amalga oshirish.

Bozor islohotlarining hozirgi bosqich talablariga binoan, iqtisodiyotni boshqarishni yanada erkinlashtirish, ma’muriy islohotlarni chuqurlashtirish, korporativ boshqaruvi norma va prinsiplarini keng joriy etish, xo‘jalik birlashmalarini unifikatsiyalash va ular faoliyatini tashkil qilish samaradorligini

o'shish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2003 yil 22 dekabrda "Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmonga binoan, *xo'jalik boshqaruvi organlari* bo'lib, tarkibiga kiruvchi korxonalarining xo'jalik birlashmasiga tegishli bo'lgan aksiya paketlari orqali ana shu korxonalarining xo'jalik boshqaruvini amalga oshiruvchi aksiyadorlik kompaniyalari, shu jumladan davlat-aksiyadorlik kompaniyalari; muassis-korxonalar tomonidan ular faoliyatiga ko'maklashish uchun muassis-korxonalarining aksiyalari paketlarini boshqarish huquqisiz ayrim umumiy vazifalarni ularga topshirish yo'li bilan ixtiyoriylik asosida tashkil qilinadigan uyushmalar hisoblanadi.

Xo'jalik birlashmalarining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

- tarmoq va iqtisodiyot sohasini barqaror rivojlantirishning istiqbolli strategiyasini belgilash;
- marketing tadqiqotlarini tashkil etish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqarishni (ishlar, xizmatlarni) o'zlashtirish, ularning jahon bozorlariga kirib borishiga ko'maklashish;
- korxonalarini modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta qurollantirish, ushbu maqsadlarga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishda yordam berish;
- ular tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarga axborot xizmatlari ko'rsatish;
- kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish.

Mazkur Farmonga ko'ra davlat boshqaruvi, shu jumladan taqsimlash vazifalari, shuningdek, ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatiga ma'muriy aralashuv – xo'jalik boshqaruvi organlarining vakolatiga kirmaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari. Oldingi paragraflarda O'zbekiston Respublikasining tanlagan taraqqiyot yo'liga qisqacha to'xtalib o'tgan edik. O'tish davrida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda kuchli ijroiya hokimiyati zarur. Hayot taqozosiga ko'ra tarixiy sinalgan

an'analarga asoslanib, O'zbekiston Respublikasida *hokimlik instituti* vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan 1991 yil 18 noyabrda Toshkent shahrida hokimlik lavozimining tashkil etilishi, bu boradagi birinchi qadam bo'ldi.

1992 yil 4 yanvarda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyati idoralarini qayta tashkil etish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Bunda bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos shartlari e'tiborga olinib, avvalo ijroiya hokimiyatini mustahkamlash nazarda tutilgan edi.

Mahalliy davlat hokimiyatini isloh qilishda – davlat qurilishi borasida tarixan shakllangan milliy, an'anaviy tajribalardan, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribalaridan muvaffaqiyatli foydalanildi.

Toshkent shahrida, barcha viloyat, tuman va shaharlarda hokimlik lavozimi joriy etildi hamda ular zimmasiga vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqarish mas'uliyati yuklatildi.

1992 yil aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham, hokimlik lavozimini joriy etish borasida qonun qabul qilindi.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham hokimlik instituti mustahkamlab qo'yildi.

1993 yil 2 sentyabrda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Qonun va qabul qilingan boshqa normativ hujjatlar hokimlik institutini amalda qo'llash uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Qisqa muddat ichida hokimlar amaliy ishlari bilan o'zlarini, bir tomondan umumdavlat, ikkinchi tomondan mahalliy manfaatlarni ifoda etuvchi, shuningdek, mamlakatda tinchlik va barqarorlik kafolati sifatida namoyon bo'ldi.

Mahalliy hokimiyat organlari deganda – viloyat, tuman, shahar hokimlari boshchilik qiladigan ijroiya apparati va vakillik organlari (viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari) tushuniladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy maqomi – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXI bobi 99-104-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunida nazarda tutilgan. Unga ko‘ra, ***mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga quyidagilar kiradi:***

- qonuniylikni, huquqiy-tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta‘minlash;
- hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig‘imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg‘armalarni hosil qilish;
- mahalliy kommunal xo‘jalikka rahbarlik qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta‘minlash;
- normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari – O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradilar, respublika va mahalliy ahamiyatga molik masalalarni muhokama qilishda qatnashadilar.

Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning vakolat muddati - 5 yil.

Viloyat hokimlari va Toshkent shahri hokimi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tuman va shaharlarning hokimlari tegishli viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Shaharlardagi tumanlarning hokimlari tegishli shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Tumanlarga bo'ysinadigan shaharlarning hokimlari tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashadilar, o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadilar.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi berilgan vakolatlari doirasida umum manfaatni ifodalovchi tadbirlar o'tkazish, qo'shimcha korxonalar, xo'jalik tashkilotlari tuzish uchun, turli tarmoqlar va boshqaruv sohaslarida faoliyatlarni uygunlashtirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasining, O'zbekiston Respublikasi boshqa viloyatlari, shaharlari va tumanlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan shartnomalar asosida o'zaro munosabatlar o'rnatishga haqlidirlar.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi *qarorlar* qabul qiladi.

Viloyat, tuman, shahar hokimi *qarorlar* qabul qiladi va *farmoyishlar* chiqaradi.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan hamda chiqargan hujjatlar imzolangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi, basharti ana shu hujjatlarda o'zga tartib belgilanmagan bo'lsa.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar viloyat, tuman, shahar hududida joylashgan barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyatining iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiluvchi boshqa mulk tashkil etadi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi mutloq O'zbekiston Respublikasi mulkida bo'lgan davlat mulki ob'ektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlarni samarali joylashtirish,

tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiradilar.

Viloyat, tuman, shahar ijroiya hokimiyatiga hokim boshchilik qiladi. Hokim O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorda birinchi o'rinbosar va o'rinbosarlarga ega bo'ladi.

Viloyat va Toshkent shahar hokimining birinchi o'rinbosari hamda o'rinbosarlari hokim tomonidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tegishli xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi. Tuman, shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi, bu xususda qabul qilingan qaror tuman, shahar xalq deputatlari Kengashining tasdig'iga kiritiladi.

Shahardagi tuman, tumanga bo'ysinuvchi shahar hokimining o'rinbosarlari tegishli hokim tomonidan yuqori turuvchi hokim bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Hokimning o'rinbosarlari hokim tomonidan belgilangan vazifalar taqsimotiga muvofiq ish bajaradilar. Hokim yo'qligida yoki u zimmasidagi vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan taqdirda uning vakolatlarini birinchi o'rinbosar yoki hokimning topshirig'iga binoan uning o'rinbosarlaridan biri bajaradi.

Hokim, uning o'rinbosarlari, hokimlikning boshqa xodimlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mansabdor shaxslari boshqa haq to'lanadigan lavozimni egallashlari mumkin emas.

Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari (hokimliklar) boshqarmalar, bo'limlar va boshqa bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning strukturasi, ularni tashkil etish tartibi va faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi.

Hokim rejalashtirish, byudjet, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish, mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar

va tashkilotlar bilan hamjihatlik qilish, qishloq xo‘jaligi, er va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, transport, yo‘l xo‘jaligi va aloqa, aholiga kommunal, savdo va ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida qonun hujjatlarida o‘z vakolatiga berilgan boshqa masalalarni ham hal etadi.

1.5. “Boshqarish”, “Boshqarish tizimlari”, “Ilmiy boshqarish”, “Boshqarish usullari”, “Aqli boshqarish” tushunchalarining umumiy ta’rifi.

“Boshqarish” atamasi barcha sohaga tegishli bo‘lgan umumiy ma’nodagi so‘z bo‘lib, u bevosita faoliyatlarga rahbarlik qilishni anglatadi. Jismoniy tarbiya va sport harakatida “boshqarish” muhim ahamiyat kasb etuvchi faoliyatni ifodalab, sport tashkilotlari, sport klublari, jamoalar orasida musobaqalar, yig‘in-anjumanlarni o‘tkazishga, yo‘lboshchilik qilish ma’nosida ishlatiladigan atamadir.

Boshqarish tizimlari o‘z navbatida jismoniy tarbiya va sport harakatining sertarmoqligini bildiradi. Masalan, o‘quv yurtlari, ishlab chiqarish mehnat jamoalari, muassasalar, sport inshootlari va hokazo. Ular, o‘z navbatida, yana bir qator tizimlardan tarkib topgandir. Ya’ni, o‘quv yurtlari tizimiga: umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlari kiradi.

Ilmiy boshqarish tushunchasiga, eng avvalo, ilmiy tadqiqotlar, ilg‘or tajribalarning natijalarini qo‘llash kiradi. Jamoalarni boshqarishda qo‘llaniladigan sinov-tajriba, jarayonlar monitoringi ishlarni ilmiy ravishda boshqarish asoslaridir.

Boshqarish usullari - bu jismoniy tarbiya va sport harakatida ko‘p qo‘llaniladigan va mazmun hamda shakl jihatdan bir-biridan farq qiluvchi faoliyatlardir. Chunki barcha soha yoki jamoalarda birdek ish tutish mumkin emas. Masalan, sport inshootlari va murabbiylarga yaratilgan imkoniyatlar bir xil bo‘lgan futbol jamoalarining ish faoliyatida o‘xshashlik, talablar yagonadek ko‘rinsa-da, ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Shuning uchun o‘yinlardagi natijalar va jadvallardagi o‘rinlar ham har xil bo‘ladi. Shu sababdan sport tashkilotlari va jamoalarida eng ilg‘or, samarali usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro aloqalari jahon sporti faoliyatida keng qo‘llanib kelinayotgan ba’zi bir yangiliklarni vujudga keltirdi. Bu, o‘z navbatida, menejment, marketing, tadbirkorlik kabi tushunchalarni keltirib chiqardi va ular amaliy faoliyatga tobora chuqur singib bormoqda.

Bo‘lajak mutaxassis kadrlarni nazariy bilim, amaliy malaka hamda ko‘nikmalar bilan qurollantirishda, “Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish” fanining ahamiyati katta bo‘lmoqda. Uning mazmuni va mohiyati, xususan, talabalarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunarlarining turli usullari bilan tanishtirish, ayniqsa, respublika, viloyat, shahar sport qo‘mitalari, ularning quyi tarmoqlaridagi tashkiliy ishlar, ularga rahbarlik qilish yo‘llarini o‘rgatish yangi talablar darajasida amalga oshirilmoqda. Bu esa talabalarning ijodkorlik faoliyatlari hamda o‘z vazifalarini puxta bilish mas’uliyatlarini oshirmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda sohaga doir qonunlar, farmonlar qarorlarni o‘rganish, ularning ijrosini tahlil qilish, talabalarning o‘quv amaliyotlarida ularga amal qilish yo‘llarini singdirish o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fanini o‘zlashtirishda o‘quv rejasidagi boshqa nazariy va amaliy mutaxassislik fanlari mazmunini bog‘lash, ularni taqqoslash ishlari talabalarning mustaqil hamda ijodkorlik bilan o‘z kasbiga yondoshishini taqozo etmoqda.

Eng muhimi shundaki, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fanining asosiy tayanchlaridan hisoblangan milliy qadriyatlar, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy mazmundagi xalq milliy o‘yinlarining mohiyatini chuqur o‘rganish, “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari talablarini hayotga tatbiq etish usullarini bilish kabi faoliyatlar o‘quv jarayonida boshqarish bilan bevosita bog‘lanmoqda.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

- 1.Fanning maqsadi, vazifalari, ahamiyati nimalardan iborat?
- 2.Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fani o‘quv rejadagi qaysi fanlar bilan bog‘liq?
- 3.Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning asosiy manbalari.

4. Boshqarish qanday tamoyillarga asoslanadi?

5. "Jismoniy tarbiya harakati", "Boshqarish", "Ilmiy boshqarish" tushunchalarining umumiy ta'rifini bering.

2-MAVZU. JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISH TIZIMLARI VA DAVLAT IDORALARIGA TAVSIF

REJA

- 1.O‘zbekiston respublikasida davlatni boshqarish, Prezidentlik instituti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, sud va ma’muriy idoralar haqida tushuncha.
2. Boshqarish tizimlari. Davlat idoralari, xo‘jalik idoralari va jamoat tashkilotlari.
3. Boshqarishning davlat organlari, umumiy va maxsus vakolatli davlat organlari.
- 4.Sport tashkilotlari. “O‘zbekiston”, “Dinamo”, “Yoshlik”, “Talaba” sport jamiyatlari, Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti.
- 5.Boshqarishning jamoat tashkilotlari. “Mahalla”, “Sog‘lom avlod uchun” va boshqa xayriya jamg‘armalari, “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi, “Yoshlar ittifoqi”ning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vazifalari.

Tayanch iboralar: *Prezidentlik instituti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, davlat idoralari, sport tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, boshqarish tizimi, boshqarishning jamoat tashkilotlari.*

O‘zbekiston respublikasida davlatni idora qilish, Prezidentlik instituti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, sud va ma’muriy idoralar haqida tushuncha.

Jahondagi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmush sharoitlarini aks ettirgan o‘z milliy xususiyatlari mavjud. Qaerda va qanday davlat bo‘lmasin, uning maqsadi va vazifasi aholini ijtimoiy jihatdan ta’minlash, uning milliy urf-odatlarini va madaniyatini rivojlantirish, Vatanni tashqi hujumlardan himoya qilish kabilarga qaratiladi. Jamiyat taraqqiyotining o‘ziga xos qonunlari bor. SHunga ko‘ra u yoki bu davlat iqtisodiy, madaniy, texnik, fan va nihoyat, harbiy jihatdan o‘z imkoniyatlarining boshqa davlatlardan ustun bo‘lishiga harakat qiladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida o‘tkaziladigan jahon birinchiliklari, kuboklari, Olimpiya o‘yinlarida har bir mamlakat xalqlari o‘zining sportchilarini g‘olib chiqishlarini, ularning sha’niga o‘z madhiyalarining yangrashi va bayroqlarini baland ko‘tarilishini hohlaydilar.

Har bir sohadagi kabi jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari ham davlat tashkilotlari, ularning ish faoliyatlari bilan yaxshi tanish bo'lishi lozim. Chunki ish jarayonida ular bilan bog'liq masalalarga duch kelinadi.

O'zbekiston Sobiq Ittifoq davrida davlat sifatida tarkib topgan bo'lsa-da, uni idora qilish, rahbarlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish faqat Markazning hohish va buyrug'i bilan amalga oshirib kelindi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida xalqaro andozalarga tayangan holda o'z Konstitutsiyasini ishlab chiqdi va 1992 yil 8 dekabrda tasdiqlandi. Konstitutsiyada ta'kidlanganidek, O'zbekiston - suveren demokratik respublika. Davlatning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi (1-modda). Shuning uchun davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi (2-modda), deyiladi.

Davlatni idora qilish borasida, Konstitutsiyada qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi (7-modda).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "Davlat hokimiyatini tashkil etilishi" (5- bo'limdagi XVIII bobi) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga bag'ishlangan. Konstitutsiyaga binoan, O'zbekistonda davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi asosida faoliyat ko'rsatadi (11-modda).

Oliy Majlis davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi tarmog'ini namoyon qiladi. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi suverenitet egasi, mamlakatimizdagi hokimiyatning birdan-bir manbai bo'lib, O'zbekiston xalqining xohish-irodasini ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi hokimiyatning qonun chiqaruvchi mustaqil organi bo'lib, yuridik tomondan hech qaysi davlat organiga bo'ysunmaydi. Oliy Majlis davlat hokimiyati organlari tizimida muhim o'rin egallaydi va boshqa davlat organlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Oliy Majlis qonun chiqaruvchilik faoliyatini butun O'zbekiston Respublikasi miqyosida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi mustaqillik yillarida rivojlanib, o‘z faoliyatida hozirgi zamon demokratiyasi va parlamentarizmi an‘analariga tayanmoqda. “Parlament – bu jamiyat hayotini oynadek yaqqol aks ettiradigan ko‘zgu. Binobarin, jamiyatda qanday intilish, fikr va qarashlar mavjud bo‘lsa, ular parlamentdagi muhokama va munozaralarda o‘z ifodasini topishi kerak. Ana shunda parlament xalqning xohish-irodasi, ezgu maqsadlarini mujassam eta oladi. Shundan keyin odamlar bunday qonunchilik hokimiyatiga ishonadi” (Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.” T., “O‘zbekiston”,2005, 26-b.)

Davlat qurilishi sohasida amalga oshirilgan tub islohotlar O‘zbekistonda ikki palatali professional parlament tizimiga o‘tish uchun zarur zamin yaratdi. “Professional parlament turli toifalar, siyosiy partiya va harakatlar vakillari vositasida jamiyatdagi mavjud siyosiy-ijtimoiy qarashlarni o‘zida aks ettiradi. Maqsad shuki, ular dunyo tajribasini, qaysi mamlakatda qanday qonunlar bor, ularning qanday afzal jihatlari mavjud, bugungi zamon nimani talab qilmoqda – barchasini o‘rgansin, ibratli jihatlarni hayotga tatbiq etsin”. (Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8-T.: ”O‘zbekiston”, 2000, 483-b.)

Ikki palatali parlament tashkil etilishi uchun 2002 yil 27 yanvarda umumxalq referendumini o‘tkazildi. Referendum natijalari asosida “Referendum yakunlari hamda davlat homiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Ushbu Konstitutsiyaviy qonun O‘zbekistonning qonun chiqaruvchi oliy organi – ikki palatali parlamentning tuzilishi, tarkibi, faoliyat yuritish asoslarini belgilab berdi. Bu yo‘nalishda, jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish uchun asos bo‘ldi.

2003 yil 24 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq, Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi.

Bu qonunlarda mamlakatimizda ikki palatali parlamentni shakllantirish va faoliyatining zarur huquqiy asoslari yaratildi. O‘zbekistonda 2004 yil oxiri va 2005 yil boshida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati shakllantirildi va o‘z faoliyatini boshladi.

Konstitutsining 76-moddasiga muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi”. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati vakolat muddatlari – besh yildir.

Shunday qilib, ushbu moddada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining mohiyati, funksiyalari va huquqiy asoslari belgilab berilgan.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organidir. Oliy Majlis vakillik organi sifatida O‘zbekiston xalqining vakilligini amalga oshiradi. “O‘zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin” (10-modda).

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi mamlakatimizning qonun chiqaruvchi organidir. Oliy Majlisga oliy yuridik kuchga ega normativ-huquqiy aktlarni chiqarish vazifasi yuklatilgan. U chiqaradigan normativ-huquqiy hujjatlar, ya’ni qonunlar, boshqa biror davlat organi tomonidan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi O‘zbekiston fuqarolari saylaydigan 150 deputatdan tashkil topadi. Oliy Majlisning Senati esa hududiy vakillik palatasi bo‘lib, 100 nafar Senat a’zosidan (senatorlardan) iboratdir. Senat a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlardan teng miqdorda – 6 kishidan saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 16 nafar a‘zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida, davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o‘tkazadilar. Ularning qo‘shma majlislari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so‘zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so‘zlaganda o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati birdan-bir qonunchilik organi sifatida o‘z vakolatlariga kiritilgan quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini;
- Konstitutsiyaviy qonunlarni;
- qonunlarni;
- qarorlarni;
- boshqa xujjatlarni.

Oliy Majlis palatalari o‘z qarorlari va boshqa hujjatlarini deputatlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, ularning qo‘mitalari qonunlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi boshqa qarorlarining ijrosini nazorat qilib turadi.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini tayyorlash va dastlabki ko‘rib chiqish ishlarini olib borish, shuningdek, qonunlarning, qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o‘z vakalotlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan qo‘mitalarni saylaydi. Qonunchilik palatasi qo‘mitalari faqat deputatlardan tashkil topadi. Ular Qonunchilik palatasi faoliyatida katta rol o‘ynaydilar. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida 10 ta qo‘mita tuzilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qonunlar va qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o‘z

vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan qo‘mitalarni saylaydi. Hozirgi kunda Senatda 6 ta qo‘mita tashkil etilgan:

1. Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo‘mitasi;
2. Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo‘mitasi;
3. Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalari qo‘mitasi;
4. Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi;
5. Tashqi siyosat masalari qo‘mitasi;
6. Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati, zarurat bo‘lgan taqdirda, muayyan vazafalarni bajarish uchun deputatlar, senatorlar orasidan komissiyalar tuzadi.

Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi hamda uning komissiyalari tarkibida jismoniy tarbiya va sport o‘z o‘rni hamda xususiyatlariga egadir. Jismoniy tarbiya va sportga doir davlat vakolatidagi barcha masalalar shu qo‘mita tomonidan amalga oshiriladi. Bunday komissiyalar barcha davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining amaliy faoliyatlarini o‘rganib boradi va zarur masalalarni to‘la ishlab chiqib, ularni Oliy Majlisga olib chiqadi.

Mamlakat parlamentining roli va ta’sirini kuchaytirish hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hamda sud tarmoqlari o‘rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishga qaratilgan.

Prezidentlik instituti. Ma’lumki, ko‘pgina davlatlarda idora qilish va boshqarishda Prezidentlik tizimi mavjud. Ularning tashkiliy tuzilishi, mohiyatlari va eng demokratik tajribalarni o‘rgangan holda Prezidentlik O‘zbekiston Respublikasida hayotga tadbiq etildi. Bu vazifani yurtimizda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 1991 yildan bajardi. Ularning olib borgan siyosati, rahbarlik faoliyati faqat mamlakatimizdagina emas, hatto jahon hamjamiyati davlatlari orasida ham alohida e’tiborga ega bo‘lgan. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis yig‘ilishida qabul qilgan qasamyodni keltirish o‘rinlidir. «O‘zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, Respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va

erkinliklariga kafolat berishga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman».

O‘zbekiston Konstitutsiyasining XIX bobida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘idir, deb belgilangan edi (89-modda).

2003 yil 24 aprelda mazkur moddaga o‘zgartirish kiritilib, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi” qoidasi chiqarib tashlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi yuqori palatasi Senatga o‘tkazildi.

Vazirlar Mahkamasi. Oliy Majlis qabul qilgan qonunlarning ijrochisi Vazirlar Mahkamasi hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tuzadi va u Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi” degan qoida hozirda 98-modda ikkinchi qismida “Vazirlar Mahkamasi tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining a‘zolari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri taqdimotiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi” degan qoida mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaning 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi majlislarida raislik qilishga, Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini bekor qilishga haqli, degan qoida kiritildi.

Konstitutsiyaga o‘zgartirishlar kiritish zaruriyatining paydo bo‘lishi davlat va jamiyatning rivojlanishida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish borasidagi huquqiy islohotlarning amaliy natijasi bo‘lib hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi xalq xo'jaligida barcha sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, qonunlar, Oliy Majlisning boshqa qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari asosida ta'minlaydi. Shuningdek, u amaldagi qonunlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bu vazifalarni amalga oshirishda barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, konsernlar, jamoat tashkilotlarining faoliyatiga tayanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z ish faoliyatida viloyatlar, shahar-tuman hokimiyatlari, ularning barcha faoliyatlariga rahbarlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida davlatni idora qilishda huquqiy organlar sifatida yoki davlat hokimiyati organlari tarkibida sud, prokuratura, militsiya, harbiy kuchlar mavjud. Ular qonunlarni amalga oshirishi, jinoyatchilikka qarshi va mudofaa hamda xavfsizlik ishlarini bajarish bilan birgalikda jismoniy tarbiya va sport ishlarida ham ma'lum darajada ishtirok etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida tasdiqlangan jurnalistlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qonunlarda ramziy ma'noda to'rtinchi hokimiyati deb tan olingan matbuot organlari ham davlatni idora qilish bilan bog'liq faoliyatlarda, shuningdek, jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot qilishda bevosita ishtirok etadi.

Mamlakatda mutaxassis kadrlar tayyorlash, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishda o'quv yurtlariga ega bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari, boshqarmalar davlat idoralari sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Tabiiyki, barcha turdagi umumta'lim, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya o'quv jarayonining tarkibiy qismidir. Shuningdek, ularda ommaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya, sport, sayohat va xalq milliy o'yinlari o'quvchi yoshlarning jismoniy va ma'naviy kamolotini taraqqiy ettiruvchi vositalar sifatida xizmat qiladi. Bunday ijtimoiy-pedagogik jarayonlarni tashkil

qilish, ularni moddiy va texnik jihatdan ta'minlashda davlat idoralari faoliyat ko'rsatadi.

Mustaqil O'zbekistonda aholining ijtimoiy-madaniy turmush farovonligini yanada yaxshilash, ularning ma'naviy etuk, jismonan baquvvat bo'lib kamolotga etishishlarida davlat idoralarining faoliyatlari muhim ahamiyatga ega. Bunda «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi va boshqa qonunlar, Prezidentimizning «Sog'lom avlod uchun» ordenini ta'sis etish to'g'risidagi (1993 yil) farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan qator (1993 yil, 1996 yil, 1999 yil, 2000 yil) qarorlari muhim ahamiyatga egadir.

Boshqarish tizimlari. Davlat idoralari, xo'jalik idoralari va jamoat tashkilotlari.

Davlat idoralari

O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash hamda aholini ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan muhofaza qilishda davlat hokimiyatining afzalliklari qayd etildi. Bu faoliyatlarda bevosita ishtirok etuvchi hamda mas'uliyat yuklatilgan turli davlat idoralari haqida ham muayyan ma'lumotlar berildi. Shunga ko'ra, ularning izchillik bilan olib boradigan ish jarayonlari, jumladan, aholining barcha qatlamlari salomatligini yaxshilash bilan bog'liq ish tajribalarida jismoniy tarbiya, sport, sayohat va xalq milliy o'yinlarining ham katta ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etish zarur bo'ladi.

Yana shuni ham qayd etish kerakki, davlat idoralari hozirgi kun sharoiti va jahondagi ilg'or davlatlarning tajribalaridan kelib chiqqan holda sohalar, tarmoqlar, ishlab chiqarish jarayonlarining xususiyatlari hamda muassasalarning turlariga qarab vazirliklar, davlat qo'mitalari, konsernlar, kompaniyalar va shunga o'xshash rahbarlik organlaridan tarkib topgan. Bularga misol tariqasida quyidagilarni qayd etish kifoya, ya'ni:

- maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim maktablari, maxsus maktab - internatlar (nogironlar uchun), akademik litsey va kasb-xunar kollejlari,

oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tekshirish institutlari, o'qituvchilar va tarbiyachilar malakasini oshirish institutlari hamda shunga o'xshash muassasalarga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi va Maktabgacha ta'lim vazirliklari rahbarlik qiladi;

- o'rta va oliy tibbiyot o'quv yurtlari, shifoxonalar, poliklinikalar, dorixonalar va turli davolovchi muassasalar - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan boshqariladi;

- qishloq mehnatkashlarining faoliyati, dehqon xo'jaligi va ular bilan bog'liq bo'lgan barcha faoliyatlar O'zbekiston Respublikasi Qishloq hamda Suv xo'jaligi vazirliklari zimmasidadir;

- konsernlar va shunga o'xshash yirik korxonalariga ega bo'lgan davlat idoralari mazmunan tizim va tartibdagi sohalardir.

Boshqaruv tizimida biror muassasa, tashkilotga davlat organi nomidan ish yuritish uchun berilgan huquq boshqaruv vakolatlari deb tushuniladi. Boshqaruv organlari o'z vakolatlariga binoan ikki turga ajratiladi:

- maxsus vakolatlarga ega bo'lgan organlar;
- umumiy vakolatlarga ega bo'lgan organlar.

Jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarishning maxsus vakolatga ega organi O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi va uning quyi tarmoqlari hisoblanadi.

Boshqarish tizimining umumiy vakolatlarga ega organlariga barcha vazirliklar, qo'mitalar va idoralar kiradi. Umumiy vakolat organlari o'z tizimi doirasida jismoniy tarbiya va sport ishlarini boshqaradi.

Mamlakatimizning geografik va demografik tuzilishi jarayonidan kelib chiqqan holda sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, savdo va boshqa sohalar bo'yicha fermer xo'jaliklarining faoliyatlari boshqarish tizimiga chuqur singib bormoqda. Ular o'z ixtisosliklaridagi barcha ish turlari bilan birgalikda aholining ijtimoiy-madaniy turmushida ham faol ishtirok etadi. Bunda jismoniy tarbiya va sport ishlariga ham alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, sport maydonlarini qurish, kerakli jihozlar bilan ta'minlash ishlarida hamkorlik kuchaymoqda.

Respublika jamoat tashkilotlarining turlari.

Sport tashkilotlari.

O‘zbekistonda sport tashkilotlari sifatida Kasaba uyushmalari jismoniy tarbiya va sport jamiyati, “O‘zbekiston”, “Dinamo” kabi sport klublari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ijtimoiy-madaniy va aholining ishlab chiqarishdagi faoliyatlariga asoslangan holda sport jamiyatlarining nomlari («Spartak», «Burevestnik», «Mehnat», «Paxtakor», «Yosh kuch» va boshqalar) turli davrlarda (1936-1940, 1950-1957, 1987) o‘zgartirildi va ular birlashtirildi. Ular o‘z taraqqiyoti tarixiga egadir. Bu haqda to‘la ma’lumotlarga ega bo‘lish uchun R.Abdumalikov, T.T.Yunusov, A.K.Akramov va boshqalarning o‘quv-uslubiy qo‘llanmalariga murojaat qilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi davlat organi sifatida respublikada jismoniy tarbiya, sport, xalq milliy o‘yinlarini aholining kundalik turmushiga singdirish va ularga bevosita bog‘liq bo‘lgan qator tadbirlarni olib borish bilan shug‘ullanadi. Uning asosiy maqsadi va vazifalari alohida Nizomda qayd etilgan. Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish bo‘yicha jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatuvchi sport jamiyatlari mavjuddir. Ular tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Respublika Kasaba uyushmalari federatsiyasi qoshidagi “O‘zbekiston” sport jamiyati. Bu jamiyat, asosan, mehnat jamoalarida jismoniy tarbiya va sportni tashkil qilish bilan faoliyat ko‘rsatadi. Shuningdek, uning tarkibida terma sport jamoalari, bolalar va o‘smirlar sport maktablari mavjuddir.

2. “Dinamo” sport jamiyati. Bu jamiyat, asosan, ichki ishlar idoralari xodimlari va ular bilan bog‘liq korxonalar, muassasalarda mehnat qiluvchilar bilan jismoniy tarbiya ishlari olib boradigan tashkilotdir.

3. “Yoshlik” (sobiq «Mehnat rezervlari» va “Yosh kuch” sport jamiyatlari uyushmasi) sport jamiyati o‘z faoliyatini maktab o‘quvchilari, “Talaba” sport uyushmasi esa o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlari talabalari bilan ommaviy sport tadbirlarini o‘tkazishda namoyon etadi.

4. “Vatanparvar” tashkiloti O‘zbekiston mudofaasiga ko‘maklashuvchi tashkilot sifatida o‘quvchi-yoshlar va ishchilar orasida sportning harbiy-texnika bilan bog‘liq turlarini tashkil etadi (parashyut, avto-motoklub, radio-texnika va hokazo).

5. Markaziy harbiy sport klubi - maxsus sport klub sifatida faoliyat ko‘rsatib, asosan, harbiy tashkilotlarda sport ishlarini uyushtirish bilan faoliyat ko‘rsatadi.

Keyingi yillarda o‘z maqomiga ega bo‘lgan futbol, karate, taekvondo, dzyudo, kurash, turon kabi sport turlari bo‘yicha maxsus sport uyushma (federatsiya)lari tashkil etildi.

Yuqorida qayd etilgan sport tashkilotlari va klublarning maxsus nizomlari, ustavlari mavjud bo‘lib, ularda xaq-huquqlari to‘la aks ettirilgan. Bu haqda keyingi boblarda batafsil so‘z yuritiladi.

3. Boshqarishning davlat organlari, umumiy va maxsus vakolatli davlat organlari.

Davlat boshqaruvi usullari tushunchasi va xususiyatlari. Boshqaruv shakli (ijro hokimiyati yoki boshqaruv harakatlari shakli) masalasi bilan tanishib chiqish, boshqa huquqiy hodisaning – *boshqaruv usullarini* ham aniqlash lozimligini ko‘rsatadi. *Usul* - bu amaliy faoliyatning usuli, vositasi hisoblanadi. Boshqaruv shakllari va boshqaruv usullarini bir-biridan ajratmagan holda ko‘rib chiqish lozim.

Ma‘muriy huquqning tartibga solish usuli va ma‘muriy huquqiy (boshqaruv) usullar, nomlanishi jihatidan bir-biriga juda yaqin turadi. Lekin bu holat ularning faqatgina tashqi ko‘rinishidan yaqinligini ko‘rsatadi. *Tartibga solish usuli* – ma‘muriy huquqning asosiy funksiyasi bo‘lib, boshqaruv munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi vosita hisoblanadi. *Davlat boshqaruvi usuli* esa, boshqaruv sub’ektlari (ijro hokimiyati organlari) oldida turgan barcha vazifalarni, shu jumladan tartibga solishni ham, amaliy hal etish vositasi hisoblanadi.

Davlat boshqaruvi usuli – ma‘muriy huquq har qanday sub’ektining emas, balki ma‘lum bir sohada boshqaruvni (ijro hokimiyatini) amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan sub’ektning funksiyasi hisoblanadi.

Boshqaruv organlari normativ tUSDagi hujjatni qabul qilganida, bu ikkala vosita bir-biriga mos kelishi mumkin. Lekin tartibga solish usuli o'zining mazmun-mohiyati va ahamiyati bilan davlat boshqaruvi usullaridan ajralib turadi. Huquqiy tartibga solish hamma vaqt normativdir. Shu sababli, uning vositalari (ko'rsatma berish, taqiq, vakolat berish) tartibga solinadigan munosabatlarning barcha sub'ektlariga nisbatan qo'llaniladi. Boshqaruv usullari esa bunday vakolatga ega bo'lgan ijro hokimiyati organi (mansabdor shaxs) tomonidan qo'llaniladi hamda ular yakallashtirilgan, ya'ni individuallashtirilgandir.

Yuridik adabiyotlarda boshqaruv usullari turlicha nomlangan bo'lishi mumkin, masalan, *“boshqaruv harakatlarini amalga oshirish usullari”*, *“boshqaruv faoliyati usullari”*, *“ma'muriy huquqiy usullar”*, *“ijro hokimiyatini amalga oshirish usullari”* va h.klar. Lekin bu tushunchalarning mazmuni bir xil, ya'ni davlat boshqaruvi organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan boshqaruvni (boshqaruv harakatlarini) amalga oshirish, tegishli ob'ektlar va shaxslarga ma'muriy ta'sir ko'rsatish maqsadida, qonunchilikda ruxsat etilgan doirada, qo'llaniladigan usul va vositalardir.

Demak, ***boshqaruv usuli*** – davlat boshqaruvi faoliyatining maqsadlariga erishish, vazifalarini bajarish va funksiyalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan huquqiy vositalar hisoblanadi.

Boshqaruv shakli boshqaruv ta'siri usullarini o'z ichiga oladi. Masalan, boshqaruv organi tomonidan ma'lum bir sohada nazoratni amalga oshirish va javobgarlikni qo'llashi uchun mansabdor shaxsning majburiyatlarini o'rnatuvchi huquqiy akt qabul qilinishi lozim.

Shakl usulga qaraganda birlamchi hisoblanadi.

Boshqaruv usuli boshqaruv sub'ektining ob'ekt bilan o'zaro munosabatga kirishganligini aniqlash imkoniyatini beradi.

Boshqaruv usuli boshqaruv shaklida albatta o'z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, boshqaruv shakli bo'lmaganida, boshqaruv usullari, ya'ni boshqaruv sub'ektining ob'ektga nisbatan ta'siri o'z ma'nosini va o'zining formal mazmunini yo'qotadi, amalda emas, balki xayolda qoladi. Masalan, ma'lum bir shaxsni

ma'muriy yoki intizomiy javobgarlikka tortishga yoxud davlat byudjeti mablag'laridan ma'lum bir ob'ektni moliyalashtirishga qaratilgan boshqaruv faoliyati harakatlarini rasmiylashtirmasdan turib, ya'ni boshqaruvning tegishli huquqiy aktini qabul qilmasdan turib, amalga oshirib bo'lmaydi. SHu sababli, boshqaruv usullari boshqaruv shakllari bilan va asosan huquqiy aktlarni qabul qilish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Davlat boshqaruvi tizimida boshqaruv usullari muhim *huquqiy vosita* hisoblanadi.

Ma'muriy huquq nazariyasi nuqtai nazaridan, boshqaruv usullari masalasini ikki ko'rinishda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir: *birinchidan*, boshqaruv usullari mavjud bo'lishini va ularning boshqaruv sohasidagi ahamiyatini nazariy asoslash; *ikkinchidan*, boshqaruv usullarini amalga oshirish mexanizmini yaratish va normativ ta'minlash.

Boshqaruv usullari – ijro hokimiyati organlari tomonidan davlat boshqaruvi maqsadlari, vazifalari va funksiyalarining amalga oshirilishini ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqaruv usullari yordamida davlat funksiyalari bevosita amalga oshiriladi. Uning vazifalari hal qilinadi, huquq-tartibot, fuqarolar va turli tashkilotlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ta'minlanadi. Boshqaruv usullari – iqtisodiyot (xo'jalik), ijtimoiy-madaniy va ma'muriy-siyosiy qurilish sohalarida ommaviy boshqaruvni amalga oshirishning zaruriy elementi hisoblanadi.

Boshqaruv usullari – boshqaruv ishi qanday amalga oshirilishini, boshqaruv maqsadiga uning qanday usul va vositalari orqali erishilishini belgilab beradi.

Boshqaruv usullari - huquq sub'ektining boshqasiga nisbatan maqsadga muvofiq yo'naltirilgan ta'sir etish vositasidir.

Maxsus adabiyotlarda huquqshunos olimlar, boshqaruv usullariga deyarli bir xilda yondoshgan, boshqaruv usullarining odatiy, *o'ziga xos xususiyatlariga* esa quyidagilar kiritilgan:

1) boshqaruv usullarining mavjudligi – *davlat hokimiyati ijro etuvchi organlarini tashkil etishga asoslanadi*;

2) boshqaruv usulining asosiy maqsadi yoki uning amaliy ahamiyati – *davlat boshqaruvini, boshqaruv vazifalari va funksiyalarining ijro hokimiyati organlari tomonidan amaliy bajarilishini ta'minlashdan iborat;*

3) boshqaruv usullaridan *boshqaruv faoliyatida qo'llaniladi va foydalaniladi;*

4) *davlat boshqaruvi sub'ekti va ob'ekti o'rtasida maxsus huquqiy munosabatlar mavjud bo'ladi.*

Bu munosabatlarda davlat organi yoki mansabdor shaxs turli vositalar – ishontirish, tarbiyalash, tartibga solish yoki majburlash choralarini qo'llash orqali o'z vakolatini amalga oshiradi. Boshqaruv usullari mazkur munosabatlarda boshqaruv sub'ekti va ob'ekti o'rtasida vujudga keladigan aloqa va munosabatlarni ifodalaydi;

5) *huquqiy aktlarda boshqaruv ta'siri o'rnatiladi, ya'ni boshqaruv usulini qo'llash huquqiy tartibga solingan bo'ladi.*

Lekin boshqaruv amaliyotida huquqiy normalar bilan tartibga solinmagan (yoki ularda nazarda tutilmagan) usullar (masalan, ishontirish, tarbiyalash) ham qo'llanilishi mumkin;

6) boshqaruv usullari *boshqaruv sub'ektlariga tegishli bo'lgan kompetensiya va vakolatlarni amalga oshirish vositasi hisoblanadi;*

7) boshqaruv usullari *boshqaruv sub'ektlari tomonidan ob'ektga nisbatan qo'llaniladigan vakolatlarning; tegishli sub'ekt yuridik hokimiyat vakolatlarning xususiyatlarini namoyon etadi;*

8) *har bir aniq holatda boshqaruv ta'sirining mazmuni boshqaruv usullari qo'llanilayotgan ob'ektning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi* (masalan, jismoniy shaxs yoki tashkilot, mulk shakli, vertikal bo'ysinuvning mavjudligi va h.k.lar);

9) boshqaruv usullari har qanday boshqaruv ta'siri singari, *boshqaruv sohasida namunali (belgilangan) tartibni ta'minlaydi; ular tashkiliy xususiyatga ega va boshqaruv tizimida yuz berayotgan jarayonlarni tartibga soladi;*

10) *boshqaruv ta'sirini ko'rsatuvchi sub'ektlar tomonidan huquq ijodkorligi va individul-farmoyish berish vakolatlari amalga oshiriladi;*

11) boshqaruv usullarining *doimiy harakatda bo'lishi, ya'ni ular boshqaruv tizimini, funktsiya va vakolatlarning bajarilishini real ta'minlaydi;*

12) *qonunchilikda boshqaruv usullarini qo'llashning belgilangan tartibi mavjud bo'ladi;*

13) *boshqaruv usullarini qo'llashning tashkiliy-huquqiy shakllari yoki ularni ifodalashning huquqiy shakllari mavjud bo'ladi.*

Boshqaruv usullar to'g'ridan-to'g'ri boshqaruv shakllariga bog'liq bo'lib, ularda ifodalangan bo'ladi. Shu ma'noda, boshqaruv usullari va boshqaruv shakllari o'zaro chambarchas bog'liqdir. Masalan, ma'muriy majburlash usuli aniq bir shaxsni ma'muriy jazoga (jarima, ma'muriy qamoq) tortishga qaratilgan individual akti qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Boshqaruv usullari ma'muriy huquq ijodkorligi shaklida ham, masalan, boshqaruv ta'sirini ta'minlash maqsadida ma'lum bir normativ huquqiy akti tayyorlash va qabul qilishda ham namoyon bo'lishi mumkin;

14) boshqaruv usullari – *boshqaruv sub'ektining ob'ektga nisbatan ta'siri o'ziga xos xususiyatlarga ega.*

Boshqaruv usullari *to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etishi* (masalan, huquqbuzarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish yoki mansabdor shaxslarga intizomiy javobgarlikni qo'llash) yoki *egri ta'sir etishi* mumkin (masalan, qonunchilikda nazarda tutilgan davlat xizmatchilari uchun cheklovlarni amalda tatbiq qilish yoki, aksincha, rag'batlantirish choralarini qo'llash);

15) boshqaruv usulida *boshqaruv ob'ektiga yakka yoki jamoa ta'sirini ko'rsatish mavjud bo'ladi;*

16) boshqaruv usullarini qo'llashning *vaqtinchalik xususiyatga ega bo'lishi, ya'ni boshqaruv ta'siri hamma vaqt ham uzoq muddatga emas, balki ma'lum bir muddatga mo'ljallangan bo'ladi.*

Boshqaruv usullari o'rtasida davlat boshqaruvi organlari va ularning mansabdor shaxslarining yuridik hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan *ma'muriy-huquqiy usullar* muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyot sohasidagi boshqaruv tizimida *umumiy tartibga solish* yoki *ma'muriy-huquqiy tartibga solish usullari* shakllanmoqda va huquqiy mazmunga ega bo'lmoqda. Ularda iqtisodiy munosabatlarga boshqaruv ta'sirini o'tkazishning kuchli va samarali potentsiali mavjuddir. Jumladan, iqtisodiyotning turli sohalaridagi davlat kontroli va nazorati; sanoat sohalariga moliyaviy (byudjet) yordam ko'rsatish; davlat tashkilotlarini samarali boshqarishni ta'minlash; monopoliyaga qarshi tartibga solish; xususiylashtirish jarayonlarining amalga oshirilishi; sub'ektlarga u yoki bu faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsatnomalar (litsenziyalar) berish va h.k.lar.

Ma'muriy-huquqiy usullarning maqsadi – ommaviy manfaatlarni himoya qilish, huquqiy tartibotni, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan davlat tadbirlarini kuchaytirish, davlat boshqaruvida intizomni mustahkamlashdan iboratdir.

Davlat boshqaruvi usullarining turlari. Yuridik adabiyotlarda, davlat boshqaruvi tizimidagi ta'sir ko'rsatishning ikki asosiy (universal) usuli: *ishontirish* va *majburlash* usullari ko'rib chiqiladi. Amaliyotda bu usullar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Ishontirish - boshqaruv usuli sifatida, *tushuntirish*, *tarbiyalash*, *rag'batlantirish* va boshqa axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan choralarini amalga oshirish orqali isonlarga ta'sir ko'rsatish hisoblanadi. Rag'batlantirish, masalan, davlat boshqaruvi sohasida ijro hokimiyatining fuqarolar, yuridik shaxslar, huquqiy munosabatlar turli sub'ektlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarida qonuniylik va intizomni ta'minlashga xizmat qiladi.

Boshqaruvning maqsad va vazifalariga erishish majburlash xususiyatidagi choralar yordamida ham ta'minlanishi mumkin. Bu holatda, boshqaruv ob'ekti, normativ huquqiy aktlarda ko'rsatib o'tilgan tartibda harakat qilishga majbur bo'ladi.

Agar, shaxslarning harakati huquqiy aktlarning talablariga mos kelmasa, davlat, uning organlari va mansabdor shaxslar majburlov choralarini qo'llash huquqiga ega bo'ladi. Ba'zi vaqtlarda bu choralar huquqiy tartibotni, jamoat

tartibini, harakatlarni amalga oshirishning oʻrnatilgan tartibini taʼminlovchi choralar sifatida namoyon boʻladi.

Ayrim hollarda esa, majburlov choralari huquqbuzarlikni (nojoʻya xatti-harakatni) sodir etgan shaxsni jazolashga qaratilgan boʻladi. Bu – intizomiy, moddiy, maʼmuriy yoki jinoiy xususiyatdagi choralar sifatida namoyon boʻladi.

Majburlov choralari shaxsning qonunga xilof xulqini cheklashga, shuningdek, turli ijtimoiy munosabatlardagi qonuniy tartibni qayta tiklashga qaratiladi.

Boshqaruv usullari *maʼmuriy (toʻgʻri)* va *iqtisodiy (tartibga soluvchi)* usullarga boʻlinadi.

Maʼmuriy usullar - boshqaruv subʼektining obʼektga (fuqarolarga, yuridik shaxslar, davlat xizmatchilariga) bir tomonlama tartibda davlat-hokimiyat taʼsirini koʻrsatishi orqali ifodalanadi.

Boshqaruvni amalga oshiruvchi subʼekt tegishli shaxslar uchun bajarilishi majburiy boʻlgan va yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradigan huquqiy aktlarni qabul qiladi. Qabul qilingan qarorning, buyruqning yoki farmoyishning bajarilmaganligi intizomning buzilishi hisoblanib, aybdor shaxsga nisbatan qonunda belgilangan majburlov choralari qoʻllaniladi.

Davlat boshqaruvi ideologiyasi oʻz tarkibida toʻgʻridan-toʻgʻri hokimiyat taʼsirini koʻrsatishning maʼmuriy usullari mavjud boʻlishini talab etadi. Keng maʼnoda, *boshqaruv usullari* ijro hokimiyatining birligini, davlat boshqaruvi turli subʼektlari oʻzaro munosabatida tartib-intizomni, shuningdek, ijro hokimiyati organlari funksiyalanishining qonuniyligini taʼminlaydi.

Boshqaruv usullari mazkur usullar yoʻnaltirilgan shaxslarning ongiga, irodasiga va xulq-atvoriga taʼsir koʻrsatadi. Bu usullarni amalga oshirish huquq subʼektlariga toʻgʻridan-toʻgʻri iqtisodiy taʼsirni, moddiy-mulkiy natijalarni keltirib chiqarmaydi.

Maʼmuriy usullarda obʼektlar oʻz hohishiga koʻra boshqaruvni amalga oshirish imkoniyatiga ega emas, ular belgilangan maʼmuriy tartib doirasida va qabul qilingan koʻrsatmalarni bajarishga majburdirlar.

Huquq sub'ektlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etish (ma'muriy) usullaridan foydalanmasdan, davlat boshqaruvining maqsad va vazifalariga erishib bo'lmaydi. *To'g'ridan-to'g'ri ta'sir etish* – bu ma'lum bir vakolatga ega bo'lgan yuqori turuvchi mansabdor shaxs yoki boshqaruv sub'ekti tomonidan bo'yruq, farmoyishning qabul qilinishidir.

Ma'muriy usullar boshqariluvchilarning moddiy manfaatlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni moddiy naf yoki moddiy rag'batlantirish olishni nazarda tutmagan.

Namunali xulq-atvorga o'rnatilgan ko'rsatmalarga ixtiyoriy rioya qilish orqali erishiladi, ya'ni bunda asosiy ta'sir ko'rsatish vositasi *axloqiy* xususiyatga ega bo'ladi.

Iqtisodiy munosabatlarga to'g'ridan-to'g'ri (ma'muriy) ta'sir ko'rsatish davlatning iqtisodiy manfaatlari qondirilishini ta'minlashda zarurdir. Iqtisodiyot sohasiga davlatning ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi: *birinchidan*, iqtisodiy faoliyat ma'lum bir turlarining faqat davlat tomonidan amalga oshirilishi (masalan, soliq, bojxona faoliyati); *ikkinchidan*, davlat tashkilotlari xo'jalik faoliyatini boshqarish va markazlashgan holda tartibga solish; *uchinchidan*, davlat mulki ob'ektlarini boshqarish; *to'rtinchidan*, iqtisodiyot sohasida davlat kontroli va nazoratini amalga oshirish; *beshinchidan*, ro'yxatga olish, ruxsat berish (litsenziya) faoliyatini amalga oshirish va h.k.lar.

Ma'muriy usullarni turli asoslarga ko'ra ***tasniflash*** mumkin. Jumladan:

1) ***ifodalash shakliga ko'ra*** ma'muriy usullar: a) *huquqiy* (normativ huquqiy aktlarda nazarda tutilgan va huquqiy mazmunga ega bo'lgan) usullar; b) *tashkiliy* (boshqaruv sub'ekti tomonidan tashkiliy-boshqaruv harakatlarini amalga oshirish) usullariga bo'linadi;

2) ***ma'muriy-huquqiy xususiyatlarga asoslanib***, ular: a) *normativ* (normativ huquqiy aktlarni qabul qilish maqsadida qo'llaniladigan) usullar; b) *individual* (yakka ma'muriy huquqiy aktlarni qabul qilishda qo'llaniladigan) usullarga bo'linadi;

3) *boshqaruv ob'ektiga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra* ma'muriy usullar: a) *imperativ*, ya'ni taqiqlarni, to'g'ridan-to'g'ri ma'muriy buyruqlarni, davlat-hokimiyat ko'rsatmalarini nazarda tutuvchi, shuningdek, tegishli harakatlarni sodir etish yoki tegishli xulq-atvorni amalga oshirishga majburlovchi usullar; b) *vakolat beruvchi*, ya'ni ma'lum bir harakatlarni amalga oshirish yoki boshqaruvning tegishli aktini qabul qilishga ruxsat beruvchi usullar; v) *rag'batlantiruvchi* va *tavsiya beruvchi*, ya'ni rag'batlantirish yoki ma'lum bir harakatlarni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalarni beruvchi usullarga bo'linadi.

Boshqaruvning *tartibga soluvchi (iqtisodiy)* usullarini qo'llash orqali boshqaruv ob'ektlari tomonidan namunali xulq-atvorga erishilganida, ularning iqtisodiy yoki moddiy manfaatlarini qondirish ta'minlanadi. Boshqaruv sub'ekti boshqariluvchi ob'ektlarning individual (yakka) manfaatlariga ta'sir etish orqali boshqaruvning maqsad va vazifalarining bajarilishiga shart-sharoit yaratib beradi.

Moddiy (yoki iqtisodiy) tartibga solish orqali boshqariluvchi ob'ektlar tomonidan o'z faoliyatlarida o'rnatilgan tartib va ko'rsatmalarga rioya etishi ta'minlanadi. SHu tariqa *boshqaruvning ichki apparati* (masalan, davlat organlarida xizmatchilarni moddiy rag'batlantirish, mansabdor shaxslar uchun moddiy va mulkiy imtiyozlar berish) hamda *iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi* (masalan, iqtisodiyotga yangi ishlanmalarni joriy etishni tartibga solish, iqtisodiyotning ma'lum bir sohalarini qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlarini berish) ta'minlanadi.

Davlat organlari tomonidan boshqariluvchilarga samarali boshqaruv ta'sirini ko'rsatish – iqtisodiy usullarni “*egri*” yo'l bilan qo'llash orqali erishiladi.

Boshqaruvni tartibga soluvchi (iqtisodiy) usullari quyidagi *o'ziga xos xususiyatlarga* ega: a) boshqaruvning nazarda tutilgan natijalariga erishish uchun, boshqariluvchi shaxslarning ongi va irodasiga ta'sir ko'rsatish; b) boshqariluvchi sub'ektlarning manfaatlariga, ehtiyojlariga ta'sir ko'rsatish orqali, ularning namunali xulq-atvorda bo'lishini ta'minlashning real boshqaruvini tashkil etish; v) jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzishga qaratilgan harakatlar va qarorlarni ma'muriy hamda sud tartibida shikoyat

qilinishini ta'minlash; g) ma'lum bir harakatlarni amalga oshirish va qarorlarni qabul qilishni belgilovchi boshqaruv aktlarini chiqarish; d) boshqaruv harakatlarini amalga oshirish usullari qaratilgan shaxslarga xatti-harakat (xulq-atvor)ni tanlash imkoniyatini berish; e) tartibga solishning normativ o'rnatilishi va h.k.lar.

Boshqaruvning iqtisodiy usullari, ma'muriy usullar singari, faqatgina normativ hujjatlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Boshqaruv bu usullarining tartibga solish ta'siri - boshqaruv sohasidagi ularning muhimligi, ahamiyatligi va samaradorligi bilan ifodalanishi kerak.

Ba'zi huquqshunos olimlar tomonidan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan egri (iqtisodiy) tartibga solishning quyidagi elementlari ham ko'rsatib o'tiladi: davlat axboroti va prognozi; davlat dasturlari, kontraktlar va buyurtmalar; baho, daromad, aholi bandligi, professional tayyorgarlikni tartibga solish; soliq va amartizatsiyaviy siyosat.

Ma'muriy va iqtisodiy usullar turlicha mazmunga va ahamiyatga ega bo'lsalar ham, amaliyotda ular chambarchas bog'liqdir. Ular boshqaruv mazmuniga ega ekanligi; qo'llash sub'ektlari; boshqaruv ta'sirining ob'ekti; boshqaruvning maqsadiga erishish va vazifalarini bajarish; boshqaruv ta'sirini amalga oshirish shakli (ma'muriy yoki boshqaruvning huquqiy aktini qabul qilish) bo'yicha umumiy xususiyatlarga egadir. Shu bilan birga davlat boshqaruvining turli sohalarida u yoki bu boshqaruv usullaridan foydalanish ko'p uchrab turadi. Masalan, davlat xavfsizligi organlari yoki ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishda ma'muriy usullar ko'proq qo'llaniladi; ta'lim, fan va sog'liqni saqlash sohalarida ma'muriy usullar bilan bir qatorda, iqtisodiy usullar katta ahamiyatga ega bo'ladi; sanoat sohasida ma'muriy usullarga qaraganda, iqtisodiy usullar ko'proq qo'llaniladi.

Ma'muriy va iqtisodiy usullar birgalikda boshqaruv ta'sirining tegishli usullar va vositalar tizimini tashkil etadi.

Yu.M.Kozlov, boshqaruv usullarining ishontirish va majburlash turlaridan tashqari, tegishli harakatlarning aniq maqsadlaridan kelib chiqqan holda, ularni uch guruhga bo'ladi: *birinchidan, boshqaruv ta'siri usullari*. Bunda boshqaruv

sub'ekti va ob'ekti o'rtasidagi munosabatlarga xos bo'lgan barcha xususiyatlar bevosita o'z ifodasini topadi; *ikkinchidan, ijro hokimiyati organlari ishini tashkil etish usullari*. Bu usullar apparat ahamiyatiga ega bo'lib, samarali boshqaruv ta'sirini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib beradi. Mazkur usullarga huquqiy (masalan, apparat xodimlari o'rtasida javobgarlikni o'rnatish, vakolatlarni taqsimlash) va huquqiy bo'lmagan (masalan, matematik, ijtimoiy, tadqiqot) vositalar kiradi. Bunday usullardan boshqaruv ta'siri doirasida foydalaniladi; *uchinchidan, boshqaruv harakatlarini amalga oshirish usullari*. Bu usullar protseduraviy xususiyatga ega (masalan, boshqaruv qarorlarini qabul qilishning, kontrol-nazorat harakatlarini amalga oshirishning ma'lum bir usullari mavjud).

Ma'muriy-huquqiy usullar (boshqaruv usullari) turli ko'rinishlarda: xulq-atvor qoidalarini o'rnatishda; aniq vazifalarni berishda; ma'lum bir harakatlarni sodir etishni belgilashda; lavozimga tayinlashda; boshqaruv munosabatlari ishtirokchilarining qonuniy talablarini qondirishda; ma'lum bir harakatlarni taqiqlashda; turli xildagi ruxsatnomalar berishda; ro'yxatga olish faoliyatini amalga oshirishda; kontrol va nazorat olib borishda; moddiy va axloqiy rag'batlantirishda; moddiy sanksiyalarni qo'llashda; ma'muriy nizolarni hal etishda; davlat buyurtmalarini rasmiylashtirishda; ma'muriy majburlov choralarini qo'llashda va h.k.larda namoyon bo'lishi mumkin.

Insonlarni qonunlarga, huquqiy tartib-intizomga rioya qilish, bo'ysinish ruhida tarbiyalash boshqaruv huquqiy aktlarini va harakatlarini ixtiyoriy amalga oshirilishini ta'minlashda katta ahamiyatga egadir. Ayrim hollarda, fuqarolarning o'z huquq va majburiyatlarini bilishi, o'z-o'zidan huquqiy ko'rsatmalarning bajarilishiga, shaxsning intizomliligiga olib keladi.

Davlat, mahalliy va shaxsiy faoliyat yutuqlari va ijobiy natijalari to'g'risidagi axborotlar tizimini shakllantirish ham katta ahamiyatga egadir. Ishontirish shakllariga ko'rgazmalarni tashkil etish, konkurslarni o'tkazish, ma'lum bir dasturlarni, ommaviy tadbirlarni amalga oshirish ham kiradi.

Insonlarning xulq-atvoriga shaxsga bo'lgan ishonch, jamoadagi muhit, ishni aniq tashkil etish, samarali nazoratni amalga oshirish ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Insonlarga samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, aybdor shaxslarga o'z vaqtida va adolatli javobgarlik choralari qo'llash, qonunga zid xatti-harakatlarga qarshi kurashishning yaxshi tashkil etilganligi ham ko'pchilikda namunali xulq-atvorning shakllanishiga, qonun talablariga mos xulq-atvorni amalga oshirishga (ishontirishga) xizmat qiladi va h.k.lar.

Rag'batlantirish tushunchasi va uning turlari. **Boshqaruvning samarali usullaridan yana biri – bu rag'batlantirishdir. Rag'batlantirish – manfaatdorlik, ong orqali insonlarning irodasini belgilangan foydali ishni bajarishga yo'naltiruvchi ta'sir etish usulidir. Rag'batlantirish ma'lum bir ishlarning bajarilishiga, moddiy va axloqiy manfaatdorlikning vujudga kelishiga olib keladi.**

Hozirgi vaqtda, boshqaruvning rag'batlantirish usulini tartibga soluvchi huquqiy normalar (qonunchilik) shakllangan bo'lib, rivojlanish jarayonidadir. Bunga konstitutsiyaviy, ma'muriy, mehnat va boshqa huquq normalarini kiritishimiz mumkin. Huquqiy tartibga solingan rag'batlantirish, A.V.Malkoning fikricha, bu - ixtiyoriy, maqsadga muvofiq va xurmatga sazovor xulq-atvorni ma'qullashning yuridik shakli va chorasi bo'lib, uni amalga oshirish natijasida sub'ekt mukofotlanadi (ya'ngi unga nisbatan foydali oqibatlar vujudga keladi).

Amaldagi huquqiy normalar yordamida rag'batlantirish choralari; uni qo'llash asoslari; hokimiyat sub'ektining rag'batlantirish bo'yicha vakolati; rag'batlantirish tartibi mustahkamlangan.

Boshqaruvning rag'batlantirish usulini tartibga solishda ma'muriy-huquqiy normalarni tutgan o'rni kattadir. Ular orqali rag'batlantirishning turli choralari, keng ko'lamdagi rag'batlantirish asoslari va rag'batlantiriluvchi shaxslar doirasi belgilab beriladi.

D.N.Baxraxning ko'rsatib o'tishicha, rag'batlantirish – ijro hokimiyati faoliyatining usuli sifatida quyidagi *o'ziga xos xususiyatlarga* egadir: 1) hokimiyat sub'ekti tomonidan ijobiy baholanadigan xizmat, xatti-harakat –

rag'batlantirishning faktik asosi bo'lib hisoblanadi; 2) rag'batlantirish sodir etilgan xatti-harakatlarni baholash bilan bog'liqdir; 3) rag'batlantirish ma'lum bir individual yoki jamoa sub'ektlariga nisbatan qo'llaniladi; 4) rag'batlantirish – axloqiy ma'qullash, huquqlar, imtiyozlar, moddiy qimmatliklar berishdan iboratdir; 5) u orqali rag'batlantiriluvchi irodasiga manfaatdorlik, emotsiya, ong orqali egri ta'sir ko'rsatiladi.

Rag'batlantirish - ko'pgina insonlarda mavjud bo'lgan ularni faoliyatini baholash, xizmatini tan olish hamda ular amalga oshirayotgan faoliyatga e'tibor qaratish ehtiyoji bilan bog'liqdir.

Boshqaruv faoliyatini amalga oshirishning umumiy prinsiplaridan, rag'batlantirishning - *asoslantirilganlik*, *operativlik* va *oshkoralik* prinsiplari kelib chiqadi. Ularga amal qilish rag'batlantirish usulining samarali qo'llanilishini ta'minlaydi.

Rag'batlantirish faoliyatining oshkoraligi - rag'batlantirilgan shaxs uchun ham, uni o'rab turgan muhit uchun ham katta ahamiyatga egadir. U rag'batlantirilgan shaxsning obro'-e'tiborini oshiradi, o'rab turgan muhitning unga nisbatan bo'lgan munosabatini yaxshilaydi, ko'pgina shaxslarga namunali ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy tartibga solingan rag'batlantirish qonunlar, davlat rahbari, ijro hokimiyati organlari, davlat va nodavlat tashkilotlarining aktlari bilan o'rnatiladi.

Boshqaruv harakatlarini amalga oshirish usuli sifatida, rag'batlantirish, tartibga soluvchilik ta'sirini ko'rsatish usullarining tizimini ifodalaydi. Ijobiy baholanadigan xatti-harakatlarning turli-tumanligi sababli, ularga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish vositalari ham har xildir.

Rag'batlantiriluvchi shaxsga ta'sir ko'rsatishning barcha ijobiy tartibga solish vositalarini uch guruhga: a) *axloqiy*; b) *moddiy*; v) *aralashga* bo'lish mumkin. Masalan, moddiy rag'batlantirishni olib ko'radigan bo'lsak, u qimmatli sovg'alar berishda ifodalanadi.

Rag'batlantirish choralari bir vaqtning o'zida ham moddiy, ham axloqiy bo'lishi mumkin. Masalan, bunday aralash shakldagi ta'sir ko'rsatishga

(ragʻbatlantirishga) - muddatidan oldin navbatdagi darajani berishni kiritish mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 180-moddasiga binoan ishdagi yutuqlar uchun xodimga nisbatan ragʻbatlantirish choralari qoʻllanilishi mumkin. Ragʻbatlantirish turlari, ularni qoʻllash tartibi, afzallik va imtiyozlar berish jamoa shartnomalari, ichki mehnat tartib-qoidalari va boshqa lokal hujjatlarda, jamoa kelishuvlarida, intizom toʻgʻrisidagi ustav va nizomlarda belgilab qoʻyiladi. Xodimlar mehnat sohasida davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin. Ish haqi, mukofotlar, qoʻshimcha toʻlovlar, ustamalar va mehnat haqi tizimida nazarda tutilgan boshqa toʻlovlar ragʻbatlantirish turlariga kirmaydi.

Yuqorida oʻrnatilgan talab umumiy boʻlib, barcha sohada davlat va nodavlat tashkilotlari unga amal qilishi lozim. Aniq bir sohada qoʻllaniladigan ragʻbatlantirish choralari bilan tanishib chiqadigan boʻlsak, ragʻbatlantirishning mazmun-mohiyati va ahamiyati toʻgʻrisida tushunchalarni yanada boyitish mumkin.

4.Sport tashkilotlari. “Dinamo”, “Yoshlik”, “Talaba” sport jamiyatlari, Mudofaaga koʻmaklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti.

Sport tashkilotlari – Oʻzbekistonda sport tashkilotlari va sport jamiyatlari ancha yillardan buyon faoliyat koʻrsatib kelmokda. Respublika mustaqillikka erishgandan soʻng, yangi Nizomlari ishlab chiqildi. Ijtimoiy-madaniy va aholining ishlab chiqarishdagi faoliyatlariga asoslangan holda sport jamiyatlarining nomlari oʻzgartirildi va ular birlashtirildi. Ular Oʻzbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va davlat sport qoʻmitasi sifatida Respublikada jismoniy tarbiya, sport, xalk milliy oʻyinlarini aholining kundalik turmushiga singdirish va ularga bevosita bogʻlik boʻlgan qator tadbirlarni olib borish bilan shugʻullanadi. Uning asosiy maksadi va vazifalari aloxida Nizomida qayd etilgan.

Sport tashkilotlarining eng asosiy vazifalari quyidagi faoliyatlarga qaratilgan:

- boshqaruvchilik qarorlarini tayyorlash, qabul qilish va ularni amalda qo‘llash;
- boshqarish bilan bog‘lik bo‘lgan barcha faoliyatlarni tashkil qilish va ish yuritish;
- eng muhim faoliyatlarni yo‘lga solish (regulirovka);
- barcha ishlarni hisobga olib borish va ularni nazorat qilish;
- amalda bajarilgan faoliyatlarni tahlil qilish, bajarish, ularga tankidiy qarash va hokazo.

Respublika miqyosidagi barcha sport tashkilotlari va sport jamiyatlari o‘z faoliyatlarini talab darajasida yuritish uchun **yukori davlat organlarining ko‘rsatmalariga itoat etishi zarur**. Shu bilan birga o‘zlarining kuyi tarmoklar faoliyatini nazorat kilib boradi va ish natijalarining ijrosini talab kiladi. Sport tashkilotlari va jamiyatlari xamda ularning quyi tarmoqlarida turli xil qarorlarni ishlab chikish, ularni qabul qilish va amalga oshirish **faoliyatlari yagona tartibda** olib boriladi. Bunda quyidagi faoliyatlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi:

1. Rejalar asosida yig‘ilish (majlis) kun tartibini belgilash.
2. Asosiy masalalar buyicha materiallar (ma‘lumotlar, dalillar) yig‘ish.
3. Ma‘ruza (xisobot, nutk, muloxaza va xokazo) tayyorlash.
4. Yig‘ilishgacha qaror loyihasini tayyorlash.
5. Yig‘ilish jarayonida barcha ma‘ruza, muzokaralar, nutqlar, chiqishlar bayonini yozib borish.
6. Yig‘ilish oxirida qaror loyihasini muhokama qilish va o‘zgartirishlar kiritish.
7. Qarordagi asosiy vazifa, topshiriqlardan ko‘chirmalar olib, tegishli rahbar va tashkilotlarga jo‘natish.

Majlis kun tartibi va muhokama qilinadigan masalalar qatoriga asosan kuyidagilar kiritilishi zarur:

1. Yuqori tashkilotlarning qarorlari, ko‘rsatmalari asosida vazifalarni belgilash va ularning bajarilish yo‘llarini ishlab chiqish.
2. Qilingan ishlar yuzasidan hisobot va ma‘lumotlar berish.

3. Musobaqalarning kalendar rejalari, Nizomlar, sport unvonlar (darajalar) va hokazolar tasdiqlash.

4. Sport tashkilotlari, sport maktablari, murabbiylar va boshka mansabdor shaxslarni ish lavozimiga tasdiqlash yoki ishdan ozod etish va boshkalar.

Yuqori tashkilotlar qabul qilgan qarorlarni hayotga singdirishda o'zlarining tarmoqlari orqali ish tutadi. Qarorlarda ko'rsatilgan topshiriq va vazifalarning amalga oshirilayotgani, ularning bajarilayotganligi haqidagi ma'lumotlar hisobot, bildirish yuli bilan yuqori tashkilotlarga ma'lum qilanadi.

Eng zarur faoliyatlarni demokratik tamoyillar yuli bilan hal etishda yig'ilish qarorlarining mohiyati kattadir va ular doimiy ravishda qo'llanilishi lozim bulgan tashkiliy jarayonlardan hisoblanadi.

Qarorlarning bajarilishi, asosan yunalishni belgilashdan iborat bulib, ular:

1. O'zbekiston Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

2. O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi chiqargan qaror va buyruqlaridan iborat.

Bular asosan sport jamityalari, jismoniy tarbiya va sportni boshqarish bilan bog'lik bo'lgan Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimlariga tegishlidir. O'zbekiston Prezidenti devoni tarkibida hamda Vazirlar Mahkamasi qoshida maxsus nazorat komissiyalari tashkil etilgan. Ularning faoliyati barcha davlat va jamoat tashkilotlarining tashkiliy tuzilishida aks ettirilgan. Shuningdek barcha vazirliklarda ham qarorlarning ijrosini nazorat qiluvchi, tekshiruvchi xuquqiga ega bo'lgan hodimlar faoliyat ko'rsatadi. Xar bir idora, tashkilot va ularning boshqarmalari, bo'limlari o'z sohalari bo'yicha qarorlarning ijrosini kuzatish, nazorat qilish, tekshirish xuquqlariga egadir. Komissiyalar tuziladi. Ularga asosiy yo'l-yo'riklar ko'rsatadi va komissiyalar xulosalarini odilona tahlil kilib, tegishli xulosa chiqaradi.

Nazoratlar asosan kuyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Respublika sport tashkilotlari, turli idoralari va o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining yig'ilishi.

2. Respublika viloyat va tuman sport jamiyatlarining anjumanlari.
3. Respublika, viloyat hokimligi sport bo'limlari hamda sport jamiyatlari kengashlarining kollegiya, xay'at majlislarida qonun ijrosi haqidagi xisobotlar.
4. Maxsus tuzilgan komissiyalarni joylarga safarbar etish va qonun hamda qarorlarning hayotga singdirilishini o'rganish, ma'lumotlar tayyorlash.
5. Telefonlar orqali aloqa bog'lab turish, qonun va qarorlar ijrosi haqida ma'lumotlar olish.

Uyushgan jismoniy tarbiya jamoasi

Uncha katta bo'lmagan korxonalar, muassasalarning xizmatchilari, ishchilar o'rtasida ommaviy tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun jismoniy tarbiya jamoasini tuzish mumkin bo'lmasa, soha va tarmoq tartibi bo'yicha birlashgan jamoalar tashkil etiladi.

Birlashgan jamoalarni tuzish to'g'risida tegishli Kengashlar yoki kasaba uyushmalari qo'mitalarining sport jamiyati Kengashi rayosatining qarori bo'lishi lozim.

Jismoniy tarbiya jamoasini tashkil etishning yuqori va takomillashgan shakli sport klubidir. Respublika kasaba uyushmalari federatsiyasining 1991 yil qaroriga asosan, korxonalar sport klubi ommaviy-sog'lomlashtirish va sport ishlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishgan jismoniy tarbiya jamoalaridagina tashkil etiladi.

Bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda va Respublika hukumatining qarorlariga binoan o'zini-o'zi boshqarish va moliyaviy ta'minlash bo'yicha yirik ishlab chiqarish korxonalari, sport inshootlari, aholi istiqomat joylarida mustaqil sport klublar tashkil etilmoqda. Ularning o'z sharoitlari asosida Nizom va ustavlari mavjud. Shu asosida ular o'z faoliyatlarini a'zolik badallari, pullik xizmatlar, tijorat, xomiylik kabi omillar hisobiga yuritadilar. Bularga misol tariqasida «Bunyodkor», «Paxtakor», «Dinamo» kabi sport va futbol klublarini ko'rsatish mumkin. Bunday ish usullari va ilg'or tajribalar viloyatlarning markazlarida tennis, boks, shaxmat, ot sporti, sharqona yakka kurashlar va b.q. sport turlari bo'yicha tashkil etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi maktab o'quvchilarining

«Yoshlik» sport jamiyati

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 maydagi 271-son qarorini amalga oshirishda Xalq ta’limi vazirligi yangi qadam qo‘ydi. Mustaqillik yillarigacha «Yosh kuch» va keyingi yillarda «Mehnat rezervlari» nomi bilan yuritilgan o‘quvchi yoshlarning sport jamiyati o‘rniga «Yoshlik» sport jamiyati tashkil etildi.

O‘zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Qoraqolpag‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta’limi tizimidagi jismoniy tarbiya sog‘lomlashtirish va sport jamiyatlari, klublar va boshqa birlashmalarning o‘zini o‘zi boshqaradigan Respublika jamoat birlashmalari hisoblanadi.

Uning viloyatlar, shahar-tumanlarda quyi tarmog‘i mavjud. Uyushmaning asosiy maqsadi maktab o‘quvchilari va kasb xunar kollejlari xamda boshqa o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining o‘quvchi yoshlarini ommaviy sport tadbirlariga jalb etish, iqtidorli yoshlarning sport mahoratlarini oshirishga qaratilgan. Bu yo‘lda «Umid nihollari» va «Barkamol avlod» o‘yinlari sport musobaqalarini tashkil qilish bilan asosiy faoliyat ko‘rsatadi. Jamiyatning nizomi va ustavi mavjud. Maktab o‘quvchilarining «Umid nihollari» Respublika musobaqalari muvaffaqiyatli o‘tkazilib kelinmoqda. Uning Nizomi asosida musobaqalar to‘rt bosqichga (jamoat, tuman-shahar, viloyat va respublika miqyosida) o‘tkaziladi. 2002 yilda navbatdagi final musobaqalar Farg‘onada o‘tkazildi. Bunday musobaqalar uzluksiz ta’limning bir tarmog‘i sifatida o‘quvchilar, jamoalar va yuqori muassasalarning ommaviy sog‘lomlashtiruvchi sport tadbirlarining yo‘lga qo‘yilishi va eng muhimi “Sog‘lom avlod dasturi”ning xayotga singdirilish borasidagi ko‘rik-sinov hisoblanadi. Shuningdek «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari talablarini bajarishga zamin tayyorlaydi. Mamlakatda o‘rta maxsus o‘quv yurtlarini yagona tizim, ya’ni kasb-xunar kollejlari aylantirilishi jismoniy tarbiya va sport harakatida yangi bir bosqichni yaratdi, ya’ni «Barkamol avlod o‘yinlari» sport musobaqalarini yagona tizim va talablar darajasida o‘tkazishni taqozo etdi. Bunday yirik sport tadbiri 2001 yil 30 apreldan 5 maygacha Jizzax

shaxrida zo‘r tantana bilan o‘tkazildi. Bunday tadbirlar ham to‘rt bosqichda o‘tkazilish ko‘zda tutilganligi, o‘quv yurtlari, tuman-shahar va viloyatlar miqyosida yoshlar o‘rtasida sportni ommalashtirishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyatga egadir.

«Umid nihollari» va «Barkamol avlod» sport musobaqalarini tashkil etishda Xalq ta’limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, sport jamiyatlari o‘zaro hamkorlikda faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

Jamiyatning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilar:

- sport, tinchlik, hamkorlik va o‘zaro totuvlik g‘oyalarini targ‘ibot qilish;
- maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida maktabdan va sinfdan tashqari ommaviy sport va sog‘lomlashtirish ishlariga tashkiliy – uslubiy rahbarlik qilish;
- bolalar va o‘quvchi yoshlarni, xalq ta’limi tizimi xodimlarini jismoniy tarbiya, sport bilan muntazam shug‘ullanishiga jalb qilish;
- cog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, faol dam olishni tashkillashtirish;
- sport turlari bo‘yicha respublika terma jamoalari uchun asosiy va zahira tarkibiga malakali sportchilarni tayyorlash hamda turli darajadagi musobaqalarda ishtirok etish;
- sport maktablari, sport maktab – internatlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda amaliy, nazariy va uslubiy yordam ko‘rsatish.

O‘zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyatiga a‘zo bo‘lish tartibi.

Jamiyatga 7 yoshdan boshlab a‘zo bo‘lish mumkin. Jamiyatga yakka tartibda va jamoa bo‘lib a‘zo bo‘lish belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi va boshqa Respublikalarning fuqarolari, umumta’lim maktablarining, o‘quv yurtlarining o‘quvchilari va bitiruvchilari, Xalq ta’limi tizimi xodimlari jamiyat a‘zosi bo‘lishlari mumkin.

Jamiyatga a‘zolik hohlovchilarning arizasiga asosan jamiyat boshlang‘ich tashkilotlarning qarori bilan ham amalga oshiriladi.

Umumta'lim maktablarining, o'quv yurtlarining, bolalar va o'smirlar sport maktablarining boshlang'ich tashkilotlari, sport klublari, mehnat jamolari, fuqarolarning birlashmalari jamiyatning jamoa a'zolari bo'lishlari mumkin.

O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyatining tashkiliy tuzilmasi.

Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi quyidagicha:

Jamiyatning markaziy kengashi;

Jamiyatning Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari;

Jamiyatning tuman, shahar kengashlari;

O'quv yurtlarida, tashkilotlarda va xalq ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalarida tashkil qilinadigan jismoniy tarbiya va sport klublari jamoalari jamiyatning boshlang'ich tashkilotlari hisoblanadi.

O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati mablag'larini shakllantirish.

Jamiyat a'ziligiga qabul qilingan o'quvchi – yoshlar uchun kirish badali yiliga bir marotaba eng kam ish haqining 2 foizi xodimlar uchun 4 foizi miqdorida belgilanadi.

Etim bolalar, ota – onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalar, bolalar uylarida tarbiyalanuvchilar va maxsus maktab – internatlarining o'quvchilari, nogironlar, nafaqadagilar a'zolik va kirish badallari to'lashdan ozod qilinadilar.

A'zolik badallarining 25% boshlang'ich tashkilotlarda, 25% tuman va shahar kengashlariga, 25% mintaqaviy kengashlariga, 25% Markaziy kengashga yo'llanadi.

"Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati a'zolarining huquqlari.

Jamiyat a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

- sport seksiyalari va sog'lomlashtirish guruhlarida shug'ullanish, sport maktablari, bolalar va o'smirlar jismoniy tayyorgarlik klublari va hokazo;
- ommaviy jismoniy tarbiya bayramlari, festivallari, sport musobaqalarda qatnashish, jamiyat o'tkazadigan o'quv kurslari va seminarlarida o'qish;

- o‘quv – mashq mashg‘ulotlari va dam olish uchun sport inshootlaridan, jamiyat bazalari va sport jihozlaridan belgilangan tartibda foydalanish;
- jamiyatning sport kiyimini kiyish, jamiyat belgisi va nishonini taqib yurish.

“Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati a’zolarinig burchlari.

- jamiyatning Ustaviga amal qilish;
- jamiyat oldida qo‘yilgan asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishga ko‘maklashish;
- har yili a’zolik badallarini to‘lash.

“Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyatiinig huquqlari.

- Jamiyat yuridik shaxsning barcha huquqlaridan foydalanadi;
- jamiyat o‘z bayrog‘iga, ramzi hamda vimpeliga, faxriy yorliqlariga, sport medallariga, diplomlar va ko‘krakka taqiladigan nishoniga ega bo‘ladi;
- jamiyatnig mintaqaviy va shahar va tuman kengashlari bo‘ladi;
- jamiyat klublari, filiallari va bo‘limlari belgilangan tartibda ta’ sis etishi mumkin;
- mintaqaviy kengash tomonidan tasdiqlangan daromad va xarajatlar smetasi;
- yilliy ish rejasi, musobaqalar jadvali va bajarilishi bo‘yicha hisobotlar yuritadi.

“Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyatiinig mintaqaviy kengashlari faoliyati.

Jamiyat mintaqaviy kengashlarining yuqori organi besh yilda bir marotaba chaqiriladigan konferensiyasi hisoblanadi.

Mintaqaviy kengashlar yuridik shaxs hisoblanadi. Tuman, shahar kengashlaridan tushadigan a’zolik badallari uchun mintaqaviy Kengashlarida maxsus hisob raqam ochiladi.

Umumiy a’zolarining soniga asosan hisoblanganda a’zolik badallarinig 25% mintaqaviy kengashining o‘zida qoladi, 25% Markaziy kengashiga o‘tkazilib beriladi.

Mintaqaviy kengashlarining mablag‘lari Markaziy kengash tomonidan tasdiqlangan smetaga asosan ishlatiladi.

“Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyatii mintaqaviy kengashlarining meyoriy hujjatlari.

Mintaqaviy kengashlarining quyidagi meyoriy hujjatlari bo‘lishi lozim:

- kengashni tashkil qilish bo‘yicha ta’ sis konferensiyasi qarori;
- shahar va tuman kengashlarini tashkil qilish bo‘yicha qaror;
- shahar va tuman kengashlarining ta’ sis konferensiyasi qarorlari;
- shahar va tuman kengashlariga saylangan rais va rais o‘rinbosarlarining ro‘yxati;
- boshlang‘ich tashkilotlar ro‘yxati;
- jismoniy tarbiya jamoasi rahbarlari ro‘yxati;
- shahar va tuman kengashlari tomonidan a’zolik badallarining bajarilishi bo‘yicha tahliliy ma’lumot;
- yig‘ilgan a’zolik badallarini belgilangan qismini Markaziy kengashga o‘tkazganlik bo‘yicha band tasdiqlangan hujjat;
- Markaziy kengash tomonidan tadiqlangan daromad va Yillik ish rejasi, musobaqalar jadvali.

“Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyatii boshlang‘ich tashkiloti faoliyatining amalga oshirilishi.

Jamiyatning boshlang‘ich tashkiloti o‘quv yurtlarida, tashkilotlarda va Xalq ta’limi tizimidagi ta’lim muassasalarida tashkil qilinadi.

Maktab jismoniy tarbiya jamoasining kamida 15 nafar a’zosining xoxishiga asosan tashkil qilinadi.

Tashkil qilingan har bir boshlang‘ich tashkilot jamoa a’zolarining ro‘yxati olinadi va tuman, shahar kengashlarida hisobda turadi.

O‘z tarkibida 100 nafardan ortiq a’zolari biriktirgan, o‘zining zarur sport bazasi, kadrlari bo‘lgan va sport ko‘rsatkichlari yaxshi bo‘lgan boshlang‘ich tashkilotga yuridik tashkilot maqomi berilishi mumkin.

Boshlang‘ich tashkilot raisligiga o‘quv muassasa rahbarlari saylanadi va o‘zining amalga oshirgan ishlari to‘g‘risida vaqti-vaqti bilan tuman kengashiga axborot berib turadi.

Tashkilot a’zolarining ixtiyoriy ravishda bergan a’zolik badallarining 25% boshlang‘ich tashkilotning o‘zida qoladi, 75 % tuman kengashi hisob raqamiga pul o‘tkazish yo‘li bilan o‘tkazib beriladi.

Boshlang'ich tashkilot mablag'ning o'zida qolgan qismini tashkilot a'zolarining musobaqalarda ishtirok etishi, musobaqalar o'tkazish, muassasa sport bazasi uchun birlamchi sport jihozlari sotib olishga va boshlang'ich tashkilot nizomida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish uchun sarflaydi.

“Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati boshlang'ich tashkilotining me'yoriy hujjatlari.

Boshlang'ich tashkilotda quyidagi me'yoriy hujjatlar bo'lishi lozim:

- Boshlang'ich tashkilot a'zolari ro'yxati;
- Boshlang'ich tashkilotni tashkil qilish bo'yicha umumiy yig'ilish qarori;
- Boshlang'ich tashkilot a'zolarining a'zolikka kirish bo'yicha arizasi yoki umumiy yig'ilish qarori;
- a'zolarida pul yig'ililganligi bo'yicha qaydnoma;
- yig'ilgan a'zolik badallarini belgilangan qismini tuman kengashiga o'tkazganlik bo'yicha bank tasdiqlagan hujjat;
- yilliy ish rejasi, musobaqalar jadvali va bajarilishi bo'yicha hisobot.

“Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyatining shahar, tuman kengashlari faoliyati.

Jamiyatning tuman, shahar kengashlarining yuqori organi kamida ikki yilda bir marotaba chaqiriladigan konferensiyasi hisoblanadi.

Tuman, shahar kengashlari yuridik shaxs hisoblanib, bankda o'zining hisob raqamiga ega bo'lish kerak.

Tuman, shahar kengashlari yig'ilgan a'zolik badallaridan nizomda ko'rsatilgan foizini mintaqaviy kengashlariga faqat pul o'tkazish yo'libilan o'tkazib beradi.

Kengash mablag'lari boshlang'ich tashkilotlarning azolaridan tushgan a'zolik badallaridan shakllanadi.

Badallarning 25% tuman, shahar kengashining o'zida qoladi 50% viloyat kengashiga o'tkazib beriladi.

Tuman, shahar kengashlarining mablag'lari yuqori kengash tomonidan tasdiqlangan smetaga asosan ishlatiladi.

“Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyatining shahar va tuman kengashlari uchun kerakli me’yoriy hujjatlar.

Jamiyatning shahar va tuman kengashlari uchun quyidagi me’yoriy hujjatlar bo‘lishi lozim:

- Kengashni tashkil qilish bo‘yicha ta’sis konferensiyasi qarori;
- Boshlang‘ich tashkilotlar va a’zolarining ro‘yxati;
- Boshlang‘ich tashkilot rahbarlari ro‘yhati;
- Jismoniy tarbiya jamoasi rahbarlari ro‘yxati;
- Boshlang‘ich tashkilotlarda o‘tkazilgan yig‘ilish bayonlari;
- Boshlang‘ich tashkilotlar tomonidan a’zolik badallarining bajarilishi bo‘yicha tahliliy ma’lumot;
- Yig‘ilgan a’zolik badallarini belgilangan qismini mintaqaviy kengashiga o‘tkazilganlik bo‘yicha bank tasdiqlagan hujjat.

Sport federatsiyalari – qaysi sport turi bo‘lmasin, musobaqalarni tashkil qilish va o‘tkazish faoliyatlarini amalga oshiradigan tashkilot. Bunda musobaqa Nizomi, hakamlik ishlari asosiy o‘rinda turadi. SHu tufayli mamlakatimizda 90dan ortiq sport turlari bo‘yicha federatsiyalar tashkil etilgan. Ular o‘z navbatida olimpiik sport turlari, nonolimpiik sport turlari hamda milliy sport turlari federatsiyalariga bo‘linadi. Hozirgi kunda Respublikamizda to‘rtta milliy federatsiyalarimiz mavjud. Ular; kurash, belbog‘li kurash, turon, o‘zbek jang san’ati sport federatsiyalaridir. Ushbu milliy federatsiyalar mamlakatimizda milliy sport turimizni rivojlantirish uni jaxon miqyosida nufuzini oshirish bilan birgalikda, milliy qadriyatlarimiz, urf odatlarimiz hamda an’analarimizni tiklash o‘sib kelayotgan yosh avlodga sport orqali singdirish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Har bir federatsiyaning o‘z Nizomi mavjud. Nizomlarda federatsiyalarning tarkibiy tuzilishi, rahbar va xay’atini saylash, ish mazmuni hamda vazifalari, moddiy mablag‘lar kabi jihatlar aks ettirilgan.

Federatsiyalarning eng muhim vazifalariga musobaqa koidalarini ishlab chiqish yoki o‘zgartirishlar kiritish, musobaqalarning Nizomini tayyorlash,

hakamlarning malakasini oshirish, murabbiylarning faoliyatlarini o'rganish kabi talablar kiradi.

Sport federatsiyalari tarkibiga asosan hakamlar va murabbiylar kengashi kiradi. Ular o'z faoliyatlarini mustaqil va alohida olib boradilar.

Hakamlar kengashi musobaqa qoidalarini ishlab chiqishi, bajarilishini doimiy nazorat qilish, yangiliklar kiritish bilan shug'ullanadilar. Musobaqalar asosan, avvaldan tuzilgan va tasdiqlangan Nizomlar asosida o'tkaziladi, ularning yakunlari federatsiya hay'atida ko'rib chiqiladi va hisobot beriladi.

Murabbiylar kengashi ilg'or tajribalarni ommalashtirish, sportchilarning texnik va taktik mahoratlarini takomillashtirish, musobaqalarga tayyorgarlik kabi muhim masalalarni muhokama qiladi. Zarur muammolarni federatsiya hay'atiga tavsiya etadi.

Hulosa qilib aytganda, O'zbekistonda boshqarish ishlariga jamoatchilik keng jalb qilinmoqda. Demokratik tamoyillarni amalga oshirishda o'zini-o'zi boshqarish, bunda pullik xizmatlar, tijorat va ishlab chiqarish yo'llari bilan moddiy ta'minlashga imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu sohada sport jamiyatlari, uyushmalari, assotsiatsiyalar, jamg'armalar va boshqa jamoat tashkilotlari faol ishtirok etmoqdalar.

Sport jamiyatlari, uyushmalari va ular bilan bevosita aloqador bo'lgan tashkilotlar mustaqil faoliyat yuritish evaziga sportchilarning tayyorgarliklarini yaxshilash, ularning mahoratini oshirish, sport buyumlari va jihozlarini xarid qilish, sport inshootlarini kengaytirish, ta'mirlash kabi zarur ishlarni amalga oshirmoqda.

Bunday faoliyatlar, ayniqsa, «Dinamo» sport jamiyati, mudofaaga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti va boshqa sport jamiyatlari hamda tashkilotlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Respublikada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda sport jamiyatlari, ularning tarmoqlari, ayniqsa, jismoniy tarbiya jamoalari hamda ishlab chiqarish korxonalari, oliy o'quv yurtlari tarkibidagi sport klublarining hissasi tobora oshib bormoqda.

Barcha toifalarda o'tkazilayotgan sport musobaqalarining aniq maqsad yo'lida tashkil etilishida hakamlar, murabbiylarning roli va mas'uliyatlari kengaymoqda.

5. Boshqarishning jamoat tashkilotlari. "Mahalla", "Sog'lom avlod uchun" va boshqa xayriya jamg'arma uyushmalari, "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi, "Yoshlar ittifoqi"ning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vazifalari.

Jismoniy tarbiya va sportni tashkil qilishda jamg'arma uyushmalarining faoliyatlari

Mustaqillik sharoiti davrida aholining ijtimoiy turmush darajasini tobora oshirish milliy qadriyatlarni qayta tiklash, ma'naviy-ma'rifiy madaniyatimizni jahon xalqlarining ilg'or madaniyati bilan boyitish «Sog'lom avlod uchun» davlat dasturini amalga oshirish va boshqa sohalarida ko'maklashuvchi jamg'arma uyushmalari tashkil qilindi. Ularning qisqacha faoliyatlari bilan quyida tanishish mumkin.

«Mahalla» xayriya jamg'armasi mahalla oqsoqollari jamoalarini birlashtiruvchi tashkilotdir. Jamg'arilgan mablag'larni kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, faxriylarni moddiy rag'batlantirishga, shuningdek, mahallalarda o'tkaziladigan madaniy va ommaviy sport tadbirlariga sarflaydi.

«Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi O'zbekiston Prezidentining 1993 yil 4 martidagi «Sog'lom avlod uchun» ordenini ta'sis etish to'g'risidagi farmoni asosida vujudga kelgan va hukumatga qarshi bo'lmagan tashkilotdir. «Sog'lom avlod uchun» davlat dasturini amalga oshirish, ayniqsa o'quvchi-yoshlarning ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish, ularga moddiy yordam ko'rsatishda xizmatlari g'oyat kattadir.

«Yoshlar ittifoqi» o'quvchi yoshlar, talabalarning ta'lim-tarbiya, kasb-hunar, texnikani egallash, salomatlik, sport, madaniyat sohalaridagi faoliyatlarida amaliy jihatdan ko'maklashadi. Respublikamizda «Bolalar» xayriya jamg'armasi, «Nuroniy» xayriya jamg'armasi va shunga o'xshash ko'pgina xayriya

jamg'armalari mavjuddir. Ular o'z sohalarida o'tkaziladigan madaniy tadbirlarda ko'maklashadi va belgilangan tartibda moddiy yordam beradi.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, yuqorida nomlari qayd etilgan jamg'arma va uyushmalarining viloyat, tuman-shahar bo'limlari, ularning ko'pgina jamoalarda boshlang'ich tashkilotlari amaliy jihatdan faoliyat ko'rsatib, yaxshi samaralarga erishmoqda. Ular faoliyatida ommaviy sport tadbirlari va xalq milliy o'yinlarini tashkil qilishda amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etmoqda.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Boshqaruv organi nima?
2. Boshqarishning umumdavlat organlariga qaysi organlar kiradi?
3. Boshqaruv vakolatlari deganda nima tushuniladi?
4. Boshqaruv vakolatlari qanday turlarga bo'linadi?
5. Davlatni boshqarishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga qanday vakolatlar berilgan?
6. Qonun chiqaruvchi organ qaysi va uning qanday tuzilmaga ega?
7. Davlatni boshqarishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning vakolatlariga nimalar kiradi?
8. Vazirlar Mahkamasi qanday organ?
9. Parlament tizimi qanday vakolatlarga ega?
10. Boshqarishning maxsus vakolatlarga ega bo'lgan organlariga qaysi idoralar kiradi?

3-MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT VAZIRLIGI

REJA

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni va uning asosiy mazmuni.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligining tashkiliy tuzilishi.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligining ichki tuzilishi.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligining tarkibiy tarmoqlari.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi davlat idoralari va jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus tashkilot.
- 6.Jismoniy tarbiya va sport boshqarmalarining faoliyatlari: mutaxassis xodimlar, sport jamoalari, uyushmalar (federatsiyalar) bilan ishlash, jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishning ilmiy asoslari.
- 7.O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligining ommaviy axborot vositalari bilan aloqasi (radio, televidenie, matbuot).

Tayanch iboralar: *O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi, vazirliklar, tarkibiy tuzilma, davlat idoralari, sport federatsiyalari, sport uyushmalari, sport jamoalari, mutaxassis xodimlar.*

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni va uning asosiy mazmuni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son **Farmoni** ijrosi yuzasidan “O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi PQ-3583-sonli qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi jismoniy tarbiya va sport sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Vazirlikning o‘z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijro etilishi majburiy hisoblanadi. Tuman (shahar) jismoniy tarbiya va sport bo‘limlarining shtatlar soni, jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar jismoniy tarbiya va sport boshqarmalarining tuman (shahar) jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha bosh mutaxassislari sonini qisqartirish hisobiga shakllantiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi respublika hududida davlat sport ob‘ektlari qurilishining maqsadga muvofiqligi yuzasidan ekspert xulosasini beradi va ulardan samarali foydalanilishini monitoring qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida “Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg‘armasi” shakllantirildi. Uning mablag‘larini shakllantirish manbalari quyidagilardir:

-xayriya tashkilotlari, xususiy tadbirkorlar, jismoniy va yuridik shaxslar, jumladan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan ajratiladigan homiylik o‘tkazmalari;

-jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun 2018 yil 1 iyundan kiritiladigan yigʻimlar miqdori, yaʼni:

T/r	Yigʻim toʻlovchilari	Yigʻim obʻekti	Miqdori
1.	Pivo ishlab chiqaruvchilar	Pivo sotish hajmi	1 dal uchun 2 000 soʻm
2.	Aroq ishlab chiqaruvchilar	Aroqni sotish hajmi	1 dal uchun 5 000 soʻm
3.	Tamaki mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar	Sotilgan sigaretlar soni	1 ming dona uchun 1000 soʻm


-Oʻzbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablagʻlari;

-2018 yil 1 iyundan boshlab, trenerlik faoliyati bilan shugʻullanish uchun attestatsiyadan oʻtkazish va ruxsatnomalar berish, shuningdek, jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish va sport inshootlarini pasportlashtirish hisobidan tushadigan mablagʻlarning bir qismi va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi “Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamgʻarmasi” faoliyatini tashkil etish, uning daromadlari va xarajatlari parametrlarini, jumladan bolalar sporti obʻektlarini, xususan homiylik mablagʻlaridan qurish, qayta qurish va kapital taʼmirlash ishlarini moliyalashtirishning aniq manbalarini belgilash boʻyicha Hukumat qarori qabul qilindi.

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat soliq qoʻmitasi bilan birgalikda “Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamgʻarmasi”ga yigʻimlarni hisoblab, toʻlash tartibi toʻgʻrisidagi nizomni ishlab chiqqan.

2.Oʻzbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya sport vazirligining tashkiliy tuzilishi.



3. O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligining ichki tuzilishi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan poytaxt mintaqasida “Sport” erkin iqtisodiy zonasini tuzildi. «Sport» erkin iqtisodiy zonasida jahonning etakchi ishlab chiqaruvchilarini jalb etgan holda, sport kiyimlari, inventarlari va uskunalarini ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy

korxonalarini qurish va ushbu zonada amalga oshirish uchun loyihalarni tanlab olish mezonlarini aniqlagan holda direksiya tashkil etildi.

Qarorda “Sport” erkin iqtisodiy zonasining faoliyat yuritish muddati 30 yilni tashkil etilishi ko‘rsatib o‘tilgan. «Sport» erkin iqtisodiy zonasida amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun grantlar, kredit liniyalari va investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari, xorijiy banklar va boshqa investorlar — yuridik va jismoniy shaxslar (jumladan xorijiy investorlar), davlat va nodavlat jamg‘armalar, korxonalar va tashkilotlarning beg‘araz moliyaviy ko‘magi, shuningdek, tijorat banklarining kreditlari jalb etilishi ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ikki oy muddatda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarini optimallashtirish natijasida bo‘shatiladigan bino va inshootlar, inventar va uskunalarning bir qismi O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining hududiy bo‘linmalari balansiga o‘tkazilgan. Mazkur qarorga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari umumta’lim maktablari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalari o‘quvchilari o‘rtasida sport va jismoniy tarbiya-ommaviy tadbirlarning doimiy asosda tashkil etilishi hamda o‘tkazilishini nazarda tutgan holda, tegishlicha mahalliy byudjet mablag‘lari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan sport va jismoniy tarbiya-ommaviy tadbirlarning hududiy, tuman (shahar) kalendar rejalari har yili tasdiqlanadi va uni ijrosi ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hududiy bo‘linmalari boshqaruv xodimlarining cheklangan soni quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

T/r	Hududlar	Boshqaruv	jumladan:
-----	----------	-----------	-----------

		xodimlarining umumiy cheklangan soni	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar jismoniy tarbiya va sport boshqarmalarida	Tuman (shahar) jismoniy tarbiya va sport bo‘limlarida
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	70	14	56
2.	Andijon viloyati	66	11	55
3.	Buxoro viloyati	55	11	44
4.	Jizzax viloyati	55	11	44
5.	Qashqadaryo viloyati	66	11	55
6.	Navoiy viloyati	47	11	36
7.	Namangan viloyati	54	11	43
8.	Samarqand viloyati	70	12	58
9.	Sirdaryo viloyati	49	11	38
10.	Surxondaryo viloyati	60	11	49
11.	Toshkent viloyati	89	13	76
12.	Farg‘ona viloyati	78	12	66
13.	Xorazm viloyati	53	11	42
14.	Toshkent shahri	57	13	44
Jami:		869	163	706

O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hududiy bo‘linmalari boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 869 ta, shundan Qoraqalpog‘iston respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar jismoniy tarbiya va sport boshqarmalarida 163 ta, tuman (shahar) jismoniy tarbiya va sport bo‘limlarida 706 tani tashkil etadi.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘limlari xodimlarining cheklangan sonidan kelib chiqqan holda, toifalangan shaharlar — viloyat markazlari, tuman (shahar)lar ro‘yxati quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

T/r	Hududlar	Tumanlar va shaharlar	
		1-toifa	2-toifa

1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	<p>Nukus shahri</p> <p>Qo‘ng‘irot tumani</p> <p>Xo‘jayli tumani</p> <p>Beruniy tumani</p> <p>To‘rtko‘l tumani</p> <p>Chimboy tumani</p> <p>Ellikqal‘a tumani</p> <p>Amudaryo tumani</p>	<p>Shumanay tumani</p> <p>Qonliko‘l tumani</p> <p>Kegeyli tumani</p> <p>Mo‘ynoq tumani</p> <p>Qorao‘zak tumani</p> <p>Taxtako‘pir tumani</p> <p>Nukus tumani</p> <p>Taxiatosh tumani</p>
2.	Andijon viloyati	<p>Andijon shahri</p> <p>Qo‘rg‘ontepa tumani</p> <p>Shahrixon tumani</p> <p>Andijon tumani</p> <p>Jalaquduq tumani</p> <p>Izboskan tumani</p> <p>Marhamat tumani</p>	<p>Xonobod shahri</p> <p>Asaka tumani</p> <p>Baliqchi tumani</p> <p>Bo‘z tumani</p> <p>Buloqboshi tumani</p> <p>Paxtaobod tumani</p> <p>Oltinko‘l tumani</p> <p>Xo‘jaobod tumani</p> <p>Ulug‘nor tumani</p>
3.	Buxoro viloyati	<p>Buxoro shahri</p> <p>G‘ijduvon tumani</p> <p>Romitan tumani</p> <p>Qorako‘l tumani</p> <p>Shofirkon tumani</p>	<p>Kogon shahri</p> <p>Jondor tumani</p> <p>Peshku tumani</p> <p>Olot tumani</p> <p>Buxoro tumani</p> <p>Vobkent tumani</p> <p>Kogon tumani</p> <p>Qorovulbozor tumani</p>

4.	Jizzax viloyati	Jizzax shahri Zomin tumani Do'stlik tumani G'allaorol tumani Forish tumani	Baxmal tumani Sh.Rashidov tumani Paxtakor tumani Mirzacho'l tumani Arnasoy tumani Zarbdor tumani Zafarobod tumani Yangiobod tumani
5.	Qashqadaryo viloyati	Qarshi shahri Shahrisabz tumani Nishon tumani Muborak tumani Mirishkor tumani Chiroqchi tumani G'uzor tumani Yakkabog' tumani Koson tumani Qamashi tumani	Shahrisabz shahri Qarshi tumani Kitob tumani Dehqonobod tumani Kasbi tumani
6.	Navoiy viloyati	Navoiy shahri Zarafshon shahri Uchquduq tumani Qiziltepa tumani Xatirchi tumani Karmana tumani	Konimex tumani Navbahor tumani Nurota tumani Tomdi tumani

7.	Namangan viloyati	Namangan shahri Kosonsoy tumani Norin tumani Uchqo‘rg‘on tumani Chust tumani Pop tumani To‘raqo‘rg‘on tumani	Chortoq tumani Mingbuloq tumani Namangan tumani Uychi tumani Yangiqo‘rg‘on tumani
8.	Samarqand viloyati	Samarqand shahri Kattaqo‘rg‘on shahri Urgut tumani Narpay tumani Jomboy tumani Samarqand tumani Ishtixon tumani Payariq tumani Pastdarg‘om tumani Kattaqo‘rg‘on tumani	Bulung‘ur tumani Nurobod tumani Paxtachi tumani Oqdaryo tumani Qo‘shrobod tumani Tayloq tumani
9.	Sirdaryo viloyati	Guliston shahri Sirdaryo tumani Boyovut tumani Sayxunobod tumani Xovos tumani	Shirin shahri Yangier shahri Sardoba tumani Oqoltin tumani Guliston tumani Mirzaobod tumani

10.	Surxondaryo viloyati	Termiz shahri Denov tumani Shoʻrchi tumani Sherobod tumani Jarqoʻrgʻon tumani Sariosiyo tumani Muzrobod tumani	Qumqoʻrgʻon tumani Uzun tumani Angor tumani Boysun tumani Qiziriq tumani Oltinsoy tumani Termiz tumani
11.	Toshkent viloyati	Nurafshon shahri Olmaliq shahri Angren shahri Bekobod shahri Chirchiq shahri Boʻstonliq tumani Qibray tumani Zangiota tumani Oʻrtachirchiq tumani Yangiyoʻl tumani	Ohangaron shahri Yangiyoʻl shahri Ohangaron tumani Oqqoʻrgʻon tumani Bekobod tumani Boʻka tumani Quyichirchiq tumani Parkent tumani Pskent tumani Chinoz tumani Yuqorichirchiq tumani Toshkent tumani
12.	Fargʻona viloyati	Fargʻona shahri Qoʻqon shahri Margʻilon shahri Quva tumani Bogʻdod tumani Beshariq tumani Oʻzbekiston tumani Toshloq tumani Uchkoʻprik tumani	Quvasoy shahri Buvayda tumani Dangʻara tumani Oltiariq tumani Qoʻsh tepa tumani Rishton tumani Fargʻona tumani Yozyovon tumani Soʻx tumani Furqat tumani

13.	Xorazm viloyati	Urganch shahri Xozarasp tumani Xiva tumani Honqa tumani Bog‘ot tumani Shovot tumani	Xiva shahri Urganch tumani Qo‘shko‘pir tumani Gurlan tumani Yangiariq tumani Yangibozor tumani
14.	Toshkent shahri	Olmazor tumani Bektemir tumani Mirobod tumani M.Ulug‘bek tumani Sergeli tumani Uchtepa tumani Chilonzor tumani Shayxontohur tumani Yunusobod tumani Yakkasaroy tumani Yashnobod tumani	
Jami		106	94

1-toifa — 4 nafar shtat birligi soni belgilanadi (boshliq — 1, sportni rivojlantirish va saralash (seleksiya) bo‘yicha bosh inspektor — 1, ommaviy sportni rivojlantirish va jismoniy tarbiya-sport tadbirlarini tashkillashtirish bo‘yicha bosh inspektor — 1, bosh buxgalter — 1);

2-toifa — 3 nafar shtat birligi soni belgilanadi (boshliq — 1, sportni rivojlantirish va saralash (seleksiya) bo‘yicha bosh inspektor — 1, bosh buxgalter — 1);

jami 706 shtat birligi (boshliq — 200 nafar, sportni rivojlantirish va saralash (seleksiya) bo‘yicha bosh inspektor — 200 nafar, ommaviy sportni rivojlantirish va jismoniy tarbiya-sport tadbirlarini tashkillashtirish bo‘yicha bosh inspektor — 106 nafar, bosh buxgalter — 200 nafar)ni tashkil etadi.

Nazorat uchun savollar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni mohiyati nimada?
- 2.O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya sport vazirligining tashkiliy tuzilmasining ahamiyati qanday?
- 3.Jismoniy tarbiya va sport boshqarmalarining faoliyatini tushuntirib bering.

4-MAVZU. JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISHNING DAVLAT IDORALARI

REJA

- 1.O‘quv yurtlariga ega bo‘lgan davlat idoralari, ularning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi asosiy vazifalari.
- 2.Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligining jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilishdagi ishtiroki.
- 3.Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil qilish, aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilish, «Sog‘lom avlod uchun» davlat dasturini amalga oshirishdagi faoliyati.
- 4.Ichki ishlar, mudofaa, qishloq va suv xo‘jaligi, engil sanoat, madaniyat ishlari va boshqa sohalarda bo‘yicha idora qiluvchi vazirliklarning jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilishdagi asosiy vazifalari.

Tayanch iboralar: davlat idoralari, qonun, qonuniyat, qarorlar, jismoniy tarbiya va sport, boshqarish, boshqarish tamoyillari, boshqarish usullari, boshqarish funksiyasi, tizim, boshqarish tizimi, sport tashkiloti, jamoat tashkilotlari.

1.O‘quv yurtlariga ega bo‘lgan davlat idoralari va ularning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vazifalari

Xalq xo‘jaligining barcha sohalari bo‘yicha mutaxassis xodimlarni tayyorlash ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Bunda taraqqiy etgan mamlakatlarning ish tajribalaridan maqsadli foydalanilmoqda. Hozirgi zamon texnika taraqqiyoti va qo‘shma korxonalarining yurtimizda faoliyat ko‘rsatishi zamon talablari asosida kadrlar tayyorlashni taqozo etmoqda.

Jahon xalqlari kabi O'zbekistonda ham yangi asrda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va sport taraqqiyoti uchun katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, buyuk kelajakning sog'lom avlodlarini tarbiyalab etishtirish, bo'lajak o'qituvchi, shifokor, muhandis, aktyor, rassom va barcha sohalardagi mutaxassislarni jismoniy kamolot sari etaklash bugunning muhim vazifalaridan biridir. Jismoniy jihatdan barkamol mutaxassislarni tarbiyalab etishtirishda o'quv yurtlariga ega bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari, konsernlar, kompaniyalar o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Ma'lumki, o'quv yurtlarining dasturlari hamda o'quv rejaları Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari tomonidan ishlab chiqilsa-da, ular boshqa sohalardagi vazirliklar tarkibidagi barcha o'quv yurtlarida bevosita qo'llaniladi. Ular, asosan, o'quv yurtlarini moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan ta'minlashda xizmat qiladi.

Shunga ko'ra, o'quv yurtlari uchun ishlab chiqilgan yagona «Jismoniy tarbiya» dasturi barcha turdagi o'quv yurtlarida qo'llaniladi.

O'quv yurtlarining asosiy qismi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tarkibida bo'lsa-da, tibbiyot, savdo, qishloq va suv xo'jaligi, texnika, qurilish va boshqa sohalardagi vazirliklar hamda qo'mitalar tarkibida ham o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari mavjuddir. Ularda jismoniy tarbiya darslari, sport turlari bo'yicha mashg'ulotlar, ommaviy sog'lomlashtiruvchi sport tadbirlari Davlat dasturi asosida olib boriladi. «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari asosida bo'lajak mutaxassislarning jismoniy kamolotini oshirish ishlari bajariladi.

O'quv yurtlariga ega bo'lgan barcha davlat idoralarida «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonun, «Sog'lom avlod uchun» davlat dasturi, davlat ta'lim standarti talablari amalga oshiriladi.

2.Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligining jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilishdagi ishtiroki.

Xalq ta'limi vazirligi tizimida barcha fanlar bilan bir qatorda jismoniy tarbiya darslari ham o'zining mazmunan va shaklan o'rni hamda mohiyatiga ega. SHu tufayli Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumta'lim maktablari, maxsus

maktablar, kollej, litseylar, oʻrta va oliy pedagogika oʻquv yurtlari, sport maktablari hamda maktabgacha bolalar muassasalarida jismoniy tarbiyaga alohida oʻrin berilgan. Oʻquv yurtlari va turli muassasalarning ish mohiyatiga qarab jismoniy tarbiyaning mazmuni, shakli va xususiyatlari ham oʻziga xosdir. Ularni tashkil qilish va boshqarishning ham alohida xususiyatlari mavjud. Shu tufayli Xalq taʼlimi vazirligi tizimiga jismoniy tarbiya va sport ishlarini boshqarish boʻlimlari, turli idoraviy va jamoat sport tashkilotlari ham kiradi.

Shu oʻrinda aytish kerakki, «Taʼlim toʻgʻrisida»gi qonun asosida hozirgi kunda respublikada xalq taʼlimi tizimida keskin oʻzgarishlar, islohotlar oʻtkazilmoqda.

Jismoniy tarbiya darslari Davlat taʼlim standartlari asosida tashkil etilmoqda. Respublikadagi 9 mingdan ortiq maktablarda 6 mln. ga yaqin oʻquvchilar taʼlim olmoqda. Oʻrta va oliy pedagogika oʻquv yurtlaridagi talabalarning soni ham tobora oʻsib bormoqda. Ularda 17 mingdan ortiq oʻqituvchilar jismoniy tarbiyadan mashgʻulotlar oʻtkazmoqda. Deyarlik barcha oʻquv yurtlarida sport zallari, oʻyin maydonlari, baʼzi birlarida suv havzalari mavjud. Sportning 20 dan ortiq turlari, boʻyicha har yili «Quvnoq startlar», «Umid nixollari» musobaqalari oʻtkazib kelinmoqda. Bu holatlar oʻrta va oliy pedagogika oʻquv yurtlarida birmuncha koʻproq va sifatliroq tashkil qilinadi. Oʻquvchi yoshlarning koʻpchiligi turli sport toʻgaraklari, sayohatlar ommaviy sport musobaqalarida doimo ishtirok etadi. Xalq taʼlimi vazirligi tizimida turli doirada va toifada tashkil qilingan bolalar va oʻsmirlar sport maktablari faoliyat koʻrsatadi, ularning oʻziga xos tashkiliy, moliyaviy-xoʻjalik tadbirlari mavjud. Ana shularning hammasini uyushtirish va boshqarish uchun juda katta mehnat talab qiladi.

Oʻquvchi yoshlarning darsdan tashqari sport va sogʻlomlashtirish mashgʻulotlarini tashkil qilish va sport musobaqalarini oʻtkazishda ularning jamoatchi tashkilotlari, yaʼni «Yoshlik» sport uyushmasi hamda ularning quyi tarmoqlari xizmat qiladi.

Yana shuni ham eʼtirof etish kerakki, mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlar, urf-odatlar tiklanmoqda. Bu juda koʻp ijobiy tomonlarga ega boʻlish

bilan birgalikda, maktab o'quvchilari, ayniqsa, mahalliy qizlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari haqida turli fikr va mulohazalarni ham keltirib chiqarganligi sir emas. Ya'ni, ularning murakkab mashqlarni bajarmasligi, hozirgi mavjud bo'lgan sport kiyim-boshlarini kiymasligi va hokazolar. Bu haqda Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'zining katta anjumanini Farg'onada o'tkazib, ma'lum qarorga keldi. Bu, o'z navbatida, aholining haqli e'tirozlarini inobatga olish va qizlar mashg'ulotlarini talab va zamon sharoitiga moslab o'tkazishda bir qadar olg'a siljish bo'ldi. Lekin mazkur sohada mutaxassislar, qizlarning o'zlari va ba'zi bir ota-onalarning ham jiddiy e'tirozlari borki, qizlarni jismoniy tarbiya va sportdan butunlay uzoqlashtirish mumkin emas.

Xalq ta'limi vazirligi tizimida bevosita jismoniy tarbiya va sport ishlariga rahbarlik qiluvchi bo'limlar, kabinetlar asosan quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradilar:

1. O'quvchi yoshlarning jismoniy kamolotini oshirish, ularni mehnat va hayotga tayyorlash, bunda jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanishni o'rgatish.

2. Sog'lom turmush tarzida jismoniy tarbiya va sportning mohiyatini, o'rnini ongli ravishda tushunishlariga erishish.

3. Jismoniy tarbiya darslari, sport mashg'ulotlari va turli musobaqalarda qatnashish yo'li bilan o'zlarining jismoniy sifatlarini tarbiyalash, jamoa (komanda) ahlligi, o'zaro hurmat va g'oliblik, kurash yo'llarini o'rgatish.

4. Jismoniy tarbiya vositalari orqali mehnatga tayyorgarlik va Vatan himoyasi uchun kuchini ko'paytirishga odatlantirish. Bunda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarini to'la bajarishlariga erishish.

5. Sport cho'qqilarini egallashga chorlash, xalqaro sport maydonlarida respublika obro'yini ko'tarish tuyg'ularini kuchaytirish va vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish.

6. Bo'lajak kasbga tayyorlash va qaysi kasb-hunar bo'lmasin, o'z sog'liqlarini mustahkamlashga intilish, kelajakda sog'lom avlod uchun kurash yo'llarini egallash va hokazolar.

Ana shu faoliyatlar o'quv yurtlarida qanday amalga oshirilayotganligi bilan faqat mutasaddi tashkilotlarga emas, balki juda ko'p mutaxassislar, ilmiy xodimlar ham qiziqadi. Ana shularni e'tiborga olgan holda maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishlari hamda ularning jismoniy tayyorgarliklarini o'rganish maqsadida maxsus izlanish va tadqiqot ishlarini olib borish davom etmoqda. Bu tadqiqotlar O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining 2016-2017; 2017-2018 hamda 2021 yilgacha mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarining birinchi yo'nalishi va ilmiy hisobotlarida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, bir qator o'quv qo'llanmalari, uslubiy tavsiyanomalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish yo'lida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi etakchi hisoblanadi. Muassasaviy mansublikdan qat'iy nazar, barcha o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining o'quv rejaları, dasturlari shu vazirlik tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Shular qatorida o'quvchi-yoshlar va talabalarning jismoniy tarbiya darslari, ommaviy sog'lomlashtiruvchi sport tadbirlariga ham umumiy qoida va talablar asosida rahbarlik shu vazirlik tomonidan amalga oshiriladi.

O'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilish, ularga rahbarlik tartibi, «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlar hamda davlat ta'lim standartlarida ko'rsatilgan umumiy qoidalar asosiga tayaniladi. Eng muhimi, «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari talablarini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Bunda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimi tarkibidagi bir qator maxsus bo'limlar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi. Bular quyidagilar:

1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «Jismoniy tarbiya va sport» bo'limi.

2. Oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlaridagi jismoniy tarbiya kafedarlari va sport klublari.

Ularning faoliyatiga koʻmaklashuvchi sport jamiyatlari ham mavjud, yaʼni: respublika Oliy oʻquv yurtlari talabalarining «Talaba» sport uyushmasi, uning viloyatlardagi tarmoqlari (sport klub, sport boʻlimi va hokazolar).

Oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurtlaridagi jismoniy tarbiya mashgʻulotlari asosan quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgandir:

1. Oʻquvchi-yoshlar va talabalarning sogʻligʻini mustahkamlash, jismoniy va maʼnaviy kamolotini yuksaltirish, iqtidorli sportchilarning mahoratini oshirish bilan bogʻliq barcha tadbir hamda faoliyatlarni taʼminlash.

2. Boʻlajak kasb-hunar yoʻnalishi asosida jismoniy tarbiya va sportning nazariy bilimlari, amaliy koʻnikmalari hamda ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish usullari bilan qurollantirish.

Maʼlumki, ijtimoiy mehnat va turmush sharoiti bilan bogʻliq sohalar juda koʻp. Ular malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashni taqozo etadi. Bu yoʻlda kasb-hunar kollejlari, turli yoʻnalishdagi bilim yurtlari oʻz faoliyatlarini davom ettirmoqda. Shu bilan birgalikda, davlat taʼlim standartlari hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yangidan kollejlar, litseylar, gimnaziya tashkil etilmoqda. Bunday oʻquv yurtlarida jismoniy tarbiya darslari va ommaviy sport turlari birmuncha ustuvor turadi. Ularni uyushtirish va tashkiliy masalalar umumiy qoidalar hamda maxsus Nizomlar asosida olib boriladi. Ularning «Barkamol avlod oʻyinlari» va Universiada sport musobaqalari asosiy tadbirlardan biridir.

Yuqorida qayd etilgan barcha turdagi hamda toifadagi oʻquv maskanlari, muassasalarida «Jismoniy tarbiya» darslari davlat dasturi asosida tashkil etiladi. Oʻquvchi-yoshlar va talabalarning «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari talablari hamda ommaviy sogʻlomlashtiruvchi sport tadbirlari sogʻlom avlod tarbiyasi, ularning maʼnaviy va jismoniy jihatdan barkamol boʻlib oʻsishlarini taʼminlashga qaratilgandir.

3. Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil qilish, aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilish, «Sog‘lom avlod uchun» davlat dasturini amalga oshirishdagi faoliyati.

Sog‘liqni saqlash vazirligi keng tarmoqli tizimlardan hisoblanadi. Uning tarkibida quyidagi o‘quv va davolash muassasalari mavjud:

1. Oliy va o‘rta tibbiyot o‘quv yurtlari.
2. Shifoxonalar, davolash markazlari.
3. Poliklinikalar.
4. Sanatoriyalar va aholi sog‘ligini qayta tiklash-davolash markazlari.
5. Ilmiy-tadqiqot institutlari, markaziy laboratoriyalar.
6. O‘quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalarini tarkibidagi tibbiy yordam bo‘limlari.
7. Jismoniy tarbiya dispanserlari va hokazolar.

Bularni tashkiliy jihatdan asosan ikki yo‘nalishga ajratish mumkin:

1) barcha tur va toifadagi tibbiy o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiya darslari, sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlar hamda sport tadbirlarini tashkil qilish.

2) bemorlarni jismoniy tarbiya vositalari yordamida davolash hamda sportchilar salomatligini kuzatish, nazorat qilish, jarohatlarni davolashni uyushtirish va hokazo.

Yuqorida qayd etilgan sohalar va tizimlar Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va yirik shaharlardagi uning boshqarma yoki bo‘limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiy bilim yurtlari, litsey va kollejlarda hamda institutlardagi o‘quvchi-yoshlar va talabalar jismoniy tarbiyaning umumtalab me‘yorlarini darslarda, ommaviy sport tadbirlarida bajarib boradilar. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya, sport, sayohat, xalq milliy o‘yinlari va tabiatning sog‘lomlashtiruvchi omillari: suv, havo, quyosh va boshqalar bilan davolash usullarini egallaydilar.

Shifoxona, davolash muassasalari va markazlarida shifokorlar tomonidan bemorlarni jismoniy mashqlar yordamida davolash faoliyati amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish korxonalari, o'quv yurtlari va turli muassasalar tarkibidagi tibbiy punktlar shifokor xodimlar va o'quvchi-yoshlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, ularning salomatligini kuzatish, zarur bo'lganda tibbiy yordam ko'rsatish va nihoyat, salomatlik haqida targ'ibot ishlarini olib borish bilan shug'ullanadilar.

Sog'lomlashtiruvchi tibbiy markazlar, jismoniy tarbiya dispanserlarida sog'lomlashtiruvchi guruhlar va sport jamoalarida shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligi, rivojlanishi ustidan nazorat, ko'rik, sinov-tajriba ishlari olib boriladi.

Umuman olganda, tibbiyot tizimidagi davolash muassasalari hamda sanatoriya-kurortlarda bemorlarga tibbiy yordam berish, ularning sog'ligini tiklash va mehnat faoliyatiga qaytarishda juda katta mahorat ko'rsatilmoqda. Tibbiyot tizimi va shifokorlar oldida «Sog'lom avlod uchun» davlat dasturida qo'yilgan vazifalarni astoydil, qunt va halol mehnat bilan ado etish burchi turadi. Bu, o'z navbatida, sog'lom avlodni tarbiyalash onalar va bolalarning salomatligini muhofaza qilish, kasalliklarga chalinishning oldini olish bilan bog'liq g'oyat muhim muammolarni hal qilishni taqozo etadi.

«Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi, «Sog'liqni saqlash to'g'risida»gi qonunlar asosida Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi mutaxassislar boshqa vazirliklar tarmog'idagi jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari bilan o'z faoliyatlarini hamkorlik asosiga qurgan holda ish olib boradilar.

Aholining sog'lig'ini muhofaza qilish

O'tgan bo'limda, asosan, tibbiyot sohasidagi o'quv yurtlari va davolash muassasalarining ba'zi bir faoliyatlari tilga olindi. Unda aholi istiqomat qiluvchi joylardagi poliklinikalar, shaxsiy davolash muassasalari alohida o'ringa egadir.

Aholi istiqomat joylarida kasalliklarning turlariga qarab davolash, nazorat qilish, tez yordam ko'rsatish kabi bo'limlar, laboratoriyalar, ilmiy-uslubiy markazlar tashkil qilingan. Ularning asosiy faoliyati quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Bemorlarni poliklinikada yoki uylarida ko'rish, davolash.
2. Poliklinika tarkibidagi laboratoriyalar, davolash bo'limlarida uqalash (massaj, trenajerlarda mashq bajarish va hokazolar), sog'lomlashtirish tadbirlari.

Shular asosida poliklinika shifokorlari bemorlarni maxsus hisobga olish (og‘ir bemorlar, nogironlar) va davriy nazorat qilish guruhlariga ajratadi. Ular bilan ishlashda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish, tabiatning sog‘lomlashtiruvchi omillaridan foydalanish, tozalik va gigienik qoidalarga rioya qilish tavsiya etiladi. O‘z navbatida, bu faoliyatlarning bajarilishi, ularning samaralarini doimiy ravishda kuzatib, nazorat qilib boradi. SHu tariqa shifokorlar bemorlarning sog‘ligini qayta tiklaydilar va ularni muhofaza qiladilar.

Ma‘lumki, aholining o‘zini-o‘zi boshqarish idoralari qonun asosida tashkil etilgan. Bunda mahalla oqsoqollari kengashi faoliyati alohida ahamiyatga egadir. Bularning ish faoliyatida poliklinika shifokorlari ham bevosita ishtrok etib, aholining salomatligi, yoshlarning oila qurishi kabi masalalarda suhbatlar va ma‘ruzalar olib boradi. Bu faoliyatlar ham aholining, ayniqsa yosh bolalar, onalarning salomatligini muhofaza qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. YOsh ota-onalarning salomatligini ta‘minlashdagi nazariy bilimlari hamda ko‘nikmalarini rivojlantirishda shifokorlarning hissalariga g‘oyat kattadir.

«Sog‘lom avlod uchun» Davlat dasturini amalga oshirishdagi faoliyati

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining «O‘zbekistonning o‘z istiqloq va taraqqiyot yo‘li» risolasida (1992 y.) «Yashash muhiti, tabiat va ma‘naviyat ekologiyasi bir-biridan ajralmasdir. Bizning otabobolarimiz kishilar bilan uchrashganda yoki xayrlashganda, avvalo, chin yurakdan mustahkam salomatlik tilashgan. Sihat-salomat bo‘lishning an‘anaviy qadrini qayta tiklash va oila qadri bilan sharaflil bir o‘ringa qo‘yish kerak» (69-bet), deb yozgandi. Buning amaliy ijrosi «Sog‘lom avlod uchun» Davlat dasturining ishlab chiqilishi, uni hayotda qo‘llashga qaratilgan bir qator qarorlarning qabul qilinishida ifodalangan.

«Sog‘lom avlod uchun» Davlat dasturini amalga oshirish Sog‘liqni saqlash vazirligi, turli davlat idoralari va jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan. SHu sababdan davolash muassasalari onalik va bolalik muhofazasiga katta urg‘u bermoqda. SHuningdek, o‘quvchi yoshlarning jismoniy va ma‘naviy kamolotini o‘stirish, aholining salomatligini yaxshilash borasida mutasaddi vazirliklar,

«Sogʻlom avlod uchun», «Mahalla» kabi xayriya jamgʻarmasi uyushmalari zimmasiga ham katta vazifalar yuklatilgan.

Sogʻlom avlod tarbiyasida jismoniy tarbiya darslari, sport mashgʻulotlari, ommaviy-sogʻlomlashtiruvchi jismoniy tarbiya, sayohat va xalq milliy oʻyinlaridan foydalanishni yaxshi yoʻlga qoʻyishda Xalq taʼlimi vazirligi, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi bilan hamkorlikda Oʻzbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi faol ishtirok etmoqda. Bunda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari, oʻtkazilayotgan spartakiadalar, universiadalar va turli sport, sanʼat festivallari kabi tadbirlar muhim omil boʻlib hisoblanadi.

Ichki ishlar vazirligining jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilishdagi asosiy vazifalari.

Ichki ishlar vazirligi tizimida kadrlarni tayyorlash, ularning nazariy bilim, amaliy koʻnikmalarini oshirishda jismoniy tarbiya va sport muhim rol oʻynaydi.

Ichki ishlar vazirligi xodimlarini tayyorlovchi oʻrta maxsus oʻquv yurtlari va Akademiyasi mavjud boʻlib, oʻquv rejalarida jismoniy tayyorgarlik va sport mahoratlarini oshirish maqsadida maxsus darslar tashkil etiladi. Shu bilan birgalikda, sport turlari boʻyicha jamoalar tuziladi va sport musobaqalari uyushtiriladi.

Sport tayyorgarligi va ommaviy sport turlari boʻyicha oʻtkaziladigan barcha tadbirlar «Dinamo» sport jamiyati tomonidan olib boriladi. Viloyatlar va yirik shaharlarda «Dinamo» sport klublari faoliyat koʻrsatib, ularga ichki ishlar xodimlari va iqtidorli sportchilar jalb etiladi.

Mudofaa vazirligi tizimida jismoniy tarbiya va sport ishlari

Mudofaa vazirligi tizimida zobitlar (ofitserlar) va shaxsiy tarkibdagi harbiylarni jismoniy, harbiy-jismoniy hamda texnik jihatdan chiniqtirish, tarbiyalash asosiy faoliyat tarkibiga kiradi. Shu jihatdan harbiy Akademiya, havo, tank, avtomobil va boshqa sohalardagi oliy hamda oʻrta bilim yurtlarida jismoniy tarbiya boʻyicha mashgʻulotlar muntazam oʻtkazilib, sport mashgʻulotlari va musobaqalar tashkil etiladi. Harbiy qismlardagi sport tadbirlari, harbiylarning

jismoniy tarbiya mashg'ulotlari maxsus yo'riqnomalar (instruksiyalar) asosida olib boriladi.

Mudofaa vazirligi tarkibida mavjud Markaziy harbiy sportklubi (MHSK) zobitlarining harbiy jismoniy tayyorgarligini oshirish va sport mashg'ulotlarini tashkil etish uchun xizmat qiladi. Klub terma jamoalar tuzib, harbiy tashkilotlar respublika va boshqa sport musobaqalarida ularning qatnashishini ta'minlaydi.

Qishloq va suv xo'jaligi vazirliklari tizimida jismoniy tarbiya va sport ishlari

Yuqorida ta'kidlanganidek, o'quv yurtlariga ega bo'lgan barcha vazirliklar, Davlat qo'mitalari o'z sohalarida jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qiladilar. Undan tashqari, o'z ixtisosliklarida faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoalari, muassasalar va tashkilotlardagi aholining jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishini ta'minlash ularning muhim vazifalariga kiradi.

Ma'lumki, qishloq va suv xo'jaligi vazirliklari tizimida ham o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari mavjud. Ularning o'quv rejalari va dasturlarida jismoniy tarbiya darslari hamda ommaviy sport tadbirlari asosiy faoliyat tarkibidan o'rin egallagan. Chunki mutaxassislarni jismonan baquvvat qilib tarbiyalash umumdavlat ahamiyatga molik bo'lgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Mehnatkash yoshlarning ish qobiliyatini, mehnat unumdorligini oshirish va ularning jismonan tetik bo'lishida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari muhim omillardan biridir. Shu sababli ishlab chiqarish korxonalarida, ularning sport majmualarida sportklublar faoliyat ko'rsatadi. Unda etakchi murabbiylar, tajribali uslubiyatchilar mehnat qiladi.

Sport klublar tarkibida quyidagi ish turlari mavjud:

1. Ishchi va mehnatkashlarning bo'sh vaqtlarida sog'lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar, o'yinlar, gimnastika va h.k.ni tashkil etish.
2. Sport turlari bo'yicha terma jamoalar (komanda) tuzish, mashg'ulotlar tashkil qilish, ularning shahar, tuman, viloyat va respublika sport musobaqalaridagi ishtirokini ta'minlash.

3.Sport turlari bo'yicha korxonalar xodimlarining bolalari uchun sport to'garaklari ochish.

4.Sog'lomlashtiruvchi guruhlar tashkil qilish.

5.Sport inshootlarini ko'paytirish, ta'mirlash, ularda pullik xizmatlarni tashkil qilish (mashg'ulotlar, musobaqalar, ijara va h.k.).

Madaniyat vazirligi tizimida jismoniy tarbiya va sport ishlari

Respublikamizdagi eng ko'p tarmoqli tizimlar qatoriga Madaniyat vazirligi ham kiradi. Uning tarkibida quyidagi sohalar va tarmoqlar mavjud:

1.Konservatoriya, madaniyat va san'at instituti, musiqa va boshqa sohalardagi bilim yurtlari.

2.Kinoteatrlar va shu sohadagi ishlab chiqarish muassasalari.

3.Istirohat, ko'ngil ochish va dam olish bog'lari.

4.Ilmiy-tadqiqot muassasalari.

Barcha turdagi ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darsi olib boriladi. O'quvchi-yoshlar va talabalarning ixtisosliklari hisobga olingan holda ommaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va sport tadbirlari, musobaqalari tashkil qilinadi. Aktyorlar, san'atshunoslar, rassomlar, ko'rgazma zallari, madaniyat klublari va ular bilan bog'liq tashkilotlar, muassasalarning xodimlari bilan maxsus jismoniy tarbiya mashg'ulotlari (balet, ritmik gimnastika, milliy raqslar tipidagi turli mashqlar) tashkil qilinadi.

O'zbekistonda keyingi yillarda ommaviy madaniy sport tadbirlarining shakli va mazmunlari kengayib, tobora boyib bormoqda. Bu jihatlar misol uchun, «Navro'z», «Mustaqillik» ayramlarida keng namoyon bo'lmoqda.

Madaniyat vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda boshqa idoralar, jamoat tashkilotlari, sport jamiyatlari bilan hamkorlikda xalq milliy o'yinlari Respublika musobaqalari, festivallar va boshqa tadbirlarni o'tkazib kelmoqda. 2000 yilda O'zbekiston mudofaasiga ko'maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti «O'zbekkonsert» birlashmasi va boshqa davlat jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda «Hech kimga bermaymiz seni O'zbekiston» mavzusida respublika aholisiga manzur bo'lgan festivalni tashkil etdi.

O'quvchi-yoshlar va talabalarning kasb-hunar egallashlari, ularning jismoniy jihatdan rivojlanishlari uchun davlat ta'lim standartlari tarkibidagi «Jismoniy tarbiya» dasturlari, «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari keng yo'l ochib bermoqda.

Buyuk kelajak sari dadil borish va yangi asr avlodlarini jismoniy jihatdan tarbiyalash ishlarida o'quv yurtlariga ega bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalarining faoliyati va mas'uliyati tobora oshmoqda.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

- 1.Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligining jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilishdagi ishtiroki qanday amalga oshiriladi?
- 3.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil qilishni izohlang.
- 4.Turli xo'jalik sohalari bo'yicha vazirliklarning jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilishdagi asosiy vazifalarini ayting.

5-MAVZU: SPORT MAKTABLARI VA MARKAZLARI FAOLIYATINI TASHKIL QILISH

REJA:

1. Iqtidorli sportchilarni tarbiyalashda bolalar va o'smirlar sport maktablarining ahamiyati. Sport maktablarining turlari va ularning Nizomi xaqida tushunchalar.
2. Ixtisoslashgan va majmuiy kompleks sport maktablari. Murabbiylar kengashi. Iqtidorli yoshlarni tanlash, qabul qilish tartiblari.
3. Olimpiya zahiralari sport kollejlari.
4. Sport maktablarida tadbirlarini uyushtirish. Murabbiylar, tarbiyachilar, xodimlar va sportchilarni rag'batlantirish.
5. Sport markazlari va ularning faoliyatlari. Terma jamoalar tuzish, ularning o'quv-yig'inlarini uyushtirishda Murabbiylar va sport tashkilotlari rahbarlarining o'zaro hamkorligi.

Sport ning turlari va ularning nizomlari tushunchalar

Jahon sport nazariyasi hamda amaliyotida yuqori cho'qqilarga erishish bolalar hamda o'smirlar orasida iqtidorli yoshlarni tanlab olib, ularni tarbiyalab yetishtirishdek murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Bunday jihatlar muhitida 30-yillarda ilk bor shakllangan va ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning rivojlanishiga ijobiy ta'siri natijasida sport turlari bo'yicha maxsus sport maktablari, sport-internat maktablari tashkil qilingan. Bunday sport maktablarining ijobiy mehnat samaralari tezda namoyon bo'ldi va ular sobiq Ittifoq jarayonida mukammalashib, o'z istiqbollarini ta'minladi. Natijada ularning yaxshi ishlab chiqilgan Nizomlari hozirgi mustaqillik sharoitlarida o'z kuchi va mohiyatini yo'qotmadi.

O'zbekistonda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim-tarbiya sohalaridagi tub islohotlar o'quvchi-yoshlarni sportga jalb etish, ularni kasb-hunarga yo'llash, ijtimoiy mehnat va mudofaa ishlariga layoqatli qilib yetishtirish muammolarini qo'ymokda. Bunday ulkan va ulug'vor vazifalarni amalga oshirishda eng avvalo umumta'lim maktablari, kollej, litsey, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari tomonidan olib borilayotgan turli madaniy va sport tadbirlari muxim ahamiyatga ega. Chunki bu tadbirlarda bolalar va o'smirlarning qobiliyati, qizikish va ixloslari sinovdan o'tkaziladi.

Soha olimlarining ilmiy tadqiqotlarida bolalar va o'smirlarning jismoniy tayyorgarligi, ularni sport orqali rivojlantirish, iqtidorli bolalarni tanlab sportga jalb etish kabi tajriba keng mazmun topganligi e'tiborga loyiqdir. Ularning ta'kidlashlaricha, bolalarni sportga jalb etish, mahoratli sportchilarni tayyorlash va ularning halqaro sport maydonlarida samarali qatnashishini ta'minlayli. Eng muhimi esa, o'quvchi-yoshlarning jismoniy jihatdan barkamol o'sishi ta'lim-tarbiyada, o'zlashtirish bo'yicha yukori natijalarga erishishda, qolaversa, jamiyatimizning qonunlari, tartib-qoidalarini buzishning oldi olinishida muhim rol uynaydi.

Sport maktablarining turlari va ularning nizomlari xaqida tushunchalar

Yukorida ta'kidlanganidek O'zbekistonda sport turlari bo'yicha turli xil maxsus sport maktablari faoliyat ko'rsatib kelmokda va ularning o'z sohalari, ixtisosliklariga qarab Nizomlari mavjud.

Bolalar va o'smirlar sport maktablari haqidagi nizomlar ularning ish faoliyatini tartibga soluvchi va doimiy ravishda muvofiqlashtiruvchi rasmiy hamda huquqiy hujjatdir.¹ Ular Respublika xukumati, sport tashkilotlari hamda mutasaddi vazirliklar, tashkilotlarning Qarorlari, yo'l-yo'riqlari asosida to'ldirilib, boyitib boriladi.

Nizomlarda asosan sport maktablarining maqsad va vazifalari, tarkibiy tuzilishi, sportchilarni tanlab olish, sinovdan o'tkazish, murabbiylarning vazifaaari, moddiy-texnik va xo'jalik ishlarini boshqarish kabi sohalar bayon qilingan.

O'zbekistonda sport maktablari, i bilim yurtlarini tuzish hamda ularni boshqarishning qat'iy tartib va qoidalari mukammal ishlab chiqilgan. Sport maktablari faoliyatlarini to'la aks ettiruvchi talab va qoidalar ularning nizomlarida batafsil bayon qilingan.

Nizomlarga ko'ra, bolalar va o'smirlar sport maktablari va olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari, sport qo'mitalari, jamiyatlari va Xalq ta'limi vazirligi tizimida tashkil qilingan. Ular quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Davlat sport qo'mitalari, tizimidagi oliy sport mahorati maktablari va olimpiya bilim yurtlari.

Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi bolalar va o'smirlar sport maktablari, sport turlari bo'yicha Ixtisoslashtirilgan maktablari, olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari.

Kasaba uyushmalari jismoniy tarbiya-sport jamiyati va boshqa sport jamiyatlari tarkibidagi sport maktablari.Sport maktablari va bilim yurtlarini moddiy-texnik ta'minlash hamda boshqarish tartiblari mas'ul idoralar va

tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Nizomga ko'ra, sport maktablari, bilim yurtlari faoliyati asosan direktor tomonidan boshqariladi. Unda pedagogik kengash hal qiluvchi organ hisoblanadi. Pedagogik murabbiylar/ kengashda tarbiyaviy ishlar, sportchi-o'quvchilarni tanlab olish, o'quv-sport mashrullotlarini tashkil qilish, musobaqalarga tayyorgarlik musobaqa natijalari, murabbiylarning faoliyatlari, ota-onalar bilan aloqadorlik moliyaviy-xo'jalik va boshqa ko'pgina masalalar muhokama qilinadi. Bolalar va o'smirlar sport maktablari, asosan, ixtisoslashgan fakat bir tur va kompleks ko'p turlar shaklida bo'ladi.

Ma'lumki, Respublikada futbol, kurash, voleybol va boshqa sport turlari bo'yicha juda ko'p sport maktablari, olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari tashkil qilingan. 1993 yil martda O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi Respublikada ommaviy futbolni rivojlantirish to'g'risida qaror qabul qildi. Bu, o'z navbatida, barcha viloyatlar, tumanlar markazlarida futbol maktab-internatlar tashkil qilish, ularning faoliyatlarini boshqarish va moddiy-texnik ta'minlashga alohida e'tibor berishni taqozo qiladi. Uzoq yillar davomida Toshkent, Samarkand, Andijon, Chirchik shaharlarida sport internatlari (hozir ular olimpiya o'rinbosarlari kollejlari) faoliyat ko'rsatib keldi va Respublika terma jamoalari uchun ko'p mingli iqtidorli sportchilar tayyorlab berdi. Ularning orasida yuzlab halqaro sport musobaqalarining sovrindorlari bor.

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida yangidan futbol, kurash, tennis, karate va boshqa sport turlari bo'yicha maxsus klublar tashkil etilgan, ularda turli yoshdagi bolalar shug'ullanmokda. Bu klublar, asosan, sport maktabi vazifasini bajarmokda.

Ixtisoslashgan va kompleks sport maktablarining bosqichlari. Murabbiylar kengashi. Iqtidorli yoshlarni tanlash, qabul qilish tartiblari Ixtisoslashgan va kompleks sport maktablarining bosqichlari: Avval ta'kidlanganidek sport maktablari turli sport tashkilotlari, jamiyatlari va davlat

idoralariga mansubdir. Kaysi sohada bo'lmasin, sport maktablarining turlari, tashkiliy tuzilishlari, faoliyatlari umumiy qoida va tartiblar /Nizomlar/ asosida amalga oshiriladi. Shu sababdan ularni ikki yunalishga ajratish mumkin:

1. Ixtisoslashtirilgan sport maktablari.
2. Kompleks sport maktablari.

Ixtisoslashtirilgan sport maktabi ham o'z navbatida, bir necha bosqichlardan iborat. Uning asosiy xususiyati shundaki, unda faoliyat sportning fakat bir turi bo'yicha olib boriladi. Bunda quyidagi bosqichlarga amal qilinadi:

1. Turli yoshdagi 6-14 bolalar tayyorlov guruhlarini.
2. Oliy sport mahorati.
3. Olimpiya o'rinbosarlari.

Birinchi bosqichdagi bolalar va o'smirlar sport maktablari /sport turlariga qarab/ asosan jismoniy tayyorgarlik jismoniy sifatlar hamda sportning texnik-taktik mazmunlarini o'rgatish bilan faoliyat ko'rsatadi. Ikkinchi bosqichdagi sport maktablarida sportning texnik-taktik mazmunlarini singdirgan holda turli yirik musobaqalarga tayyorgarlik davri o'tkaziladi. Uchinchi bosqich sport maktablarida turli yoshdagi bolalar shug'ullanadilar. Ular tayyorgarlik mahorat egallash va olimpiya o'yinlari, halkaro sport musobaqalarida qatnashuvchi sportchilarni tanlash davrlarini o'tkazadi. Umuman olganda, ixtisoslashgan sport maktablarining ish faoliyati aniq va ixchamlashgan holda boshqarishni talab etadi. Bunda sport maktablari ma'muriyati, ayniqsa, murabbiylarning vazifasi o'ta mas'uliyatli hisoblanadi.

Kompleks sport maktablarining xususiyatlari shundaki, unda sportning bir necha turi gimnastika, akrobatika, kurash, yengil atletika, futbol va hokazolar bo'yicha bolalar jalb etiladi va mashg'ulotlar olib boriladi.

Kompleks sport maktablarida ham sport turlariga qarab shug'ullanuvchilarni bir necha guruhlariga yoshi, jismoniy va sport tayyorgarligiga qarab/ bo'lib, mashg'ulotlar alohida jadval asosida olib boriladi. Bunda muammo bo'ladigan jihatlar, asosan, sport inshootlari, sport buyumlari va kiyimlari bilan ta'minlashdir. SHu sababdan sport maktablari ma'muriyati zamonaviy ish usullari, xayriya jamg'arma uyushmalaridan foydalanish hamda pulli xizmatlar ko'rsatib ijara, musobaqa, tijorat va hokazo, moddiy muammolarni hal qiladilar. Kompleks sport maktablari faoliyatida ham yetuk sportchilarni tarbiyalab yetkazish, sharoit va zaruriyatlarga qarab yosh sportchilarni oliy sport mahorati maktablari, sport internat-maktablari va olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlariga tavsiya qilish mumkin bo'ladi.

Sobiq Ittifoq davrida Toshkent, Samarkand, Andijon, Chirchik va Buxoro shaharlarida ixtisoslashtirilgan sport internat-maktablari tashkil qilindi. Ular Respublika uchun jula ko'p sportchilar tayyorlab berishda katta xizmat qilib keldi. O'zbekiston Mustaqil davlat bo'lgach, bu internatlar Olimpiya o'rinbosarlari maktabiga, keyinchalik esa bilim yurtlariga aylantirildi. SHu sababdan mahoratli sportchilar tayyorlash bilan birga jismoniy tarbiya va sport sohasida o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Bu, o'z navbatida, yurtimizda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bulmokda.

Murabbiylar kengashi

Sport maktablari va Olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari Nizomida murabbiylar kengashiga alohida e'tibor berilgan. Chunki yosh sportchilarni texniq taktik va ahloqiy jihatdan tarbiyalashda murabbiylar asosiy faoliyat ko'rsatadilar.

Sport maktablarining xususiyatlariga qarab murabbiylar kengashi tuziladi. Uning tarkibi murabbiylarning soniga qarab belgilanadi. Kengash raisi sport maktabi rahbari direktor hisoblanadi. Direktorning o'quv-sport ishlari bo'yicha muovini, murabbiylar yoki xizmatchi xodimlardan kengash kotibi saylanadi.

Murabbiylar kengashi kalendar yili yoki o'quv yili bo'yicha ish rejasini tuzadi va tasdiqlaydi. SHunga ko'ra, xar oyda bir marotaba zarur bo'lganda undan ko'proq kengash yig'ilishi o'tkaziladi. Kengash tuzilgan reja asosida kun tartiblarini belgilaydi. Ularda asosan murabbiylarning ish faoliyati, hisobotlar, ota-onalar bilan ishlash, ta'lim-tarbiya jarayonlari, iqtidorli sportchi yoshlarni tanlash, sinovdan o'tkazish va qabul qilish ma-salalari muhokama qilinadi.

Ma'lumki, Mustaqillik yilarida rahbar va boshqa xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish rasmiy odatga aylandi. Bu ishda sport maktablarining murabbiylari ham bevosita ishtirok etadi. Sport maktablarida murabbiylarni attestatsiyaga tayyorlash va o'tkazishda ularning nazariy bilim va amaliy faoliyatlari, davlat siyosati hamda olib borilayotgan islohotlarga munosabatlari inobatga olinadi. Eng muhimi, Respublika va halqaro sport musobaqalarida sportchilarning qatnashish natijalari, bunda murabbiyning ijodiy faoliyati asosiy o'ringa qo'yiladi. Attestatsiya yakuni asosida murabbiylarga turli toifadagi /oliy toifagacha/ unvonlar beriladi. Shu sababdan ham aksariyat barcha murabbiylar, eng avvalo, iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ular bilan katta maqsad yo'lida fidoyilik bilan mehnat qilishga xarakat qiladilar.

Pedagogik kuzatishlar, ilgor tajribalar va ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, bolalar va o'smirlar sport maktablari, maxsus olimpiya o'rinbosarlari sport maktablari, oliy sport mahorati maktablari, olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari va shunga o'xshash sport maktablariga yoshlarni jalb etish quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Maktab jismoniy tarbiya o'qtuvchilarining tavsiyasi.

2. O'quvchi-yoshlarning o'z ixtiyori va tashabbusi.

3. Ota-onalarning tavsiya va iltimoslari.

4. Murabbiylarning bevosita maqsad yo'lida kuzatishlari.

Sport maktablarining toifasi, darajasi va ehtiyoji asosida iqtidorli yoshlarni kuzatish, tanlash va sinov-tajribalarga tayyorlash hollari ko'proq murabbiylar tomonidan olib boriladi.

Sport turlariga qarab sinov-tanlov jarayoni umumiy jismoniy tayyorgarlik mazkur sport to'rining texnik qoidalari va me'yorlari asosida bolalar maxsus tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Sport maktablariga kiruvchi bolalar shaxsiy hujjatlarini talab darajasida tayyorlab, sinov-tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgandan keyin, sport maktabi ma'muriyati tomonidan buyruq bilan rasmiylashtiriladi.

Sport maktablarida bolalar va ularning ota-onalari ichki tartib qoidalar bilan tanishtiriladi. Sport mashg'ulotlari, musobaqa qoidalari hamda axloq normalariga rioya qilmagan bolalar esa sport maktabidan chetlashtiriladi.

Sport turlari bo'yicha murabbiylar yangidan qabul qilingan bolalar bilan mashg'ulot tashkil qilish jarayonida ularning faoliyati, imkoniyat darajasi, qiziqishi, munosabati va ruhiy holatlarini o'rganib oladi. Eng muhimi, ularni ortiqcha yuklama yoki qo'pol muomala bilan bezdirmaslik lozim.

Olimpiya zahiralari sport kollejlari

Olimpiya zahiralari sport kollejlari, sport internat-maktablar va olimpiya o'rinbosarlari sport maktablari negizida vujudga keldi. Ular hozirgi kunda deyarli barcha viloyatlarning markazida tarkib topmoqda va kollej shaklida faoliyat ko'rsatmoqda. Ular, eng avvalo, Xalq ta'limi vazirligi tizimida shakllandi va rivojlandi. SHu sababdan ularning o'quv rejaları va fanlar, sport turlari bo'yicha dasturlari Xalq ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi hamda tasdiklanadi.

Respublikada olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalarda olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlari faoliyatiga har tomonlama yordam berish maqsadida Davlat jismoniy tarbiya va sport vazirligi, O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi va sport uyushmalari hamkorlik qilmoqda.

Bilim yurtlarining o'quv rejasida davlat ta'lim standartlari asosida umumiy va o'rta maxsus ta'lim dasturlaridagi barcha siyosiy, gumanitar, tabiiy va maxsus fanlar o'qitiladi. Mavjud bo'lgan gurux /sinf/ va bo'limlarda olimpiya o'yinlari sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan nazariy hamda amaliy fanlar o'rgatiladi. O'quv rejalarida belgilangan barcha fanlar va sport turlarining asosiy mohiyati yetuk va mahoratli sportchilar hamda mutaxassis xodimlar tayyorlashdan iborat.

Avvalgi bo'limlarda qayd etilganidek rahbarlik ishlari bilim yurti direktori, uning o'quv, sport, ma'naviyat va ma'rifat, xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosarlari hamda sport turlari bo'yicha bo'lim boshliqlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bilim yurtida pedagogik va murabbiylar kengashi barcha faoliyatlarni muhokama qilib, zarur qarorlarni qabul qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonlari hamda sport tayyorgarligi bilim yurtida eng ustuvor faoliyat hisoblanadi. Bu sohalarda Toshkent, Samarkand, Andijon, Chirchik va boshqa shaharlardagi bilim yurtlarining ish faoliyati va erishgan tajribalarini talabalar Mustaqil ravishda o'rganishga harakat qilishlari lozim.

Sport maktablarida ommaviy sport tadbirlari-ni uyushtirish. Murabbiylar, tarbiyachilar, xodimlar va sportchilarni rag'batlantirish
Sport maktablarida ommaviy sport tadbirlarini uyushtirish

Barcha toifalardagi bolalar va o'smirlar sport maktablarida, asosan, sport mashg'ulotlarini o'tkazish va sport turlari bo'yicha maxsus musobaqalar tashkil qilinib borilsada, ularning ish faoliyatida ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilish ham alohida o'ringa ega. Ayniksa, sport o'yinlari, yengil atletika va boshqa ba'zi sport turlari ommaviylik mazmuniga egadir. Shu sababdan bu turlar

bo'yicha musobaqalar uyushtirilganda, boshqa sport maktablari va umumta'lim maktab o'quvchilarining sport jamoalari ham ishtirok etishi mumkin. Ommaviy sport tadbirlarining asosiy shakllari tuman-shahar, viloyat va respublika birinchiliklari, spartakiadalari, o'rtoqlik uchrashuvlari hisoblanadi. Bunday musobaqalarning zamirida sportchilarning tayyorgarligi, egallangan mahoratlar sinov hamda yirik sport musobaqalari, Xalqaro uchrashuvlar, Markaziy Osiyo, Osiyo va jahon chempionatlariga terma jamoa tayyorlash ko'rigi bo'lib xizmat qiladi.

Ommaviy sport tadbirlarining yana bir shakli va maqsadi shundaki, qaysi sport turi bilan shug'ullanishlaridan qat'iy nazar, o'z jamoalarida tashkil etilgan kross, futbol musobaqalari hamda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarini bajarish uchun tashkil qilinadigan ommaviy musobaqalarda ishtirok etish shartdir. Bundan asosiy maqsad shuki, sportchilarning jismoniy tayyorgarliklari darajasini muntazam oshirib borishdir. SHu sababdan sport maktablarining kalendar rejalariga ommaviy sport musobaqalarini kiritish va ularni amalda o'tkazish mahsadga muvofikdir.

Murabbiylar, tarbiyachilar, xodimlar va sportchilarni rag'batlantirish

O'quvchi-yoshlar, ayniqsa yosh sportchilarni har tomonlama tarbiyalash ishlari ancha murakkab va o'z navbatida o'ta mas'uliyatli faoliyatdir. Murabbiylar oddiy xavaskorni eng mohir va respublika musobaqalarida qatnashuvchi sportchi darajasiga yetkazadi. Ularning qaysi birlari halqaro sport musobaqalari va jahon birinchiliklarida sovrindor bo'lishga erishadilar. Bunday sportchilarni tarbiyalab yetkazgan Murabbiylar diqqat e'tibordan chetda qolmaydi. Ularning murabbiylik toifalari oshiriladi, moddiy rag'batlantiriladi, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy» unvonlari hamda hukumatning orden va meddallari bilan takdirlanadilar.

Ma'lumki, sport maktablarida uslubchi metodist va boshqa xodimlar lavozimi mavjud. Sport internat-maktablari, olimpiya o'rinbosarlari maktablari va shu

sohadagi bilim yurtlarida o'quvchi-sportchilarning yotoqxonalari, ta'lim-tarbiya joylari, oshxona va texnik xizmat joylarida tarbiyachilar, mutaxassis xodimlar ham faoliyat ko'rsatishadi. Ularning yaxshi mehnatlari evaziga Nizomga ko'ra moddiy va ma'naviy rag'batlantirish amalga oshirib boriladi.

Sport maktablari, olimpiya o'rinbosarlari bilim yurtlarida shug'ullanuvchilar orasida sport ko'rsatkichlari yuqori, ahloq-odob jihatidan namunali bolalar ko'p bo'ladi. Ularni rag'batlantirish, «Navro'z» «Mustaqillik kuni» bayramlari, «Jismoniy tarbiyachilar kuni» kasb-bayrami, yozgi sport mavsumi boshlanishiga, an'anaviy sport musobaqalari va boshqa tadbirlarda amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar faxriy yorliqlar, diplomlar, qimmatbaho buyumlar bilan takdirlanadi.

Respublika yoki halqaro sport musobaqalarining g'oliblarini tantanali yig'ilishda belgilangan mukofotlar bilan sharaflaydilar va olqishlaydilar.

Sport markazlari va ularning faoliyatlari

Sport markazlari tushunchasi asosan zamonaviy sport inshootlarini bildiradi. Bu mashg'ulotlarni o'tkazishdagi to'g'ri tushuncha hisoblanadi. Shuningdek sport jamiyatlari, sport maktablari va ularda faoliyat ko'rsatuvchi rahbarlar, murabbiylar, hakamlar hamda boshqa rasmiy kishilarning sport turlari bo'yicha terma jamolar tuzish, ular bilan o'quv-yig'in mashg'ulotlarini o'tkazish masalalarini muvofiqlashtirish faoliyati ham shu tushuncha ichiga sport markazi kiradi.

Tuzilgan terma jamoalar safida eng kuchli sportchilar yig'iladi, o'quv-yig'in mashg'ulotlari va rasmiy hamda norasmiy musobaqalarda ularning texnik-taktik tayyorgarliklari sinab ko'riladi. Shu jihatdan ham bunday tadbirlarda faqat murabbiylargina emas, balki ilmiy xodimlar, mutasaddi rahbarlar, mas'ul xodimlar, shifokorlar, homiylar ham mashg'ulotlar hamda musobaqalarda ishtirok etish, o'zlarining taxminiy mulohazalarini bildirishlari mumkin.

Bunday hollarda sport turlariga qarab shahar va viloyat markazlarida mavjud bo'lgan eng yaxshi sport inshootlari tanlanadi. Ularga zarur bo'lgan asbob-uskunalar, texnik vositalar, shart-sharoitlar yaratiladi. Sport markazlaridagi o'quv-yig'in mashg'ulotlari va musobaqalar hamda sport inshoot xizmatlari bilan bog'liq tashkiliy ishlar, moddiy-texnik hamda moliyaviy ta'minot ishlari tashkil qiluvchi tashkilot, jamiyat, klub tomonidan amalga oshiriladi. So'nggi yillarda bunday mas'ul va yirik sport tadbirlarini tashkil qilish hamda ularni maqsaddagidek o'tkazish jamg'arma uyushmalari, homiylar tomonidan qo'llab-quvvatlanmokka.

Sport markazlari faoliyati, asosan, sport inshootlari ma'muriyati, mas'ul jamiyatlar va sport klublari tomonidan boshqariladi. Umumiy rahbarlik sport uyushmalari, sport qo'mitalari tomonidan olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning katta sporta rivojiga bolalar va o'smirlar sport maktablari, maxsus olimpiya o'rinbosarlari sport maktablari hamda bilim yurtlari jamoalari o'z hissalarini qo'shmokka. Yosh sportchilarni tarbiyalab voyaga yetkazishda, ularning Xalqaro sport maydonlariga qadam qo'yishlarida murabbiylarning xizmati g'oyat kattadir.

O'zbekistonning shon-shuhfatini sport orqali jahonga yoyishda kurash, boks, tennis, shaxmat, sharkona yakkakurash va boshqa sport turlari bo'yicha sportchilar mardonavor mahorat ko'rsatmoqdalar. Shu sababdan ham O'zbekiston Prezidenti va xukumati sportni yanada rivojlantirish, ayniqsa, bolalar va o'smirlarning sport maktablari faoliyatini yanada yaxshilash zarurligini ko'zda tutib, qator farmonlar, qarorlar qabul qilmokka. Shuningdek tajribali murabbiylar va xalqaro sport musobaqalarining g'oliblari munosib ravishda taqdirlanmokka. Bunday g'amxo'rlik va e'tiborlar sport inshootlarini yanada kengaytirish, eng zamonaviy sport inshootlarida terma jamoalarning o'quv-yig'in mashg'ulotlarini o'tkazish hamda musobaqalarni tashkil qilishga muhayyo qilib berilmokka.

Ta'kidlash lozimki, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni hayotga singdirish uchun respublika viloyatlarining markazlarida olimpiya o'rinbosarlari kollejlari tashkil etilmokda. Ular terma jamoalar tarkibini to'ldirish bilan birgalikda jismoniy tarbiya va sport sohasida o'rta ma'lumotli mutaxassislar tayyorlaydi. Eng muhim tomoni shundaki, bu bilim yurtlariga ko'proq, mahaliy xotin-qizlardan qabul qilish va ularni davr talablari, milliy qadriyatlar asosida tayyorlash ko'zda tutilmokda. Bu esa, o'z navbatida, respublika terma jamoalarini mahalliy millat xotin-qizlari bilan ta'minlash hamda milliy sport turlari va Xalq milliy o'yinlarini keng yoyish, ularni ommaviylashtirishga zamin tayyorlaydi.

6-MAVZU: AHOLI TURAR JOYLARIDA OMMAVIY SOG'LOMLASHTIRISH VA XALQ MILLIY O'YINLARINI TASHKIL QILISH

REJA

1. Aholining jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan e'tiyotlarini o'rganish.
2. Aholi turar-joylarida ommaviy sport ishlarini tashkil qilish.
3. Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi.
4. Sport turlari va xalq milliy o'yinlari bo'yicha jamoalar (komanda) tashkil qilish

Axolining jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan e'tiyotlarini o'rganish.

«Mahalla» jamg'arma uyushmasi, «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, Maxalla oqsoqollari kengashlarining faoliyatida jismoniy tarbiya va sport ishlarining mazmun vazifalari.

«Navro'z», «Mustaqillik kuni» bayramlari va boshqa milliy an'analarda xalq milliy o'yinlarini tashkil qilish.

Sport turlari va xalq milliy o'yinlari bo'yicha jamoalar, to'garaklar tashkil qilish.

Dam olish maskanlarida sport lagerlari, istirohat va kungil ochish bog'lari va okazolar sog'lomlashtirish ishlari.

Aholining jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan extiyojlarini o'rganish Buyuk kelajak avlodlarini aqlan etuk, jismonan barkamol qilib tarbiyalash muammolari barcha davlat va jamoat idoralari zimmasiga yuklatilgan. Bunday keng qamrovli va masuliyatli tarbiyaviy jaroyonlarni amalga oshirishda maxalla oqsoqollari kengashlari, ularning tarkibidagi turli komissiyalar, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport faollarining uyushmalari (jamoalari) ham katta rol o'ynaydi. Bularning zamirida «Sog'lom avlod uchun» davlat dasturi mazmuni muxim ahamiyatga egadir.

Axolining jismoniy baquvvat bo'lishi va o'zoq umr qurishi sog'lom turmush madaniyati bilan belgilanadi. Bu borada O'zbekiston Prezidentining

«O'zbekistonning chinakam mustakillikka erishishidan iborat rivojlantirishning quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama xisobga olishga asoslanadi. Avvalo, u axolining milliy tarixiy turmushi va tafakkuri tarzidan, xalq, an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi» degan muloxazalari e'tiborga loyikdir. Ayniqsa, «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonuni. «Sog'lom avlod uchun» davlat dasturi, «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarining ishlab chiqilishi hamda ularning hayotga tatbiq, qilinishi jismoniy tarbiya va sport xodimlari zimmasiga axoli o'rtasida sog'lomlashtirish va sport tadbirlarini yanada rivojlantirish mas'uliyatlarini yuklaydi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi sharofati tufaili maxallalar, daxalar, mavzalar, yirik qishloq, qo'rg'onlarida (posyolkalar) aholini jismoniy tarbiya, sport, xalq milliy o'yinlari hamda ommaviy cog'lomlashtirish ishlariga jalb qilish ancha rivojlandi.

Mamlakatda milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, uni yanada boyitishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning olib borilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axolining ijtimoiy turmush darajasi tobora yaxshilanmoqda. Bunda o'tkaziladigan turli sport musobaqalari, xalq milliy o'yinlari festivallari katta xissa qo'shmoqda. Bu axolining jismoniy tarbiya va sportga extiyoji oshayotganidan dalolatdir. Har yilgi mustaqillik kuni hamda «Navro'z» bayramlaridagi ommaviy sayllar, sport musobaqalari buning isbotidir Respublika xukumatining qarorlari, turli ko'rsatmalar asosida mahallalar va boshqa axoli istiqomat joylarida jismoniy tarbiya va sportni jonlantirish ishlarida maxalla kengashlari, sport tashkilotlari xodimlari, sport faollari bilan hamkorlikda ish tutmoqda.

Shaharlar va ko'rg'onlarning aholisi o'rtasida spartakiadalar, xalq milliy o'yinlari musobaqalarini o'tkazish an'anaga aylanmokda. Bunda sportning futbol, kurash, arqon tortishish, tosh ko'tarish, engil atletika kabi turlari ommaviy tus oldi. Bu tadbirlarga jismoniy tarbiya va sport soxasida ta'lim olayotgan talabalar jalb qilinib, tashkiliy ishlarda ular faollik ko'rsatadilar.

E'tirof etish kerakki, bir qator mutaxassislar axoli turar joylarida sog'lomlashtirish va ommaviy sport tadbirlarini tashkil qilishning namunaviy dastur hamda ish rejadarini ishlab chnkkannlar. Toshkent shaxri sharoitida bir qator usuliy ishlanmalar ishlab chiqilgan.

Turar-joylarda o'rta va katta yoshdagi kishilar orasida stol tennisi, shaxmat va shashka, milliy o'yinlar, engil atletika to'garaklari, guruxlar va jamoalarni ommalashtirish ularda sog'lomlashtirish tadbirlarining turli shakllaridan, shu jumladan, ertalabki gimnastika, yurish, sayoat va boshqa turlardan keng foydalaniladi.

Aholi turar-joylarida ommaviy sport ishlarini muvaffaqiyatli o'tkazishda sport inshootlari katta ahamiyat kasb etadi. Bu inshootlar belgilangan kurilish me'yorlari talablariga mos, bolalar hamda kattalarning extiyojlarini kondiradigan. turar-joy qurilishiga munosib, hamohang bo'lishi kerak.

Sport maydonchalari, sogʻlomlashtirish shaharchalari, yugurish va chigal yozish yulakchalari, oʻyin maydonchalaridan iborat xovli oʻyingoxlari shinam boʻlishi kerak. Bunday oʻyingohlarda usti yopiq joylar boʻlishi, yaxshi yoritilishi ham kerakki, bu narsa ulardan foydalanish muddatini oʻzaytiradi.

Sport inshootlarini maxsus moslamalar, trenajyorlar bilan jixozlashga aloxida eʼtibor berish zarur. Chunki shu yoʻl bilan avvalo ulardan yoz va qish fasllarida foydalanish imkoniyatini, qolaversa, koʻpchilik boʻlib yakka tartibda oʻtkaziladigan mashgʻulotlar samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, axoli 30 yillar-joylarida sogʻlomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish maxalla oqsoqollari kengashlari hamda mutaxassislar ishtirokida oʻtkazilishi lozim. «Navroʻz», «Mustakillik kuni» va boshqa bayramlarga tayyorgarlik jarayonlarida futbol, kurash, voleybol, yugurish va xalq milliy oʻyinlarini musobaqa shaklida oʻtkazish lozim. Tuman, shahar xokimiyatlari, sport koʻmitalari hamda xomiylarning faol ishtiroklarini koʻproq jalb qilish lozim boʻladi.

«Mahalla» jamgʻarma uyushmasi, «Maʼnaviyat va maʼrnfat» jamoatchilik markazi, maxalla oqsoqollari kengashi faoliyatida jismoniy tarbiya va sport ishlarining mazmuni va vazifalari

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlaridanoq axolining tincho soyishta yashashi, ularning oʻzaro axil boʻlishlari hamda salomatliklarini muxofaza qilish tadbirlari koʻrildi. Oʻzbekiston Prezidenti farmonlari va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari asosida axolining oʻzini-oʻzi boshqarishini tashkil qilish borasidagi tadbirlar muxim ahamiyatga ega boʻldi. Shu asosda Oʻzbekiston Respublikasi «Mahalla» jamgʻarmasi tuzildi va barcha viloyatlar, Tuman-shahar xokimiyatlari tarkibida «Mahalla» jamgʻarmalari ish boshladi. Oliy Majlis tomonidan tasdikdangan «Mahalla» hamda axolining oʻzini- oʻzi boshqaruvchi boshlangʻich tashkilotlari, yaʼni maxalla oqsoqollari kengashlari taʼsis etildi. Bu kengashlar tarkibiga mahallada yashavchi nuroniylar, masjid xodimlari, davlat idoralarida faoliyat koʻrsatuvchi shaxslar, madaniyat,

san'at, tibbiy, tijorat, savdo xodimlari saylab quyilmokda. Ularning eng muxim vazifalariga, asosan, quyidagi muammolarni xal qilish kiradi:

O'zbekiston Prezidenti, hukumati va o'z xududlariga qarashli bo'lgan (shahar-tuman) xokimiyatlarining farmon, qaror va ko'rsatmalarini axoliga tushuntirish, targ'ib qilish. «Navro'z», «Mustaqillik kuni» bayramlari an'anaviy milliy bayram hamda marosimlarni maqsadli o'tkazish.

Oilalarning tinch, osoyishta yashashlariga xissa qo'shish (mojaro va o'zaro kelishmovchiliklarning oldini olish, ular sodir bo'lganda yaxshilikka xal etish).

Oilalarda xotin-qizlarning faoliyati va farzandlar tarbiyasini yaxshilashlari.

Turli ommaviy-sog'lomlashtiruvchi sport tadbirlari, xalq milliy o'yinlarini o'tkazishda yordamlashish.

Ma'lumki, yukorida qayd etylgan muxim tadbirlar moddiy ta'minot masalalarini takozo etadi. Ana shularni xisobga olgan xolda Respublika «Mahalla» komissiyasi va uning quyi tarmoktarida «Mahalla» xayriya jamg'armasi tashkil etildi. Unga tushadigan jamg'arma mablag'lari, asosan, quyidagi soxatarga sarflanadi:

Nog'iron bolalar, nuroniylarga bayram arafalarida moddiy yordam va covg'alap qilish.

Kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga moddiy yordam berib borish.

An'anviy bayramlar va marosimlarda zaruriyat uchun moddiy ko'maklashish.

Mahalla oqsoqollari kengashining rasmiy faoliyatlari, xujalik ishlari va boshqa sohalarga mablag'lar ajratish.

Mahalla oqsoqollari kengashi va uning xayriya jamg'armasi xisobiga juma namoziga kelgan kishilar tomonidan xadya etiyalgan xayriyalar, xomiylarning qo'shgan xissalari, mahalla oqsoqollari kengashi tomonidan tashk etilgan ishlab chikarish korxonalari, savdo, tijorat tizimlaridan olingan daromad va boshqa kirimlar tushadi. Shuningdek, sharoit va ehtiyojlarga qarab «Mahalla» xayriya jamg'armasining yuqori tashkilotlari tomonidan ham moddiy yordam beriladi.

E'tirof etish kerakki, bunday ulug'vor faoliyatlar Respublikada mexr-oqibat, ayr-exson qilish kabi milliy qadriyatlarning chuqurlashib borishidan, O'zbekiston Prezidenti va xukumatning axolini ijtimoiy- moddiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy jixatdan muxofaza qilishlaridan dalolatdir.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida «Maxalla» xayriya jamg'arma uyushmasi «Navro'z», «Mustaqillik kuni» bayramlaridagi sport chiqishlari, maxallalarda o'tkaziladigan (o'rtoqlik uchrashuvlari, spartakiadalar, xalq milliy o'yinlarini tashkil qilish va o'tkazishda faol ishtirok etgan mutaxassislar, sportsevarlar, sportchilar,) xakamlar va boshqalarni munosib ravishda rag'batlantirib bormoqda

Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi.

«Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazining o'z nashri, ya'ni «Tafakkur» jurnali mamlakatimizda kechayotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy isloxtlarning moxiyatini keng yoritib, ularni xayotga singdirishda etarli darajada faoliyat kursatib kelmoqda.

Yuqoridagi iqtidoor asosan, ta'lim-tarbiya ishlariga mas'ul idoralar, tashkilotlar, muassasalar hamda teleradio kompaniyasi, ommaviy axborot vositalari, milliy kadriyatlar mazmuni, ma'naviy-ma'rifiy meroslar, ulug' adiblar hayoti va ilmiy meroslarini axoli ongiga chuqur singdirish yo'lida keng targ'ibotchilik ishlarini olib bormoqda.

Sobiq Ittifoq davrida axolining aksariyat ko'pchilik kismi Usha davr xokimiyatining g'oyalari, mafkuralari bilan tula sugorilganligi sir emas. U g'oyalar cha mafkuralarning ko'p jixatdan puch ekanligi keyingi qayta ko'rish yillarida (1980—1990) barchaga aniq bo'lib qoldi. Shu sababli mamlakatimizda miliy kadriyatlarni tiklash va ularni davr talablari asosida boyitish taqozasi yuzaga keldi. Bunday g'oyalarni amalga oshirish uchun esa aniq mafkuraviy tashkilot tuzilishi lozim edi.

1994 yil 23 aprelda O'zbekiston Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risida farmoni e'lon kilindi. Shu asosda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi Respublikada «Ma'naviyat va

ma'rifat» jamoatchilik markazining faoliyatini tashkil etish to'g'risida (1994 yil iyun) qarori qabul qildi.

Ushbu qarorda ta'kidlanganidek, «Ma'naviyat va ma'rnfat» jamoatchilik markazi keng omma bilan hamkorlikda ishlovchi, davlat byudjetidan mablagi bilan ta'minlash va shu bilan bir qatorda xo'jalik ish yurituvchi ijtimoiy tashkilotdir. Bu tashkilot zimmasiga bir qator muxim vazifalar yuklatilgan. Ular qatorida «Sotsiologik tadqiqotlar, so'rovlar o'tkazish orqali o'zbek xalqining boy ma'naviy merosi, sharkona va umuminsoniy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydigan ilg'or g'oyalarni yuzaga chikarish hamda xayotga tatbiq, etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish»dek o'ta muxim vazifa ham belgilangan.

Yuqorida boshqa bo'limlarda qayd etilganidek, «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi, Xalq ta'limi, Oliy ta'lim hamda Soklikni saklash vazirliklari, shuningdek, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda «Sog'lom avlaod uchun» davlat dasturini amalga oshirmokda, jismoniy tarbiya va sport bilan bog'lik bo'lgan Respublika ilmiy-nazariy anjumanlarini o'tkazishda faol qatnashmoqda.

Mahalla oqsoqollari kengashlarining faoliyatida jismoniy tarbiya va sport ishlarining mazmuni hamda vazifalari

Maxalla oqsoqollari kengashlarining faoliyatlari keng kamroeli va fidokorona mexnat qilishni talab etuvchi soxalardan xisoblanadi. Mahallada jismoniy tarbiya va ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish faoliyatlari yil sayin kengayib va ularga bo'lgan e'tibor ko'chaymokda.

Xalq iborasi bilan aytganda, Vatan ostonadan, maxalladan boshlanadi. Vatan tushunchasi har bir insonning yuksakdarajadagi xis-tug'ulari, sadoqati, fidoiy mexnati, o'zaro izzat-xurmat kabi insoniy fazilatlarida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda respublika sportchilarining Xalqaro sport maydonlaridagi, ayniqsa, Olimpiya o'yinlaridagi ishtiroki, g'alabasi ana shu xislatlar tufayli ustuvor ekanligini aytib o'tish kerak. Ayniksa, yurtimiz bayrog'ining uzoq Ulkalarda

viqor bilan kutarilishi, madhiyamizning baland yangrashi sportchilarning ona-Vatan sharafi uchun kurashgan va xissa ko'yanligining timsolidir. Buning boisi shundaki, o'shaday foal sportchilar, ularning murabbiylari, kolaversa, sport tashkilotlari, jamiyatlari xodimlari hamda jismoniy tarbiya va sport soxasidagi mutaxassislar ham u yoki bu maxallada istiqomat kiladi. Mahalla oqsoqollari kengashlari faoliyatida ular ham ishtirok etib,

sportni targ'ib qilish, yoshlarni sportga jalb etish, an'anaviy bayramlarda qatnashib, ma'ro'zalar, o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashish kabi tadbirlarni birgalikda olib boradilar. Bunday tadbirlar maxalla oqsoqollari kengashi tarkibidagi faollar, sportsevarlar, mutaxassislar tomonidan uyushtirib borilmokda. Bunday xayrli ishlarni qishloq sharoitlarida ham doimiy o'tkazib turilishi lozim.

Maxalla oksokollari kengashi qoshida sport klublarini tashkil qilish amalga oshirilmoqda. Bunday tashabbuslarni ommalashtirish zarur bo'ladi. Ba'zi bir ilg'or tajribaga ega bo'lgan mahallalar sport yo'riqchisi shtati- ni tashkil qilmoqda. Ular bevosita tuman-shahar sport qo'mitalariga itoat etib, axoli o'rtasida sportni ommalashtirish, bolalar va usmirlar orasida sport musobaqalarini tashkil qilish bilan faoliyat kursatmokda. Mahalla oqsoqollari kengashlari va ularning jismoniy tarbiya va sport soxasidagi faollari oldida mahalla aholi salomatligini yaxshilash, yoshlarni sportga jalb etish, sport va xalq milliy o'yinlari orqali aholining dam olishi, ruxiy oziqlanishi, jismonan barkamol bo'lishlariga erishtirish kabi vazifalar mavjuddir.

Ba'zi milliy urf-odatlarimiz va diniy dunyokarashlar xotin-qizlarning erkin ravishda jismoniy mashqlar, xalq milliy o'yinlari yoki biron sport turi bilan shug'illanishlariga salbiy ta'sir qilishi jarayonlari davom etmokda. «Sog'lom avlod uchun» davlat dasturida bel- gilanganidek, sog'lom avlodni etishtirish uchun eng avvalo onalar sog'lom bo'lishi va farzandlarining sog'lom o'sishi uchun barcha shart-sharong va imkoniyatlardan foydalaniish zarurdir. Bunda bolalarni eng kichik yoshdan boshlab oila, bog'cha va maktablard; jismoniy tarbiya bilan shug'illanishga odatlantirish alohida ko'zda tutilgan. Bu jihatlarni amalga oshirishda mahalla oqsoqollari kengashi, uning faollari va jismoniy

tarbiya va sport mutaxassislari astoydil ish olib borishlari lozim. Axoli o'rtasida ommaviy jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilish, «Sog'lom avlod uchun» davlat dasturini amalga oshirish hamda

«Appomish» va «Barchinoy» maxsus testlari talablarining mohiyatlarini kishilar ongiga singdirish xozirgi kunning dolzarb muammolaridandir. Shu sababdan maxalla oqsoqollari kengashili «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» gi qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanzda rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi (1999 yil 27 may) qarorini chuqur urtanishlari, unda ko'zda tutilgan eng zarur tadbirlarni maxallalarda ishlab chiqish, axolini sportga jatb etish yo'llarini topishlari lozim.

Xulosa shundaki, axoli turar-joylarida eng avvalo sport inshootlari, oddiy o'yin maydonlaridan maqsadli foydalanish zarur. Sport ixlosmandlari, sportsevarlar, mutaxassis xodimlar yoshlar o'rtasida ko'chalararo, mavzelar, daxalar va maxalla birinchiligi uchun ular sevgan sport musobaqalari ni tashkil qilishlari kerak.

«Cog' tanda sog'lom aql» nakdiga rioya etgan xolda jismoniy tarbiya va sportni keng tarrib qilish, uning salomatlikni mustaxkamlash, ish faolyati va umuman umrni uzaytirishdagi muxim omillardan biri ekanligiga axolini iqror etish kerak bo'ladi.

«Navro'z», «Mustaqillik kuni» bayramlari va boshqa milliy an'analarda milliy o'yinlarini tashkil qilish «Navro'z» bayrami, hosil bayrami, to'ylar qadimgi milliy an'analardan xisoblanadi. Ularning safiga milliy bayram sifatida «Mustaqillik kuni» bayrami ham qo'shildi Bu an'anaviy bayramlar, xalq sayillari va to'ylarda kurash, ko'pkari (uloq), poyga, otdan ag'darish, «Qiz quvmoq», dorbozlik, tosh ko'tarish, bilak kuchini sinash va boshqa unlyab o'yinlar doimiy ravishda qo'llanib kelingan. Ular haqida «Alpomish», «Qirq- qiz», «Shoxnoma», «Manas» kabi juda ko'p dostonlar guvoxlik beradi. O'zbekiston istiqbol sari dadil borar ekan, xalq milliy o'yinlari milliy kadriyatlar sifatida yanada e'zozlanmoqda. Ular «Navro'z», «Mustaqillik kuni», «Xosil bayrami», kasb-xunar bayramlari,

to'ylar va ulug' sanalarni nishonlash jarayonlarida yangi shakl va mazmunda qo'llanilmoqda

O'zbek kurashi xalqaro sport maydoniga chikdi. Sportning bu turi bo'yicha jaxon chempionatlari muvaffaqiyatli ,o'tkazildi. Shu tufayli kurash shahar va qishloq yoshlarining sevimli sporta sifatida ommalashmoqda.

Qishloqlardagi katta to'ylar kurashsiz va ko'pkarisiz o'tkazilmaydi. Otlarning zotini ko'paytirish, chavandozlar sonini oshrish borasida qishloq, kengash faollari jiddiy ish yuritmokda. Barcha milliy bayramlarimizda fakat chavandoz polvonlargina emas, katta yoshlar ham poy-ga, ko'pkari va boshqa xalq miliy o'yinlarida faol qatnashmokdalar.

1491 yil aperldan buyon respublika miqyosida xalq milliy o'yinlari, musobaqalari, «Alpomish» o'yinlari festivallari o'tkazilayotgani haqida yukorida bayon etilgan edi. Ta'kidlash lozimki, markaziy shaharlar miqiyosida va ba'zi qishloq hamda maxallalarda o'tkaziladigan Navro'z, Mustaqillik kuni, Xosil bayramlari hamda to'ylarda xalq milliy o'yinlari namoyish shaklidagina olib borilmoqda.

Mahallalar va qishloqlarda o'tkazilayotgan an'anaviy bayramlarda xalq milliy o'yinlarini tashkil qilishda mahalla oqsoqollari kengashi faollari, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari yaqindan turib o'zaro hamkorlik qilishlari zarur. Shunga asosan ko'pchilik ishtirok etadigan xalq milliy o'yinlarini mazmun va koidalarini ixchamlashtirgan xolda tashkil qilish lozim bo'ladi.

Bunday tadbirlarda maxalliy xotin-qizlarining ishtirokini ta'minlash milliy o'yinlarining turlaridan keng foydalanishga olib keladi.

Xalq milliy o'yinlari shug'ullanuvchilarning insoniy fazilatlari va jismoniy sifatlarini maqsad yulida tarbiyalashda milliy kadriyatlarga tayanib ma'naviy-jismoniy kamolotni rivojlantirishga xizmat kiladi. Ana shu jixatlar e'tiborga olinsa, maxalla oqsoqollari kengashi faoliyatini ko'chaytirish , milliy o'yinlaridan foydalanishni ta'minlashda ijobiy tomonlarga siljish bo'lishi mumkin.

Sport turlari va xalq milliy o'yinlari bo'yicha turli jamoalar, to'garaklar tashkil qilish Sport turlari va xalq milliy o'yinlari bo'yicha jamoalar (komanda)

tashkil qilish Mahallalar, mavzelar, ko'chalarda bolalar va o'smirlarning gurux (5-10 kishi) bo'lib futbol, tennis, badminton va turli harakatli o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishlari odatiy bir xoldir. Bunday hollarda tashkiliy va hakamlik ishlari bolalarning o'zidan chikadi, ya'ni sport mutaxassislari bundan chetda qoladi. Natijada ba'zan turli bahslar. shartlarni bajarmaganliklari uchun mojarolar bo'lib turadi. Bu esa yoshlar orasida g'arazguyluk kabi holatlarni keltirib chikaradi. Oqibatda ota-onalar orasida norozilik, xasadguyluk vujudga keladi va ularga mahalla oqsoqollari kengashi xodimlari aralashishga to'g'ri keladi. Bunday xolatlarning oldini olish uchun sport turlari va xalq milliy o'yinlari bo'yicha komandalar to'zish, ularga sport ishqibozlari, mutaxassislar boshchilik qilishlari lozim. Buning uchun esa quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur Mahalla oqsoqollari kengashi idorasi oldida komanda to'zish to'g'risida afisha osib qo'yish. faollar orqali bolalarga og'zaki e'lon qilish, radiouzel tarmoklari, telefonlardan foydalanish. Murabbiylar va xakamlar tarkibini tuzish, ularning vazifalarini belgilash. Yig'ilgan bolalarni ro'yxatga olish va ularning xoxishlari bo'yicha jamoalar tuzish.

Sport mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun maktabning o'yin va sport zallari yoki ishlab chikarish korxonalarining sport inshootlaridan foydalanish.

To'garaklar tashkil qilish

Sport turlari va xalq milliy o'yinlari bilan shug'ullanuvchilarni bir joyga to'plab, komandalar mashg'ulotlarini to'garak sifatida tan olish, ularning barchasini uyushgan xolda jismoniy tarbiya jamoasi yoki uyushmasini ta'sis etish. Barcha faoliyatlarni yuritish uchun kengash saylash Dar bir sport turi komandasining sardori (kapitan) kengash a'zosi etib saylanadi hamda uning raisi prezidentini ham saylash lozim bo'ladi.

Jamoa (uyushma) kengashi raisi va a'zolari maxalla oqsoqollari kengashi bilan doimiy aloqada bo'lishi va hal qilinishi zarur bo'lgan masalalarni moslashtirib turishi kerak.

Maxalla oqsoqollari kengashi, uz navbatida, maxallada tashkil etilgan sport jamoasi (uyushmasi) haqida tuman-shahar xokimiyati, sport qo‘mitasi va boshqa mas’ul idoralarga ma’lum qilishi lozim. Shu tariqa maxalladagi komandalar, to‘garaklar va sport jamoasining tashkiliy-tarkibiy uning Nizomi va boshqa zarur tomonlari xuquqiy xujjatlar bilan rasmiylashtirilishi shart.

Dam olish maskailarida (sport lagerlari, istiroxat va ko‘ngil ochish bog‘lari va xokaza) sog‘lomlashtirish ishlari

Axoli istiqomat joylarida dam olish va sog‘lomlashtirish maskanlari shakli quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Istiroxat va kungil ochish bog‘lari (park).

Anxor, ko‘l, suv ombori va katta ariqlar (plyaj).

O‘quvchilarning dam olish oromgohlari (lagerlar).

Sport oromgohlari (sport lageri).

Mahalla va uylar oldidagi bolalarning o‘yin maydonlari.

Bu shakllardagi dam olish maskanlarining qurilish, shart-sharoitlari, imkoniyatlari har xil bo‘lishi tabiiydir. SHu sababdan ularda tashkil kilinadigan komandalar, sog‘lomlashtiruvchi guruxlar, ularning mashg‘ulotlari hamda musobaqalari ham shundan kelib chikkan xolda har xil bo‘ladi. Bunday turli-tuman joylarda o‘yinlar, mashg‘ulotlar va musobaqalarni tashkil etish mutasaddi tashkilotlar, jamoat tashkilotlari, maxalla- qishloq oqsoqollari kengashi hamda faollari tomonidan olib boriladi. Bu faoliyatlarda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari, tibbiy xodimlar, kutqaruvchi (suv) va nazorat xizmatlari bo‘lishi kerak.

umumiy xulosa shundan iboratki, mamlakatda olib borilayotgan turli ommaviy tadbirlarda sport turlari va xalq milliy o‘yinlari mazmun topmoqda. Ularni tayyorlash va o‘tkazishda axoli turar-joylaridagi faollar yaqindan yordam bermoqda.

7-MAVZU. ALPOMISH VA BARCHINOY MAXSUS TESTLARI AHOLINI JISMONIY TAYYORGARLIGINI ANIQLOVCHI ASOSIY ME'YORLAR

REJA

1. Alpomish va Barchinoy maxsus testlarining maqsad va vazifalari.
2. Alpomish va Barchinoy maxsus testlarining tasniflanishi.
3. Alpomish va Barchinoy maxsus testlarining me'yorlari.

O'zbekiston aholisining jismoniy tayyorgarligi va salomatlik darajasini belgilab beruvchi "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlari to'g'risidagi Nizomda ularning asosiy maqsadi, vazifalari, me'yoriy talablari belgilangan.

"Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlar sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, aholini jismoniy tarbiya va sport bo'yicha maxsus mashg'ulotlarga jalb etish, o'z sog'lig'ini mustahkamlashdagi ehtiyojni qondirish hamda hayotning turli bosqichlarida jismoniy tayyorgarligini oshirib borish vositasi sanaladi.

SHuningdek, maxsus testlar jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug‘ullanishga doir asosiy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarni egallash, o‘qish, mehnat qilish va dam olish kun tartibida jismoniy mashqlarning xilma-xil shakllaridan foydalanish, iste’dodli sportchilarni aniqlash va tarbiyalash maqsadida ommaviy sportni rivojlantirishga yordam beradi.

Maxsus testlarning maqsad vazifalari

Aholining jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadiga qaratilgan maxsus testlar egiluvchanlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik va chaqqonlikni aks ettiruvchi sinov turlarini o‘z ichiga oladi.

“Alpomish” maxsus testlari o‘g‘il bolalar (erkaklar), “Barchinoy” maxsus testlari esa qizlar (ayollar) uchun mo‘ljallangan.

“Alpomish” testlari 3 bosqichdan iborat bo‘lib, 5 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar, “Barchinoy” testlari esa 5 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar uchun mo‘ljallangan.

“Alpomish” testlari:

1-bosqich – 5 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalar uchun (umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-9 sinf o‘quvchilari hamda kollej va litsey o‘quvchilari);

2-bosqich – 18 yoshdan 34 yoshgacha bo‘lgan erkaklar uchun (oliy o‘quv yurtlarining talabalari, harbiy xizmatchilar, ishlab chiqarishda band bo‘lgan yoshlar va boshqalar);

3- bosqich – 35 yoshdan 60 va undan katta yoshdagi erkaklar uchun (xalq xo‘jaligida band bo‘lganlar, nafaqaho‘rlar va boshqalar).

“Barchinoy” maxsus testlari:

1-bosqich - 5 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan qizlar uchun (umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-9 sinf o‘quvchilari hamda kollej va litsey o‘quvchilari);

2-bosqich – 18 yoshdan 34 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar uchun (oliy o‘quv yurtlarining talabalari, harbiy xizmatchilar, ishlab chiqarishda band bo‘lgan yoshlar va boshqalar);

3- bosqich – 35 yoshdan 55 va undan katta yoshdagi xotin-qizlar uchun (xalq xo‘jaligida band bo‘lganlar, nafaqaho‘rlar va boshqalar).

Yosh guruhlari

Hammasi bo‘lib uch bosqichli testlar bo‘yicha 15 ta yosh guruhlari tuzilgan.

1 bosqich (5-17 yosh)

- 1 guruh - 5-6- yosh (o‘g‘il va qiz bolalar)
- 2 guruh - 7-8- yosh (o‘g‘il va qiz bolalar)
- 3 guruh - 9-10- yosh (o‘g‘il va qiz bolalar)
- 4 guruh - 11-12- yosh (o‘g‘il va qiz bolalar)
- 5 guruh - 13-14- yosh (o‘g‘il va qiz bolalar)
- 6 guruh - 15-16- yosh (o‘spirin va qizlar)
- 7 guruh - 17 yoshlar (o‘spirin va qizlar)

2 bosqich (18- 34 yosh)

- 8 guruh - 18-23- yosh (erkaklar, ayollar)
- 9 guruh - 24-29- yosh (erkaklar, ayollar)
- 10 guruh - 30-34- yosh (erkaklar, ayollar)

3 bosqich (35 – 60 yosh va undan yuqori)

- 11 guruh - 35-39 yosh (erkaklar, ayollar)
- 12guruh - 40-44 yosh (erkaklar, ayollar)
- 13 guruh - 45-49 yosh (erkaklar, ayollar)
- 14 guruh - 50-54 yosh (erkaklar, ayollar)
- 15 guruh - 55-60 yosh va undan katta (erkaklar, ayollar)

“Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari asosida ko‘pkurash sport turiga ishtirokchining yoshi va jinsini hisobga olgan holda olti turi kiritiladi. Ko‘pkurash musobaqalari sport turlari bo‘yicha bo‘ladigan musobaqalar qoidalariga muvofiq o‘tkaziladi. Musobaqalar oldidan shug‘ullanuvchilar me‘yorlar majmuasini topshirishlari kerak. Buning uchun ular tayyorgarlik ko‘rishlari zarur.

Maxsus testlar asosidagi sinovlarni

o‘tkazish shartlari va tartibi

“Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari asosida musobaqalar umumiy oʻrta taʼlim maktablarining barcha sinflari, kollej, litsey va oliy oʻquv yurtlarining barcha kurslari talabalari oʻrtasida (tibbiy guruhga kiruvchilardan tashqari) hamda mazkur muassasalarda faoliyat yuritayotgan oʻqituvchi, murabbiy va boshqa xodimlari oʻrtasida oʻtkaziladi. Boshqa sohalarda mehnat qilayotgan yoshlar uchun sogʻlomlashtirish yoʻnalishidagi musobaqalar tashkil etiladi. Harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi taʼkilot xodimlari uchun maxsus oʻtkaziladigan mashgʻulotlar uyushtiriladi.

Maxsus testlarni sinov topshiriga yuqorida nomlari zikr etilgan barcha kontingent jalb etiladi. Bundan tashqari shifokorning ruxsatnomasiga ega boʻlgan, tashkiliy surʼatdayoki mustaqil ravishda sport bilan shugʻullanadigan barcha xohlovchilar ishtirok etishlari mumkin.

“Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlarining sinov turlari boʻyicha musobaqalardagi mashqlarning bajarish shartlariga hamda sport turlari boʻyicha musobaqalar qoidalariga muvofiq shahar (tuman) sport boʻlimlari tomonidan tasdiqlangan hakamlar hayʼati oʻtkazadi. Hakamlar hayʼati tarkibiga tibbiy xodim ham kiradi. Testlarni topshirishga tayyorgarlik ishlari oʻquvchilar, talabalar uchun oʻquv yurtlarida oʻquv mashgʻulotlari hamda oʻqishdan tashqari jismoniy tarbiya-sogʻlomlashtirish va sport mashgʻulotlari jarayonida, turli erdi mehnat qilayotgan yoshlar uchun sport seksiyalari, umumiy jismoniy tayyorgarlik guruhlar, sihat-salomatlik guruhlarida tashkil etiladi.

“Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlarining tasniflanishi.

Respublika, viloyat, shahar va tumanlarda test meʼyorlarining bajarilishiga rahbarlik va bu ishlar ustidan nazorat tegishli hokimiyat, sport boʻlimlari, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim hamda Xalq taʼlim vazirliklari va ularning joylardagi boʻlimlari, korxonalar va tashkilotlarning kasaba uyushmasi koʻmitalari, harbiy qismlarning qoʻmondonlari va huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlarning boʻlim rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi.

Meʼyorlarni va test talablarini bajargan musobaqa qatnashchilari koʻkrak nishonlari va maxsus guvohnomalar bilan taqdirlanadi. Nishonlar va maxsus

guvohnomalar bilan taqdirlashning sarf-harajatlarini tegishli o'quv tashkilot, harbiy qism va huquqni muhofaza qilish muassasalari o'z zimmasiga oladi. "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus test natijalariga ko'ra nishon, guvohnoma, diplom va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlash tantanali ravishda o'tkaziladi.

I. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va Sport Ishlari Vazirligi, Xalq ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Kasaba uyushmasi federatsiyasi Kengashi 1999 yil 24 dekabrda O'zbekiston aholisining jismoniy tayyorgarligi va salomatligi darajasini belgilab beruvchi "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlarini joriy etish to'g'risida 4/14 chi qaror qabul qiladi. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining O'zbekistonda Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari haqidagi 1999 yil 27 may 271 – sonli – qarorlarini amalga oshirish maqsadida yuqorida qayd etilgan mutasaddi qo'mita va Vazirliklar hamda kasaba uyushma federatsiyasi kengashi Qaror qiladi:

1. O'zbekiston aholisining jismoniy tayyorgarligi va salomatlik darajasini belgilab beruvchi "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlari to'g'risida Nizom tasdiqlansin.

- "Alpomish va Barchinoy" maxsus testlari haqidagi Nizom 2000 yil 1 yanvardan kuchga kiritilsin.

- "Alpomish va Barchinoy" maxsus testlari nishon va guvoxonmalarining eskizlari tasdiqlansin (2- ilova).

2. O'zbekiston aholisining jismoniy tayyorgarligi va salomatligi darajasini belgilab beruvchi "Alpomish va Barchinoy" maxsus testlarini tashkil etish bo'yicha Respublika shtabining tarkibi tasdiqlansin.(3- ilova).

3. Xalq ta'lim vazirligi, Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sport vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, IIV. Mudofaa vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga qarashli o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya o'quv dasturlarini "Alpomish va Barchinoy" maxsus testlari to'g'risidagi Nizom talablariga mos holga keltirish, umumiy o'rta jarayoniga testlarining me'yoriy talablarini olib kirish va ularning egallanishini ta'minlash topshirilsin.

4. Davlat jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasiga (Xozir O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligiga), vazirliklar va idoralarga, jamoat tashkilotlariga hokimiyat bilan birgalikda “Alpomish va Barchinoy” maxsus testlari o‘quv yurtlarida, mehnat jamoalarida, aholining yashash va dam olish joylarida joriy etish, “Alpomish va Barchinoy” maxsus testlari dasturiga kiritilgan sport turlari bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun sharoit yaratish ishlarini ta‘minlash ishlari yuklatilsin.

Alpomish va Barchinoy maxsus testlarining me‘yorlari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, viloyatlar va Toshkent shahar xokimiyatlardan ushbu ishlarning joriy etish yuzasidan aniq tadbirlarini aniq amalga oshirish so‘ralsin.

“Alpomish” maxsus testlari o‘g‘il bola (erkaklar), “Barchinoy” maxsus testlari esa qiz (ayol)lar uchun mo‘ljallanadi.

II – bo‘limda “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlarini maqsad vazifalari to‘g‘risida.

III – bo‘limda testlar tizimi to‘g‘risida.

IV – bo‘limda testlar asosidagi sinovlarni tayyorlash, o‘tkazish shartlari va tartibi to‘g‘risida.

V – bo‘lim testlar bo‘yicha ishlarni tashkil etish to‘g‘risida.

VI – bo‘lim testlar bo‘yicha sinov turlarining bajarish shartlari to‘g‘risida.

VII - “Alpomish” va “Barchinoy” ko‘p kurash bo‘yicha dastur to‘g‘risida.

VIII – YAkunlar chiqarish va taqdirlash to‘g‘risida yo‘llanmalar berilgan.

“Alpomish” testlari:

I – bosqich - 5 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalar uchun (umumiy o‘rta ta‘lim maktabining 1 – 9 sinf o‘quvchilari hamda litsey va kollej) o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan.

II – bosqich – 18 yoshdan – 34 yoshgacha bo‘lgan erkaklar (oliy o‘quv yurtlarining talablari, harbiy hizmatchilar, ishlab chiqarishda band bo‘lgan yoshlar va boshqalar) uchun.

III - bosqich – 35 yoshdan – 60 va undan katta yoshdagi erkaklar (xalq xo‘jaligida ishlovchilar, nafaqaxo‘rlar va boshqalar) uchun.

“Barchinoy” testlari:

I – bosqich – 5 yoshdan – 17 yoshgacha bo‘lgan qizlar (umumiy o‘rta ta’lim maktabining 1 – 9 sinf o‘quvchilari hamda litsey, kollej o‘quvchilari uchun.

II – bosqich – 18 yoshdan – 34 yoshgacha bo‘lgan xotin qizlar (oliy o‘quv yurtlarining talablari, harbiy xizmatchilari, ishlab chiqarishda band bo‘lgan yoshlar va boshqalar) uchun.

III – bosqich – 35 yoshdan – 55 yoshgacha va undan katta yoshdagi xotin – qizlar (xalq xo‘jaligida band bo‘lganlar, nafaqaxo‘rlar va boshqalar) uchun.

Me‘yorlarni qabul qilish ishlari ma‘muriyatning buyruqlari bilan tasdiqlanib, joylardagi tegishli sport bo‘lim boshliqlari bilan kelishilgan xolda maxsus testlar bo‘yicha tegishli maxalliy komissiyalar tomonidan o‘tkaziladi.

8-MAVZU. JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI TARG‘IBOT VA TASHVIQOT ISHLARI

REJA

1. Jismoniy tarbiya va sportni targ‘ibot va tashviqot ishlarining maqsadi, vazifalari va asosiy tamoyillari.
2. Jismoniy tarbiya va sportni targ‘ibot ishlarining xususiyatlari.
3. Jismoniy tarbiya va sportni targ‘ibot qilish ishlarining turlari, shakllari va vositalari .
4. Sport tashkilotlarida targ‘ibot va tashviqot ishlarini tashkil qilishning uslublari.

Tayanch iboralar: *Jismoniy tarbiya va sport, ommaviy sport, sportni targ‘ibot qilish, sport jamoalari, sport tashkilotlari, mutaxassis xodimlar,*

ommaviy axborot vositalari, sport psixologiyasi, jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarish.

Jismoniy tarbiya va sporni targ‘ibot va tashviqot ishlarining maqsadi, vazifalari va asosiy tamoyillari.

Respublikamizda milliy g‘oya va aholining iftiharini keng ommaga targ‘ib qilishda jismoniy tarbiya va sport hamda xalq milliy o‘yinlarining mohiyati kattadir. Ular haqida targ‘ibot ishlarini olib borish ham muhim ahamiyatga egadir. Ommaviy axborot vositalari, orqali va bevosita muloqotlarda O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport Vazirligi, “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi va boshqa tashkilotlar bu sohada samarali mehnat qilib kelmoqda.

Hozirgi kunda televideniya berilayotgan sport ko‘rsatuvlari, ayniqsa, futbol, tennis, kurash, boks hamda milliy o‘yinlarni barcha miriqib tomosha qiladi. Sportga oid adabiyotlar, gazeta va jurnallarni berilib o‘kiydigan muxlislarning soni tobora oshib bormoqda.

Hayotiy tajribalar, amaliy faoliyatlar natijasining ko‘rsatishicha, o‘quvchilar gazetalarda milliy sport turlari, sevimli sport musobaqalari, ularda ishtirok etuvchi mahalliy jamoalar, sportchilar haqida xabarlar yozishni talab qilmoqdalar. Qishloq aholisi o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport ishlari etarli darajada targ‘ibot qilinmoqda. Chunki, u erlarda moddiy-texnik ta’minot, sport inshootlarining soni ko‘paymoqda. Aksariyat katta-kichik kishilar jismoniy mehnat bilan band. Ularda jismoniy tarbiya va sportga ehtiyoj tushunchasi hali to‘la darajada emas. SHu tomonlarni hisobga olgan holda, avvalo, sport inshootlarini qurish va jismoniy tarbiya ta’limi bilan aholini qurollantirishning zamonaviy usullarini topish lozim bo‘ladi. Buning uchun madaniyat, san’at, adabiyot, ma’naviyat va ma’rifat xodimlarining jismoniy tarbiya va sport hamda sayohat sohasidagi faoliyatlarini yanada kuchaytirish, ularning mafkuraviy targ‘ibotini keng yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Eng muhim va jonli targ‘ibot vositasi sifatida sport musobaqalari, ommaviy sog‘lomlashtirish tadbirlari, jamoalarning o‘rtoqliq uchrashuvlarini tashkil qilish lozim. Ularda sport tashkilotlarining rahbarlari, olimlar, faxriylar, xalqaro sport

musobaqalarining sovrindorlari bilan muloqotlar uyushtirish, maktab o'quvchilarining «Quvnoq startlar» va «Umid nihollari»ni mazmunan boyitib, televideniada ko'proq namoyish qilish kerak.

Jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot ishlarining xususiyatlari.

Sport tashkilotlari va ularning quyi tarmoqlarida boshqarish faoliyatlarini tashkil qilishda ish uslublari muhim ahamiyat kasb etadi. Targ'ibot shakllari, vositalari va asosiy mazmunini talabalar mustaqil ravishda o'rganishlari maqsadga muvofiqdir.

Targ'ibot (rag'batlantirish) va tashviqot (shavqlantirish) insonlar fikriga ta'sir qilish, ularda sog'lom e'tiqod hamda yot mafkuralarga qarshi immunitetni shakllantirishning etakchi uslublaridir. Bu usullarning samaradorligi esa, ularning ilmiy asoslanganligiga bog'liq. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar aynan shu yurt, shu zaminda yashab, mehnat qilayotgan insonlar manfaatini ko'zlashini har bir erkin fuqaroga to'la anglatishga qaratilgan.

Tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, odamlarga mantiqan asosli ma'lumotlar tezroq ta'sir qiladi. Bunda auditoriyaning xususiyati nazarda tutilishi kerak. Masalan, o'qimishli odamlar auditoriyasi faktlarga tayangan, asosli ma'lumotni tezroq qabul qiladi.

Psixologik nuqtai nazardan tinglovchi auditoriya to'rt xil farqlanadi:

1. *Sust o'zlashtiruvchi odamlar.* Ularga sodda, tushunarli, amaliy ma'lumotlar berish kerak. Mavzudagi axborotlar ham hayotiy fikrlarda bayon etilsagina, ulardan ijobiy munosabatni kutish mumkin.
2. *Faol, barkamol odamlar.* Bular ma'lumotli, ziyoli, yangilikka o'ch insonlar bo'lib, ularga ta'sir ko'rsatuvchi har qanday axborot muammoli, dolzarb bo'lgani ma'qul. Talabalar, magistrant va aspirantlar, olimlar va boshqalar shular jumlasidandir.
3. *«E'tiqodi sust» odamlar.* Bular ma'lum sabablarga ko'ra tarbiyasi og'ir kimsalar toifasiga kirib qolgan, aniq maqsali yo'q, o'z ustida ishlamaydigan insonlardir. SHuning uchun bunday toifadagi odamlar bilan ishlaganda, ularning bevosita

hayoti va biror jihatdan avtoritet bo‘lib qolgan shaxslar orqali ta’sir ko‘rsatish samarali bo‘ladi.

4. *Muqim odamlar* – bu asosan uy bekalari, qariyalar, ma’lum sabablar bilan nogiron bo‘lib, asosiy vaqtini uyda o‘tkazadiganlar. Ular diqqatini qiziqarli epizodli ko‘rsatuv va lavhalar tortadi.

Targ‘ibotda auditoriyaning yosh xususiyatlarini, ularning bilim darajasini albatta hisobga olish zarur. Son jihatdan auditoriyaning katta – 100-200 kishidan ortiq; o‘rtacha – 15- 50 tagacha odamlar bo‘lgan va kichik – 15 tagacha bo‘lgan turlari farqlanadi. Bunda ma’ruzachi bilishi shart bo‘lgan qoidalar mavjud:

A. Katta auditoriyada

- targ‘ibotchi mahorati o‘ta yuqori bo‘lishi shart;
- ko‘rgazmali vositalardan foydalanishda aniqlik kerak;
- savollarning minimal darajada kamligi maqsadga muvofiqdir.

B. Kichik auditoriyada

- savol va javoblar maksimal miqdorda;
- norasmiylik muhitining borligi;
- o‘z mavzusiga oid bilimlarning mukammalligi;
- targ‘ibotchi mahorati o‘rtacha bo‘lishi ham mumkin;
- mazmuni yoritishda ijodiy yondashuvning mumkinligi.

Targ‘ibot jarayonida jonli muloqot, ta’sir ko‘rsatish mahoratining o‘rni katta. Nima haqida gapirish emas, u haqda qanday gapirish muhim. Ta’sirchan gapirish mahorati va san’ati ritorika deb ataladi. Targ‘ibot jarayonida ham so‘z boyligi va uni auditoriyaga etkaza olish muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimovning halq bilan uchrashuvlarini olish mumkin. Davlat rahbari o‘zining o‘ta mas’uliyatli lavozimi va mavqeidan qat’i nazar, oddiy mehnatkashlar bilan uchrashganda yoki Vatan va yurt taqdiriga aloqador intervyular berganda, har bir o‘zbekistonlik uchun tushunarli, ravon tilda, aniq jumlar bilan tushuntirib gapiradiki, uning mazmuni kesa otaxonlardan tortib, talaba-o‘quvchilarga ham bir xil tushunarlidir. Lekin chet ellik mehmonlar va davlat delegatsiyalari a’zolari qabul qilganlarida esa siyosiy terminlar, mantiqan

asoslangan jumladan oqilona foydalanib, Prezident timsolida butun jamiyat va xalqning intellektual salohiyati to'g'risida aniq tasavvur hosil qiladi. Yurtboshimizning ta'sir ko'rsatish qobiliyatlari har bir ma'ruzachi uchun haqiqiy o'rnak namunasidir.

Jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot qilish ishlarining turlari, shakllari va vositalari.

O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport Vazirligi, O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining «Fan-sportga» ilmiy-nazariy jurnali 2004 yildan nashr qilinmoqda. «Sport», «Futbol», «O'zbekiston futboli» gazetolari ham doimiy ravishda chikariladi.

Sport reklamalarining mazmuni yirik stadionlar, o'yin maydonlari, otchoparlar, velotreklar, ko'cha, hiyobonlardagi sportga doir reklama, afishalar, shuningdek televideniening barcha kanallari tarkibida mavjud bo'lgan sport reklamalarida namoyish etiladi.

Sport inshootlari, televidenielerde namoyish etilayotgan reklamalarda o'tkazilayotgan musobaqalar, dongdor klublar, komandalar, sportchilar qatori sport buyumlari, jihozlari, sportchilarning iste'mol qiladigan ichimliklari va boshqa turlar ko'proq o'rin oladi.

O'zbekistonning yirik shaharlari, viloyatlarning markazlaridagi sport majmualari, stadionlar, tennis kortlari, suv havzalarida o'tkazilib borilayotgan rasmiy musobaqalar jarayonida turli xil reklamalar tashkil etilmoqda. Televidenie va radio orqali sport sohasidagi yangiliklar, sport jihozlari va boshqalarni targ'ib qilish odat tusiga aylandi. Bunday faoliyatlar sport marketingining yurtimizga qadam qo'yayotganligidan darak beradi.

Ommaviy axborot vositalari orqali jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish bilan birgalikda uning taraqqiyotdagi asosiy bosqichlar, omillar ham yoritib borilmoqda. Bunda sportlotto, stadionlardagi qatnashib kelayotgan tomoshabinlarning soni, homiylarning amaliy jihatdan ko'rsatayotgan moddiy yordamlari ham o'z ifodasini topmoqda.

Ishlab chiqilgan (olingan) mahsulotlarni xaridorlarga (talabgorlar) etkazish uchun juda ko'p faoliyatlarni amalga oshirish, ya'ni harakat qilish lozim bo'ladi. Bu jihatlarni ham avvaldan maqsad yo'lida rejalashtirish talab etiladi. Bunda eng muhim bo'lgan omillar va shakllar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- murojaat qilish;
- xabar qilish;
- ishontirish;
- mahsulotlar haqida ma'lumotlar;
- xizmat turlari;
- asosiy g'oyalar va hokazolar.

Mahsulotlarni o'tkazish (sotish) uchun ehtiyojlarni kuchaytirish (rag'batlantirish) hamda tashkilotlar, kompaniyalar ramzini yaxshilash maqsadlari qo'yiladi.

Sport reklamasida asosiy maqsad, vazifalar va g'oyalarni amalga oshirish uchun rejalashtirilgan tadbirlar asosida quyidagi faoliyatlarni o'tkazish lozim bo'ladi:

1. Faoliyatlarni harakatlantiruvchi targ'ibotlar (matbuot, teleradio, sport inshootlari, ko'rgazma reklama, uchrashuv, xatlar yuborish va hokazolar).
2. Doimiy nashr etiladigan vositalarda (jurnal, seriyali qo'llanmalar, xabarlar va hokazolar) nashr qilish.
3. Matbuot-anjumanlar, prezentatsiyalar.
4. Maxsus nashriyotlar.

Shuni ham ta'kilash lozimki, mahsulotlarni o'tkazish (sotish) faoliyati shaxsiy sotish yo'li bilan ham amalga oshiriladi. Bunda sotuvchi va boshqa xizmatchilarning qiyofalari, kiyinishlari, zeb-ziynatlari, o'zini tutish (ochiq chehra), qo'llar bilan ko'rsatish kabi harakatlar muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Olimpiya o'yinlarini o'tkazish jarayonlarida, xalqaro sport harakati bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarda faol ishtirok etadi. Bu o'rinda jahon chempionatlari, turnirlar, rasmiy uchrashuvlar musobaqalarda olimpiya g'oyalarini olg'a surish maqsadida turli reklamalarni qo'llaydi.

Ayniqsa, Olimpiya o'yinlari o'tkaziladigan vaqtda tashkilotchi davlatning tijorat, marketing faoliyatlariga, ya'ni Olimpiya belgilari, nishonlari va boshqa mahsulotlarni tomoshabinlar, vakillar va musobaqa qatnashchilariga sotishga yo'l ochib beradi. O'z o'rnida bu faoliyatlar olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish faoliyatlarini amalga oshiradi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot va tashviqot ishlarining maqsadi, vazifalari va asosiy tamoyillarini ayting.
2. Jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot ishlarining xususiyatlari nimada?.
3. Jismoniy tarbiya va sportni targ'ibot qilish ishlarining turlari, shakllari va vositalarini izohlang.
4. Sport tashkilotlarida targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkil qilishning qanday uslublarini bilasiz?.

9-MAVZU. JISMONIY TARBIYA JAMOALARI FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

REJA

1. Jismoniy tarbiya va sport sohasida nazoratning asosiy tamoyillari.
- 2 Sport tashkilotlari faoliyatida nazorat qilish, tekshirish tartiblari va turlari.
3. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida hisobga olish va hisobot ishlari.
4. Jismoniy tarbiya va sport sohasida nazorat, hisobga olish va hisobot ishlarining ahamiyati.

Tayanch iboralar: *Jismoniy tarbiya jamoalari, sport tashkilotlari, nazorat, hisobga olish, hisobot, vazirligi, vazirliklar, tarkibiy tuzulma, davlat idoralari, matbuot idoralari, sport jamoalari, mutaxassis xodimlar.*

Jismoniy tarbiya va sport sohasida nazoratning asosiy tamoyillari.

Boshqaruv faoliyatlarida ijroni nazorat qilish, barcha ishlarning natijalarini hisobga olib borish tashkiliy usullar mazmunini tobora boyitadi. Hisobga olish ish usullarini quyidagicha tushunmoq zarur:

1. Hisobga olib boruvchi daftar yuritish.
2. Sport to'garagi qaydnomasi jurnal tutish.
3. Sog'lomlashtirish guruhlarini qaydnomasi-ni to'ldirib borish.
4. Ommaviy sport tadbirlarini hisobga olish qaydnomasini yuritish va hokazolar.

Jamoalarni yakunlovchi hisobga olish eng muhim faoliyat hisoblanadi. Bunda quyidagi sohalarni ko'rsatish zarur bo'ladi:

1. Sport tashkilotlari jamoalar soni, shug'ullanuvchilar soni, jinsi, millati.
2. Sport ko'rsatkichlari, texnik yutuqlar, razryadli sportchilar soni.
3. Sport inshootlarining soni.
4. Rejalarning bajarilishi, smetalardagi ko'rsatkichlarning bajarilishi.
5. Yirik musobaqalarda erishilgan yutuqlar.

Bu ko'rsatkichlar yarim yillik va yillik hisobotlar tuzish oldidan hisobga olinib, natijalar yuqori tashkilotlarga yuboriladi.

Sport tashkilotlari ish tajribalarida yana tez operativ texnik hisobga olish turi ham qo'llaniladi. Bu yuqori tashkilotlar tomonidan biron ma'lumot talab qilinganda, tez muddat ichida tuzib chiqiladi. Bunday hollarda ko'pincha statistik va yozma hisobotlar tuzish ko'zda tutiladi.

Ish yuritish. Yuqorida qayd etilgan hisobga olish va hisobot tuzish ish tartiblarida eng muhim o'rin tutadigan faoliyatlardan bo'lib, u barcha hujjatlarni o'z vaqtida tuzish va rasmiylashtirib borish demakdir. Bunda quyidagilar ko'zda tutiladi:

1. Kelgan hujjatlarni rasmiylashtirish.
2. Hujjatlarni o'rganib chiqish va tegishli xodimlarga topshirish, ularning javobini o'z vaqtida olish, jo'natish.
3. Zarur bo'lganda javoblarni majlisda muhokama qilish qaror chiqarish.

4. Qaror, buyruq, farmoyish, topshiriq, ko'rsatmalar yozma ravishda rasmiylashtirilishi va ularning bajarilishi haqida o'z vaqtida belgi qo'yib borilishi zarur.

O'z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro'yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi.

Tijorat maqsadlarini ko'zlaydigan yoxud boshqa korxonalar va tashkilotlar foyda (daromad) orttirishiga ko'maklashadigan kooperativ tashkilotlarga hamda boshqa tashkilotlarga, diniy tashkilotlarga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, shuningdek tashkil etish va faoliyat ko'rsatish tartibi boshqa Qonun hujjatlari bilan belgilanadigan o'zga organlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunlari jamoat birlashmalarining huquqiy holati asoslarini belgilab beradi, Qoraqalpog'iston Respublikasining jamoat birlashmalari to'g'risidagi Qonunidan, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlaridan iborat bo'ladi.

Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish, ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish, aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport ishlarini amalga oshirish; tabiatni, madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi;

respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi.

Faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek konstitutsion tuzumni g'ayriqonuniy yo'l bilan o'zgartirish yoki O'zbekiston Respublikasi hududining birligini buzish, urushni, zo'rvonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan sinfiy, shuningdek irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonun bilan taqiqlangan boshqa xatti-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo'l qo'ymaydi.

Harbiylashtirilgan jamoat birlashmalari va qurolli tuzilmalar, shuningdek diniy xarakterga ega partiyalar, ularning filiallari va boshqa struktura bo'laklari tashkil etish taqiqlanadi.

Jamoat birlashmalari va ularning idoralari tomonidan qonuniy va demokratik yo'l bilan shakllantirilgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda hokimiyat vakolatlariga ega bo'lganlarga nisbatan g'ayridemokratik tarzda kuch ishlatib tazyiq o'tkazish taqiqlanadi. Qonuniy ravishda amal qilib turgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda mansabdor shaxslarga demokratik usulda hal etish bahonasi bilan tazyiq o'tkazishga bo'lgan har qanday urinishga Qonun bilan barham beriladi.

Aholining salomatligi va axloqiga, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga tajovuz qiladigan jamoat birlashmalarini tuzish va ularning faoliyati qonunga muvofiq ta'qib qilinadi.

Jamoat birlashmalari o'z a'zolari (qatnashchilari)ning ixtiyoriyligi, teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va harakat qiladi.

Sport tashkilotlari faoliyatida nazorat qilish, tekshirish tartiblari va turlari.

Barcha jamoat birlashmalari o'z ustavlarida, boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari doirasida ish ko'radilar.

Fuqaroning jamoat birlashmasi faoliyatida qatnashishi yoki qatnashmasligi uning huquqlari va erkinliklarini cheklash yoki unga imtiyozlar berish uchun, shu jumladan davlat tashkilotida lavozimni egallash sharti yoki Qonunda ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik uchun asos bo'la olmaydi.

Mehnat to'g'risidagi qonunlar, shuningdek mehnatkashlarning ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy sug'urta qildirish to'g'risidagi qonunlar jamoat birlashmalari apparati xodimlariga nisbatan joriy etiladi.

Davlat jamoat birlashmalari huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi hamda Konstitutsiyaga muvofiq ular o'z ustavlaridagi vazifalarni bajarishlari uchun shart-sharoit yaratilishiga kafolat beradi.

Davlat yoshlar va bolalar tashkilotlariga moddiy va ma'naviy madad beradi, ularga nisbatan imtiyozli soliq siyosati o'tkazilishini ta'minlaydi, bolalar tashkilotlariga, maktab, maktabdan tashqari muassasalar binolaridan, klublardan, madaniyat saroylari va uylaridan, sport inshootlari va boshqa inshootlardan bepul yoki imtiyozli shartlar bilan foydalanish huquqini beradi.

Qonunda ko'zda tutilgan hollardan tashqari davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoat birlashmalari tashkilotlarining tadbirlari ular a'zolarining (qatnashchilarning) asosan ishdan bo'sh vaqtida va mazkur birlashmalar mablag'i hisobidan amalga oshiriladi.

Jamoat birlashmalari manfaatlariga daxldor masalalar qonunlarda ko'zda tutilgan hollarda tegishli jamoat birlashmalari ishtirokida yoki ular bilan kelishilgan holda davlat idoralari va xo'jalik tashkilotlari tomonidan hal qilinadi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun jumhuriyat hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari jumhuriyat jamoat

birlashmalariga kiradi. Bunda siyosiy partiyaning kamida sakkizta hududiy sub'ektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan kamida yigirma ming, kasaba uyushmasining esa, kamida uch ming a'zosi bo'lishi kerak.

Viloyat, nohiya, shahar, posyolka va qishloq jamoat birlashmalari mahalliy jamoat birlashmalariga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun viloyat hududida, Toshkent shahrida esa butun shahar hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari viloyat, Toshkent shahar jamoat birlashmalariga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun nohiya (shahar) hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari nohiya (shahar) jamoat birlashmalariga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati posyolka, qishloq hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari posyolka, qishloq jamoat birlashmalariga kiradi.

Zarurat paydo bo'lgan hollarda viloyatlararo va nohiyalararo jamoat tashkilotlari tuzilishi mumkin.

Jamoat birlashmalari ixtiyoriylik asosida jamoat birlashmalarining ittifoqlariga uyushishga haqlidirlar.

Jamoat birlashmalarining ittifoqlari ushbu Qonunda jamoat birlashmalari uchun belgilab qo'yilgan tartibda tuziladi, amal qiladi va o'z faoliyatini to'xtatadi.

Jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi.

Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta'sis s'ezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig'ilishini chaqiradilar, unda ustav (nizom, o'zga asosiy hujjat) qabul qilinadi va rahbar idoralar tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamoat birlashmasi a'zolari (qatnashchilari) bo'ladilar. Siyosiy partiyalardan tashqari jamoat birlashmalarining ustavida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning birlashmaga a'zo bo'lishlari ko'zda tutilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari jumhuriyat siyosiy partiyalarining a‘zolari bo‘lishlari mumkin.

Bir siyosiy partiyaning a‘zosi ayni vaqtda boshqa siyosiy partiyaning a‘zosi bo‘la olmaydi.

Siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalaridan tashqari jamoat birlashmalarining faoliyatida ularning ustavlarida ko‘zda tutilgan hollarda jamoa a‘zolari: korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mehnat jamoatlari, fuqarolarning birlashmalari ishtirok etishlari mumkin.

Jamoat birlashmasining ustavida quyidagilar ko‘zda tutilishi kerak:

- 1) jamoat birlashmasining nomi, maqsadi va vazifasi;
- 2) jamoat birlashmasining ichki tuzilishi, uning o‘z faoliyatini amalga oshiradigan hudud;
- 3) jamoat birlashmasi a‘ziligiga qabul qilish shartlari va tartibi, agar birlashma ro‘yxatda qayd etiladigan a‘zolarga ega bo‘lsa, bunday hollarda undan chiqish shartlari va tartibi;
- 4) jamoat birlashmasi a‘zolari (qatnashchilari)ning huquqlari va burchlari;
- 5) jamoat birlashmasi hamda uning tashkilotlari rahbar idoralarining vakolatlari va ularni tuzish tartibi, ularning vakolat muddati;
- 6) jamoat birlashmasi hamda uning tashkilotlarining mablag‘lari va boshqa mol-mulkini hosil qilishning pul bilan ta‘minlanish manbalari;
- 7) jamoat birlashmasining rahbar idorasi qaerda joylashganligi;
- 8) jamoat birlashmasi ustaviga o‘zgartishlar, qo‘shimchalar kiritish tartibi;
- 9) jamoat birlashmasi faoliyatini to‘xtatish tartibi.

Ustavda jamoat birlashmasi faoliyatiga taalluqli boshqa qoidalar ham ko‘zda tutilishi mumkin.

Jamoat birlashmasining ustavi amaldagi qonunlarga zid bo‘lmasligi kerak.

O‘zbekiston Respublikasida amal qiluvchi xalqaro jamoat tashkilotlarining, jumhuriyat, viloyatlararo birlashmalarining ustavlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olinadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida jamoat birlashmasining ustavini ro‘yxatga olish tartibi Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Viloyat, nohiya, shahar, posyolka, qishloq hududida yoki ikki va undan ortiq nohiya, shahar, posyolka, qishloq hududida faoliyatini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarining ustavlari viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklarining adliya boshqarmalari tomonidan ro‘yxatga olinadi.

Jamoat birlashmasi ustavini ro‘yxatga olish uchun ustav qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddat ichida mazkur jamoat birlashmasi rahbar idorasi a‘zolari tomonidan imzolangan va shu a‘zolar har birining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili, istiqomat joyi ko‘rsatilgan ariza topshiriladi. Arizaga ustav, ustavni qabul qilgan ta‘sis s‘ezdi (konferensiyasi) yoki umumiy yig‘ilish protokoli, ushbu Qonunning 6 va 8-moddalari talablari bajarilganligini tasdiqlovchi boshqa materiallar ilova qilinadi.

Jamoat birlashmalari ustavlariga kiritilgan o‘zgarishlar, qo‘shimchalar ham ustavlarni ro‘yxatga olish tartibi va muddatlariga muvofiq ro‘yxatga olinishi lozim.

Jamoat birlashmalari ustavlarini ro‘yxatga oluvchi idoralar ana shu birlashmalar ro‘yxatini tuzib boradilar.

Jamoat birlashmasi yoki uning tashkilotlari (idoralari) ularning ustavlari ro‘yxatga olingan kundan boshlab ushbu Qonunda belgilab qo‘yilgan tartibda o‘z faoliyatlarini amalga oshiradilar va grajdanlik qonunlariga muvofiq huquqiy shaxs deb tan olinishi mumkin.

Xalqaro jamoat birlashmalarining, ularning bo‘linmalarining filiallari, shu jumladan ommaviy harakatlari va ularning tarmoq bo‘linmalarining, shuningdek jumhuriyat va mahalliy jamoat birlashmalari (shu jumladan ommaviy harakatlarning) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida va uning joylaridagi idoralarida o‘z ustavlarini ro‘yxatdan o‘tkazmagan bo‘lsalar, O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko‘rsatishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Jamoat birlashmasi ustavini, unga kiritilgan keyingi o‘zgartishlar va qo‘shimchalarni ro‘yxatdan o‘tkazganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdorda davlat boji undiriladi.

Agar jamoat birlashmasining ustavi ushbu Qonunning 3, 4 yoki 10-moddalari qoidalariga zid bo'lsa, yoxud ilgari xuddi shu nomdagi jamoat birlashmasi ro'yxatga olingan bo'lsa, jamoat birlashmasi ustavini ro'yxatga olishni rad etish mumkin.

Ustavni ro'yxatga olish rad etilgan taqdirda bu haqda taqdim etilgan ustav qaysi qonunning qoidalariga zid ekanligi ko'rsatilib, ariza beruvchiga yozma ravishda xabar qilinadi.

Jamoat birlashmasining ustavini ro'yxatdan o'tkazishning rad etilishi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin va bu ish O'zbekiston Respublikasi grajdanlik protsessual qonunida ko'zda tutilgan tartibda qarab chiqiladi.

Xalqaro, jumhuriyat va viloyatlararo jamoat birlashmalarining ustavini ro'yxatdan o'tkazishning rad etilishi ustidan — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga, mahalliy jamoat birlashmalari ustavini ro'yxatdan o'tkazish ishi ustidan esa — tegishli viloyat, Toshkent shahar sudiga shikoyat qilish mumkin.

Jamoat birlashmalari ramz sifatida o'z timsoliga, bayrog'iga va vimpeliga ega bo'lishi mumkin.

Bayroqlar va vimpellar belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Jamoat birlashmalarining faoliyati ularni qayta tashkil etish (qo'shilish, birlashish, ajralish) yoki tugatish yo'li bilan to'xtatilishi mumkin.

Jamoat birlashmalari ularning s'ezdlari (konferensiyalari) yoki umumiy yig'ilishlari qarori bilan qaytadan tashkil etiladi. Jamoat birlashmalarini qayta tashkil etgandan so'ng yangidan tuzilgan jamoat birlashmasining ustavi asosida amalga oshiriladi. Jamoat birlashmalari qonun oldida tengdirlar.

Jamoat birlashmalarining huquqlari ularning ustavlarida qayd etiladi.

Jamoat birlashmalari ustavlarda, dasturiy, boshqa hujjatlarda belgilangan maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish uchun o'z maqsadlari va faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatadi, qonunda ko'zda tutilgan xollarda va tartibda esa:

davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda qatnashadi;

davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarning qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi;

davlat va jamoat idoralarida o'z a'zolari (qatnashchilari) nomidan ish yuritadi va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi;

Siyosiy partiyalar davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiladi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashadi.

Partiyalarning dasturiy hujjatlari bo'ladi, ular ommaning e'tibori uchun matbuotda e'lon qilinadi.

Siyosiy partiyalar deputatlikka nomzodlar ko'rsatish, saylovoldi tashviqot ishlarini olib borish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida fraksiyalar va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarida partiya guruhlarini tuzish huquqiga egadir.

Ommaviy jamoat harakatlari siyosiy yoki o'zga maqsadlarni ko'zlaydilar hamda ularning ro'yxatga olingan a'zolari bo'lmaydi.

Harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish idoralarida lavozimni egallab turgan shaxslar o'z xizmat faoliyatida qonun talablariga amal qiladilar va siyosiy partiyalar hamda siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi ommaviy jamoat harakatlarining qarorlari bilan bog'liq bo'lmaydilar.

Kasaba uyushmalari davlat idoralari, xo'jalik tashkilotlari, kooperativ va o'zga jamoat birlashmalari bilan o'zaro munosabatlarda kasaba uyushmalari to'g'risidagi amaldagi qonunlarga muvofiq kasaba uyushmasi a'zolarining ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohadagi manfaatlarini ko'zlab ish olib boradi va ularni himoya qiladi.

Siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalarining faqat yakka tartibda ro'yxatga olinadigan a'zolari bo'ladi.

Jamoat birlashmalari qonunlarda belgilab qo'yiladigan tartibda ishlab chiqarish va boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadilar hamda faqat

ustavdagi vazifalarni bajarish maqsadida huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va xo'jalik hisobidagi tashkilotlarni barpo etadilar.

Jamoat birlashmalarining ishlab chiqarish va boshqa tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ana shu birlashmalar a'zolari (qatnashchilari) o'rtasida qayta taqsimlanmaydi va undan faqat ustav vazifalarini bajarish uchun foydalaniladi; jamoat birlashmalari o'z mablag'laridan hatto o'z ustavida ko'rsatilmagan bo'lsa ham, xayriya maqsadlari yo'lida foydalanishlariga yo'l qo'yiladi.

Jamoat birlashmalari tuzadigan korxonalar va tashkilotlar qonunda belgilab qo'yilgan tartibda va miqdorda byudjetga pul o'tkazadilar.

Jamoat birlashmalari, ularning tashkilotlari binolar, inshootlar, uy-joy fondi, uskunalar, asboblari, madaniy-ma'rifiy va sog'lomlashtirish maqsadlari uchun mo'ljallangan mulklarga, pul mablag'iga, aksiyalarga, boshqa qimmatli qog'ozlarga hamda ularning ustavlarida ko'zda tutilgan faoliyatni moddiy ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'zga mol-mulkka, shuningdek intellektual mulk ob'ektlariga egalik qilishlari mumkin. Birlashmalarning ustavlarida ko'rsatilgan maqsadlarga muvofiq ularning mablag'i hisobidan barpo etilgan nashriyotlar, boshqa korxonalar, xayriya muassasalari jamoat birlashmalarining mulki bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa — Qoraqalpog'iston Respublikasining ham qonun hujjatlarida davlat va jamoat xavfsizligi mulohazalari bilan yoki xalqaro shartnomalarga muvofiq jamoat birlashmalari mulki bo'la olmaydigan mol-mulk turlari belgilab qo'yilishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida hisobga olish va hisobot ishlari.

Jamoat birlashmalarining pul mablag'lari, agar ustavda ko'zda tutilgan bo'lsa, birlashmaga kirish va a'zolik badallarini to'lashdan; ixtiyoriy ravishda o'tkazilgan pul va xayriyalardan; ustavga muvofiq o'tkazilgan leksiya, ko'rgazmalar, sport tadbirlari hamda boshqa tadbirlar, lotereyalar tushumlaridan,

ishlab chiqarish, xo‘jalik va noshirlik faoliyatidan olinadigan daromadlardan; qonun bilan taqiqlanmagan boshqa tushumlardan tashkil topadi.

Siyosiy partiyalar va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi ommaviy harakatlarning chet davlatlardan, xalqaro tashkilotlar hamda chet davlatlarning yuridik shaxslari, ularning vakolatxonalari va filiallaridan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalaridan, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, diniy tashkilotlardan, nomi yashirilgan yoki faqat taxallusi ko‘rsatilgan shaxslardan moliyaviy va o‘zgacha moddiy yordam olishi man etiladi. Bunday yordam olingan taqdirda mazkur mablag‘lar qaytarilishi, qaytarish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda esa, davlat daromadiga o‘tkazilishi lozim.

Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Siyosiy partiyalar o‘z byudjetlarini ommaning e‘tibori uchun har yili e‘lon qiladilar.

Jamoat birlashmalarining mulki qonun bilan muhofaza qilinadi.

Ittifoqlarning va ularga kiruvchi birlashmalarining ana shu ittifoq va unga qo‘shilgan birlashmalarga qarashli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish, tasarruf etishga doir vakolatlari jamoat birlashmalari ittifoqlarining ustavlarida belgilab qo‘yiladi.

Jamoat birlashmalari ommaviy axborot vositalarini ta‘sis etishga hamda amaldagi matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi qonunlarga muvofiq noshirlik faoliyati bilan shug‘ullanishga haqlidirlar.

Moliya idoralari jamoat birlashmalarini mablag‘ bilan ta‘minlash va ular daromadlarining manbalarini, ular olgan mablag‘ miqdorini va soliqlar to‘g‘risidagi qonunlarga muvofiq soliq to‘lanishini nazorat qilib boradilar.

Jamoat birlashmalarining qonunlarni bajarishini prokuratura idoralari nazorat qilib boradilar.

Jamoat birlashmasi ustavini ro‘yxatga olgan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning joylardagi idoralari jamoat birlashmasi faoliyatining

maqsadlariga taalluqli ustav qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi. Ro'yxatga oluvchi idora jamoat birlashmasining rahbar organidan qabul qilingan qarorlarni taqdim etishni talab qilishga, jamoat birlashmalari o'tkazadigan tadbirlarda qatnashish uchun o'z vakillarini yuborishga, jamoat birlashmasi ustaviga rioya qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan jamoat birlashmasi a'zolaridan va boshqa fuqarolardan tushuntirish olishga haqlidir.

Jamoat birlashmalari to'g'risidagi Qonunni buzish amaldagi qonunlarga muvofiq jinoiy, ma'muriy, moddiy yoki o'zga javobgarlikka sabab bo'ladi.

Jamoat birlashmalari to'g'risidagi Qonunni buzganlik uchun bu ishda aybdor bo'lgan davlat va jamoat idoralarining mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar javobgar bo'ladilar.

Jamoat birlashmasi, shu jumladan o'z ustavini ro'yxatdan o'tkazmagan jamoat birlashmasi jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunni buzgan taqdirda qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Jamoat birlashmasi uning ustavida belgilab qo'yilgan maqsadlar va vazifalar doirasidan chetga chiqadigan yoki qonunni buzadigan xatti-harakatlari sodir etgan taqdirda ana shu jamoat birlashmasining rahbar idorasi jamoat birlashmasi ustavini ro'yxatga olgan idora yoki prokuror tomonidan yozma ravishda ogohlantirilishi mumkin.

Jamoat birlashmasi ushbu Qonun 3-moddasining 2, 3, 4-qismi va 18-moddasining to'rtinchi qismida ko'zda tutilgan xatti-harakatlarni sodir etgan taqdirda sud qaroriga binoan tugatilishi mumkin.

Jamoat birlashmasi ushbu Qonunning 21-moddasi to'rtinchi qismida ko'zda tutilgan harakatlarni bir yil davomida takroran sodir etganligi uchun sud uni tugatishi mumkin.

Sud qarori bilan tugatilgan jamoat birlashmasining mol-mulki qaytarib bermaslik sharti bilan davlat mulkiga aylantirilishi mumkin.

Xalqaro jamoat birlashmalari, uning bo'linmalari, filiallari, jumhuriyat va viloyatlararo jamoat birlashmalari O'zbekiston Respublikasi prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining, Bosh Davlat soliq

boshqarmasining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan vakolat berilgan boshqa idoralari va mansabdor shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi chiqargan qarorga muvofiq tugatiladi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining jamoat birlashmasini tugatish to‘g‘risida qarori ustidan shikoyat qilinmaydi.

Mahalliy jamoat birlashmalari tegishli viloyat, Toshkent shahar sudlari tomonidan tugatiladi. Bunda sudning qarori ustidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat qilinishi mumkin.

Jamoat birlashmalari O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va o‘z ustavlariga muvofiq xalqaro jamoat (nohukumat) birlashmalariga qo‘shilishi, bevosita xalqaro aloqalar o‘rnatishlari, tegishli bitimlar tuzishlari mumkin.

Agar O‘zbekiston Respublikasida tuzilgan jamoat birlashmasining faoliyati ustavga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va bitta yoki undan ko‘proq xorijiy davlat hududida amal qilsa, u xalqaro jamoat birlashmasi deb e‘tirof etiladi.

Basharti, chet elda tuzilgan xalqaro jamoat birlashmasi tarkibiga respublika jamoat birlashmasi kollektiv a‘zo sifatida kirsam, respublika jamoat birlashmasining ustaviga muvofiq ro‘yxatga olinishi kerak.

O‘z faoliyatini xorijiy davlat hududida ham amalga oshiradigan jamoat birlashmasi zarur o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilgan ustavini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etadi.

Tinchlikni mustahkamlashni, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni, insonparvarlik faoliyatining o‘zga turlarini maqsad qilib qo‘ygan jamoat birlashmalari qonunda belgilangan imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

Xorijiy davlatlar jamoat birlashmalarining O‘zbekiston Respublikasi hududida tuzilgan bo‘limlari (filiallari va boshqa tarkibiy bo‘linmalari) faoliyatiga nisbatan qo‘llanadi.

O‘z huquqlari, erkinliklarini hamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning

xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir.

Siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi.

Tijorat maqsadlarini ko'zlaydigan yoxud boshqa korxonalar va tashkilotlar foyda (daromad) orttirishiga ko'maklashadigan kooperativ tashkilotlarga hamda boshqa tashkilotlarga, diniy tashkilotlarga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, shuningdek tashkil etish va faoliyat ko'rsatish tartibi boshqa Qonun hujjatlari bilan belgilanadigan o'zga organlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunlari jamoat birlashmalarining huquqiy holati asoslarini belgilab beradi, Qoraqalpog'iston Respublikasining jamoat birlashmalari to'g'risidagi Qonunidan, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlaridan iborat bo'ladi.

Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, huquqlar hamda erkinliklarni ro'yobga chiqarish va himoya qilish, fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish kasb-kor va havaskorlik qiziqishlarini qondirish, ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish, aholining sihat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport ishlarini amalga oshirish; tabiatni, madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o'rtasida tinchlik va do'stlikni mustahkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi.

Faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek konstitutsion tuzumni g'ayriqonuniy yo'l bilan o'zgartirish yoki O'zbekiston Respublikasi hududining

birligini buzish, urushni, zo'rvonlikni va shafqatsizlikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan sinfiy, shuningdek irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonun bilan taqiqlangan boshqa xatti-harakatlar qilish maqsadini ko'zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo'l qo'ymaydi.

Harbiylashtirilgan jamoat birlashmalari va qurolli tuzilmalar, shuningdek diniy xarakterga ega partiyalar, ularning filiallari va boshqa struktura bo'laklari tashkil etish taqiqlanadi.

Jamoat birlashmalari va ularning idoralari tomonidan qonuniy va demokratik yo'l bilan shakllantirilgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda hokimiyat vakolatlariga ega bo'lganlarga nisbatan g'ayridemokratik tarzda kuch ishlatib tazyiq o'tkazish taqiqlanadi. Qonuniy ravishda amal qilib turgan hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda mansabdor shaxslarga demokratik usulda hal etish bahonasi bilan tazyiq o'tkazishga bo'lgan har qanday urinishga Qonun bilan barham beriladi.

Aholining salomatligi va axloqiga, fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga tajovuz qiladigan jamoat birlashmalarini tuzish va ularning faoliyati qonunga muvofiq ta'qib qilinadi.

Jamoat birlashmalari o'z a'zolari (qatnashchilari)ning ixtiyoriyligi, teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va harakat qiladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida nazorat, hisobga olish va hisobot ishlarining ahamiyati.

Barcha jamoat birlashmalari o'z ustavlarida, boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni bajarishda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari doirasida ish ko'radilar.

Fuqaroning jamoat birlashmasi faoliyatida qatnashishi yoki qatnashmasligi uning huquqlari va erkinliklarini cheklash yoki unga imtiyozlar berish uchun, shu jumladan davlat tashkilotida lavozimni egallash sharti yoki Qonunda ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik uchun asos bo'la olmaydi.

Mehnat to'g'risidagi qonunlar, shuningdek mehnatkashlarning ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy sug'urta qildirish to'g'risidagi qonunlar jamoat birlashmalari apparati xodimlariga nisbatan joriy etiladi.

Davlat jamoat birlashmalari huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi hamda Konstitutsiyaga muvofiq ular o'z ustavlaridagi vazifalarni bajarishlari uchun shart-sharoit yaratilishiga kafolat beradi.

Davlat yoshlar va bolalar tashkilotlariga moddiy va ma'naviy madad beradi, ularga nisbatan imtiyozli soliq siyosati o'tkazilishini ta'minlaydi, bolalar tashkilotlariga, maktab, maktabdan tashqari muassasalar binolaridan, klublardan, madaniyat saroylari va uylaridan, sport inshootlari va boshqa inshootlardan bepul yoki imtiyozli shartlar bilan foydalanish huquqini beradi.

Qonunda ko'zda tutilgan hollardan tashqari davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat idoralari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoat birlashmalari tashkilotlarining tadbirlari ular a'zolarining (qatnashchilarning) asosan ishdan bo'sh vaqtida va mazkur birlashmalar mablag'i hisobidan amalga oshiriladi.

Jamoat birlashmalari manfaatlariga daxldor masalalar qonunlarda ko'zda tutilgan hollarda tegishli jamoat birlashmalari ishtirokida yoki ular bilan kelishilgan holda davlat idoralari va xo'jalik tashkilotlari tomonidan hal qilinadi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun jumhuriyat hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari jumhuriyat jamoat birlashmalariga kiradi. Bunda siyosiy partiyaning kamida sakkizta hududiy sub'ektda (viloyatda), shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashayotgan kamida yigirma ming, kasaba uyushmasining esa, kamida uch ming a'zosi bo'lishi kerak.

Viloyat, shahar, posyolka va qishloq jamoat birlashmalari mahalliy jamoat birlashmalariga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun viloyat hududida, Toshkent shahrida esa butun shahar hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari viloyat, Toshkent shahar jamoat birlashmalariga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati butun nohiya (shahar) hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari nohiya (shahar) jamoat birlashmalariga kiradi.

Ustavda belgilangan vazifalarga muvofiq faoliyati posyolka, qishloq hududida amalga oshiriladigan jamoat birlashmalari posyolka, qishloq jamoat birlashmalariga kiradi.

Zarurat paydo bo'lgan hollarda viloyatlararo va nohiyalararo jamoat tashkilotlari tuzilishi mumkin.

Jamoat birlashmalari ixtiyoriylik asosida jamoat birlashmalarining ittifoqlariga uyushishga haqlidirlar.

Jamoat birlashmalarining ittifoqlari ushbu Qonunda jamoat birlashmalari uchun belgilab qo'yilgan tartibda tuziladi, amal qiladi va o'z faoliyatini to'xtatadi. Jamoat birlashmasi kamida o'n nafar fuqaroning tashabbusi bilan tuziladi.

Jamoat birlashmasini tuzish tashabbuskorlari ta'asis s'ezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig'ilishini chaqiradilar, unda ustav (nizom, o'zga asosiy hujjat) qabul qilinadi va rahbar idoralar tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamoat birlashmasi a'zolari (qatnashchilari) bo'ladilar. Siyosiy partiyalardan tashqari jamoat birlashmalarining ustavida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning birlashmaga a'zo bo'lishlari ko'zda tutilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari jumhuriyat siyosiy partiyalarining a'zolari bo'lishlari mumkin.

Bir siyosiy partiyaning a'zosi ayni vaqtda boshqa siyosiy partiyaning a'zosi bo'la olmaydi.

Siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalaridan tashqari jamoat birlashmalarining faoliyatida ularning ustavlarida ko'zda tutilgan hollarda jamoa

a'zolari: korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mehnat jamoatlari, fuqarolarning birlashmalari ishtirok etishlari mumkin.

Jamoat birlashmasining ustavida quyidagilar ko'zda tutilishi kerak:

- 1) jamoat birlashmasining nomi, maqsadi va vazifasi;
- 2) jamoat birlashmasining ichki tuzilishi, uning o'z faoliyatini amalga oshiradigan hudud;
- 3) jamoat birlashmasi a'ziligiga qabul qilish shartlari va tartibi, agar birlashma ro'yxatda qayd etiladigan a'zolarga ega bo'lsa, bunday hollarda undan chiqish shartlari va tartibi;
- 4) jamoat birlashmasi a'zolari (qatnashchilari)ning huquqlari va burchlari;
- 5) jamoat birlashmasi hamda uning tashkilotlari rahbar idoralarining vakolatlari va ularni tuzish tartibi, ularning vakolat muddati;
- 6) jamoat birlashmasi hamda uning tashkilotlarining mablag'lari va boshqa mol-mulkini hosil qilishning pul bilan ta'minlanish manbalari;
- 7) jamoat birlashmasining rahbar idorasi qaerda joylashganligi;
- 8) jamoat birlashmasi ustaviga o'zgartishlar, qo'shimchalar kiritish tartibi;
- 9) jamoat birlashmasi faoliyatini to'xtatish tartibi.

Ustavda jamoat birlashmasi faoliyatiga taalluqli boshqa qoidalar ham ko'zda tutilishi mumkin.

Jamoat birlashmasining ustavi amaldagi qonunlarga zid bo'lmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi xalqaro jamoat tashkilotlarining, jumhuriyat, viloyatlararo birlashmalarining ustavlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida jamoat birlashmasining ustavini ro'yxatga olish tartibi Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi.

Viloyat, shahar, posyolka, qishloq hududida yoki ikki va undan ortiq shahar, posyolka, qishloq hududida faoliyatini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarining ustavlari viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklarining adliya boshqarmalari tomonidan ro'yxatga olinadi.

Jamoat birlashmasi ustavini ro'yxatga olish uchun ustav qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddat ichida mazkur jamoat birlashmasi rahbar idorasi a'zolari tomonidan imzolangan va shu a'zolar har birining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, istiqomat joyi ko'rsatilgan ariza topshiriladi. Arizaga ustav, ustavni qabul qilgan ta'sis s'ezdi (konferensiyasi) yoki umumiy yig'ilish protokoli, ushbu Qonunning 6 va 8-moddalari talablari bajarilganligini tasdiqlovchi boshqa materiallar ilova qilinadi.

Jamoat birlashmalari ustavlariga kiritilgan o'zgarishlar, qo'shimchalar ham ustavlarni ro'yxatga olish tartibi va muddatlariga muvofiq ro'yxatga olinishi lozim.

Jamoat birlashmalari ustavlarini ro'yxatga oluvchi idoralar ana shu birlashmalar ro'yxatini tuzib boradilar.

Jamoat birlashmasi yoki uning tashkilotlari (idoralari) ularning ustavlari ro'yxatga olingan kundan boshlab ushbu Qonunda belgilab qo'yilgan tartibda o'z faoliyatlarini amalga oshiradilar va grajdanlik qonunlariga muvofiq huquqiy shaxs deb tan olinishi mumkin.

Xalqaro jamoat birlashmalarining, ularning bo'linmalarining filiallari, shu jumladan ommaviy harakatlari va ularning tarmoq bo'linmalarining, shuningdek jumhuriyat va mahalliy jamoat birlashmalari (shu jumladan ommaviy harakatlarning) O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida va uning joylaridagi idoralarida o'z ustavlarini ro'yxatdan o'tkazmagan bo'lsalar, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Jamoat birlashmasi ustavini, unga kiritilgan keyingi o'zgartishlar va qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan miqdorda davlat boji undiriladi.

Agar jamoat birlashmasining ustavi ushbu Qonunning 3, 4 yoki 10-moddalari qoidalariga zid bo'lsa, yoxud ilgari xuddi shu nomdagi jamoat birlashmasi ro'yxatga olingan bo'lsa, jamoat birlashmasi ustavini ro'yxatga olishni rad etish mumkin.

Ustavni ro'yxatga olish rad etilgan taqdirda bu haqda taqdim etilgan ustav qaysi qonunning qoidalariga zid ekanligi ko'rsatilib, ariza beruvchiga yozma ravishda xabar qilinadi.

Jamoat birlashmasining ustavini ro'yxatdan o'tkazishning rad etilishi ustidan sudga shikoyat qilish mumkin va bu ish O'zbekiston Respublikasi grajdanlik protsessual qonunida ko'zda tutilgan tartibda qarab chiqiladi.

Xalqaro, jumhuriyat va viloyatlararo jamoat birlashmalarining ustavini ro'yxatdan o'tkazishning rad etilishi ustidan — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga, mahalliy jamoat birlashmalari ustavini ro'yxatdan o'tkazish ishi ustidan esa — tegishli viloyat, Toshkent shahar sudiga shikoyat qilish mumkin.

Jamoat birlashmalari ramz sifatida o'z timsoliga, bayrog'iga va vimpeliga ega bo'lishi mumkin.

Bayroqlar va vimpellar belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Jamoat birlashmalarining faoliyati ularni qayta tashkil etish (qo'shilish, birlashish, ajralish) yoki tugatish yo'li bilan to'xtatilishi mumkin.

Jamoat birlashmalari ularning s'ezdlari (konferensiyalari) yoki umumiy yig'ilishlari qarori bilan qaytadan tashkil etiladi. Jamoat birlashmalarini qayta tashkil etgandan so'ng yangidan tuzilgan jamoat birlashmasining ustavi asosida amalga oshiriladi. Jamoat birlashmalari qonun oldida tengdirlar.

Jamoat birlashmalarining huquqlari ularning ustavlarida qayd etiladi.

Jamoat birlashmalari ustavlarda, dasturiy, boshqa hujjatlarda belgilangan maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish uchun o'z maqsadlari va faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatadi, qonunda ko'zda tutilgan xollarda va tartibda esa:

davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda qatnashadi;

davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining qarorlarini tayyorlashda ishtirok etadi;

davlat va jamoat idoralarida o'z a'zolari (qatnashchilari) nomidan ish yuritadi va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qiladi;

Siyosiy partiyalar davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiladi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashadi.

Partiyalarning dasturiy hujjatlari bo'ladi, ular ommaning e'tibori uchun matbuotda e'lon qilinadi.

Siyosiy partiyalar deputatlikka nomzodlar ko'rsatish, saylovoldi tashviqot ishlarini olib borish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida fraksiyalar va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarida partiya guruhlarini tuzish huquqiga egadir.

Ommaviy jamoat harakatlari siyosiy yoki o'zga maqsadlarni ko'zlaydilar hamda ularning ro'yxatga olingan a'zolari bo'lmaydi.

Harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish idoralarida lavozimni egallab turgan shaxslar o'z xizmat faoliyatida qonun talablariga amal qiladilar va siyosiy partiyalar hamda siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi ommaviy jamoat harakatlarining qarorlari bilan bog'liq bo'lmaydilar.

Kasaba uyushmalari davlat idoralari, xo'jalik tashkilotlari, kooperativ va o'zga jamoat birlashmalari bilan o'zaro munosabatlarda kasaba uyushmalari to'g'risidagi amaldagi qonunlarga muvofiq kasaba uyushmasi a'zolarining ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohadagi manfaatlarini ko'zlab ish olib boradi va ularni himoya qiladi.

Siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalarining faqat yakka tartibda ro'yxatga olinadigan a'zolari bo'ladi.

Jamoat birlashmalari qonunlarda belgilab qo'yiladigan tartibda ishlab chiqarish va boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadilar hamda faqat ustavdagi vazifalarni bajarish maqsadida huquqiy shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va xo'jalik hisobidagi tashkilotlarni barpo etadilar.

Jamoat birlashmalarining ishlab chiqarish va boshqa tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar ana shu birlashmalar a'zolari (qatnashchilari) o'rtasida qayta taqsimlanmaydi va undan faqat ustav vazifalarini bajarish uchun

foydalaniladi; jamoat birlashmalari o'z mablag'laridan hatto o'z ustavida ko'rsatilmagan bo'lsa ham, xayriya maqsadlari yo'lida foydalanishlariga yo'l qo'yiladi.

Jamoat birlashmalari tuzadigan korxonalar va tashkilotlar qonunda belgilab qo'yilgan tartibda va miqdorda byudjetga pul o'tkazadilar.

Jamoat birlashmalari, ularning tashkilotlari binolar, inshootlar, uy-joy fondi, uskunalar, asboblari, madaniy-ma'rifiy va sog'lomlashtirish maqsadlari uchun mo'ljallangan mulklarga, pul mablag'iga, aksiyalarga, boshqa qimmatli qog'ozlarga hamda ularning ustavlarida ko'zda tutilgan faoliyatni moddiy ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'zga mol-mulkka, shuningdek intellektual mulk ob'ektlariga egalik qilishlari mumkin. Birlashmalarning ustavlarida ko'rsatilgan maqsadlarga muvofiq ularning mablag'i hisobidan barpo etilgan nashriyotlar, boshqa korxonalar, xayriya muassasalari jamoat birlashmalarining mulki bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa — Qoraqalpog'iston Respublikasining ham qonun hujjatlarida davlat va jamoat xavfsizligi mulohazalari bilan yoki xalqaro shartnomalarga muvofiq jamoat birlashmalari mulki bo'la olmaydigan mol-mulk turlari belgilab qo'yilishi mumkin.

Jamoat birlashmalarining pul mablag'lari, agar ustavda ko'zda tutilgan bo'lsa, birlashmaga kirish va a'zolik badallarini to'lashdan; ixtiyoriy ravishda o'tkazilgan pul va xayriyalardan; ustavga muvofiq o'tkazilgan leksiya, ko'rgazmalar, sport tadbirlari hamda boshqa tadbirlar, lotereyalar tushumlaridan, ishlab chiqarish, xo'jalik va noshirlik faoliyatidan olinadigan daromadlardan; qonun bilan taqiqlanmagan boshqa tushumlardan tashkil topadi.

Siyosiy partiyalar va siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi ommaviy harakatlarning chet davlatlardan, xalqaro tashkilotlar hamda chet davlatlarning yuridik shaxslari, ularning vakolatxonalari va filiallaridan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalardan, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslardan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, diniy tashkilotlardan, nomi

yashirilgan yoki faqat taxallusi ko'rsatilgan shaxslardan moliyaviy va o'zgacha moddiy yordam olishi man etiladi. Bunday yordam olingan taqdirda mazkur mablag'lar qaytarilishi, qaytarish imkoniyati bo'lmagan taqdirda esa, davlat daromadiga o'tkazilishi lozim.

Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Siyosiy partiyalar o'z byudjetlarini ommaning e'tibori uchun har yili e'lon qiladilar.

Jamoat birlashmalarining mulki qonun bilan muhofaza qilinadi.

Ittifoqlarning va ularga kiruvchi birlashmalarning ana shu ittifoq va unga qo'shilgan birlashmalarga qarashli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish, tasarruf etishga doir vakolatlari jamoat birlashmalari ittifoqlarining ustavlarida belgilab qo'yiladi.

Jamoat birlashmalari ommaviy axborot vositalarini ta'sis etishga hamda amaldagi matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunlarga muvofiq noshirlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqlidirlar.

Moliya idoralari jamoat birlashmalarini mablag' bilan ta'minlash va ular daromadlarining manbalarini, ular olgan mablag' miqdorini va soliqlar to'g'risidagi qonunlarga muvofiq soliq to'lanishini nazorat qilib boradilar.

Jamoat birlashmalarining qonunlarni bajarishini prokuratura idoralari nazorat qilib boradilar.

Jamoat birlashmasi ustavini ro'yxatga olgan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va uning joylardagi idoralari jamoat birlashmasi faoliyatining maqsadlariga taalluqli ustav qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi. Ro'yxatga oluvchi idora jamoat birlashmasining rahbar organidan qabul qilingan qarorlarni taqdim etishni talab qilishga, jamoat birlashmalari o'tkazadigan tadbirlarda qatnashish uchun o'z vakillarini yuborishga, jamoat birlashmasi ustaviga rioya qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan jamoat birlashmasi a'zolaridan va boshqa fuqarolardan tushuntirish olishga haqlidir.

Jamoat birlashmalari to'g'risidagi Qonunni buzish amaldagi qonunlarga muvofiq jinoiy, ma'muriy, moddiy yoki o'zga javobgarlikka sabab bo'ladi.

Jamoat birlashmalari to'g'risidagi Qonunni buzganlik uchun bu ishda aybdor bo'lgan davlat va jamoat idoralarning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar javobgar bo'ladilar.

Jamoat birlashmasi, shu jumladan o'z ustavini ro'yxatdan o'tkazmagan jamoat birlashmasi jamoat birlashmalari to'g'risidagi qonunni buzgan taqdirda qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Jamoat birlashmasi uning ustavida belgilab qo'yilgan maqsadlar va vazifalar doirasidan chetga chiqadigan yoki qonunni buzadigan xatti-harakatlari sodir etgan taqdirda ana shu jamoat birlashmasining rahbar idorasi jamoat birlashmasi ustavini ro'yxatga olgan idora yoki prokuror tomonidan yozma ravishda ogohlantirilishi mumkin.

Jamoat birlashmasi ushbu Qonun 3-moddasining 2, 3, 4-qismi va 18-moddasining to'rtinchi qismida ko'zda tutilgan xatti-harakatlarni sodir etgan taqdirda sud qaroriga binoan tugatilishi mumkin.

Jamoat birlashmasi ushbu Qonunning 21-moddasi to'rtinchi qismida ko'zda tutilgan harakatlarni bir yil davomida takroran sodir etganligi uchun sud uni tugatishi mumkin.

Sud qarori bilan tugatilgan jamoat birlashmasining mol-mulki qaytarib bermaslik sharti bilan davlat mulkiga aylantirilishi mumkin.

Xalqaro jamoat birlashmalari, uning bo'linmalari, filiallari, jumhuriyat va viloyatlararo jamoat birlashmalari O'zbekiston Respublikasi prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining, Bosh Davlat soliq boshqarmasining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan vakolat berilgan boshqa idoralari va mansabdor shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi chiqargan qarorga muvofiq tugatiladi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining jamoat birlashmasini tugatish to'g'risida qarori ustidan shikoyat qilinmaydi.

Mahalliy jamoat birlashmalari tegishli viloyat, Toshkent shahar sudlari tomonidan tugatiladi. Bunda sudning qarori ustidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat qilinishi mumkin.

Jamoat birlashmalari O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va o‘z ustavlariga muvofiq xalqaro jamoat (nohukumat) birlashmalariga qo‘shilishi, bevosita xalqaro aloqalar o‘rnatishlari, tegishli bitimlar tuzishlari mumkin.

Agar O‘zbekiston Respublikasida tuzilgan jamoat birlashmasining faoliyati ustavga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida va bitta yoki undan ko‘proq xorijiy davlat hududida amal qilsa, u xalqaro jamoat birlashmasi deb e‘tirof etiladi.

Basharti, chet elda tuzilgan xalqaro jamoat birlashmasi tarkibiga respublika jamoat birlashmasi kollektiv a‘zo sifatida kirsam, respublika jamoat birlashmasining ustaviga muvofiq ro‘yxatga olinishi kerak.

O‘z faoliyatini xorijiy davlat hududida ham amalga oshiradigan jamoat birlashmasi zarur o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilgan ustavini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etadi.

Tinchlikni mustahkamlashni, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni, insonparvarlik faoliyatining o‘zga turlarini maqsad qilib qo‘ygan jamoat birlashmalari qonunda belgilangan imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

Xorijiy davlatlar jamoat birlashmalarining O‘zbekiston Respublikasi hududida tuzilgan bo‘limlari (filiallari va boshqa tarkibiy bo‘linmalari) faoliyatiga nisbatan qo‘llanadi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Jismoniy tarbiya va sport sohasida nazoratning qanday asosiy tamoyillari mavjud?
2. Sport tashkilotlari faoliyatida nazorat qilish, tekshirish tartiblari va turlari aytib bering.
3. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida hisobga olish va hisobot ishlari qanday amalga oshiriladi?

4. Jismoniy tarbiya va sport sohasida nazorat, hisobga olish va hisobot ishlarining ahamiyati izohlang.

**10-MAVZU. JISMONIY TARBIYA VA SPORT ISHLARINI BOSHQARISH
USULLARI**

REJA

- 1.O‘zbekistonda boshqarish usullarining xususiyatlari haqida qisqacha tushuncha. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda boshqarish usullaridan foydalanishning mohiyati.
- 2.Mustaqillik davrida qo‘llanilayotgan asosiy boshqarish usullari.
- 3.Jismoniy tarbiya va sport sohasida tashkiliy farmoyish berish usulining asosiy xususiyatlari va uni quyi tarmoqlarda qo‘llash tartiblari.
- 4.Bozor iqtisodiyoti islohotlari jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy usullarning o‘ziga xos xususiyatlari. Boshlang‘ich jamoalarda homiylar, jamg‘arma uyushmalari faoliyatidan foydalanish.
5. Matematik-statistik usulblardan foydalanish.

Tayanch iboralar: Menejment, boshqarish, boshqarish usullari, tashkiliy-ma‘muriy boshqarish, iqtisodiy boshqarish, ijtimoiy-ruhiy boshqarish, boshqarish xususiyatlari, sport tashkilotlari,

1.O‘zbekistonda boshqarish usullarining xususiyatlari haqida qisqacha tushuncha. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda boshqarish usullaridan foydalanishning mohiyati.

O‘zbekistonda mustaqillikning tantana qilishi va ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy islohotlarning davom etishi davlatni idora qilish va barcha faoliyatlarni tashkil qilishda yangicha ish usullarini qo‘llashni taqozo etadi. Bu usullarning shakli, mazmuni va asosiy maqsadlari qabul qilingan qonunlar, qarorlar va O‘zbekiston Prezidenti nutqlari, ma‘ruzalari va turli uchrashuvdagi bayonotlarida o‘z aksini topmoqda. Bu jarayonlar jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatiga ham tegishlidir.

Jismoniy tarbiya va sport ishlarini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari, yo‘llari va shakllari kun sayin boyib, ravnaq topmoqda.

O‘zbekistonda turli idoralar konsern, kompaniya va savdo-tijorat xo‘jaliklarining vujudga kelishi jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqarish usullarining yangi tartib-qoidalariga rioya qilishni taqozo etmoqda. Chunki bunday idoralar, xo‘jalik tashkilotlari va boshqa jamoalar o‘z faoliyatini maxsus nizomlar

asosida tashkil etmoqda. Bu tashkilotlar asosan o'zini o'zi boshqarish, moliyaviy ta'minot xususiyatiga ega bo'lgan holda mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatish huquqlariga egadir. Shu sababdan ham sport tashkilotlari bunday yo'nalishdagi idoralar, tashkilotlar hamda xo'jalik jamoalari bilan o'zaro kelishgan holda ish olib borishlariga to'g'ri keladi.

O'zbekistonning mustaqilligi avvaldan mavjud bo'lgan boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usulidan tamoman voz kechishni yoki ularni yangi davr sharoiti hamda talablariga qarab ishlatishni taqozo etmoqda. Bu jihatlar sport tashkilotlari va jamiyatlari tizimidagi barcha sohalarda ham o'z yo'liga tushib bormoqda. Yuqorida qayd etilgan ba'zi ish usullari o'rniga tashabbuskorlik, ijodkorlik va fidokorlik kabi yangi usullar tarkib topdi. Ular ommaviy sport tadbirlari, xalq milliy o'yinlarini tashkil qilish, sport turlari bo'yicha komandalar tuzish, ularning sport mahoratlarini oshirish, xotin-qizlarni sportga jalb etish, sportni moddiy va moliyaviy ta'minlash ishlarida keng qo'llanilmoqda va o'zining ijobiy samaralarini bermoqda.

O'zbekiston Prezidenti sovrini uchun kurash, tennis, boks va boshqa bir qator xalqaro turnirlarning an'anaga aylanishi, futbol, voleybol, engil atletika hamda sharqona yakkakurash turlari bo'yicha Markaziy Osiyo o'yinlari, boshqa rasmiy xalqaro sport musobaqalarida respublika sportchilarining doimiy ravishda ishtirok etib kelishi sport tashkilotlari, terma komandalar mashg'ulotlarni uyushtirishda xalqaro andozalar va tajribalarga tayanishini talab qilmoqda. Bu, o'z navbatida, boshqaruv faoliyatlarida ishga yangicha munosabatda bo'lish, zarur moddiy-texnik manbalardan foydalanishi hamda o'zini o'zi moliyaviy ta'minlash yo'lida izlanish, tadqiqotlar o'tkazishni taqozo etmoqda.

Ta'kidlash zarurki, sport klublar, o'quv yurtlari va turli muassasalarning boshlang'ich jismoniy tarbiya jamoalari ham boshqaruvning turli-tuman yangi usullarini qo'llashlari lozim bo'ladi. Bunda o'quvchi va mehnatkash yoshlar, ziyolilarning tashabbuslari, ijodkorligiga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, teleradio kompaniya xodimlari har yili sport turlari bo'yicha o'zlarining respublika, Toshkent shahar

birinchiliklarini muvaffaqiyat bilan o'tkazmoqda. Bu odat tusiga kirgan tashabbuskorlik va ijodkorolikning namunasidir.

Mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sportni boshqarish

Yuqorida ta'kidlanganidek, respublikada davlatni idora qilish va barcha faoliyatlarni to'g'ri boshqarish uchun O'zbekiston Prezidenti farmon chiqaradi, Oliy Majlis qonun va qarorlarni ishlab chiqib, ularni tasdiqlaydi va, nihoyat, Vazirlar Maxqamasi qonun, farmoyishlarni amalga oshirish bo'yicha o'zining qarorlarini qabul qiladi. Ana shular asosida har bir vazirlik, davlat qo'mitasi hamda jamoat tashkilotlari o'z ish faoliyatlarini amalga oshiradi. Bu jarayonlarda har bir soha yoki tarmoq o'z xususiyatlari asosida turli uslublarini qo'llaydi. Ularning eng muhimlari tashkiliy-farmoyish berish, xo'jalik hisobi, moddiy-texnik ta'minot, normativlarni belgilash va boshqalardir. Bunday usullar jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqaruvchi barcha idoralar va tashkilotlarga ham mansubdir.

E'tirof etish kerakki, mustaqillik sharoitlarida turli qog'ozbozlik, o'rinsiz buyruq berish, bir-biriga ishongan holda ish ko'rish kabi usullar asta-sekin o'z mazmunini yo'qotmoqda. Chunki bu usullarning mohiyati qo'shib yozish sport bilan shug'ullanuvchilar, sport inshootlari soni va hokazolar, yolg'on ma'lumotlar, quruq va'dalardan iborat edi. Bunday holatlar yangicha ish tutish, aniq ijobiy samaralarga erishishga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi barchaga ma'lumdir.

Yuqori sport tashkilotlari, oliy o'quv yurtlaridagi jismoniy tarbiya fakultetlari, kafedralar, sport klublar faoliyatida ishlarni ilmiy asosda tashkil qilish eng zarur usullardan hisoblanadi.

Jamoani boshqarishda mehnatni ilmiy tashkil qilish xodimlarning asosiy faoliyatlaridan biridir.

Mehnatni ilmiy tashkil qilish asoslari yuzasidan zarur bilimlarga ega bo'lish, shu maqsaddagi ishlarni rivojlantirish shaxsan rahbarlik qilish ishlarini har bir fuqaro, ayniqsa, o'qimishli kishilar, xodimlar bilishlari zarurdir.

Boshqarishni ilmiy tashkil qilish deganda, asosan, nazariy bilim va amaliy ish tajribalarini hamda eng ilg'or va fanda asoslangan ish natijalarini hayotda qo'llash, ularni amalga oshirish, tegishli samaralarga ega bo'lishni tushunmoq

kerak. Bu ko‘pincha sport turlari bo‘yicha yirik jamolarni komandalar boshqarish, ularni yutuqlarga etaklash, yaxshi natijalarni qo‘lga kiritishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, sport inshootlarini qurish, xalq milliy o‘yinlari musobaqalarini tashkil qilish, moliyaviy ishlarni yuritish kabi ishlarni amalga oshirishda zarur bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida tashkiliy-farmoyish berish usulining asosiy xususiyatlari

Tashkiliy-farmoyish berish faoliyatlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan jarayon hisoblanadi.

Tashkil qilish uchun barcha ish turlari va ularning bajarilish yo‘llari ishlab chiqiladi. Ularni amalga oshirish uchun esa rasmiy ravishda ruxsat lozim bo‘ladi. SHu sababdan bu faoliyatlarni tashkiliy-farmoyish deb yuritiladi. SHu o‘rinda misol tariqasida universiada, spartakiada, festivallarni uyushtirish va o‘tkazish tartib-qoidalarini /nizom/ keltirish mumkin. Ya’ni ishlab chiqilgan Nizomlar muhokama qilinib, u qaror asosida tasdiqlanadi va uning tashkiliy qo‘mitasi, o‘tkazish muddati, qatnashchilar, moliyaviy-xo‘jalik harajatlari manbalari va hokazolar buyruq farmoyish orqali rasmiylashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi va «O‘zbekiston», «Dinamo», «Yoshlik», «Talaba» sport jamiyatlari boshqa mas’ul tashkilotlar va ularning quyi tarmoqlarida faoliyat yuritishda xilma-xil ish usullari qo‘llaniladi, ularga; tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy, g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatuvchi va boshqa usullarni ko‘rsatishning o‘zi kifoya.

- tashkiliy usullarda farmoyish berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, texnik ta’minot va shunga o‘xshash faoliyatlar qo‘llaniladi.

- farmoyish berish usuli ishlari bajarilishi kerak bo‘lgan sub’ekt va ob’ektning xususiyati, hajmi va turlariga qarab qaror chiqarish, buyruq yoki topshiriqlar berish shaklida amalga oshiriladi. Bu usul tarkibida yana bir qator tashkiliy faoliyatlar mavjud.

- yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish usuli quyi tashkilotlarning vakillariga ishlarni tashkil qilish, hisobotlar tuzish va boshqa sohalarni o‘rgatishda qo‘llaniladi.

- texnik ta'minot usulida yangi sport asboblari, jihozlari va kiyimlarini takomillashtirish, zamonaviy sport inshootlarini qurish, sport mashg'ulotlarida texnik vositalardan foydalanish, boshqarish tizimlarini kompyuterlashtirish kabi faoliyatlar amalga oshiriladi.

Ma'lumki, yuqorida qayd etilgan faoliyatlarni amalga oshirish ko'pincha majlislar, suhbatlar, telefon orqali va xatlar yo'li bilan hal etiladi. Bu jarayonlarning asosiy mazmunlari va shakllarini talabalar mukammal o'rganib olishlari kerak bo'ladi. Boshqarishning iqtisodiy usullarida rahbar xodimlar iqtisodiy bilimlar, moliyaviy ish yuritish tartiblariga asosan xodimlarning shaxsiy va guruxiy manfaatlarini yuzaga chikarish orkali ularni samarali ishlashlarini ta'minlaydilar.

Boshqarishning huquqiy usullarida rahbar xodimlar va sportchilar qonunlar, nizomlar va kerakli me'yoriy aktlarni o'zlashtirib olishlari, huquqiy bilimlardan xabardor bo'lishlari zarur.

G'oyaviy va ma'naviy ta'sir etuvchi usullarda rahbarlar respublikada kechayotgan siyosiy, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar va davlat rahbarlari talablariga rioya qilishlari lozim. Ma'naviy-ma'rifiy va milliy xususiyatlarini yaxshi o'zlashtirgan holda muomila qilish va jamoalarda komandalarda ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishini kuzatib borish kerak.

Jamoalarda ish tajribalarini o'rganish va ularni keng yoyish, barcha ko'rsatkichlar bo'yicha g'oliblarni aniqlash maqsadida turli sinovlar, ko'riklar, musobaqalar o'tkaziladi. Bu ham o'z navbatida boshqarishning muhim usullaridan biridir.

Ta'kidlash lozimki, buyruqbozlik, farmoyish berish usullaridagi ba'zi holatlar qaysi jamiyat va tuzum bo'lmasin, o'zining kuchi va mohiyatlarini yo'qotmayda. Bu holat sport tashkilotlari, jamiyatlari, hatto sportklublar, boshlang'ich jismoniy tarbiya jamoalarida ham doimiy ravishda qo'llanilishi mumkin. Bularga ba'zi bir misollar keltiriladi, ya'ni:

1. Murabbiylarni ishga qabul qilish yoki bo'shatish haqida buyruq.

2. Etakchi murabbiy, o'qituvchi, mas'ul xodim, sportchilarni moddiy jihatdan rag'batlantirish uchun buyruq.

3. Sport unvonlari, darajalarini berish haqidagi buyruq farmoyish.

4. «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari talablarini bajarganlikni tasdiqlash, guvohnoma berish, nishonlar bilan taqdirlash haqida buyruq va hokazolar.

Umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari rahbarlari, ishlab chiqarish mehnat jamoalari va turli muassasalarning rahbarlari musobaqalarni o'tkazish, ularning yakunlarini tasdiqlash, lozim bo'lgan xodimlar yoki qatnashchilarni taqdirlash va boshqa sohalar bo'yicha buyruq berishlari mumkin. Bunday jihatlar amalda keng qo'llanib kelinmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda islohotlar yangi bosqichga qadam qo'ymoqda. Iqtisodiy usullar bozor mexanizmlaridan foydalanishga tayanadi. Davlatning ta'siri iqtisodiy usullar yordamida bozor orkali o'tkaziladi, boshkarish bozor konuniyatlaridan kelib chikkan xolda amalga oshiriladi. Bu esa davlatning minimum darajada korxonalar faoliyatiga aralashuvini ifodalaydi.

Boshkarishning iqtisodiy usullar jumlasiga :

- kredit va foiz stavkasi;
- soliq va soliq yuki;
- boj to'lovlari;
- subsidiya va sanksiya;
- litsenziya;
- transfert to'lovlari;
- narx-navolar kiradi.

Boshqarishning iqtisodiy usullari iqtisodiy manfaatlardan foydalanishga asoslanadi. Zero, har qanday jamiyatning iqtisodiy munosabatlari, eng avvalo manfaatlarda namoyon bo'ladi. Manfaatlar uch xil bo'ladi:

- umumjamiyat manfaatlari;
- jamoa manfaatlari;

- shaxsiy manfaatlar.

Bu manfaatlarni uyg'un sur'atda bog'lab olib borish muammosi bir qator muaamolarni hal qilishi, har bir davr sharoitlariga muvofiq keladigan munosabatlarni o'rnatishni talab qiladi.

Masalan, bozor iqtisodiyoti sharoitida umumjamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida quyidagi iqtisodiy boshqaruv usullarga, ya'ni:

- korxonlar va xo'jaliklarga faoliyat yuritishlarida erkinlik va mustaqillik berish;

- xo'jaliklarni pirovard natijalarga binoan moddiy rag'batlantirish, soliq imtiyozlarini berish;

- korxon va xo'jaliklar o'rtasidagi o'zaro shartnomalarning bajarilishi intizomini mustahkamlash va ularning rolini oshirish;

- moliya-kredit munosabatlarini takomillashtirish;

- bozor munosabatlari mexanizmlari: baho, foyda, soliq, rentabellik, raqobat va hokazolarga keng e'tibor berilgan.

Iqtisodiy boshqaruv usullarining asosiy vazifasi ishlab chiqariladigan mahsulot (xizmat) birligiga sarflanadigan xarajatni kamaytirishga imkon beruvchi xo'jalik mexanizmlarining yangi usullarini, shuningdek, manfaatdorlik muhitini vujudga keltirish va ulardan samarali foydalanishdir.

Bu usulda kishilarning shaxsiy va guruhiiy manfaatlarini yuzaga chiqarish orqali ularning samarali ishlashi ta'minlanadi. Bu maqsadda qo'shimcha ish haqi to'lash, mukofotlar berish, bir yo'la katta pul bilan taqdirlash kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy usullar boshqarishning barcha usullari ichida etakchi hrinni egallaydi. Har qanday darajadagi rahbar bu usulning mazmunini yaxshi bilishi va ularni to'g'ri qo'llay olishi kerak. Jismoniy tarbiya va sport ob'ektlariga iqtisodiy usullar orqali ko'rsatiladigan ta'sir korxonlarni:

- jiddiy rejalar qabul qilishga;

- jismoniy tarbiya va sportdagi mehnat va moliya resurslaridan yanada unumliroq foydalanishga;

- sport ob'ektlarini zamonaviy talablarga javob beradigan darajaga ko'tarishga;

- ko'rsatiladigan xizmatlar rakobat talablariga javob berishga rag'batlantiruvchi va shunga da'vat etuvchi bo'lishi kerak.

Shu bilan birga iqtisodiy usullar shunday tanlanishi va qo'llanilishi kerakki, bunda jamoalar va har bir xodimning manfaatlarigagina emas, balki butun jamiyat manfaatlariga rioya qilinadigan bo'lsin. Bir korxonaga uchun foydali tadbir davlatga ham foydali bo'lsin.

Bunda bozor iqtisodiyoti munosabatlari boshqa sohalarda kabi jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarishga ham yangicha munosabatlar, ish faoliyatlari va ularni amalga oshirish usullarini vujudga keltirdi. Bunda jismoniy tarbiya va sport sohasini rejalashtirish va mazkur rejalashtirishni hayotga singdirishda aholining jismoniy tarbiyasini takomillashtirish asos bo'ladi. Bu jihatlar mustaqil davlatning bozor iqtisodiyoti islohotlariga tayanadi. Jismoniy tarbiya va sportning boshqarilishida iqtisodiy jihatdan zarur bo'lgan tadbirlar amalga oshirildi. Bu jarayonda majmuiy faoliyatlar usullari muhim ahamiyatga egadir. Bu faoliyatlar quyidagi yunalishlarda amalga oshiriladi:

- moddiy jihatdan rag'batlantirish. Mehnatga ish haqini oshirish, murabbiy-o'qituvchilar va boshqa xodimlarga unvonlarni berish, sport inshootlari xodimlarini moddiy taqdirlash;

- moddiy yordam va hisoblashni to'g'ri markazlashtirish, ya'ni yuqori idoralar va tashkilotlar tomonidan beriladigan mablag'larni taqsimlash;

- xo'jalikni yuritish yo'li va undan keladigan daromadlardan foydalanish;

- pullik xizmatlarni pullik musobaqalar, sog'lomlashtirish guruhlari, ijara, tijorat va hokazolar amalga oshirish usullari;

- sport inshootlarini pasportlashtirish. Bunda sport inshootlarini hisobga olish, ularni daromadlarini aniqlash va moddiy kirim chiqimlarni hisoblash usuli;

- boshqarishning me'yoriy usullari. Bunda «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida» gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining sport sohasidagi qarorlari asosida ish olib boriladi.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonida sport inshootlari, sport maktablari, terma jamoalarni iqtisodiy jihatdan ta'minlash, ularning faoliyatini rivojlantirish davlat mablag'lari, xo'jalik yuritishdan olingan foydalar, homiylik faoliyatidan foydalanish yo'li bilan amalga oshirilmoqda.

Horijiy mamlakatlarning Milliy Olimpiya qo'mitalari (MOQ) o'z faoliyatlarida marketing ishlaridan keng foydalanish imkoniyatlariga ega. Ular o'zlariga berilgan huquq doirasida sport jamolarini (komanda) tarkib toptirish, ularni moddiy-texnik, xo'jalik manbalari bilan ta'minlash, g'oliblarni rag'batlantirish, sport inshootlarini kengaytirish, zamonaviy sport asbob-uskunalarini xarid qilish va ular bilan bog'liq bo'lgan barcha faoliyatlarni amalga oshirishda marketing ish usullaridan ham keng foydalanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash mamlakatimizda davlat, jamoat tashkilotlari hamda sport jamiyatlari, homiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekistondagi iqtisodiy, ijtimoiy islohatlarning bosqichlarida Milliy Olimpiya qo'mitasiga xo'jalik yuritish, o'zini-o'zi moliyalashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilish kabi huquqlar berilgan.

Yaqin kelajakda Milliy Olimpiya qo'mitasining tijorat, marketing va boshqa sohalardagi faoliyatlari keng tarkib topishi hamda jahondagi marketing faoliyatlarini amalga oshirishda yangi yo'nalishlar vujudga keladi. Chunki O'zbekiston Prezidenti va hukumati tomonidan respublikada Olimpiya harakatini rivojlantirish, yoshlarning sport mahoratini oshirish, ularning xalqaro sport musobaqalari va Olimpiya o'yinlarida munosib ravishda qatnashishlarini ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda. Bu, o'z navbatida, Milliy Olimpiya qo'mitasining sport va olimpiya marketingini tarkib toptirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolatdir.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda shakllanib kelayotgan marketing faoliyati sport sohasiga ham ta'sir etmoqda. Savdo, tijorat, ishlab chiqarish korxonalarini, davlat kompaniyalarini, korporatsiyalarini va boshqa rasmiy tashkilotlar respublikada sportning rivojlanishi, aholining salomatligini muhofaza qilish,

«Sogʻlom avlod uchun» davlat dasturini amalga oshirish yoʻlida marketing yoʻllaridan maqsadli va unumli foydalanmoqdalar. Bu jarayonlar sport marketingi va ular bilan bogʻliq faoliyatlarni tarkib toptirish hamda rivojlantirishda xizmat qilishi tabiiydir.

Boshlangʻich jamoalarda homiylik, jamgʻarma uyushmalari faoliyatidan foydalanish

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida mamlakatimizda quyi jamolar, moddiy-texnik jihatdan kam daromadli xoʻjaliklarda moliyaviy yordam berishni yangi usullari qoʻllanilmoqda. Bunda sanoat, savdo, tijorat, qurilish va boshqa koʻp sohalardagi yirik jamoalarning kelishgan holda homiylik qilish yoʻllari qoʻllanilmoqda. Buning boisi shundaki, homiylik qiladigan tashkilotlar, yuridik shaxslar olingan daromadlardan soliq toʻlashda baʼzi imtiyozlarga ega boʻladi. Bu jihatlar sportklublar, terma jamoalar, murabbiylar, ilmiy tashkilot, tibbiy xizmat va boshqa sohalarda qoʻllanilib kelinmoqda.

Maʼlumki, mamlakatimizda juda koʻp xayriya jamgʻarma uyushmalari faoliyat koʻrsatib kelmoqda. Ular orasida jismoniy tarbiya va sport harakati, ayniqsa, mahallalarda tashkil qilinadigan ommaviy sport tadbirlari, terma jamoalarni moddiy taʼminlash kabi faoliyatlarga «Navroʻz», «Mahalla», «Sogʻlom avlod uchun», «Ekosan», «Kamolot» hamda boshqa jamgʻarma uyushmalari doimiy ravishda koʻmaklashmoqda.

Jamgʻarma uyushmalarining ish mazmuni va vazifalari haqida jamoat tashkilotlari haqidagi mavzu boʻlimda birmuncha tanishtirildi.

Umuman olganda, jamgʻarma uyushmalarining ham boshlangʻich tashkilotlari mavjud boʻlib, ular barcha faoliyatlarda, shuningdek, sportklublar, jismoniy tarbiya jamoalari, sport toʻgaraklari, sport turlari boʻyicha komandalarning tashkiliy, ommaviy, amaliy ishlarida hamkorlik qilishadi.

Matematik-statistik usullaridan foydalanish

Xoʻjaligining barcha tarmoqlaridagi kabi jismoniy tarbiya va sport sohasida ham matematik-statistik usullardan keng foydalaniladi. Bu ishlar sport tashkilotlari

faoliyatlarini barcha tarmoqlari hamda boshqarish bilan aloqador idoralar hamda tashkilotlarda quyidagi shakllarda ifodalanadi:

1. Ish rejalarining ko'rsatkichlarida kun, vaqt, yil va bajarilishi lozim bo'lgan dalillarning sonlari.

2. Sport musobaqalarida qo'llanilayotgan bayonnomalar protokollar.

3. Sport to'garaklari, komandalarni qayd daftarlari jurnal.

Yangi usulda shug'ullanuvchi va qatnashuvchilar haqidagi ma'lumotlar, mashg'ulotlarni o'tkazish kunlari, yillar raqamlar bilan ko'rsatiladi.

Eng muhimi davriy, yillik hisobotlarda statistik hisobot asosan barcha ko'rsatkichlar raqam bilan belgilanadi.

Elektron tablolar, musobaqa qatnashchilarining natijalari va boshqa ko'rsatkichlarni o'lchaydigan elektron hisoblash mashinalari EHM hamda kompyuterlar kabi texnik asboblarda ham asosan matematik usullar mavjud bo'ladi.

Xulosa qilib aytish lozimki, jismoniy tarbiya va sport harakatini tashkil qilish, barcha faoliyatlarga rahbarlik qilishda, rejalashtirish, qarorlarni ishlab chiqish, farmoyishlar berish, hisobga olish, xo'jalikni yuritishda matematik statistik usullardan foydalaniladi. Bu usullarni sport tashkilotlari, jamiyatlari va ularning barcha tarmoqlarida keng miqyosda qo'llash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan rasmiy hujjatlarga tayaniladi. Shuningdek, respublikamizdagi barcha boshqaruv faoliyatlarida qo'llanib kelinayotgan yangi ish usullari, ayniqsa, tashabbuskorlik, ijodkorlik, fidoiyilik kabi fazilatlar sport sohasidagi rahbarlar, murabbiylar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, jamoatchi faollar, sportchilar, o'quvchi-yoshlarning faoliyatlarida ham tarkib topmoqda.

O'zbekiston sharoitida sport buyumlari va jihozlarini ishlab chiqarish ma'lum darajada yo'lga quyilgan. Ular katta bozor, ayniqsa, xalqaro miqyosga chiqqan emas. Chunki ularni sotuvga chiqarish, reklama qilish, talabgorlarni topish, rejalashtirish kabi faoliyatlarda tajriba orttirishni davr taqozo etmoqda. qolaversa, horijdan tijorat yo'li bilan keltirilayotgan sport buyumlari, jihozlar

aholining, ayniqsa, o'quvchi-yoshlar, sportchilarning ularga bo'lgan talab hamda ehtiyojlarini oshirmoqda.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

- 1.O'zbekistonda boshqarish usullarining xususiyatlarini aytib bering.
- 2.Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatlarini tashkil qilishda boshqarish usullarining roli.
- 2.Boshqarish usullari turlari va mohiyatini izohlang.
- 3.Jismoniy tarbiya va sport sohasida tashkiliy farmoyish berish usulining mohiyati nimada?.
- 4.Ijtimoiy-iqtisodiy usullarning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
- 5.Boshlang'ich jamoalarda homiylar, jamg'arma uyushmalari faoliyatidan foydalanish qanday yo'lga qo'yilgan?.
5. Matematik-statistik usulblardan foydalanishni tushuntirib bering.

11-MAVZU. JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK, PEDAGOGIK VA HUQUQIY ASOSLARI

REJA

1. Jismoniy tarbiya va sport harakati jarayonida ijtimoiy-psixologik holatlar.
2. Boshqarish va ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'zaro munosabatlar.
3. Tarbiya - boshqarishning muhim bosqichidir. Onglilik va salomatlik muvozanatlarini saqlash, milliy qadriyatlardan foydalanish.
4. Boshqarishda etakchilik liderstvo mohiyati.
5. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-tarbiyaviy va ma'naviy mohiyatlarini o'rganish, tadqiq qilish.

Tayanch iboralar: Jismoniy tarbiya va sport harakati, sport boshqaruvining pedagogik asoslari, tarbiya, milliy qadriyat, ma'naviyat, ijtimoiy tarbiya, lider, salomatlik muvozanati, sport musobaqalari, ijtimoiy psixologiya.

Jismoniy tarbiya va sport harakati jarayonida ijtimoiy-psixologik holatlar.

Inson ruhiyati uning ijtimoiy turmush va ta'lim-tarbiya jarayonida asosiy omildir. Shu sababdan o'qitish, tarbiya berish, yoshlarning ma'naviy va jismoniy kamolotini tarbiyalab etishtirish, ularni kasb-hunarga yo'llashda ijtimoiy-psixologik va pedagogik jarayonlarga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Bu jihatlar jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarish, ayniqsa, iqtidorli yoshlarni sportga jalb etish, sportchilar mahoratini oshirish, ularni sport musobaqalariga ruhiy jihatdan tayyorgarliklarini ta'minlash eng muhim pedagogik jarayon hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil martdagi «Respublika ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazini tashkil qilish to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklashni takomillashtirish masalalarini e'tiborga olib qabul qilindi. Bu esa aholini, aynisa, o'quvchi-yoshlarni milliy madaniyatimizni rivojlantirish, ulkan adiblar asarlari va madaniy meroslarini qunt bilan mutolaa qilishga da'vat etadi. Buning uchun

barcha jamoalardagi kabi jismoniy tarbiya harakatida ham ta'lim-tarbiya va madaniy ishlarni yaxshilashni taqozo qiladi.

Boshqarish va ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'zaro munosabatlar.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda xalq pedagogikasini takomillashtirishda etuk mutafakkir olimlarning hissalarini kattadir. Ilmiy-pedagogik meroslarimizni ta'lim tizimiga kiritish va ulardan keng foydalanish fikrlarini olg'a surdilar.

Jahon xalqlari tarixi va pedagogikasida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomalar Abu Ali Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Naqshbandiy, Alisher Navoiy va boshqa sharq olimlarining ma'naviy-ma'rifiy hamda ilmiy-pedagogik meroslari o'quvchi - yoshlar va meqnatkashlar orasida targ'ib qilinmoqda.

Sport jamolarining faoliyatini ijtimoiy-ruhiy jihatdan o'rganish va ilg'or tajribalarni ommalashtirishda etuk yirik olimlarimiz o'z hissalarini qo'shib kelmoqda.

Sport tashkilotlari faoliyatini boshqarish va ommaviy sog'lomlashtirish musobaqalarini tashkil etishda rahbar xodimlar, mas'ul tashkilotchilar hakamlar, xizmatchilar, vakillar va hokazolar, jamoalar umumiy qoidalarga itoat etish, o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish, sport musobaqalari qoidalariga to'la rioya qilish, etik-etetik me'yorlarni bilish kabi talablarni bajaradilar.

Sport jamoalari faoliyatida, asosan, quyidagi ijtimoiy-ruhiy va pedagogik jarayonlar muntazam ravishda mavjuddir:

1. Jamoa rahbari sport qo'mita yoki sport jamiyati voqelikni kuzatadi.
2. Murabbiy o'yinlar va barcha mashg'ulotlarni tashkil qilish jarayonida ularni kuzatib, tahlil qiladi.
3. Jamoa ishtirokida rahbarlar va murabbiylar barcha faoliyatlarni, shuningdek, o'yin musobaqa natijalarini birgalikda muhokama qiladilar.
4. Muhokama jarayonida g'oliblar taqdirlanadi va rag'batlantiriladi. Mag'lublar tegishli vazifalarni oladilar.

Bu jarayonlar ijtimoiy-psixologik va pedagogik jihatdan bir-biriga chambarchas bog'lanib ketganligi uchun, maqsad bu faoliyatlarni to'g'ri uyushtirish, aniq yo'nalishlar berish, kelgusi ish samaralarini ta'minlashga

qaratilgan bo'lishi kerak. Shu jihatdan ham talabalar va barcha yosh mutaxassislar sportning turlariga qarab bu faoliyatlarni chuqur o'rganishlari, amaliyot jarayonlarida qayta-qayta tajribalardan o'tkazishlari zarur, toki ular uchun mazkur faoliyatlar odat, ehtiyoj tusiga kirsin.

Jahon sporti harakati, qolaversa, respublikadagi jismoniy tarbiya harakati tajribalarida jamoa, rahbar, guruhlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va rasmiy munosabatlar tabiiyligi ma'lum. Ular ish faoliyatini yaxshilash, munosabatlarni mustahkamlash, yuqori samaralarga erishishga qaratilgan bo'ladi. Bu jarayonlar hayotda oson kechmaydi. Chunki har bir rahbar va ijrochining o'ziga xos fe'l-atvori, xususiyati, istagi, maqsadi, imkoniyati bo'ladi. SHu asnoda aytish kerakki, sobiq Ittifoq davrida O'zbekistonga juda ko'p iqtidorli murabbiylar, sportchilar futbol, kurashda ko'proq edi taklif etilgan. Bu masala katta shartlar evaziga hal bo'lgan. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitlarida ham murabbiylar va sportchilar o'rtasida rasmiy shartnomalar tuzilib, ular rahbar tashkilotlar orqali hal etilmoqda. Bu ham o'ziga xos ijtimoiy-psixologik jarayonlarni vujudga keltiradi.

Sport jamoalarida shaxs tushunchasi katta ahamiyatga molik bo'lib, murabbiy o'zi hohlagan sportchilarni tanlashi va ular bilan muloqatlar tashkil qilishi mumkin. Bu tabiiy hol. Sportchilar ham shaxs sifatida o'z istaklari va hohishlariga ega bo'lishlari, shu asosda muloqat va o'yinlarda qatnashishlari mumkin. Bu murabbiy va sportchi o'rtasidagi raqobat, muloqat va boshqa pedagogik jarayonlarni to'g'ri qo'yishni taqozo qiladi. Shu jihatdan sport jamoalarida faqat ixtisoslik bo'yichagina ishlar olib borilishi etarli bo'lmaydi. Shuning uchun ular bilan ijtimoiy-psixologik va pedagogik jihatdan ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirish, g'oyaviy, siyosiy va madaniy tadbirlarni yo'lga qo'yish zarur. Bu jihatdan bolalar va o'smirlar sport maktablari va o'quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalarini sportklublari to'garaklarida tartibli ravishda tashkil qilish, ularni yoshlikdan tarbiyalash kerakdir.

Sport jamoalarining o'quv mashg'ulotlari va bevosita sport musobaqalari jarayonida maxsus ilmiy tadqiqotlar o'tkazish yo'lga qo'yilganiga ancha bo'ldi. Bu sohada ko'p taniqli olimlar va yosh mutaxassislar tadqiqotlar o'tkazib, ijobiy

natijalarga erishgan. Ularning ta'kidlashicha, sportchilar quyidagi toifalarga bo'linadi.

1. Eng yuqori malakali sportchilar xalqaro toifadagi sport ustalari.
2. Yuqori darajadagi sportchilar sport ustalari.
3. O'rta me'yorli sportchilar 1-razryadlilar.
4. Oddiy sportchilar 2-3-razryadlilar.
5. Sportga endigina qadam qo'yganlar.

1980 yil Moskvada bo'lib o'tgan XXII Xalqaro Olimpiya o'yinlari hamda keyingi yillarda Moskva, Leningrad, Kiev, Toshkent va boshqa yirik shaharlarda o'tkazilgan rasmiy xalqaro sport musobaqalari hamda O'zbekiston Respublikasi xalqlari spartakiadasi, o'quvchilar va talabalarning spartakiadalari, universiadalari paytida rahbarligida qator ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazilganligining guvohimiz. Bu tadqiqot jarayonlarini tashkil qilish va bevosita o'rganishda quyidagi holatlarni aniqlashga muvassar bo'lingan:

1. «Eng yaxshi murabbiylarning qaysi jihatlari sizga ma'qul?»-degan savol-javoblarda yuqori darajali sportchilar talabchanlik, odamiylik, hozirjavoblik kabi hislatlarni ko'rsatganlar.

2. «Murabbiylarning qaysi jihatlari sizga ma'qul emas?»-degan savolga yuqori darajali sportchilar qo'pol, o'zini tutolmaydigan, mag'lubiyatda o'zini yo'qotib qo'yyadigan va hokazolar deb ko'rsatganlar.

Sportga endi qadam qo'ygan yoshlardan «Murabbiylarning qaysi xislatlari sizga yoqadi?» - degan savolga yaxshi muomala qilish, mashqlarni doimo o'zi ko'rsatib berishi, yaxshi o'rgatishi yoqishini ta'kidlaganlar. «Murabbiyning qaysi tomonlarini yoqtirmaysiz?» - degan savolga esa barchaga barobar muomila qilmasligi, do'q urishi, xatolarni tuzatishda dag'allik qilishi va hokazolarni ko'rsatishgan.

Yuqorida qayd etilganidek, jamoada murabbiy va o'yinlar mashqlar jarayonlari yaxlit ijtimoiy - psixologik va pedagogik jarayondir. Sportchilarning o'z murabbiylariga bergan baholari o'ta haqqoniy va to'g'riligiga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas, chunki haqiqatdan ham, murabbiylarning ruhiy va

jismoniy holatlari doimo o'zgarib turadi. Vazmin, donishmand va katta tajribali murabbiylar hamma sportchilarga yoqadi. Shu jihatdan olganda, talabalar, yosh murabbiylar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari yaxshi rahbar, murabbiy bo'lishga intilishlari, hayotiy ish tajribalarni o'zlarida mukammal shakllantirishlari lozim.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra rahbarlarda quyidagi sifatlarni bo'lishi zarur:

- aqlning amaliyligi - o'z bilimlarini amalda qo'llash;
- muomalani bilish - odamlarga ochiq munosabatda bo'lish, yaxshi suhbatdosh bo'la olish;
- aqlning chuqurligi - voqealarning chuqur mohiyatini anglay olish, sabab va okibatlarini ko'ra olish va asosiysini tanlay olish;
- tashabbuskorlik - ijodiy fazilatlarni ko'rsatish, fikr va takliflarni oldinga surish va boshqalar;
- faollik - tezkorlik bilan olib borish, amaliy masalalarni echishda qat'iylik;
- qat'iylik - irodani ishga solish, ishni oxiriga etkazish;
- o'zini tuta bilash - o'zini his-tuyg'ularini nazorat qila olish, murakkab vaziyatlarda o'z tartib harakatini saqlay olish;
- sinchkovlik - ko'ra olish, ko'rgan narsalarni yodda saklay olish;
- ishchanlik - chidamlilik, og'ir ishlarni olib bora olishuzoq vaqtda charchamaslik;
- tartiblilik - o'zini zaruriy rejimiga ko'ra bo'ysundira olish, o'z faoliyatini rejalashtirish;

mustaqillik - o'ziga javobgarlikni olish, masalani mustaqil hal qila bilish.

Sport jamoalari rahbarlari, murabbiylar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilashda barcha sport mashg'ulotlari jarayoni va avvaldan mo'ljallangan vaqtlarda suhbatlar o'tkazishni yaxshi yo'lga qo'yishlari lozim. Bunda:

- sport mashg'ulotlari va o'yinlari musobaqalar ijtimoiy-psixologik va pedagogik jarayonlarga aniq qaratilishi;
- oldiga aniq vazifalar qo'yilishi;
- suhbat rejalari aniq va ehtiyojga yarasha bo'lishi;
- suhbatning ta'sirli bo'lishi uchun vaqt va joy mos kelishi;

- suhbat jarayonida aniq maqsadlarga erishish;
- olingan axborotlar, ma'lumotlar dalil sifatida aniq va to'g'ri haqqoniy bo'lishi;

- suhbatda maqsadga erishilgach, uni darhol to'xtatish, boshqa vaqtda davom ettirishga ehtiyojni uyg'otish kerak bo'ladi.

Suhbatlar ma'lum masalalar bo'yicha chegaralangan, maqsadga qaratilgan va erkin holda bo'lishi kerak. Imkoni boricha suhbatda barcha qatnashchilar o'z fikr-mulohazalarini izhor qilishlari kerak. Uning yakunida doimo barchadan qanoat hosil qilishi va yana davom ettirishga qiziqish uyg'otishi zarur.

Xulosa qilganda, jismoniy tarbiya jamoalari, sportklublari, sport jamoalari va aholi o'rtasida maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyatga egadir. Rahbar xodimlar, murabbiylar, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, jamoati xodimlar va sport ixlosmandlari jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va sport musobaqalarini uyushtirish jarayonlarida e'tiborlarini ma'naviy-ma'rifiy va madaniy faoliyatlarni yaxshilashga qaratish lozim. Sportchilar va tomoshabinlar, murabbiylar va sportchilar hamda tashkilotchi hakamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar eng yuqori saviyada bo'lishiga qaratilishi lozim. Buning uchun barcha sport jamoalarida, ayniqsa, bolalar va o'smirlar sport maktablarida sport mashg'ulotlarini tashkil qilish jarayonlarida ta'lim-tarbiya ishlari yaxshi yo'lga qo'yilishi, umum madaniyat va milliy ma'anaviyatimiz durdonalari, etuk allomalarning ilmiy-pedagogik meroslari o'quvchi-yoshlarga singdirilishi kerak. Talabalar bu jarayonlarni chuqur o'rganishlari va o'zlarida to'la mujassamlashtirishlari lozim.

Tarbiya - boshqarishning muhim bosqichidir. Onglilik va salomatlik muvozanatlarini saqlash, milliy qadriyatlardan foydalanish.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik taraqqiyoti yo'lga kimgach, milliy davlatchilik an'alariga, qadriyatlariga mos keluvchi boshqaruvchilik faoliyati tizimini barpo etishni eng muhim amaliy masalalardan biri deb hisobladi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida boshqaruvchilik faoliyati byurokratlarcha markazlashuv, nomenklatura, o'z-o'ziga

xizmat qilish, shaxsiy manfaatni ustun qo'yish, demokratiyani tan olmaslik, buyruqbozlik, rasmiyatchilik, konservatizm tamoyillariga asoslangan bo'lsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida demokratiya, iqtisodiy munosabatlarni demokratlashtirish, yuksak ma'naviyat, milliy hafsizlikni ta'minlash tamoyillariga asoslanadi.

Boshqarishning huquqiy asoslari deganda ijtimoiy munosabatlarda yuridik, qonuniy ta'sir o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan huquqiy me'yorlar majmui tushuniladi.

Huquqiy me'yorlar davlat tomonidan chiqariladi. Agar huquqiy me'yorlarni jamoat tashkiloti chiqarsa, u davlat tomonidan tasdiqlanadi.

Bu borada jamiyatimizni sog'lomlashtirish uchun xizmat qiladigan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi boshqaruvchilik faoliyatining huquqiy bilimlari alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni boshqarishda huquqiy va me'yoriy aktlarni ikki guruhga ajratib o'rganish va hayotda qo'llash amalga oshirilmoqda. Ular:

1. Davlat tomonidan belgilangan huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi farmonlar, qarorlar va hokazolar.

2. Sport tashkilotlari va ularning quyi tarmoqlarida qo'llanuvchi huquqiy-me'yoriy aktlar nizomlar, qarorlar, rejalar, musobaqalarning qoidalari, sport unvonlari, darajalar, sport klassifikatsiyasi va hokazolar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi boshqa sohalardagi kabi jismoniy tarbiya harakatiga ham ko'pgina qonuniy huquqlar, imtiyozlar berdi. Umuman, jismoniy tarbiya, sport va sayohat jarayonlarida xizmat qiluvchi xodimlar, jamoatchi faollar davlatni idora qilish haqidagi huquqiy bilimlarga ega bo'lishlari shartdir. Chunki jismoniy tarbiya harakati respublikadagi yuzdan ortiq ishlab chiqarish tarmoqlari, muassasalari, tashkilotlari, o'quv yurtlari, yangidan tashkil qilingan konsernlar, assotsiatsiyalar va boshqa nufuzli tarmoqlar faoliyati bilan chambarchas bog'langan. Bu esa jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilish, ayniqsa, moliyaviy, xo'jalik, faoliyatlarini qonun asosida boshqarishda zarurdir.

Huquqiy bilimlarga ega bo'lgan yoki boshqarishning qonun-qoidalarini yaxshi o'zlashtirgan jismoniy tarbiya xodimlari ishlab chiqarish korxonalari, turli muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari bilan munozara qilish, jiddiy masalalarni hal etish va barcha faoliyatlarni boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi.


Boshqarishning huquqiy vositalari deganda ijtimoiy munosabatlarga yuridik, qonuniy ta'sir o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan huquqiy normalar majmuyi tushuniladi.

Huquqiy normalar davlat (turli tashkilotlar orqali) yoki jamoat tashkilotlari tomonidan chiqariladi va tasdiqlanadi.

Huquqiy normalar turli qonuniy hujjatlar, nizomlar, buyruqlar, farmoyishlar va hakazolar shakliga ega bo'ladi. Boshqarish amaliyotida teng huquqli boshqaruv sub'ektlari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar bo'ladi. Bunday hollarda huquqiy muvofiqlashtiruvchi (koordinatsion) yoki kelishtiruvchi hujjatlar chiqariladi.

Teng huquqli tomonlarning xo'jalik sohasidagi o'zaro aloqalar xo'jalik shartnomalarini tuzish yo'li bilan tartibga solib turiladi.

Huquqiy normalar muayan sankg'iyalarini nazarda tutadi. qo'llaniladigan ta'sir choralarning xarakteriga qarab, ular moddiy, intizomiy, jinoiy-huquqiy sanksiyalarga bo'linadi.



Huquqiy normalar sanksiyasi

Moddiy javobgarlik - bu korxonlar va tashkilotlarning, shuningdek, ayrim mansabdor

shaxslarning zimmasiga xo'jalik faoliyatining natijalari uchun yuklatilgan mas'uliyatdir. Moddiy javobgarlik:

- jarimalarda;

- penyalarda;
- neustoykalar va hokazolarda ifodalanadi

Intizomiy javobgarlik - bu xizmat burchlarini buzish, suist'emol qilish natijasida kelib chiqadi. Bunda jazo quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

- tanbeh;
- hayfsan;
- muayayn mulatga maoshi pastroq ishga o'tkazish va hokazolar.

Ma'muriy javobgarlik - bu yuridik javobgarlik turi bo'lib, vakil qilingan organ yoki mansabdor shaxsning qonunbuzarlik qilgan shaxsga nisbatan ma'muriy jazo chorasini qo'llashda ifodalanadi. Bunday jazolar turli-tuman sanksiyalarda naxetlar (qaytarib olinishi zarur bo'lgan harajat), jarimalar va hokazolar ko'rinishda bo'ladi.

Jinoiy javobgarlik - bu mansab bilan bog'liq jinoyat sodir etilganda sud tomonidan qo'llaniladigan jazodir. Shunday qilib:

<p>Moddiy javobgarlikka - moddiy zarar etkazish</p> <p>Intizomiy javobgarlikka - intizomiy nojo'ya harakat.</p> <p>Ma'muriy javobgarlikka - ma'muriy huquqbuzarlik</p> <p>Jinoiy javobgarlikka - jinoyat asos bo'ladi</p>

Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-tarbiyaviy va ma'naviy mohiyatlarini o'rganish, tadqiq qilish.

Sport tashkilotlari faoliyatini yurgazish va u bilan bog'liq bo'lgan qonuniy tomonlar bu tashkilotlar nizomlarida to'la bayon etilgan. Ya'ni O'zbekiston Respublikasi Davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi «O'zbekiston» sport jamiyati, shuningdek, «Dinamo», «Yoshlik», «Talaba» sport jamiyatlarining Nizom va Ustavlari buning dalilidir. Bu nizomlar sport tashkilotlarining huquqiy me'yoriy aktlarini tashkil etadi. Shuni ham uqtirish zarurki, jismoniy tarbiya jamoalari va sportklublari xaqida ham maxsus nizomlar mavjud. Bu nizomlar o'z jamolari va boshqaruv joylarida ishlab chiqiladi hamda yuqori davlat idoralari tomonidan tasdiqlanadi. Ustavlar esa sport jamiyatlarining respublika anjumanlarida tasdiqlanadi.

Barcha nizomlarda jismoniy tarbiya va sport tashkilot va jamiyatlarining vazifalari, huquqlari va ish mazmunlari batafsil bayon etiladi. Sport tashkilotlari va barcha davlat hamda jamoat tashkilotlariga tegishli bo'lgan ba'zi bir huquqiy me'yoriy aktlar mavjud. Shu hujjatlar o'quv mashg'ulotlari, ommaviy sog'lomlashtirish sport tadbirlari va ularga shart-sharoitlar yaratish imkoniyatlari haqida asos bo'ladi. Bular O'zbekistonda Konstitutsiyasi, «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlar, «Sog'lom avlod uchun» ordenini ta'sis qilish to'g'risidagi farmon va boshqa qarorlardir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Bu qonun 28 moddadan iborat bo'lib, unda, asosan, «Fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi huquqlari» 2-modda, vazifa-lari 3-modda, «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportga rahbarlik qilish» 6-modda, «Jismoniy tarbiya va sportni, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish» 9-modda, «Jismoniy tarbiya va sportga mablag' ajratish» 12-modda, «Sportchilarning ijtimoiy himoyalanganligi» 25-modda, «Professional sport» 26-modda va boshqa muhim faoliyatlar aks ettirilgan. Bunday qonunlashtirish ishlari respublika aholisini jismoniy tarbiyalash, sog'liqni muhofaza qilishdagi yangi huquqiy hujjatdir. Talabalar qonunning mazmunini to'la o'zlashtirib olishlari va amaliyotda qo'llashlari zarur.

1992 yil 8 dekabrda Respublika Oliy Kengashining XI sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi» qabul qilindi. Bunda avvalgidan farqli o'laroq, aholining salomatligi, yoshlarning jismoniy kamoloti hamda ularning Vatan himoyasiga tayyorgarlik ko'rishdagi jismoniy chiniqishlari qonuniy belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning «Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari» IX bob bobining 41-moddasida «Har kim bilim olish huquqiga ega» deb kafolat berilgan. Ma'lumki, bilim berish o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. O'quv jarayonining tarkibiy qismi jismoniy tarbiya hisoblanadi. Demak, har bir o'quvchi-yoshlarning jismoniy tarbiya bilan albatta shug'ullanishi qonun bilan belgilangan. Shuningdek, «Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi» 42-

modda, deb belgilangan. Respublika milliy madaniyat va ilmiy texnika sohasi jismoniy tarbiya, uning barcha turlari, vositalari, ilmiy asoslari bilan chambarchas bogʻlangan. Bu jabhada ham jismoniy tarbiya va sport haqli ravishda qonun bilan kafolatlangan deyishga asoslar bor.

Konstitutsiyaning 52-moddasida: «Oʻzbekiston Respublikasini himoya qilish - Oʻzbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni oʻtashga majburdirlar» deb koʻrsatilgan. Bu esa, oʻz navbatida, oʻquvchi-yoshlarning harbiy xizmatga jismonan epchil, chaqqon, kuchli, chidamli boʻlib tayyorlanishini taqozo etadi.

Yana 56-moddada shunday jumla bor: «Oʻzbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalari, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida eʼtirof etiladi». Bu joyda «Oʻzbekiston», «Dinamo», «Yoshlik», «Talaba», «Vatanparvar» sport jamiyatlari mazmun topgan. qolaversa, qayd etilgan barcha uyushma va tashkilotlar faoliyatini jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilish mumkin emas.

58-moddada «Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini taʼminlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi» deb jamoat tashkilotlarining, shuningdek, sport jamiyatlarining faoliyati va imkoniyatlaridan keng foydalanishga kafolat berilgan.

“Bolalarni oila va maktablarda tarbiyalash” 63-66-moddalar, ularning salomatligi uchun gʻamxoʻrlik qilish kabi vazifalar ham Konstitutsiyada mazmun topgan.

Oʻzbekistonda «Mehnat jamoalari toʻgʻrisida», «Sogʻliqni saqlash haqida», «Taʼlim toʻgʻrisida», va boshqa juda koʻp qonunlar qabul qilingan. Ularda aholining sogʻlom turmush darajasini oshirish, sogʻligʻini muhofaza qilish, umrini uzaytirish va ular bilan bogʻliq boʻlgan barcha shart-sharoitlarni yaratib berish masalalari olgʻa surilgan.

Boshqarish jarayonlarida huquqiy bilimlarning maxsus tomonlari ham mavjud. Bunda ijtimoiy huquq, huquq nomalari, ularning manbalari muhim ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy huquq ijtimoiy holatlarni yangilash, uni rivojlantirish maqsadida ijtimoiy va milliy munosabatlarni boshqarishni yaratish, huquq tartibi normalari bilan belgilanadi va himoya qilinadi.

Huquq normalari deganda kishilarning davlat tomonidan belgilangan ma'lum va umumiy huquqlari tushuniladi. Huquq shakllari - bu ijtimoiy miqdor bo'lib, u ijtimoiy va millatlararo munosabatlarni yo'lga solib turadi.

Huquqlarning manbalari aktlar miqdori bo'lib hisoblanadi. Bu yozma hujjatlar davlat organlari tomonidan o'z huquq doirasiga qarab chiqariladi. SHuni e'tiborga olish kerakki, davlat organlarining har qanday aktlari ham normativ bo'lavermaydi. Masalan, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar rejali topshiriq, aniq korxonaga berilgan topshiriqlar va hokazolar.

Normativ aktlarning oliy yuridik kuchi qonundir. Bunga boshqa barcha aktlar bo'ysungan bo'ladi. qonunlar O'zbekiston Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi.

Huquqni boshqarishda quyidagi usullar qo'llaniladi:

1. Yozma farmoyish berish.
2. O'zaro kelishuv shartnoma tuzish.
3. Taklif etish hal qilingan masalani kelishuv yo'li bilan bajarish.

Sport tashkilotlarida xodimlarni ishga qabul qilish tartibi umumiy mehnat qonunlari asosida olib boriladi. Shu sababdan bu sohada rahbar xodimlar ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish, rag'batlantirish, ogohlantirish va boshqa imkoniyatlarni bilishlari zarur.

Jismoniy tarbiya va sportda xodimlarni boshqarish tizimi band bo'lgan kishilar salohiyatini rivojlantirish, ulardan samarali foydalanish, ularga zarur shart-sharoitlar yaratib berish bo'yicha tadbirlardan iborat.

Bu tizim quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ish sharoiti;

- mehnat munosabatlari; kadrlarni xisobga olish va rasmiylashtirish;
- xodimlar marketingi;
- kadrlarni rivojlantirish;
- mehnatni rag'batlantirish vositalarini takomillashtirish;
- huquqiy xizmat;
- sotsial tuzilmani rivojlantirish;
- boshqarishni tashkiliy tarkibini ishlab chiqish tizimi.

Jumladan huquqiy xizmatning boshqarish ob'ektlari quyidagilardan iborat:

- mehnat munosabatlaridagi huquqiy masalalarni echish;
- xodimlarni boshqarishga taaluqli, farmoyishli xujjatlar keltirish;
- xo'jalik faoliyatida huquqiy masalalarni echish.

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish «O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi» asosida olib boriladi va ikki tomonlama shartnomalar kontrakt bir yil va bir necha yillarga mo'ljallanib tuziladi.

So'nggi yillardagi mehnat faoliyatlari, umuman, sharoitlar shuni taqozo qilmoqdaki, ishga yaroqli kishilar o'zlarining asosiy ish joylari yoki boshqa mehnat jamoalarida o'rindosh (sovmestitel) hamda soatbay yarim stavka shaklida ishlash huquqlariga ham ega bo'ldilar.

Bir joydan ikkinchi joyga ishga o'tish shartnomalarda ko'rsatilgan tartib yoki huquqiy kuchga ega bo'lgan boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida xodimlarga ish haqi to'lash tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Normativ darajalar» asosida belgilangan. Xodimlarning ma'lumoti, ish staji, ilmiy va boshqa unvonlari, darajalari, lavozimlarini hisobga olgan holda belgilangan darajada ish xaqi hajmi tayinlanadi.

Sport tashkilotlari xodimlarining mehnat intizomiga rioya qilishi, ilg'or mehnatkashlarni taqdirlash yoki mehnat intizomini buzganlarga tegishli choralar ko'rish kabi faoliyatlar tashkilot rahbari, kasaba uyushmalari tomonidan nazorat qilib boriladi. Shu sababli talablar bu ish tartiblari va qonun-qoidalarni o'zlashtirib olishlari zarur.

Umuman olganda, boshqarish jarayonlari huquq normalari, me'yoriy aktlar asosida olib borilsa, faoliyatlar doimo ijobiy samaralar beradi.

Jismoniy tarbiya va sport harakatini boshqarishda maxsus huquqiy-me'yoriy aktlar mavjud bo'lib, ular sport harakatini tartibli boshqarishning asosiy mezonlari hisobalanadi. Ular:

1. Sport qo'mitalari, jamiyatlari, sport klublari, O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasi haqidagi nizomlar.

2. Sport turlari bo'yicha «Xalqaro miqyosidagi sport ustasi», «Xizmat ko'rsatgan sport ustasi» unvonlari va quyi bosqichdagi darajalar razryadlarning normativlarini belgilovchi sport klassifikatsiyasi.

3. «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari, uning nizomi.

4. Sport turlari bo'yicha musobaqalarning nizomlari, o'yin qoidalari.

5. Sport turlari bo'yicha hakamlar, jamoatchi faollarni tayyorlash nizomlari.

6. Musobaqalarning kalendar rejasi.

7. Musobaqalarning protokollari (bayonnomalari).

8. Bayroqlar, belgilar (emblema), ko'krakka taqadigan nishonlar va x.k.

Ularning mazmunlari va namunalari bilan alohida tanishish va o'rganish jarayonlari amaliy hamda mustaqil mashg'ulotlarda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport xarakati, uni boshqaruvchi mutasaddi va yordamchi tashkilotlar, muassasalar xamda o'quv yurtlari xuquqiy-me'yoriy faoliyatlarga egadir. Davlat qonunlari, xukumat qarorlari va amaldagi maxsus xuquqiy-me'yoriy xujjatlarni chuqur o'rganish va ularni hayotda qo'llash ularga amal qilish xar bir mutaxassis xodimning asosiy burchidir.

Shuni xam ta'kidlash zarurki, xuquqiy-me'yoriy xujjatlarga tayanish maqsad va vazifalarni amalga oshirish bilan birgalikda, mutaxassislar, sportchilar va o'quvchi - yoshlarning milliy qadriyatlar asosidagi ma'naviy-ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda xam xizmat qiladi.

Mustaqillikning sharofati tufayli maxsus qonunlar ishlab chiqildi va ular asosida tadbirkorlik, savdo, tijorat, innovatsiya o'z mablag'ini jamg'armaga qo'yish faoliyatlariga keng yo'l ochib berildi. Ularning eng ilg'orlari, davlat va

xalq manfaatlari yo'lida yaxshi xizmat qilayotganlarni rag'batlantirish ham amalga oshirilmoqda.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ijtimoiy-psixologik holatlar qanday amalga oshiriladi?.
2. Boshqarish va ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'zaro munosabatlar qanday yo'lga qo'yilgan?.
3. Tarbiya nima?
4. Onglilik va salomatlik muvozanatlarini saqlash, milliy qadriyatlardan foydalanishga izoh bering.
4. Boshqarishda liderlikning roli qanday?.
5. Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-tarbiyaviy va ma'naviy mohiyatlarini tushuntiring.

12-MAVZU. JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISHNING IQTISODIY ASOSLARI

1. Moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minot xaqida tushuncha. Davlat byudjetidan foydalanish.
2. Jismoniy tarbiya va sport sohasida o'zini-o'zi moddiy ta'minlash, pullik xizmatlar.
3. Sport tashkilotlari va ularning boshlang'ich jamoalarida smeta tuzish tartiblari.
4. Sport buyumlarini ishlab chiqarish, ularni sotish va xarid qilish tartiblari.

Tayanch iboralar: iqtisodiyot, moliya, sport iqtisodiyoti, sport sanoati, pul mablag'lari, kasaba uyushmalari, resurslar, korporatsiyalar, smeta, davlat byudjeti, tadbirkorlik, sport buyumlari, ishlab chiqarish.

Moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minot xaqida tushuncha. Davlat byudjetidan foydalanish.

Moliyalashtirish tushunchasi bepul resurslarini hosil etish, ularni jamlash, taqsimlash va ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardan iborat

Jismoniy tarbiya va sportda taqsimlash vazifasi ikki darajada amalga oshiriladi. Birlamchi taqsimlash tashkilot, korxonalar va muassasalar ichida yuz beradi. Ikkilamchi taqsimlash korxonalar, tashkilotlar va davlat o'rtasida yuz beradi. Bunda davlat soliqlar va soliqdan tashqari majburiy to'lovlar vositasida korxonalar mablag'ining bir qismini o'z ixtiyoriga olib uni qayta taqsimlaydi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida rag'batlantirish vazifasi moliya vositasida iqtisodiy faollikni qo'llab quvvatlashdan iborat. Buning uchun soliqlardan silov beriladi.

Buning natijasida sportning ko'pgina soxalariga beriladigan moliyaviy ko'mak, olingan foydaning 1% dan oshmagan miqdorda soliqlardan ozod qilinadi, futbol soxasida esa bu ko'rsatkich 5% miqdorida.

Respublikadagi bozor iqtisodiyoti munosabatlari va islohotlarining barcha bosqichlari xamda davrlarida jismoniy tarbiya va sportni moliyalashtirish, moddiy-texnik jihatdan ta'minlash masalalari o'ziga xos xususiyatlar asosida

amalgaga oshirilmoqda. Davlat byudjeti va ta'minoti jismoniy tarbiya va sport ishlariga ancha cheklangan holda ajratilmoqda. Bu jihatlar sport tashkilotlari va jamiyatning xo'jalikni yuritish, pullik xizmatlar (ijara, tijorat, sport inshootlarida sog'lomlashtirish guruhlari, pullik musobaqalar va x.k.) faoliyatlarini yuritishni talab etadi. Bunday faoliyatlar o'zini-o'zi moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlashdek bugungi kunda odatiy tusga aylandi.

O'zbekiston Vazirlar Maxkamasining tadbirkorlik, tijorat ishlarini kengaytirish va ularga ma'lum imtiyozlar berish xaqidagi qarorlarida ishlab chiqarish korxonalari, savdo, tijorat va shaxsiy xo'jaliklarning jismoniy tarbiya va sport ishlarini yaxshilash faoliyatida homiylikka keng o'rin berilmoqda. Bu jihatlar O'zbekistonning demokratik davlat qurishdagi ilk faoliyatlarining namunalaridan biridir.

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida yuqorida qayd etilgan soxalarni rivojlantirish, ayniqsa, sog'lom avlodni tarbiyalab etishtirish ishlariga alohida e'tibor berilmoqda. Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Jizzax, Andijon va boshqa shaharlarda tennis kortlarining qurilishi, sportchilarning Osiyo o'yinlari va boshqa Xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishlari, oliy o'quv yurtlari yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, aholi o'rtasida milliy xalq o'yinlarini o'tkazish va shunga o'xshash juda ko'p e'tiborga loyiq tadbirlarni tilga olish mumkin.

Maktabgacha bolalar muassasalari, barcha turdagi o'quv yurtlari, ishlab chiqarish korxonalari, muassasalar, aholi turar joylari va dam olish maskanlarida ommaviy sog'lomlashtirish va sport ishlarini tashkil qilishga sarflanayotgan moddiy mablag'lar bevosita davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, xayriya jamg'armalari, xomiylar va ayrim shaxslar tomonidan berilayotgan moddiy mablag'lar bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonlari ma'naviy-ma'rifiy va milliy madaniyatning rivojlanishi aholi o'rtasida jismoniy tarbiya va sport ishlarini yanada rivojlantirishni taqazo etadi. Bu jarayonlar, eng birinchi navbatda, moddiy-texnik bazani takomillashtirish, ixtisosli xodimlar tayyorlash va ularning amaliy malakalarini oshirish, bu faoliyatlar bilan bog'liq moddiy

manbaalarni ko'rib chiqish, ularni talab va ehtiyoj darajasida xal etish eng murakkab va dolzarb muammodir.

Xalqaro sport harakatida O'zbekistonning obro'yini oshirish, buning uchun talab etiladigan barcha shart-sharoitlarni muhayyo qilish esa o'ta muhim vazifadir. Bu vazifalarni hal etishda Respublika xukumati, ayniqsa Prezidentimiz tomonidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada Respublikamiz sportchilari jahon sport maydonidagi mavqelarini tabora oshira borib, ulkan muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Xirosimada (Yaponiya) o'tkazilgan XII Osiyo o'yinlari (1994 yil) yakunlari, Koreya, Parij, Moskva va boshqa shaharlarda o'tkazilgan rasmiy xalqaro musobaqalar, Toshkent, Samarqand, Termez, Namangan, Farg'ona va boshqa shaharlarda o'tkazilayotgan xalqaro turnirlar, o'rtoqlik uchrashuvlari, Toshkent, Olma-ota, Bishkek va boshqa shaharlarda tashkil qilinayotgan Markaziy Osiyo o'yinlari bularning dalilidir. Ma'lumki, bu ulkan tadbirlarni tashkil qilishning o'zi bo'lmaydi. Juda katta tayyorgarlik, tashkiliy ishlar tarkibida ulkan moliyaviy xarajatlar ham yotadi. Bu masalalarni hal etishda maxsus iqtisodiy bilimlar, zamonaviy ish tajribalari, menejment, marketing, tadbirkorlik kabi faoliyatlarni o'zlashtirish har bir rahbar xodim va mutaxassisdan talab etiladi.

Keyingi yillarda sport tashkilotlari va ularning quyi jamoalarida foaliyatlarni moddiy-texnik jixatdan tashkil qilish va boshqarishda katta tajribalar vujudga keldi. Bunda Turkiya, Koreya, Yaponiya va boshqa yirik horijiy mamlakatlarning ish tajribalari ancha qo'l kelmoqda.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti islohotlari davrida jismoniy tarbiya va sport ishlarini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash masalalari turli-tuman shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport ishlari Vazirligi, turli vazirliklar orqali o'quv jarayonlarni ta'minlash davlat tomonidan amalga oshirilmoqda. O'quvchi-yoshlar va sportchilarning sport mashg'ulotlari, musobaqalari bilan bog'liq faoliyatlar esa xo'jalikni boshqarish va o'ziga-o'zi xizmat qilish yo'llaridan kelgan moliyaviy manbalar hisobiga bo'lmoqda. Sport inshootlarini ta'mirlash va yangidan qurish masalalari ham xuddi shu hisoblardan,

shuningdek, turli jamgʻarmalar, homiylar, kasaba uyushmalari va boshqa tashkilotlarning koʻmagida hal etilmoqda.

«Jismoniy tarbiya va sport toʻgʻrisida»gi qonun va Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida baʼzi bir imtiyozlar aholining ommaviy sogʻlomlashtirish va sport tadbirlarini tashkil qilishda xizmat qilmoqda. Yana davlat va jamoat tashkilotlarining moddiy manbalari maktabgacha bolalar muassasalari, nogironlar, faxriylar, mehnatga yaroqsiz kishilar qaramogʻida boʻlgan bolalar, kam taʼminlangan oilalar va shunga oʻxshash tomonlarga sarf etilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida oʻzini-oʻzi moddiy taʼminlash, pullik xizmatlar.

Sport klublar, yaxshi sport kompleksiga ega boʻlgan jamoalar va yangidan tashkil qilingan tijorat, savdo va ishlab chiqarish korxonalari pullik xizmatlar evaziga sogʻlomlashtirish tadbirlari, ijara xizmati va boshqa yoʻllar bilan moliyaviy manbalarni boyitmoqda. Bu ish uslublari tobora keng tarmoq otmoqda. Bunda tadbirkorlik faoliyatlar ancha samaralar bermoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport toʻgʻrisida»gi qonunida aholiga pullik xizmatlar koʻrsatish faoliyatlari huquqiy asoslab berilgan. Jismoniy tarbiya –sogʻlomlashtirish xizmatlarining turli xillari mavjud boʻlib, ular orqali jismoniy tarbiya va sport sohasida tadbirkorlik ishlarini tashkil qilish mumkin:

- sport turlaridan mashgʻulotlarni tashkil qilish;
- sogʻlomlashtirish guruhlarini tashkil qilish;
- jismoniy sifatlarni tarbiyalash va sport malakalariga oʻrgatish boʻyicha maxsus guruhlar tashkil qilish;
- ayrim shugʻullanuvchilar bilan individual mashgʻulotlar oʻtish;
- sport tadbirlari va sport bayramlarini oʻtkazish boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar berish;
- davolash gimnastikasi mashgʻulotlarini va massaj xizmatlarini tashkil qilish;
- sport bazalarini ijaraga berish;

- sport attraksionlari, stol tennisi va boshqa o‘yinlar uchun sharoitlar yaratish;
- sport jihozlari va sport kiyimlarini ijaraga berish;
- sport tadbirlari va musobaqalarini tashkil qilish;
- jamoalar, shaxslar va oilalarga jismoniy mashg‘ulotlardan keyin dam olish joylarini tayyorlash;
- sport jihozlari, trenajyorlarni ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlarni yo‘lga qo‘yish.

Respublikada jismoniy tarbiya va sport ishlarini moliyalashtirishning aniq manbalari va turlari «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi qonunda aniq belgilangan. Undan quyidagi iboralarni keltirish mumkin: «Jismoniy tarbiya va sportni mablag‘ bilan ta‘minlash respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar, kasaba uyushmalarining mablag‘lari, a‘zolik badallari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, ayrim shaxslar ihtiyoriy ravishda beradigan mablag‘lar, tomoshabop sport tadbirlari va sport lotoreyasi o‘yinlari o‘tkazishda, aholiga xizmatlar ko‘rsatishdan keladigan tushumlar, uy-joylardan foydalanish tashkilotlarining ajratmalari va boshqa tushumlar hisobidan amalga oshiriladi»⁶ (12-modda). qonunning shu moddasida yana shunday aniq ko‘rsatmalar mavjud. Ya‘ni jismoniy tarbiya va sport sohasi respublika byudjetida alohida moddada aks ettiriladi. Pul bilan ta‘minlash hajmlarini aholi jismoniy tarbiyasi va ommaviy sportni mablag‘ bilan ta‘minlash oliy toifadagi sportchilarni tayyorlashga mablag‘ ajratishga nisbatan ustun ekanligini xisobga olgan holda Oliy Majlis va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari belgilaydi. Bu jihatlar yangi tahrirdagi qonunda yanada sayqallashtirilgan.

Ta‘kidlash zarurki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda jismoniy tarbiya harakatiga sarflanayotgan Davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining mablag‘larini o‘rganish, ularni hisob-kitob qilish va ilg‘or tajribalarni hayotga singdirish masalalari etuk iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sport soxasiga davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘larning miqdori yanada oshdi.

Davlat byudjetidan ajratilgan pullar quyidagilarga sarflanishi mo‘ljallanadi:

⁶ Ўзбекистоннинг янги қонунлари, № 5 1993 й. «Адолат» нашриёти, 210-бет.

- 1.Sport inshootlarini qurish va ularni ta'mirlash.
- 2.Sport tashkilotlari xodimlarini moddiy ta'minlash (ish xaqi).
- 3.Jismoniy tarbiya o'quv yurtlari va sport maktablarini saqlash.
- 4.Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish.
- 5.Sport musobaqalarini o'tkazish, xalq milliy o'yinlarini tashkil qilish.
- 6.Sport buyumlarini ishlab chiqarish.

O'quv yurtlariga ega bo'lgan vazirliklar, qo'mitalar va boshqa davlat tasarrufidagi tashkilotlar jismoniy tarbiya va sport ishlariga yuqorida qayd etilgandek pul ajratadi va sarflaydi.

Sport tashkilotlari va ularning boshlang'ich jamoalarida smeta tuzish tartiblari.

Iqtisodiy islohotlar va bozor munosabatlarning turli bosqichlarida sport sohasida xo'jaliklarni yuritish, sport inshootlari va buyumlarini ijaraga berish, pullik xizmatlarni tashkil qilish, tijorat ishlarini yuritishni davr taqozo etmoqda. Bunday tadbirlarni tashkil qilish, tadbirkorlik faoliyatlarini rivojlantirishda mamlakatimizdagi «Bunyodkor», «Yoshlik», «Paxtakor», «Navbahor», «So'g'diyona», «Neftchi» va boshqa ko'pgina klublar katta faoliyat ko'rsatmoqda. Ular barcha faoliyatlarini pul bilan ta'minlashda to'la imkoniyatlarga egadir. Ya'ni o'z-o'zini ta'minlash xo'jalik hisobidagi jamoalardan hisoblanadi.

Bunday ish tajribalari xozirgi kunda ham ma'lum darajada keng qo'llanilmoqda. Masalan, Futbol federatsiyasi, Boks federatsiyasi, O'zbek kurash assotsiatsiyasi va boshqalarga davlat tashkiloti rahbarlari boshchilik qiladilar. Boshqarish va moliyalashtirishning bunday usullari katta va ommaviy sportning rivojlanishiga hissa qo'shishi turgan gap.

Yoqorida davlat byudjeti to'g'risida fikrlar bildirildi. Byudjet bu maxsus moliyaviy hujjat bo'lib, kelgan daromadlarning yig'indisi va uni sarflash tartibidir. Bu qonuniy, huquqiy, moliyaviy xujjat kasaba uyushmalari, konsernlar, assotsiatsiyalar, turli uyushmalarda ham mavjud. Bunday byudjetlarda boshqa

sohalar kabi jismoniy tarbiya va sportga ajratilgan mablag'lar aniq belgilanadi. Bunday idoralar va tashkilotlarning jismoniy tarbiya va sportga ajratadigan pul mablag'lari, O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksida bevosita talqin qilingan.

Respublika kasaba uyushmalari «O'zbekiston» sport jamiyati, «Dinamo», «Yoshlik», «Talaba», «Vatanparvar» sport jamiyatlarining o'z byudjetlari mavjud. Ular o'z xazinalarini quyidagi manbalardan to'ldiradi:

1. Jamiyat a'zolari badallari.
2. Pullik xizmatlar, jamg'armalar hamda homiylarning ajratmasi.
3. Tijoratdan tushumlar.

Byudjetdagi mablag'lar quyidagi sohalarga sarflanadi:

1. Sport va o'yin maydonlarini qurish, ta'mirlash.
2. Sport buyumlari va jihozlari xarid qilish.
3. Sport musobaqalari va ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazish.
4. Murabbiylar va xo'jalik xodimlari hamda rahbarlarga ish haqi berish.
5. O'quv mashg'ulotlari, yig'inlar tashkil qilish.

Bu harajatlar maxsus moliyaviy hujjat smeta orqali amalga oshiriladi. Smeta tashkilotlar va jamiyatlarning ish sohasiga qarab turli xil moddalardan tuzilgan bo'lishi mumkin.

Respublika, viloyatlar va tumanlardagi «Yoshlik», sport jamiyati va ularning quyi jamolarida smeta tuziladi va uning asosiy moddalari jismoniy tarbiya va sport ishlari quyidagicha belgilanadi:

O'quv-sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari,
ish haqi,
sport inshootlarida xo'jalik faoliyatlari,
kapital qurilish va ta'mirlash ishlari,
sport jihozlari xarid qilish va hokazolar.

Sog'lomlashtirish guruhlar va boshqa pullik xizmat ko'rsatish faoliyatlarida sportklublar yoki tashkilot xodimlari hokimiyatlar, moliya idoralari bilan shartnomalar tuzishi va shu asosda tegishli to'lovlarni berishlari shart.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitlarida sport jihozlarni sotib olish masalalari qanchalik qiyini bo'lmasin, uning ba'zi bir tartib va qoidalarini bilish ma'quldir.

1. Imkoniyati bor jamoalar qonuniy ravishda tegishli jihozlarni naqd pulga sotib olish.

2. Savdo tashkilotlari bilan kelishgan holda pul o'tkazish perechislenie yo'li bilan jihozlarni xarid qilish.

Xarid qilishni ikkala shaklida ham rasmiy hujjatlar talabdagidek bo'lishi kerak. Pul o'tkazish yo'li bilan xarid qilinganda qo'yidagilarga amal qilinadi:

1. Harid qilinadigan jihozlar ro'yxatini aniqlash va unga beriladigan pullarni aniq belgilash.

2. Savdo do'konlariga yozma xat bilan murojaat qilib, zarur jihozlar uchun shartnoma tuzish va hisob-faktura qog'ozini olish.

3. Hisob-faktura orqali bankdan pulni do'konga o'tkazish.

4. Ishonch xati bilan do'kondan jihozlarni olib kelish.

Yana shuni ham bilish lozimki, jihozlarning turlariga temir, yog'och, rezina, jun, charm, sintetika, trikotaj va hokazolar qarab, ularning yaroqlilik muddatlari belgilangan. O'sha muddatlar tugagach, buyumlar hisobdan chiqariladi. Bunda jamoa rahbariyati maxsus komissiya tuzib, bu ishni amalga oshiradi akt tuziladi.

Jismoniy tarbiya va sport ishlarini moliyaviy ta'minlash masalalari sohalarga qarab ko'p tarmoqli va hisoblanadi. Shu sababdan ham rahbariyat, yoki mutaxassislar, talabalar moliyalashtirishning hozirgi davrdagi tartib qoidalarini yaxshi bilishlari, ilg'or tajribalarni chuqur o'zlashtirib uni takomillashtirish yo'llaridan borishlari maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning davlat idoralari va jamoat tashkilotlari avvaldan mavjud bo'lib, ularning tizimlari ham hozirgi sharoitlar asosida faoliyat ko'rsatib bormoqda. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning davlat idoralari tizimida bosh vazifani bajaruvchi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari Vazirligi hisoblanadi. Shuningdek, o'quv yurtlari va boshqa tarbiyaviy muassasalarda ham jismoniy tarbiya va sport ishlari

ma'sul vazirliklar, qo'mitalar, kompaniyalar, korporatsiyalar va hokazolar tomonidan amalga oshiriladi. Bu, o'z navbatida, davlat tizimini tashkil etadi. Turli sport jamiyatlari, ularning quyi tarmoqlari hamda Milliy Olimpiya qo'mitasi, sport turlari bo'yicha uyushmalar (federatsiyalar), assotsiatsiyalar va hokazolar esa jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning jamoat tizimlari hisoblanadi.

Bu ikki yo'nalishdagi asosiy tizimlarda o'z-o'zini moliyaviy ta'minlash maqsadida xo'jalik yuritish, pullik xizmat va homiylik sohalari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda olib borilayotgan turli islohotlar, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining yangi bosqichlar sari qadam qo'yishida jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning yangi shakl va mazmunlari yuzaga kelmoqda.

Bu jihatlar sport jamoalari, sport-klublari, sport inshootlari, sog'lomlashtirish markazlari va shunga o'xshash sohalardagi murabbiylar, rahbarlarning faoliyatiga ma'lum darajada mos kelishi mumkin. Shu sababdan mamlakatimizda savdo, tijorat, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni chetga chiqaruvchi muassasalar, ishlab chiqarish jamoalarining ish tajribalarini chuqur o'rganish zaruriyati tug'iladi.

Jismoniy tarbiya va sport xalq xo'jaligida mustaqil tarmoq sifatida mavjuddir va ma'lum darajada davlat hamda jamoat tashkilotlariga moddiy-ma'naviy mahsulot beradi. Bularni quyidagi faoliyatlarda ko'rish mumkin.

1. Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat unumdorligini oshirish, ishchi va xizmatchilarning salomatligini yaxshilash, kasalliklarning oldini olish.

2. Sport inshootlari, sport markazlarida sog'lomlashtirish guruhlari, pullik musobaqalar (chipta bilan kirish), ijaraga berish va hokazolar orqali moddiy-texnik ta'minotlar.

3. Xalqaro sport musobaqalari, Olimpiya o'yinlari va boshqa yirik tadbirlarni o'tkazish bilan ommaviy axborot vositalari, teleradio tarmoqlari orqali moddiy mablag'larning kirimi.

4. Etakchi va iqtidorli sportchilar, murabbiylar, ilmiy xodimlarning horijiy mamlakatlar bilan shartnomalar (kontrakt) tuzish yo‘li bilan keladigan daromadlar va hokazolar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari Vazirligi, Milliy Olimpiya qo‘mitasi va boshqa mutasaddi tashkilotlar, idoralarning rasmiy qarorlari hamda Nizomlari asosida sport rahbarlari va sportchilarning horijiy mamlakatlarga chiqishi, ular bilan shartnomalar tuzishi va boshqa faoliyatlar qonunlashtirilgan.

O‘zbekistonda etuk sportchilar, ularning murabbiylarini, ayniqsa, jahon va Olimpiya o‘yinlari g‘oliblarini taqdirlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoya qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi, uning tarmoqlaridagi moliyaviy faoliyatlar davlat yo‘li bilan bajariladi. Turli sport jamiyatlari, uyushmalar, assotsiatsiyalar, sportklublar o‘z jamg‘armalarini innovatsion yo‘l bilan amalga oshiradi. Ya’ni shaxslar, yuridik shaxslar, tashkilotlar, muassasalar, ishlab chiqaruvchi sport korxonalarini, pulli xizmat ko‘rsatuvchi sport inshootlari, sog‘lomlashtirish markazlari o‘z jamg‘armalarini yangi yo‘nalishga atab innovatsion tashkilotlarda (muassasa, bank) saqlaydi va ularni maqsadga qaratilgan sohalarda ishlatadi.

Sport jamoalarining sport inshootlarini imkoniyat darajasida ijaraga berish, pullik xizmatlar ko‘rsatish kabi faoliyatlarni yangi talab darajasiga chiqarishlari maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodi taraqqiy etgan davlatlarda soliqlar tizimi dolzarb masala hisoblanadi.

Jahon tajribasida asosiy soliq imtiyozlari quyidagilar:

- soliq kreditlari - yangi uskunalarning qisman bahosi foydaga qo‘yilgan soliqdan ayirib tashlanadi;
- soliq skidkallari - amortizatsiya hisobiga foydaga quyiladigan soliqlarni kamaytirish;
- soliq subsidiyalari - uskunalarni bahosini hisobdan chiqarishda soliq to‘lovlaridan ayirib tashlash.

O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport soxasi bo'yicha ham soliq imtiyozlari belgilangan.

Daromad solig'i quyidagi miqdorda kamaytiriladi:

- jismoniy tarbiya va sportga yo'naltirilgan mablag'lar soliqning 1% dan oshmagan miqdorda;
- futbolning rivojlanishiga va futbol klublarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlanishi uchun to'langan mablag'lar daromad solig'ining 5% dan oshmagan miqdori.

Ushbu jihatlar sport jamiyatlarining klublari, federatsiyalari, sport inshootlari, sog'lomlashtirish markazlari faoliyatlarida ishlab chiqarish, pullik xizmat (sog'lomlashtirish guruhlari, sport musobaqalari, ijaralar va hokazolardan tushgan pul mablag'i) kabi ish turlarida mavjuddir. Ya'ni har bir jamoa o'zining xazinasini boyitish yo'lida turli xil harakatlarni amalga oshiradi. Bu o'z navbatida, sportklublar, jamoalar, uyushmalar, komandalarning ish faoliyatini ta'minlash, ularga ijtimoiy-mehnat, ish haqlarini o'z vaqtida to'lab turishda eng zarur va qulay omillardan hisobalandi. Bu faoliyatlar, o'z navbatida, moliya organlari (bank) tartib-qoidalari asosida amalga oshiriladi. Tabiiyki, bundan bank ham manfaatdor (ma'lum foizni olish huquqi).

Bundan tashqari, sport tashkilotlari, jismoniy tarbiya va sport bilan aloqador vazirliklar, kasaba uyushmalari federatsiyalari ham jismoniy tarbiya va sportga davlat hamda jamoatchilik yo'llari bilan ajratiladigan mablag'lari (dotatsiya) mavjud. Ular ham maxsus davlat hujjatlari, moliya organlarining ko'rsatmalari (instruksiya) orqali amalga oshiriladi. Xullas, jismoniy tarbiya va sportni boshqarishdagi tadbirkorlik faoliyatlarining negizida mablag'larni jamg'arish va ularni zarur ehtiyojlarga ishlatish yo'lidagi innovatsion tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya va sport bilan bevosita shug'ullanuvchilar, sport jamoalari, sport inshootlari, sport tadbirlarini o'tkazish va boshqa ko'pgina faoliyatlarni o'z zimmasiga muvofiqlashtirish sport tashkilotlari va jamiyatlari uchun ularning

hokimiyatchiligini bildiradi. Barcha tabaqa, soha va tarmoqlardagi jismoniy tarbiya va sport harakatiga rahbarlik qilish hokimiyatchilik demakdir.

Jismoniy tarbiya va sport harakatining asosiy hokimiyati ularning rasmiy sport jamiyatlari tizimi hisoblanadi. Ular bevosita mutasaddi davlat idoralari bilan uzviy bog'liq holda, o'zlari mustaqil tarzda faoliyat ko'rsatadi. Bu jihatlar quyidagi manbalarni tashkil etadi:

- sport jamiyatining Nizomi;
- sport musobaqalarining kalendar rejasi va Nizomlari;
- sport musobaqalari qoidalari;
- sport klassifikatsiyasi;
- sport sohasidagi mutaxassislar (murabbiylar);
- sport inshootlari;
- innovatsion faoliyatlar, banklardagi moliyaviy holatlar;
- boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslari qo'llanmalar, yo'l-yo'riqlar (instruksiya).

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

- 1.Moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minot tushunchasi.
- 2.Davlat byudjetidan foydalanish qanday amalga oshiriladi?.
- 2.Kasaba uyushmalari, korporatsiyalar, tijorat va jamg'arma uyushmalarining jismoniy tarbiya va sportni moliyaviy jihatdan ta'minlashdagi roli nimada?.
- 3.Jismoniy tarbiya va sport sohasida o'zini-o'zi moddiy ta'minlash va pullik xizmatlar qanday yo'lga qo'yilgan?.
- 4.Sport tashkilotlari va ularning boshlang'ich jamoalarida smeta tuzish tartiblarini tushuntiring.
- 5.Sport buyumlarini ishlab chiqarish, ularni sotish va xarid qilish tartiblari qanday?.

13-MAVZU. HAMDO‘STLIK MAMLAKATLARDA JISMONIY TARBIYA ISHLARINI TASHKIL QILISH. XORIJ MAMLAKATLARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISH

REJA

1. Hamdo‘stlik mamlakatlarda jismoniy tarbiya ishlarini tashkil qilish
2. Evropa mamlakatlarda jismoniy tarbiya ishlarini tashkil qilish
3. Horiy mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sportni boshqarish

Jahon xalqlari tarixida o‘tgan XX asr turli-tuman voqealar, ixtirolar, yangiliklar, shafqatsiz urushlar va yangicha jahon demokratiyasi sari intilish davri bo‘lib hisoblanadi. Bu davlatlarning ham taraqqiy etgan va taraqqiyot yo‘lida faoliyat ko‘rsatayotgan jahon tizimi tashkil etdi. Sobiq Ittifoqning inqirozga uchrashi, uning tarkibidagi respublikalarning mustaqil davlat sifatida istiqloq sari faoliyat ko‘rsatishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamdo‘stlik mamlakatlarda jismoniy tarbiya ishlarini tashkil qilish

Jamiyat taraqqiyoti tarixida juda ko‘p ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar bo‘lib o‘tgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Evropa, Osiyo va boshqa qit‘alardagi mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilish asosan davlatni idora qiluvchi kishilar, ularga tobe bo‘lgan jamoalar tomonidan amalga oshirib kelingan. Faqat o‘tgan XIX asrning ikkinchi yarmida futbol, suzish, gimnastika, engil atletika, qilichbozlik, o‘q otish kabi turlari bo‘yicha Evropa va xalqaro sport uyushmalari tashkil qilinib, ular ommaviy sport musobaqalari va xalqaro turnirlar uyushtirishni o‘z qo‘llariga olgan. Xalqaro Olimpiya o‘yinlari (1896) va boshqa rasmiy sport musobaqalari o‘tkazildi, natijada juda ko‘p davlatlarda sportga bo‘lgan munosabat keskin o‘zgardi.

Hozirgi vaqtda AQSH, Angliya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Koreya kabi bir qator davlatlar rivojlanib bormoqda.

Germaniyada sport tizimini boshqarishning o'ziga xos tomonlaridan biri - sportning davlat aralashuvisiz alohidaligidir, ya'ni sport uchun sport tashkilotchilarining o'zi javob beradilar. Germaniyada asosiy e'tibor yuqori darajadagi sportchilarning moliyaviy ta'minotiga federal va munitsipialitetlarda esa ommaviy sportga katta ahamiyat beriladi, ya'ni sport stadionlari va gimnastika zallari qurilishi, oliy o'quv yurtlar va maktablardagi sport darslarining moliyaviy ta'minoti ular e'tiborida bo'ladi.

Germaniyadagi aholining uchdan ikki qismi o'zlarini faol sportchilar deb hisoblashadi. Sport o'avaskorlari ixtiyoriga 55000 sport maydonchalari (maktab maydonlari bilan hisoblanganda), va shu jumladan 35000 sport va gimnastika zallari, 7300 ochiq va yopiq basseynlar berilgan.

Germaniya sport uyushmasi mamlakatning eng katta sport tashkiloti hisoblanadi, unda 2,6 milliondan ortiq odam o'z klublarida trener, yordamchi va boshqarma a'zolari sifatida jamoatchilik asosida ishlaydilar. Ularning olib borayotgan ishlari ommaviy sportni shuningdek bolalar va o'smirlar orasidan yangi iste'dodlarni ochishga xizmat qilish. Sport uyushmalarining boshqa tashkilotlari quyidagilar: Germaniya gimnastlari ittifoqi (4,7 million a'zo) va Germaniya tennischilari ittifoqi (2,1 milliondan ortiq a'zo)

Germaniyadagi katta sportning infrastrukturasi 20ta olimpiada bazalarini, 16ta trenerlik markazlari va 195 federal ahamiyatdagi sport bazalarini o'z ichiga oladi.

Federal hukumat katta sportni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. 2000 yilda hukumat tomonidan trenirovka va musobaqalar dasturlariga 222 million marka ajratilgan.

Hozirgi zamon katta sporti uchun ijtimoiy yordam va moliyaviy himoya Germaniya sportchilariga yordam jamg'armasi sport uyushmalari tomonidan ta'minlanadi. Jamg'arma nodavlat muassasi hisoblanadi. Uning moliyaviy

ta'minoti xususiy mablag'lar, maxsus sportga oid markalarni sotishdan tushgan mablag'lar va televizion materiallardan tushgan foydalardan iborat.

Germaniyada sportning iqtisodiy ahamiyatini rivojlanishi uni moliyaviy jixatdan mustaqil bo'lishiga olib keldi. Iqtisodiyot va sport hamkorligining shakli sifatida homiylikning ahamiyati ortdi. Bu esa davlat byudjetining yildan-yilga qisqarishini hisobga olganda zaruriyatga aylanmoqda. 1997 yil ma'lumotlariga ko'ra tijorat homiylari sportga 2,3 mlrd marka o'tkazdilar.

Germaniyada sport muhim iqtisodiy omil hisoblanadi. Germaniya aholisi sport tovarlari va xizmatlari uchun yiliga 43 mlrd marka sarflaydilar

Evropa mamlakatlarda jismoniy tarbiya ishlarini tashkil qilish

Evropa ittifoqi fuqarolarining uchdan bir qismi sport klublarining a'zolari xisoblanadi. 1991 yil dekabrda Evropa sport forumiga asos solingan, bu organ Evropa mamlakatlari orasida sport bo'yicha munozara va maslaxat o'tkazish vazifasini bajaradi. «Evratlon» dasturi hisobiga sport moliyaviy ta'minlanadi, uning asosiy qismi ommaviy sportga, shu jumladan nogironlar sportiga sarflanadi.

Evropada sportga normativ yondashuv misoli sifatida professional sportchilarning har joyda yashashlari, diplomlarning tan olinishi, sport anjomlarini normativlashtirilishi va sport musobaqalarini televidenie orqali ko'rsatish huquqini ko'rish mumkin.

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida juda ko'p davlatlar ozodlikka erishib, o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritdilar. Bunday mamlakatlarda ijtimoiy,iqtisodiy rivojlanish, madaniyat, tibbiyot va boshqa sohalar bilan birgalikda sportni yaxshi yo'lga qo'yishga ham alohida e'tibor berila boshladi. Bunday davlatlarning ba'zi birlariga qisman to'xtalish mumkin.

Afrikada ko'pgina mamlakatlarda sport harakati bo'yicha davlat idoralari tashkil qilingan. Kongo, Mali va Gvineya davlatlarida jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Jazoir Xalq Demokratik respublikasi va Kamerunda jismoniy tarbiya va sport ishlari bo'yicha komissariatlar tashkil qilingan.

Senegal, Marokash va Tunisda bo'lsa yoshlar va sport ishlari bo'yicha Davlat kotibiyatiga yuklangan.

Barcha jismoniy tarbiya va sport ishlarini jamoalarda tashkil qilish sportklublari tomo-nidan olib boriladi. Afrika mamlakatlarida sport mutaxassislari etarli darajada bo'lmagan-ligi sababli sobiq Ittifoq mutaxassislari ularga katta yordam berib keldi.

Afrika mamlakatlarining sport hayotida regional o'yinlar katta o'rin egallaydi. Yirik musobaqalar qit'aning turli zonalarida o'tkaziladi. Unda O'rta er dengizi, Arab va Panafrika mamlakatlari o'yinlari diqqatga sazovordir. Juda ko'p Afrika davlatlari bu o'yinlarda faol qatnashishi bilan o'zlarining ozodlik va mustaqillikka erishganligini namoyon etadilar. Shu sababdan ham Afrika sport harakatini boshqarib va yo'lga solib turadi. O'z navbatida, Oliy Kengash chempionatlar, birinchiliklar o'tkazadi, sport inshootlari qurish, mutaxassis kadrlar tayyorlash ishlarini yo'lga solib turadi.

Ko'pgina mustaqillikka erishgan Afrika davlatlari Milliy Olimpiya qo'mitalari, federatsiyalar va uyushmalarga ega. Ular olimpiya o'yinlari, jahon birinchiliklari va chempionatlariga keng yo'l ochib berib, Afrika sportchilarining ravnaqini belgilab berdi.

Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari hayotida jismoniy tarbiya va sport harakatining rivojlanishi birmuncha o'zgarib ketdi. Ko'pgina davlatlarda jismoniy tarbiya va sportni boshqarish davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. SHu bilan birga, bu ishlarda jamoat tashkilotlari ham qatnashib, xalq o'rtasida sport mashg'ulotlarini tashkil qilishda ko'maklashadi.

Hindistonda jismoniy tarbiya va sport ishlarini sport, jismoniy tarbiya va dam olish milliy Kengashi Olimpiya qo'mitalari yuritadi, ular xalqaro sport harakatida faol qatnashadilar.

Hindiston, Birma, Marokash, Braziliya va boshqa bir qator davlatlar Olimpiya o'yinlari turlari bilan bir qatorda o'zlarining milliy sport turlari, o'yinlariga ham egadirlar.

Hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyoti davrida nafaqat o'z tuzumi va madaniy rivoji bilan alohida ajralib turadigan, balki jahonda tinchlik, iqtisodiy muhit muvozanatini saqlab turishga sababchi bo'lgan bir qator yirik davlatlar va badavlat

mamlakatlar bor. Ularda jismoniy tarbiya va sport ishlari ham yuqori saviyada tashkil qilingan. Ularga Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH) rahnamolik qilmoqda. Hozirgi ijtimoiy taraqqiyot va tinchlik uchun kurash avj olgan bir paytda AQSH, Germaniya Federativ Respublikasi, Angliya, Yaponiya, Italiya, Fransiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarni shular qatoriga kiritish mumkin.

Hozirgi davrda Yaponiya havaskor sport assotsiatsiyasi 50 dan ortiq sport tashkilotlarini va Yaponiyaning 47 prefekturasining xavaskor sportchilarini o'z ichiga oladi. Yaponiya Olimpiada qo'mitasiga 45 sport tashkilotlari kiradi.

1997 yil Yaponiya Olimpiada qo'mitasi byudjeti 6,8 mlrd ienni tashkil qildi; xavaskor sportchilar assotsiatsiyasi byudjeti esa 4,5 mlrd ienni tashkil qildi. Jumladan 1,3 mlrd ien miqdoridagi mablag'ni Yaponiya Olimpiada qo'mitasi davlat byudjetida subsidiya sifatida oldi.

Bundan Olimpiada qo'mitasi 2 mlrd ien tijorat reklamasi uchun, jumladan 1,1 mlrddan ortig'ini Yaponiya kompaniya va tashkilotlaridan qaytarmaslik sharti bilan berilgan yordam sifatida oldi.

Shunday qilib, Yaponiya Olimpiya qo'mitasi davlat, xususiy kompaniya va tashkilotlarga moliyaviy tobe, deb aytish mumkin.

Yaponiya sport xavaskorlari byudjetining 50%dan ortig'i xususiy kompaniyalar va davlat yordami hisobiga olinadi.

Sportning Yaponiyadagi jamiyat hayotida muhimligini hisobga olib Yaponiya maorif Vazirligi 1995 yildan boshlab rasmiy nomini maorif, sport, fan va madaniyat Vazirligiga o'zgartirgan.

Yaponiyada keksa yoshdagi aholining 65 foizi sport bilan shug'ullanadi, lekin ularning 30 foizi oyiga 1-3 marta, 25 foizi xaftasiga 1 marta shug'ullanadi. SHu bilan birga Yaponiyaning 85 foizi axolisi turli jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadi.

Hozirgi zamonda Yaponiyada turli sport nashrlari chiqariladi, ularning 7 tasi yirik nashrlar bo'lib, yiliga 6,5 mln nusxada chop etiladi.

Yaponiya televideniesi asosiy e'tiborni beysbol, golf va boshqa professional sport turlariga qaratgan.

Fransiya Ishchilar sport-gimnastika federatsiyasi, Finlyandiya Ishchilar sport uyushmasi, Italiya halq sport uyushmasi, Avstriya jismoniy tarbiya va sportchilar uyushmasi, g'arbiy davlatlardagi havaskorlik ishchilar sport harakatiga rahbarlik qiladi va xalqaro sport harakati bilan aloqa bog'laydi.

Ishchilar sport klubi Yaponiya, Belgiya, Daniya, Shvetsiya, Shveysariya davlatlarida tashkil qilingan.

Sport klublar, sport bo'yicha milliy federatsiyalar, ligalar va uyushmalarga birlashadilar.

Bu yo'nalishlar monopolistik davlat va jamoat tashkilotlari ta'siri ostida bo'ladi.

1. Sport yutuqlarining eng yuqori natijalari ustidan rahbarlikni markazlashtirish.

2. Monopol, kooperatsiya, firmalar tomonidan sportdagi oliy natijalarga ta'sirning o'sishi, bu esa sportni moliyaviy ta'minlashda davlatga foyda keltiradi.

3. Katta sportga ilmiy-texnik yutuqlarni tadbiq qilish.

4. Sportchilarni mashq qildirish uchun bir yoki bir necha mamlakatlarning maxsus markazlarini tashkil qilish. Bu esa jamoa bo'lib sportchilarni tayyorlashga qaratilgan faoliyatdir. 8-millionlik Shvetsiya aholisining 7-yoshidan 70 yoshigacha turli sportklublarining a'zosi hisoblanadi. Ular sportklublarning faoliyatida harakatdagi sportchilar yoki o'zlarini yaxshi sport formasida ushlab turishlari, murabbiy, shuningdek raxbar sifatida ishtirok etadilar. Ikki million kishi sport bilan faol shug'ullanadilar 650 mingdan ziyod kishi turli sport musobaqalarida qatnashadilar.

7 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan har uch o'g'il bolaning ikkitasi, shuningdek har ikkinchi qiz turli sport klubining a'zosi hisoblanadi. Shvetsiyaning shahar va tumanlaridagi sport klublari soni 22 mingdan ortiq. Bundan tashqari turli firmalardan 18 mingdan ziyod sport klublari faoliyat ko'rsatadi.

Shvetsiyada tennis, chang'i sporti, parus sporti, xokkey, qo'l to'pi, stol tennisi, avtoralli, motopoyga, kegli, eshkak eshish va kanoel hamda nogironlar sporti keng ommalashgan.

Sport klublari va jamiyatlari faoliyatida qatnashish SHvetsiya Konstitutsiyasi bilan kafo-latlangan. Bu esa har bir fuqaroning o'z sport klubini topishida muhim manba hisoblanadi.

Sport klublari Shvetsiyada jismoniy tarbiya va sport harakatining asosi hisoblanadi. Bugungi kunda Shvetsiyaning har bir qishlog'ida sport klublari tashkil qilingan.

Shvetsiya sport modeli to'liqligiga mahalliy raxbarlarning qo'llab-quvvatlashlariga (jamoatchilik asosida) bog'liq.

Shvetsiyada 63 ta sport federatsiyalari tashkil qilingan. Kanat tortirish federatsiyasidan tortib zamonaviy florbol (fristi) va amerikacha futbol federatsiyasigacha faoliyat ko'rsatadi. Maxsus federatsiyalar (sportning bitta turi), shuningdek kompleks (bir nechta sport turlarini o'z ichiga olgan) federatsiyalar. Kompaniya sporti assotsiatsiyasi, maktab sporti assotsiatsiyasi, universitet sporti assotsiatsiyasi, nogironlar sporti assotsiatsiyasi shular jumlasiga kiradi.

Eng yirik federatsiya Shvetsiya futbol assotsiatsiyasi hisoblanadi. Uning tarkibiga 3200 ta klublar kiradi. Eng kichik federatsiya parus - kanoe federatsiyasi hisoblanadi. Uning tarkibiga 16 ta klub kiradi.

Sport klublarida jami shug'ullanuvchilarning 40 foizini ayollar tashkil etadi.

Yangi sport turlari bo'yicha tashkil etilgan federatsiyaning Shvetsiya sport Konfederatsiyasi tarkibiga kirish uchun Konfederatsiya Bosh assambleyasining roziligi kerak. Masalan, yangi federatsiya mablag' o'zlashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yimasligi kerak. Sport mashg'ulotlarini shunday tashkil qilish kerakki, bu sport harakatining maqsad va mafkurasiga muvofiq kelishi, mavjud sport turlaridan nusxa olmasligi (takrorlash), shuningdek kamida sport okrugining yarmini va 50 ta sport klubiga (har birida kamida 3 ming a'zo) ega bo'lishi kerak.

Halqaro sport harakatida Shvetsiya fuqarolari faol ishtirok etmoqdalar. 300 dan ortiq Shvetsiya fuqarosi turli Xalqaro sport tashkilotlarining a'zolari hisoblanadi.

Shvetsiya boshqa mamlakatlarning sportchilarini turli darajadagi musobaualar, chempionatlarga doimiy ravishda taklif uiladi. Shvetsiyada jahon va

Evropa chempionatlari muntazam ravishda o'tkaziladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra yirik Xalqaro sport musobaqalarini o'tkazishda Shvetsiya asosiy tashkilotlardan hisoblanadi.

Xalqaro sport harakatida Shvetsiyani asosan ikkita tashkilot Shvetsiya sport konfederatsiyasi va Milliy olimpiya qo'mitasi. Bu tashkilotlar Shvetsiya sportchilarining Olimpiya o'yinlari va Olimpiya siyosatidagi ishtiroklari uchun javobgar hisoblanadi. Shuningdek Shvetsiya sport konfederatsiyasi yirik dasturdagi sport yordamiga ham ma'suldir. Ya'ni Shvetsiya sporti, yangi demokratik mamlakatlarga (Sharqiy va Markaziy Evropa) doimiy ravishda yordam ko'rsatib keladi. Janubiy Afrika, Zimbabve va Tanzaniya mamlakatlariga yordam ko'rsatish loyihalarini qo'llab-quvvatlaydi.

Boshlang'ich va o'rta maktablarda sport va salomatlik alohida fan sifatida o'tiladi. Har bir o'quvchi o'zining jismoniy tayyorgarligi va umumiy jismoniy tayyorgarlik, sport va maktabdan tashüaridagi faoliyati uchun shaxsan javobgarlikka o'rganadi. Shvetsiya sport konfederatsiyasi ta'lim muassasalarida sport mashg'ulotlarini sifatli o'tkazilishi uchun sharoit yaratishga harakat qiladi.

Davlat sektoridan jismoniy tarbiya va sport moliyaviy ta'minoti uchun mahalliy tashkilot rahbarlari javobgar hisoblanadi. Davlat sektori tomonidan 600 mln. dollar ajratiladi. Bundan 430 mln. sport inshootlarini ekspluatatsiya qilish uchun, 70 mln. sport faoliyati uchun xarajat qilinadi.

Bundan tashqari xomiylar tomonidan Shvetsiya sport harakati uchun yiliga 70 mln. dollar miqdorida mablag' ajratiladi.

Shvetsiyada 7-14 yoshdagilarning 60 foizi, 15-29 yoshdagilarning 43 foizi, 30-49 yoshdagilarning 30 foizi, 50 yoshdan yuüoridagilarning 10 foizi sport bilan shug'ullanadilar. Xotin-qizlar o'rtasida sportning futbol, ot sporti, engil atletika, gimnastika va golf turlari rivojlangan. 50 mingdan ziyod xotin-qizlar futbol bilan muntazam shug'ullanadilar.

Shvetsiyada sport federatsiyalari o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlashga harakat qiladi (a'zolik va kirish badallari, sport lotereyalarini sotish va xokazo).

Sportning tomoshabin turlarida moliyaviy manba bo'lib, radiotelevideniya bilan shartnomalar tuzish, shuningdek xomiylar yordamida hisoblanadi.

Shvetsiya sportchilari olimpiya o'yinlarida jami 547 medalni qo'lga kiritgan, shulardan 211 tasi oltin.

Shvetsiya sportining shiori "Sport yoshlar uchun va sport hamma uchun".

Hozirgi zamon Havaskorlik sport harakati professional sport harakati bilan yonma-yon borib, uning ko'pchilik ish shakllari bir-biridan unchalik farq qilmayotir. Bu, asosan, Amerika Qo'shma Shtatlarida ko'proq sodir bo'lmoqda.

Amerika sporti rivojlanishining bosh markazini o'rta maktablar, kollej va universitetlar tashkil qiladi. To'liqsiz o'rta, va to'la o'rta maktablarda jismoniy tarbiya bo'yicha majburiy darslardan tashqari, maktab va maktabdan tashqari sport ishlari keng rivojlangan. Maktab o'quvchisiga sport turini tanlash huquqi berilgan. Sportning suvda suzish, engil atletika, futbol, basketbol, voleybol turlari bo'yicha maxsus inshootlarga ega bo'lgan maktablarda bir tomonlama sport mutaxassisligi beriladi. Shu sababdan sport musobaqalari juda ko'p o'tkaziladi. Bundan tashqari, bolalar politsiya qoshidagi sport uyushmalari, kichik xristian assotsiatsiyalari, skaut otryadlarida sport bilan shug'ullanadilar. Undan keyingi bosqich kollej va universitetlar hisoblanadi. Amerika qo'shma shtatlari universitetlarida jismoniy tarbiya dasturi uch bo'limdan iborat:

1. 1 kursda barcha talabalar uchun o'quv rejasi asosida majburiy darslar.
2. Oliy o'quv yurti ichidagi sport mashg'ulotlari, bu mashg'ulot fakulqtativ shaklida tashkil qilinib, talabalar o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishga qaratilgan.

3. Universitetlararo sport, bu iqtidorli sportchilarni o'z ichiga oladi.

Oliy o'quv yurtlariaro sportda shug'ullanuvchilarga yotoqxonada bepul yashash va ovqatlanishga imkoniyati berilishi, ularni sport bilan ko'proq shug'ullanishga sharoitlar yaratadi.

Talabalar sporti rahbarligini ko'pgina tashkilotlar,ayniqsa,oliy o'quv yurtlariaro sport milliy assotsiatsiyasi olib boradi.

AQSHda sportni rivojlantirishda Havaskor atletlar uyushmasi va Milliy Olimpiya qo‘mitasi asosiy rahbarlik qiladi.

Shu sababdan, bu tashkilotlar o‘rtasida doimiy kelishmovchilik va o‘zaro tortishuvlar mavjud. Bunga asosiy sabab moliyalashtiradigan yagona tizimning yo‘qligidir. Bu ko‘ngilsizliklarni bartaraf qilish uchun havaskorlik sporti haqidagi qonun qabul qilingan va AQSH Kongressi havaskorlik sporti harakatiga tegishli barcha faoliyatlarni Milliy Olimpiya qo‘mitasiga yuklatilgan.

AQSH Milliy Olimpiya qo‘mitasi sportchilarni Olimpiya o‘yinlari va Panamerika o‘yinlarida qatnashish uchun tayyorlaydi. Shu bilan birgalikda, xalqaro sport harakatiga aloqador bo‘lgan masalalar bilan shug‘ullanadi. Germaniya, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Koreya, Xitoy va boshqa taraqqiy qilgan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sportga rahbarlik ishlari davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, sport federatsiyalari, turli uyushmalar, Milliy Olimpiya qo‘mitalari ham boshqaruvchilikda faol ishtirok etadi.

Sportdan foyda oladigan tashkilotlar, idoralar horijiy mamlakatlarda juda ko‘p. Ular o‘yinlar paytida savdo, tijorat, reklama kabi faoliyatlardan maqsadli foydalanadilar. Shu sababdan matbuot, televidenie sport markazlari, inshootlarida sportni keng targ‘ib qilishda faollik bilan ishtirok etadi.

Horij mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sportni boshqarish

Professional sport. Sport klublar, uyushmalar, sport sindikatlari va trestlari (horijdagi faoliyat ko‘rsatuvchi tashkilotlar) tomonidan sportning bu yo‘nalishi tashkil etiladi. Professional sportchilar shaxsiy va chakana savdo qiluvchi tashkilotlar, xodimlar bilan shartnomalar tuzadi va ularga xizmat qiladi. Bu jihatlarda jahonning barcha mamlakatlariga xos xususiyatga aylandi. Ya’ni eng etuk va ishonchli sportchilar kelishilgan narxda sotib olinadi yoki sotiladi. Bunda sportchilarning shaxsiy roziligi, hohishi va tashabbusi asosiy rol o‘ynaydi.

Professional sportning yana bir o‘ziga xos jihati borki, sportchilar cheklanmagan yoki havaskorlik sportidagi qoida yoki normativlardan ustunroq bo‘lgan holatlarda (vaqt, texnik-taktik qoidalar va hokazolar) bellashadilar.

Masalan, og‘ir va mutloq og‘ir vazndagi boks, tennis va boshqa sport turlarida bu jixatlar ko‘proq uchraydi.

Horijiy mamlakatlardagi jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilish va boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lsada, ular xalqaro sport harakatlari talablari doirasida amalga oshiriladi. Ularning eng asosiy maqsadi katta va professional sportni rivojlantirish, uning negizida esa jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilarni ko‘paytirish ko‘zda tutiladi.

Buyuk Britaniyada davlat maktablaridagi jismoniy tarbiyaga sarflanadigan har bir funt sterlingga, xususiy kapital to‘layotgan 10 funt sterling to‘g‘ri keladi. Bu mamlakat mutaxassislari jismoniy tarbiya rivojlanishini quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha belgilaydi:

- o‘quv dasturlarda jismoniy tarbiya darsini o‘rni va ahamiyati;
- jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va murabbiylarning ixtisoslik darajasi va sifati;
- maktab sport bazasini moliyalashtirish;
- o‘quvchilar sporti va professional sportning o‘zaro bog‘liqlik mexanizmi.

Yangi Zelandiyada “Kivi-sport “ umummilliy jismoniy tarbiya dasturi ishlab chiqilgan. Dasturning asosiy maqsadi maktab o‘quvchilarini jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga yanada qiziqtirish va jalb qilishdir. “Kivi-sport” dasturining asosiy vazifalari:

- bolalar uchun tashkil qilinadigan sport tadbirlarining soni, sifati va turlarini oshirishga sharoitlar yaratish;
- sport tadbirlar ishtirokchilarini qo‘llab-qo‘vvatlash;
- yoshlarda sport etikasini tarbiyalash. Bu maxsus dastur 3 yilga mo‘ljallangan va mamlakat maktablarida 4 sinfdan boshlab o‘tkaziladi. Bunda jismoniy harakatlarning 35 turlaridan iborat o‘yin va mashg‘ulotlar qo‘llaniladi. Ularni tashkil qilish doimiy nazorat ostida bo‘ladi. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining 25,50,75 va 100ta darsida qatnashgan o‘quvchilarga nishon va belgilar beriladi. 25ta sport mashg‘ulot uchun oddiy nishon va belgi, 50ta – bronza nishon, 75 ta – kumush nishon, 100 ta sport mashg‘ulotida faol qatnashgan o‘quvchiga oltin nishon va belgi beriladi.

O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar:

- 1.Xorijiy mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sportni boshqarish tizimlari qanday yo‘lga qo‘yilgan?.
- 2.Rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilish qanday amalga oshiriladi?.
- 3.Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) tarkibidagi davlatlarda jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini faoliyati qanday?.
- 4.Xorijiy mamlakatlarning jismoniy tarbiya va sportni boshqarishdagi amaliy tajribalarini izohlang.

14-MAVZU: OMMAVIY SPORTNI TASHKIL ETISH VA SPORT MUSOBAQALARI BOSHQARUVIDA XORIJIY TAJRIBALARNI JORIY ETISH

- 1.Xorijiy davlatlarda ommaviy sportni tashkil etish tamoyillari.
- 2.Xorijiy davlatlarda sport musobaqalarini tashkil etish va boshqaruvida xorijiy tajribalarni joriy etish.
- 3.Ommaviy sport yoki barcha uchun sport ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni echishda asosiy tamoyillarini o'rganish.

Tayanch iboralar: *ommaviy sport tushunchasi, sport musobaqalari, sportning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.*

Xorijiy davlatlarda ommaviy sportni tashkil etish tamoyillari

Umume'tirof etilgan dalil, ya'ni jismoniy madaniyat va sport (JMS), ayniqsa ommaviy sport yoki barcha uchun mo'ljallangan sport sohasi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, jamiyat birlashishi, yoshlarni zararli odatlardan saqlash, kasalliklarning oldini olish, o'rtacha umr ko'rish davrini uzaytirish va ularning sifat darajasini oshirish masalalarini hal etishi ma'lum. Shak-shubhasiz, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lganligi uchun sport xizmatlari xalqaro boshqarish va hamkorlikning muhim omilidir.

Ommaviy sport bo'yicha asosiy hujjat sifatida Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha xalqaro xartiyani (1978 y.) va keyingi qo'shimchalar bilan to'ldirilgan Evropaning sport xartiyasini (1992y.) keltirishimiz mumkin. Keltirilgan hujjatlarda belgilangan qoidalar ommaviy sport rivojlanishini boshqarishni belgilaydi, ya'ni bu qoidalarga barcha mamlakatlar rioya qilishi va tasdiqlashi lozim.

Asosiy qoidalardan biri mamlakatlarning ishtirok etishi va chetlashishi, birinchidan, ommaviy sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishda haq-huquqlarni

cheklamaslik, ikkinchidan, hukumat sport inshootlari tarmoqlarini rivojlantirish va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan shug'ullanishni yo'lga qo'yishi kerak.

Hujjatlarning mazmuniga ko'ra turli mamlakatlar o'z ijtimoiy-iqtisodiy holatlaridan va siyosiy tuzilishidan kelib chiqqan holda ommaviy sport rivojlanishi va o'zining resurs bazasini tuzish, qayta tiklash va to'ldirishga imkoniyat yaratishi zarur.

Sportning rivojlanishi uning asosiy qonuniga asoslanadi. SHunday qilib, bu qonun Fransiyada "Jamiyatda sport va jismoniy faollikning rolini oshirish va muassasalari haqida Fransiya Respublikasining Qonuni (1984 y.)", Finlyandiyada – Sport haqidagi qonun (21.12.1979 y.) va Sport haqidagi ustav (28.12.1979 y.) boshqalar. Ta'kidlab o'tish kerakki, bunday qonunlarni takomillashtirish, shuningdek sportni rivojlantirishga oid boshqa barcha qonuniy hujjatlar xalqaro hujjatda keltirilgan holatga mos bo'lishi zarur. Turli vazirlik va mahkamalar ijrochi hukumatning davlat idoralari hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarda sport musobaqalarini tashkil etish va boshqaruvida xorijiy tajribalarni joriy etish

Ispaniyadagi Oliy sport kengashi Ta'lim va fan vazirligining alohida qismidir, Argentinada esa ijtimoiy (jamoat) masalalari bo'yicha vazirlikdir. Ularning zimmalariga JMSning rivojlanishida tug'iladigan savollar, ya'ni sportda yuqori marralarga erishishdagi ishtiroki, davlat mablag'ini ajratish va taqsimlash, xarajatlar ro'yxatini tuzish, sport muassasalariga ajratilgan yordam puli va qarzlarni taqsimlash, sport tadbirlari uchun moliyaviy mablag'lar ajratish yoki bekor qilish, moliyaviy mablag'lar ishlatilishini boshqarish, mutaxassislarni tayyorlashda takliflar kiritish, sport inshootlari qurilishi, shuningdek, sport jihozlari bo'yicha rejalar ishlab chiqish va qo'llashda ishtirok etish va boshqalardan iborat.

Ommaviy sportning rivojlanishida xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, hududiy taqsimlanish tizimi davlat va hududiy boshqaruv idoralarining huquq va vakolatlarini chegaralaydi. Hukumat miqyosida boshqarishning asosiy funksiyalari bajarilsa, sportni boshqarishning viloyat va mahalliy idoralari ommaviy va

barchaga mo'ljallangan sportni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi, bu xorijda ajralmas tushuncha sifatida qaraladi.

Germaniyada ommaviy sportni hududiy boshqarish tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, uni boshqarish Konstitutsiya va Germaniyaning federativ tuzilishiga binoan er masalasi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, Germaniyada er darajasida sportni boshqarishning yagona tuzilishi yo'q. Sportni tartibga solish mexanizmi har erda bir-biridan farq qiladi.

JMSning umumiy boshqarilishi, shuningdek, ommaviy sport masalalari federal hukumat, milliy sport tashkilotlari, shaharlar, palata va kommunnalar bilan birgalikda hal etiladi. Aholining hududiy xususiyatiga qarab, ommaviy sport tashkilotlari xizmatlariga talab har xil joyda turlicha, bunga qaramay uning o'ziga xos bir xususiyati mavjud, maktabda sportni joriy etish va jismoniy tarbiya murabbiylarini tayyorlash, talaba-yoshlar sporti hamma uchun mo'ljallangan sport, avvalo, yoshlar, ayollar, qariya va nogironlar orasida, sport inshootlarining qurilishi, tuzilishi va zamonaviylashtirilishi, sportda yuqori natijalarga erishish hamda sport klubi va jamoalariga yordam berish.

Fransiyaning yoshlar va sport ishlari bo'yicha vazirligida sport bo'yicha 2 ta boshqarma, shu bilan birga 6 ta idora – moliyaviy, xalqaro sportda yuqori natijalarga erishish, sport turlarining rivojlanish siyosati, markazlashtirilgan sportchilar tayyorlash muassasalarini boshqarish, fan, sport anjom va qurilmalari byurolaridir. Mashhur fransuz iqtisodchi olimi ta'kidlaydi, sportni rivojlantirishda mahalliy hukumat idoralri roli va harakati uchta yo'nalishga bo'linadi: aholi talabiga mos sport inshootlarini qurish va zamonaviylashtirish; aholining barcha guruhlariga mos jismoniy faollikni tatbiq etish va moliyalashtirishdir.

Barcha uchun mo'ljallangan sportni mahalliy yoki hududiy darajada boshqarish masalasi alohida e'tibor talab qiladi. Barcha uchun mo'ljallangan sport turlari doirasida aholiga sport xizmati ko'rsatish bir necha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ulardan asosiysi mablag' sig'imi va ma'lumotlar sig'imi hisoblanadi.

Jismoniy sport inshootlari (JSI)ning qurilishi, jihozlanishi va faoliyat yuritishi katta mablag‘ talab qiladi, xizmat ko‘rsatish turlarini kengaytirish tendensiyasi aholiga xizmat ko‘rsatish majmuasiga qo‘shimcha va shunga o‘xshash xizmatlarni kiritish xarajatlarni oshishiga barqaror zamin yaratadi.

Shunga o‘xshash oddiy misol qilib, mehnat resurslarini keltirishimiz mumkin, nafaqat murabbiy va boshqaruv personalining bilim malakasi doim oshib boradi (bu o‘z-o‘zidan oylik maoshining oshirilishiga sabab bo‘ladi), balki ularning ishlariga ham talab ortadi – ma’lumot yuklamasi kengayadi, yangi o‘quv uslubi, mashg‘ulot o‘tkazishning yangi turlari va vositalari paydo bo‘ladi va boshqalar. Iste’molchilar sog‘lig‘i mutaxassislarining ishlariga bog‘liqligini hisobga olib, bu borada xarajatlarni qisqartirish mumkin emas.

Shunindek barcha uchun mo‘ljallangan sport muassasalari rivojlanishidagi asosiy muammolar resurs bilan ta’minlanganlikka borib taqaladi, uning toifalariga moliyaviy, mehnat, moddiy va ilmiy-axborot resurslari kiradi. SHunga taalluqli holda barcha uchun mo‘ljallangan sportni boshqarish sport tashkilotlarining maksimal darajada resurs bilan ta’minlanishga erishish qaratilgan.

Moliyaviy resurslar. Xalqaro qonunchilik ommaviy sport masalalarini echishda davlat mablag‘i – milliy, mahalliy va hududiy resurslardan foydalanishga chaqiradi. Lekin, keltirilgan misollar shuni ko‘rsatadiki, ommaviy sportning rivojlanishida xarajatlar ortishi tufayli yagona manbadan olinadigan moliyaviy ko‘mak muammolarni hal etmaydi. Shuning uchun ommaviy sportni rivojlanishida ko‘p tarmoqli moliyaviy ko‘mak zarur.

Misol uchun, Ispaniya Oliy kengash mablag‘i – har yili davlat byudjetidan ajratiladigan pul, hukumat o‘rnatgan narxlardan olingan daromad, ma’muriy idora va davlat birlashmalari tomonidan ajratilgan pullaridan, hadya, meros, vasiyat, mukofot pullaridan, davlat normativ aktlari taqdim etadigan iqtisodiy imtiyozlardan, xususiy mulkdan keladigan daromad, qarz va kreditlardan keladigan mablag‘dan foydalanishni ta’kidlaydi.

Ta’kidlash joizki, sport uchun sarf etiladigan xarajatlar rivojlangan Evropa mamlakatlarida YAIM bo‘yicha 0.2-2 %ni (yoki o‘rtacha 2 mlrd. AQSH doll.)

tashkil etadi, xarajatlarning qolgan katta qismi esa boshqa manbalar yordamida moliyalashtiriladi. Germaniya, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, SHvetsiya va Daniyaning davlat sport byudjeti Fransiyaning mahalliy sport byudjetining 20 %idan kamroq qismiga to'g'ri keladi, Italiyada 30 %, Ispaniya va Portugaliyada esa 40 %ni tashkil qiladi. Xududiy, o'z-o'zini boshqarish idoralari va davlat boshqaruvidagi umumiy sport byudjeti Buyuk Britaniyada – 95 %, Germaniyada – 98 %, Ispaniyada – 76 %, Finlyandiyada – 85 %, Fransiyada – 77 %, Shvetsiyada – 90 % va Italiyada – 57 % ni tashkil qiladi.

Finlyandiyada ommaviy sportni rivojlantirish va mamlakatning barcha fuqarolari sport faoliyatini olib borishi uchun hukumat tomonidan belgilangan tartib asosida moliyaviy ko'mak va davlat tomonidan ajratilgan imtiyozli kreditlar bilan barcha zaruriyatlar bartaraf etilmoqda.

Fransiya Respublikasining Jamiyatda sport va jismoniy faollikni tashkil etish va oshirish haqidagi qonunida (1984 y., o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan) sport tashkilotlarining davlat tomonidan ko'mak qabul qilish tartiblari keltirilgan. Bunday ko'mak ko'rsatishdagi asosiy shartlardan biri vakillik vakolatining mavjudligidir. Maktab va universitet sport uyushmalari ham davlat, ham mahalliy o'z-o'zini boshqarish idoralaridan yordam olishadi. Nomi keltirilgan uyushmalar o'zlariga tegishli sport inshootlari va sport jihozlaridan foydalanish imkonini ta'minlab beradi. Fransiyada davlat byudjetining 0.2 % mablag'i sportga ajratilgan.

Moddiy resurslar – jismoniy sport inshootlari tarmoqlari. Xalqaro sport to'g'risidagi qonunchilik shuni ta'kidlaydiki, ommaviy sportda ko'zlangan natijalarga erishishda Hukumat, davlat idoralari va noodavlat tashkilotlar sport inshootlari, qurilmalari va jihozlaridan foydalanish va tashkil etish bo'yicha har bir yo'nalishda o'z harakatlarini birlashtirgan holda kuchaytirishlari zarur. Yoshlarni sport bilan band bo'lishlarida jismoniy tarbiya va sportning zarur qurilma va jihozlar bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratilmoqda. Bunda sport inshootlari tarmoqlarini rejalashtirish masalalari davlat idoralarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ispaniyaning Sport oliy kengashi sport jihozlari va inshootlarining rivojlanishi va zamonaviylashtirilishi bo'yicha rejalar ishlab chiqish va amalga oshirishda rejalarini bajarish bo'yicha qo'mitalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'ymoqda. Shu bilan birga jamoat uchun mo'ljallangan, davlat tomonidan moliyalashtirilgan sport inshootlari rejalashtirish va qurilishi uning ko'pchilik tomonidan foydalanilishini, kun davomida uning bandligi, har xil jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan fuqarolar, jismoniy nuqsonga ega bo'lgan kishilar hamda qariyalar ham foydalana olishini hisobga olib amalga oshiriladi.

Fransiya qonunchiligi, ayniqsa, sport jihozlari bo'yicha masalalarni qattiq nazorat qiladi. Masalan, sport qurilmalari egasi bu haqda ma'muriyatga bayyonnoma tuzilishi uchun ariza berishga majburliklari to'g'risida qonuniy me'yor mavjud. Bu erda ko'pchilik birlashmalar ommaviy sportni rivojlantirishda quyidagi muhim omillarni keltiradi:

- sport inshootlarining ta'minoti,
- yoshlar sportini rivojlantirish siyosatini tuzish,
- sog'lomlashtirish tadbirlarida ishtirok etish.

Shunday tajribani Daniya munitsipal idoralari ham amalga oshirmoqda, sport tashkilotlari zarur jihozlar bilan bepul ta'minlanmoqda yoki jihozlar ijaraga olinishida engilliklar kiritilmoqda.

Germaniyada sport tashkilotlariga ma'muriy xarajatlar to'lovi bo'yicha masalalarni hal etish uchun o'z mablag'lari kamlik qilganda, sport anjomlari va jihozlarini sotib olishda, o'quv-mashq ishlarini olib borishda moliyaviy ko'mak beriladi. Undan tashqari, sport inshootlari qurilishiga bo'lgani kabi mehnat resurslariga ham quyidagi maqsadli subsidiyalar ajratilishi mumkin, "Sport inshootlarini qurish va ta'mirlash – Er va munitsipalitetlar xarajatlarining muhim bir bo'limi.

Bu maqsadlarga erishish uchun milliard evro sarf qilinadi". Ma'lumki, qurilish va jihozlash ishlari hamda sport inshootlari uchun jihozlar sotib olishda muhim investitsiyalarni talab qiladi, shuning uchun Germaniya va Fransiyaning kundalik amaliyotida klubni boshqarishda munitsipal sport jihozlarini ularni saqlab

turish va ijarada olib turishning ko'p xarajatliligiga qaramay, bepul taqdim etilmoqda.

Mehnat resurslari. Xalqaro qonunchilikda shuni ta'kidlaydiki, FKS sohasida ta'lim berish, kadrlar bilan ta'minlash va boshqaruv tizimi malakali personallar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Bunda barcha personal tegishli malaka va tayyorgarlikka, shuningdek, ixtisosligiga mos keladigan darajani ta'minlash maqsadida o'z malakasini oshirib borishi kerak. Undan tashqari, ilgari ta'lim olgan va ular orasidan tanlab olingan ko'ngilli personallardan ham foydalanish mumkin⁷.

Ommaviy sport yoki barcha uchun sport ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni echishda asosiy tamoyillarini o'rganish

Xorijiy mamlakatlarda "Sport to'g'risida" gi qonunchilik ushbu tarmoqdagi kadrlar resursi bo'yicha barcha masalalarni, shuningdek, turli toifadagi personallarning ish haqlarini tartibga soladi. Bunda munitsipal sport xodimlari – sport ishlari bo'yicha direktor, sport ishlari bo'yicha muovin, sport bo'yicha instruktor, aholining maxsus guruhlari uchun ish haqi, davlat byudjeti hisobidan to'lanadigan sport bo'yicha instruktorlarining malakasini munitsipal sport qo'mitasi belgilaydi.

Fransiyada, shuningdek, murabbiy personallarini tayyorlash standartlari qattiq tartibga solib turiladi. Xususan, maxsus diplom –ta'lim berish, jismoniy tarbiya va sport faoliyatini tashkil etish, shuningdek, taqdirlashda ushbu faoliyatni boshqarish hamda o'qituvchi, murabbiy, instruktor, tarbiyachi va shunga o'xshash xodimlarning o'z vazifalarini bajarishlariga ruxsat beruvchi xujjat hisoblanishi belgilab berilgan.

Finlyandiyada JMS sohasida mutaxassislar va o'qituvchilarni tayyorlash 11 ta jismoniy tarbiya va sport markazlari hamda o'quv muassasalarida olib boriladi. Masalan, Vierumyaki sport va jismoniy tarbiya instituti eng yaxshi sport

⁷ "Qualitative research for physical culture" Publisher: Palgrave, Macmillan, 2011. Authors: Pirkko Makvulla, Michael Silk. ISBN 978-0-230-30563-2.

markaziga ega, uning faoliyati “rivojlantirish, ishlab chiqarish va sotish” biznes-g‘oyasiga asoslangan. Markaz rivojlangan infratuzilmaga ega, markazda 110 nafar shtat xodimlari mavjud, yil davomida zaruratga ko‘ra yana 800 nafar shtatdan tashqari xodim olish imkoniga ega.

Sport murabbiylarini tayyorlash ta‘lim tizimi 3-4 yil davom etadi. Xarajatlarining bir qismini markaz Ta‘lim vazirligi hisobidan qoplaydi. Xarajatlarini qoplay olmaydigan tashkilotlarga davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘ atigi 10 % ni tashkil qiladi. Daromadning 38 %i ishchilar maosh puliga sarflanadi.

Ilmiy-axborot resurslari. So‘nggi yillar davomida JMS yo‘nalishida ilmiy-axborot resurslari muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Keltirilgan resurslarni qonuniy 2 turga ajratish mumkin – sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, murabbiy va sport xodimlari faoliyatida ilmiy-axborot tizimlarini joriy ettirish.

Finlyandiyada sport ishlari bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat tomonidan moliyalashtirish huquqiga egadirlar. Shundan 20 %dan kam JMS yo‘nalishida murabbiylarni tayyorlash ta‘lim vaqti, ilmiy tadqiqot yo‘nalishiga kiritiladi. Bundan tashqari, davlat, sport va jismoniy tarbiya sohasida tadqiqot olib borayotgan boshqa har qanday tashkilotlarni ham qo‘llab-quvvatlaydi. Fransiyaning etakchi sport telekanallarining umumiy mablag‘i 1.3 mlrd. frankni tashkil qiladi.

Germaniyada har xil kompaniya va dasturlar, vazirlikda oila, qariyalar, ayol va yoshlar masalalari bo‘yicha “Harakat, o‘yin va sport qariyalar xizmatida” shiori ostida ko‘pgina tashkilotlar va Germaniya sport ittifoqi bilan birgalikda loyihalar orqali ommaviy sportni targ‘ib qilish muhim o‘rin egallaydi.

Musobaqa tamoyillari asosida ishlab chiqilgan loyihaning asosiy maqsadi bir qator maxsus tashabbuslar tanlovi va ularning mukofotlanishi, kelgusida barcha aholi uchun mos keluvchi sportning rivojlanishini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan loyiha, faoliyatning har xil turlari hamda uning barcha imkoniyatlaridan sport bilan shug‘ullanuvchi katta yoshdagi va boshqa turli yoshdagi guruh kishilarining foydalanishidan iborat.

Xorijda ommaviy sport, birinchi o‘rinda, aholining sog‘lomlashtirilishi, o‘z-o‘zini boshqarishga erishish, o‘z fikrini bayon etish va rivojlanish, shuningdek, ijtimoiy bo‘lmagan hodisalarga qarshi kurashish mexanizmidir. Shuning uchun hukumat aholini ommaviy sport bilan shug‘ullanishini o‘z oldiga muhim maqsad qilib qo‘yib, ommaviy sport rivojlanish masalalariga katta ahamiyat beradi.

Ommaviy sport rivojlanish jarayonining asosiy tavsifi quyidagilardan iborat: ommaviy sportni qo‘llab-quvvatlashda hukumatning, shuningdek, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan turli shakldagi tashkilotlarlarining rolini oshirish, ommaviy sportda profilaktika va sog‘lomlashtirish tadbirlaridan foydalanish, noijtimoiy hodisalarning oldini olish va yoshlarning axloqiy, estetik va intellektual rivojlanishida sportdan samarali foydalanish.

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda sport reklamalari va ulardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sport reklamalarining mazmuni yirik stadionlar, o‘yin maydonlari, otchoparlar, velotrekler, ko‘cha, xiyobonlardagi sportga doir reklama, afishalar, shuningdek televideniyaning barcha kanallari tarkibida mavjud bo‘lgan sport reklamalarida namoyish etiladi.

Sport inshootlari, televideniyalarda namoyish etilayotgan reklamalarda o‘tkazilayotgan musobaqalar, dongdor klublar, komandalar, sportchilar qatori sport buyumlari, jihozlari, sportchilarning iste‘mol qiladigan ichimliklari va boshqa turlar ko‘proq o‘rin oladi.

Rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, murabbiylar, etuk sportchilar, sport faxriylari, rahbar xodimlar ayniqsa, olimlar katta faoliyat ko‘rsatadilar. Ular ma‘ruza o‘qish, suhbat o‘tkazish, sportcha chiqish va turli sport musobaqalarini tashkil qilish yullaridan keng foydalanishlari zarur.

Shuningdek, targ‘ibot ishlarining ta‘sirchanligi, ilmiyligi, xaqiqiyliги va aholining qiziqishlarini e‘tiborga olgan holda bo‘lishini ta‘minlash lozim. Ommaviy axborot vositalari orqali jismoniy tarbiya va sportni targ‘ib qilish bilan birgalikda uning taraqqiyotdagi asosiy bosqichlar, omillar ham yoritib borilmoqda.

Bunda sportlotto, stadionlardagi qatnashib kelayotgan tomoshabinlarning soni, homiylarning amaliy jihatdan ko‘rsatayotgan moddiy yordamlari ham o‘z

ifodasini topmoqda.

Sport reklamasidan asosiy maqsad, vazifalar va g'oyalarni amalga oshirish uchun rejalashtirilgan tadbirlar asosida quyidagi faoliyatlarni o'tkazish lozim bo'ladi:

1. Faoliyatlarni harakatlantiruvchi targ'ibotlar (matbuot, teleradio, sport inshootlari, ko'rgazma reklama, uchrashuv, xatlar yuborish va hokazolar).

2. Doimiy nashr etiladigan vositalarda (jurnal, seriyali qo'llanmalar, xabarlar va hokazolar) nashr qilish.

3. Matbuot-anjumanlar, prezentatsiyalar.

4. Maxsus nashriyotlar.

Nazorat savollari:

1. Ommaviy sportni tashkil etish va uni boshqaruvida ijtimoiy-iqtisodiy muammolar nimadan iborat?

2. Ommaviy sport rivojida qaysi xorijiy tajribalardan foydalanish mumkin?

3. Ommaviy sport rivojida-moliyaviy, moddiy, mehnat va ilmiy-axborot resurslar bilan ta'minlanganlikni qaysi omillarga qarab baholash mumkin?

15-MAVZU. O‘ZBEKISTON XALQARO OLIMPIYA HARAKATIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY OLIMPIYA QO‘MITASI

1.O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasining Nizomi. Uning tarkibiy tuzilishi: Bosh Assambleya, Kongress, sessiya, ijroqo‘m.

2.O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasining asosiy vazifalari.

3.Olimpiya klublari. Olimpiya Akademiyasi, ularning vazifalari.


Tayanch iboralar: Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi, Bosh Assambleya, Kongress, sessiya, ijroqo‘m, O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasi, Olimpiya klublari, Olimpiya Akademiyasi, Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi Xartiyasi, Olimpiya g‘oyalari, Olimpiya harakati, Olimpiya o‘yinlari.

1.O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Qo‘mitasining Nizomi

Xalqaro Olimpiya harakatining olamshumul kengayishi, O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishi, ayniqsa, Respublikamizning mustaqillikni qo‘lga kiritib, davlat sifatida tanilishi natijasida O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi 1992 yil 21 yanvarda tashkil etildi va shu yili Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ) tarkibiga rasmiy ravishda a‘zo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasining birinchi ta‘sis majlisida Milliy Olimpiya qo‘mitasining Nizomi ham qabul qilindi va keyinchalik Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining Xartiyasi (Nizomi) va Milliy Olimpiya qo‘mitasining ish tajribalari asosida qayta ko‘rib chiqildi hamda unga qisman o‘zgartirishlar kiritildi. O‘sha paytlarda. Milliy Olimpiya qo‘mitasi tarkibiga 127 kishi va faxriy a‘zolikka 11 nafar kishi saylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasining Nizomida, asosan, uning tarkibiy tuzilishi, maqsad va vazifalari, burchlari hamda huquqlari alohida

belgilangan. Shuningdek, sportchilar, murabbiylarning huquq va vazifalari, musobaqalarda qatnashish jarayonlari, moliyaviy ta'minot, a'zolik badallari ham o'z ifodalarini topgan.



Nizom O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Xartiyasi talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, Milliy Olimpiya qo'mitasi bayrog'i, emblemasi va boshqa ramzlari, nishonlari haqida qayd etilgan. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi hukumatga qarashli bo'lmagan mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotdir. Uning oliy organi Bosh Assambleya (majlis) hisoblanadi. U yil davomida bir marotaba o'tkaziladi. Assambleyalar oralig'ida rahbarlik ishlari Milliy Olimpiya qo'mitasining Ijroiya qo'mitasi tomonidan olib boriladi. Uning tarkibi Prezident, 2 ta vitse- prezident, bosh kotib va 18 nafar a'zoldan iborat. Ular 4 yil muddatga saylanadi.

Kongress Milliy Olimpiya qo'mitasining eng yirik va kengaytirilgan majlisidir. Unda Olimpiya harakati va sport turlarini rivojlantirish bilan bog'liq masalalar muhokama etiladi. Eng ilg'or tajribalar, ilmiy - tadqiqot natijalari va muammoli masalalarga alohida yondoshiladi. Zarur bo'lsa, Milliy Olimpiya qo'mitasi a'zolari va Prezidentini ham saylandi.

Milliy Olimpiya qo‘mitasining sessiyasi u yoki bu qarorni tasdiqlash, ularning ijrolarini muhokama qilish, komissiyalarning hisobotlarini eshitish kabi faoliyatlar bilan shug‘ullanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya Qo‘mitasining asosiy vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasining asosiy maqsadi:

- havaskorlik sportini rivojlantirish hamda Olimpiya harakatini himoya qilish;
- olimpiya o‘yinlarida sportchilar ishtirokini ta‘minlash;
- sportni rivojlantirish, respublika va jahon sportchilari hamda olimpiya o‘yinlari qatnashchilari orasida do‘stlikni mustahkamlashga qaratilgan olimpiya g‘oyalarini mustahkamlash.

Nizomda ifoda etilgan maqsadlarni amalga oshirishda Milliy Olimpiya qo‘mitasi quyidagi vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi:

- Olimpiya qoidalari va Nizomning baja-rilishini ta‘minlash;
- bosh Assambleya qarorini amalga oshirish;
- Milliy Olimpiya qo‘mitasi Assambleyasi kun tartibini tayyorlash;
- moliyaviy harajatlarini ta‘minlash va javobgarlik;
- yillik hisobot tuzish;
- idora ishlari, arxiv saqlash mas‘uliyati va hokazolar.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasi Ijroiya qo‘mitasi qoshida 10 dan ortiq turli komissiyalar ish olib boradi. Ular, asosan, olimpiya harakati bilan bog‘liq bo‘lgan tashkiliy, tayyorgarlik, ilmiy-nazariy yordam, targ‘ibot, xalqaro aloqalar va boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo‘mitasi Prezidenti, uning yordamchisi, Ijroqo‘m a‘zolari Davlat jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi, sport jamiyatlari, uyushmalari, assotsiatsiyalari bilan bevosita hamkorlikda ish olib boradi. Xalqaro Olimpiya harakati, Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi va ular bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha respublikadagi mas‘ul idoralarga murojaat etadi va o‘z vazifalarini amalga oshiradi.

Olimpiya klublari, Olimpiya Akademiyasi, ularining vazifalari

Olimpiya klublari va ularining vazifalari

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi Xartiyasi va O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasining Nizomida qayd etilishicha, ilg'or tajribaga va shart-sharoitlarga ega bo'lgan Oliy o'quv yurtlari, viloyat markazlari hamda yirik sanoat shaharlarida Olimpiya klublari tashkil etilishi mumkin. Bu tashabbus 1985-1987 yillarda Samarqand Davlat pedagogika instituti (hozirgi SamDU) jismoniy tarbiya fakulteti jamoasi tomonidan amalga oshirildi va keyinchalik shu asosda Olimpiya Akademiyasi tashkil etish haqidagi g'oya paydo bo'ldi.

O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi ta'sis etilgach (1992), barcha viloyatlarning sport qo'mitalari qoshida Olimpiya klublarini tashkil etish an'anaga aylandi. Ularning boshqaruv faoliyati klub raisi (prezident) hay'at a'zolari va kengash tomonidan olib borildi.

Olimpiya klublarining asosiy vazifasiga quyidagilar kiradi:

- o'z hududlarida jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish;
- sport turlarini rivojlantirishga hissa qo'shish;
- o'quvchi-yoshlar va aholi o'rtasida Olimpiya g'oyalarini targ'ib qilish;
- sport musobaqalarini o'tkazishda ko'maklashish;
- ilg'or tajribalarni ommalashtirish;
- mutaxassis xodimlar bilan hamkorlik qilish;
- respublika sport taraqqiyoti va sportchilarning erishgan g'alabalarini matbuot va uslubiy qo'llanmalarda keng yoritish;
- Xalqaro Olimpiya qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasining amaliy faoliyatlarini chuqur o'rganish, qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ko'maklashish va hokazo.

Olimpiya Akademiyasi va uning vazifalari

O'zbekiston Olimpiya Akademiyasi O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasiga bevosita yordam beruvchi va olimpiya g'oyalarini targ'ib qiluvchi jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi tashkilotdir.

Ta'kidlash lozimki, Xalqaro Olimpiya Akademiyasi (XOA) 1961 yilda tuzilgan. U Gretsiyaning Olimpiya shahrida joylashgan va 170 dan ortiq mamlakatlarda uning tarmoqlari, ya'ni milliy Olimpiya Akademiyalari (MOA) tashkil etilgan. Xalqaro Olimpiya Akademiyasining asosiy vazifasi Olimpiya harakati, jismoniy tarbiya va sport nazariyasini o'rganish hamda targ'ib qilishdan iborat. Uning faoliyati Xalqaro Olimpiya qo'mitasi tomonidan boshqarilib, moliyaviy ta'minoti esa Gretsiya Milliy Olimpiya qo'mitasi zimmasidadir.

Xalqaro Olimpiya Akademiyasi har yili bir haftalik sessiya tashkil etadi, va unda falsafa g'oyaviy muammolarga bag'ishlangan ma'ruzalar eshitish, seminarlar o'tkazadi. Ularning asosiy mohiyati Olimpiya harakati tarixi, sport mashg'ulotlari hamda jismoniy tarbiya va sportning uslubiy masalalari bayonidan iborat bo'ladi. Bu anjumanlarga Milliy Olimpiya qo'mitalari, taniqli olimlar, murabbiylar, soha vakillari, xatto talabalar, aspirantlar va sportchilarni safarbar etish mumkin.

1987 yil 18 fevralda Davlat sport qo'mitasi va O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutining tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi tashkil qilindi. 1993 yil 18 aprelda O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi (O'zROA) rasmiy ravishda ta'sis etildi.

O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi faoliyati uning saylangan Prezidenti, ijroqo'm direktori tomonidan boshqariladi. 1994 yilda Olimp shahrida o'tkazilgan Xalqaro Olimpiya Akademiyasi sessiyasida O'zbekiston Olimpiya Akademiyasi vakillari ilk bor ishtirok etishdi va keyingi yillarda ham faol qatnashib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi ijroqo'mida (Nizomga muvofiq) 12 kishi, ya'ni etuk olimlar, o'qituvchilar, murabbiylar, Olimpiya harakatining namoyandalari jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatadilar.

O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Akademiyasi o'z faoliyatini, asosan, Olimpiya g'oyalari, Olimpiya harakati, Olimpiya o'yinlarining ommalashuviga qaratgan. Shu o'rinda muhim faoliyatlarning natijalarini misol tariqasida keltirish maqsadga muvofiqdir.

1996 yil Olimpiya ta'limi tizimining tashkiliy va ilmiy-uslubiy asoslarini yaratishning hal qiluvchi jarayoni amalga oshirildi. Ya'ni turli hududlarda Xalqaro Olimpiya Akademiyasi bilan o'zaro aloqalarini ta'minladi. Ayniqsa, Xalqaro Olimpiya qo'mitasining tashkil topishiga (1894) va zamonaviy Olimpiya o'yinlarining (1896) 100 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan Respublika ilmiy-nazariy anjumanlari (1994, 1996) muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1997-2000 yillarda Olimpiya harakati va o'yinlari bilan bog'liq ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazildi. Ma'ruzalar, amaliy takliflar, ilmiy-nazariy tahlillar anjumanlarning ilmiy to'plamlarida o'z ifodasini topdi.

O'zbekistonda Olimpiya harakati bilan bog'liq barcha muammolar va masalalarni hal etishda O'zbekiston Prezidenti va hukumatining bevosita yordami e'tiborga loyiqdir. Ayniqsa, O'zbekiston Prezidentining 2000 yil 7 iyundagi «O'zbekistonda Olimpiya harakatini yanada rivojlantirish va mamlakat sportchilarini Sidney shahri (Avstraliya) dagi XXVII Olimpiya o'yinlariga tayyorlash to'g'risida»gi Farmoni muhim ahamiyat kasb etdi. Farmonda bayon etilishicha: «Mamlakatda Olimpiya harakatini yanada rivojlantirish va O'zbekiston sportchilarining Sidney shahri (Avstraliya) dagi XXVII Olimpiya o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishlarini rag'batlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro obro'sini mustaxkamlashda, yosh avlodni milliy g'urur va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda o'zbek sportchilari erishgan yutuqlarining g'oyat katta ahamiyatini e'tiborga olib:

XXVII Olimpiya o'yinlarida sovrindor bo'lgan O'zbekiston sportchilarini rag'batlantirish, Vatanimizning sportdagi shon-shuhratini oshirishga qo'shgan munosib hissasini e'tirof etish maqsadida, quyidagi miqdorda bir yo'la beriladigan mukofotlar belgilandi:

-Oltin medal uchun - 100000 AQSH dollari;

-Kumush medal uchun - 50000 AQSH dollari;

-Bronza medali uchun-25000 AQSH dollari (“Sport” gazetasi, 2000 yil, 9 iyun).

Ushbu farmon murabbiylar va Olimpiya o'yinlarida qatnashadigan sportchilarga katta kuch va ruhiy ozuqa baxsh etdi. Natijada, Sidney shahrida

o'tkazilgan XXVII Olimpiya o'yinlarida (2000 yil 15 sentyabr- 1 oktyabr) qatnashgan 77 nafar sportchilar orasida 4 kishi Olimpiya o'yinlari medallari va O'zbekiston Prezidenti mukofotiga sazovor bo'ldilar. Ular: Muhammadqodir Abdullaev boks bo'yicha oltin medal sovrindori; Artur Taymazov erkin kurash bo'yicha kumush medal sovrindori; Rustam Saidov va Sergey Mixaylov boks bo'yicha bronza medali sovrindorlari bo'lishdi.

2004 yil Afina (Gretsiya)

28 – Yozgi Olimpiada o'yindarida Vatanimiz sharafini 69 nafar sportchilarimiz sportning 15 turida himoya qilishgan.

Bayroqdor: Abdulla Tangriev.

Sovrindorlar:

Artur Taymazov (erkin kurash) – oltin

Aleksandr Doktorishvili (yunon–rum kurashi) – oltin

Magamed Ibragimov (erkin kurash) – kumush

Bahodir Sulstonov (boks) – bronza

O'tkirbek Xaydarov (boks) – bronza

Umumjamoa hisobida: 202 davlat orasida 34 – o'rinni egallagan.

2008 yil Pekin (Xitoy)

29 – Yozgi Olimpiada o'yindarida Vatanimiz sharafini 58 nafar sportchilarimiz sportning 15 turida himoya qilishgan.

Bayroqdor: Dilshod Mahmudov.

Sovrindorlar:

Artur Taymazov (erkin kurash) – oltin

Abdulla Tangriev (dzyudo) – kumush

Soslan Tigiev (erkin kurash) – kumush

Rishod Sobirov (dzyudo) – bronza

Anton Fokin (sport gimnastikasi) – bronza

Ekaterina Xil'ko (trampolin) – bronza

Umumjamoa hisobida: 202 davlat orasida 40 – o'rinni egallagan.

2012 yil London (Buyuk Britaniya)

30 – Yozgi Olimpiada o'yindarida Vatanimiz sharaflini 54 nafar sportchilarimiz sportning 16 turida himoya qilishgan.

Bayroqdor: Elshod Rasulov.

Sovrindorlar:

Artur Taymazov (erkin kurash) – oltin

Soslan Tigiev (erkin kurash) – bronza (doping)

Rishod Sobirov (dzyudo) – bronza

Abbos Atoev (boks) – bronza

Umumjamo'a hisobida: 204 davlat orasida 47 – o'rinni egallagan.

Londonda o'tkazilgan 30 – Yozgi Olimpiada o'yindari dasturida 36 nafar sport turi bo'yicha jahon sportchilari medallar uchun bahs olib bordilar.

Paralimpiya o'yinlari nufuzi bo'yicha Olimpiada o'yinlaridan keyin turadigan musobaqa hisoblanadi. Xuddi Olimpiada o'yinlarida bo'lgani kabi yozgi va qishgi Paralimpiya o'yinlari o'tkazilib kelinadi. Yozgi Paralimpiya o'yinlariga 1960 yilda asos solingan. 1988 yildan boshlab Olimpiada o'yinlariga mezbonlik qilgan shaharlarda (oradan ikki hafta o'tib) Paralimpiya o'yinlari bo'lib o'tadi.

30 – Yozgi Olimpiada o'yinlari yakunlangan 2012 yilning 29 – avgust 9 – sentyabr kunlari Londonda 14 – Paralimpiya o'yinlari o'tkazildi. Mazkur yirik sport musobaqasida Vatanimiz sharaflini 10 nafar sportchimiz himoya qildilar. Agarda bundan to'rt yil muqaddam bo'lib o'tgan Paralimpiya o'yinlarida 1 nafar sportchimiz ishtirok etganligini inobatga oladigan bo'lsak, O'zbekistonlik paralimpiyachilar tomonidan bir yo'la 10 barobar ko'p litsenziyaning qo'lga kiritilishi bundan keyingi bo'lib o'tadigan musobaqalarda yanada ko'proq ishtirokchilar bo'lishidan dalolat beradi.

2016 Rio-de-Jeneyro (Braziliya)

31 – Yozgi Olimpiada o'yindarida Vatanimiz sharaflini 70 dan ortiq sportchilarimiz sportning 15 dan ortiq turida himoya qilishgan.

Sovrindorlar:

Ruslan Nuriddinov (og'ir-atletika) – oltin

Hasanboy Do'smatov (boks) – oltin

Fazliddin G‘oyibnazarov(boks) – oltin
Shaxobiddin Zoirov (boks) – oltin
G‘iyosov Shahram (boks) – kumush
Meliquziev Bektemir (boks) kumush
To‘laganov Rustam (boks) - bronza
Rishod Sobirov (dyuzdo) -bronza
Magamet Ibragimov (erkin-kurash) – bronza
Navro‘zov Ixtiyor (erkin kurash) – bronza
Tasmurodov Elmurod (yunon-rum) – bronza
O‘razbaev Diyorbek (dzyudo) – bronza
Axmadaliev Murodjon (boks) – bronza

Umumjamo'a hisobida: 202 davlat orasida 21 – o‘rinni egallagan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 martdagi “O‘zbekiston sportchilarini 2020 yil Tokio shahri (Yaponiya)da bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash to‘g‘risida”gi PQ-2821-son qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Milliy antidoping agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror, avvalambor, sog‘lom va halol sportni targ‘ibot qilish hamda Butunjahon antidoping agentligining kodeks va standartlarini O‘zbekistonda samarali amalga oshirish, O‘zbekiston sportchilarini 2020 yil Tokio shahri (Yaponiya)da bo‘lib o‘tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o‘yinlariga tayyorlash borasida barcha shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. SHu o‘rinda Sportda dopingga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani barcha a‘zo davlatlar katorida O‘zbekiston Respublikasi 2010 yilda ratifikatsiya etganini alohida ta’kidlash joiz. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Milliy antidoping agentligi zimmasiga Butunjahon antidoping agentligining antidoping boshqaruvi va menejmenti (ADAMS) maxsus dasturini respublikamizda joriy etish va qo‘llash

mas'uliyati yuklatilgan. Mazkur dastur orqali Agentlik faoliyatini samarali tashkil etish va butunjahon tezkor ma'lumotlar bazasi axborotlaridan foydalanish imkoniyati yaratiladi hamda musobaqa va musobaqalardan tashqari bo'lgan davr mobaynida doping-test jarayonlaridan O'zbekiston sportchilari o'tishi to'g'risida aniq axborot bazasi shakllantirilib, doping-nazorat tizimi tashkil etiladi. Ayniqsa, O'zbekiston sportchilari dori vositalaridan terapevtik maqsadlarda foydalanishi va taqiqlangan dori vositalaridan foydalanmasligi to'g'risida aniq tavsiyalar berish mexanizmi va samarali antidoping tizimi joriy etiladi. Qaror bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Milliy olimpiya qo'mitasi huzuridagi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazining "Milliy antidoping xizmati" negizida "Sport psixologiyasi bo'limi"ni tashkil etish ko'zda tutilgan. Shuningdek, Agentlik tarkibida 3 ta bo'lim va 2 ta komissiya tashkil etilishi natijasida sportchilar, murabbiylar, sport tibbiyoti xodimlari va boshqa mutaxassislariga sog'lom va halol sport targ'iboti hamda taqiqlangan dori vositalari yoki uslublar nazoratini ta'minlash kabi dopingga qarshi kurashish borasidagi qator muhim vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan. Bundan tashqari, qarorda quyidagi maqsadli tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

Agentlikni saqlash va uning faoliyat ko'rsatishi, shu jumladan, antidoping tadqiqotlarini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar uchun zarur mablag'lar ajratish; Agentlikka biologik namunalarni to'plash uchun maxsus moslamalar va boshqa tovarlarni xarid qilish uchun to'g'ridan-to'g'ri import shartnomalari, shuningdek, tadqiqotlar (doping-testlar) o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomalarini tender savdolari o'tkazmasdan tuzish huquqini berish; Agentlik faoliyatini tashkil etish va uning faoliyat ko'rsatishi uchun jalb etiladigan chet ellik mutaxassislariga ko'p martalik vizalar berish, ularni davlat bojlarini to'lashdan ozod etgan holda vaqtinchalik yashash joyiga vaqtincha propiska qilish va vaqtinchalik propiska muddatining uzaytirilishini ta'minlash; Agentlik tomonidan sportchilarning biologik namunalarni to'plash uchun respublikaga olib kelinadigan maxsus moslamalar va boshqa tovarlarni belgilangan

tartibda tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig'implaridan tashqari) ozod etish. Agentlik zimmasiga sport jamoatchiligini doping orqali sportchilarga etkaziladigan zarar, inson sog'lig'i uchun doping qabul qilishning salbiy oqibatlari to'g'risida xabardor etish, Butunjahon antidoping agentligining dasturlari va loyihalarini amalga oshirish, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni mustahkamlash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish vazifalari yuklangan. SHuningdek, Butunjahon antidoping agentligining yangi qoida va talablarini tezkor tatbiq etish hamda uzluksiz monitoringini olib borish; doping-tekshiruv va biomateriallar topshirish protsedurasi haqida sportchilar, sport shifokorlariga ma'lumot va tavsiyalar taqdim etish, xalqaro tajribaga muvofiq tadqiqotlar olib borish; O'zbekistonda antidoping onlayn xizmati va taqiqlangan dori-darmonlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yaratish; taqiqlangan dori-darmonlar to'g'risida seminarlar va konferensiyalar o'tkazish, sportda dopingga qarshi kurashish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish kabi masalalar Agentlikning ustuvor vazifalari sifatida belgilangan.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasining Nizomining mohiyatini tushuntirib bering.
- 2.Bosh Assambleya, Kongress, sessiya, ijroqo'm tushunchalariga izoh bering.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasining asosiy vazifalarini sanab bering.
- 4.Olimpiya klublari va ularning vazifalari nima?.
- 5.Olimpiya Akademiyasining vazifalari va ahamiyatini ayting.

16-MAVZU. XALQARO ZAMONAVIY SPORT HARAKATINI TASHQIL QILISH VA RIVOJLANTIRISH. XALQARO SPORT HARAKATINI TASHKIL QILISH

1.Xalqaro sport harakati taraqqiyotining asosiy bosqichlari haqida tushunchalar. (1860-1894, 1896-2008).

2.Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi, uning tashkiliy tuzilishi, maqsadi, vazifalari. Bosh Assambleya, milliy olimpiya qo‘mitalari assambleyasi, sessiya, kongress.

3.Xalqaro sport uyushmalari, sport federatsiyalari, qit’alardagi sport tashkilotlari. Osiyo sport uyushmalari, ularning asosiy tadbirlari. Markaziy Osiyo sport uyushmalari.

Tayanch iboralar: Xalqaro sport harakati, xalqaro Olimpiya qo‘mitasi, Osiyo sport uyushmalari, Birlashgan millatlar tashkiloti, Xalqaro Olimpiya Akademiyasi, Markaziy Osiyo sport uyushmalari, milliy olimpiya qo‘mitalari assambleyasi, sessiya, kongress.

Xalqaro sport harakati taraqqiyotining asosiy bosqichlari haqida tushunchalar. (1860-1894, 1896-2008).

Xalqaro sport harakati jahondagi barcha davlatlar va xalqlarning kundalik faoliyati sifatida tarkib topgan hamda umumjahon miqyosida ijtimoiy-siyosiy, madaniy jarayonlarni o‘zida ifodalovchi ijtimoiy faoliyatdir. Uning vujudga kelishi va taraqqiyot yo‘li uzoq davrlarni hamda juda ko‘p turli-tuman faoliyatlarni o‘z ichiga oladi.

E’tirof etish kerakki, jahonda taraqqiy etgan AQSH, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlar taraqqiyotida o‘zining salmoqli o‘rni va har tomonlama muvozanati jihatidan e’tiborga loyiq bo‘lgan Rossiya, Xitoy, Hindiston, Arab mamlakatlari o‘rtasida sport sohasida o‘zaro aloqalar

mavjud. Bu faoliyatlar esa xalqaro sport harakatiga ijobiy ta'sir o'tkazib bormoqda.

Jahon xalqlari tarixida xalqaro sport harakati ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. U xalqlarni faqat sportdagi faoliyatlari bilangina emas, balki turli millatlarning madaniyati, ijtimoiy taraqqiyoti, insonparvarlik hamda progressiv g'oyalari bilan ham o'zaro bog'laydi.

Xalqaro sport harakati o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega. Ya'ni o'tgan XIX asrning oxirlarida Evropa mamlakatlarida xalqaro sport uchrashuvlari tashkil etilib, bu esa asta-sekin rasmiy musobaqalar tusini oldi. Natijada, turli sport uyushmalari (federatsiyalari) tashkil qilina boshlandi. Buning oqibati esa Xalqaro Olimpiya o'yinlarini davr talablari asosida tashkil qilishga da'vat etdi.

XIX asrning ikkinchi yarimida o'tkazilgan musobaqalarning yagona tartib va qoidalari bo'lmaganligi sababli Xalqaro sport harakatining rivojlanishiga birmuncha salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Shunday bo'lsada, 1881 yilda Evropa gimnastika uyushmasi, 1892 yilda akademik eshkak eshish Xalqaro federatsiyasi, 1904 yilda Xalqaro futbol federatsiyasi tashkil etildi. Bu siljishlar Xalqaro Olimpiya qo'mitasini tuzishga (1894) va uning faoliyatini rivojlantirishga sababchi bo'ldi. Bunda buyuk mutafakkir Per de Kubertenning xizmatlari nihoyat kattadir. Hozirgi kunda ham uning asosiy qismi o'z kuchi va mavqiyini saqlab kelmoqda.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, uning tashkiliy tuzilishi, maqsadi, vazifalari. Bosh Assambleya, milliy olimpiya qo'mitalari assambleyasi, sessiya, kongress.

Xalqaro sport harakatining birinchi bosqichi XX asrning boshlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu, albatta, birinchi Xalqaro Olimpiya o'yinining o'tkazilishi (1896) va keyingi davrlarda har 4 yilda bir marta o'yinlarning tashkil qilinishi bilan belgilanadi.

1894 yilda Parijda I Xalqaro sport kongressi bo'ldi. Bunda quyidagi masalalar ko'rib chiqilgan edi:

1. Havaskorlik va professionalizm
2. Olimpiya o'yinlari.

Hozirgi davrda Xalqaro Olimpiya qo‘mitasiga 204 dan ortiq mamlakat a‘zo bo‘lib kirgan. Sobiq Ittifoqdan ajralib, hozir mustaqil Davlat sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan respublikalar 1991-1992 yillarda Xalqaro Olimpiya qo‘mitasiga a‘zo qilib qabul qilindi. Bu mamlakatlarning sportchilari sport cho‘qqilarini zabt etish, xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustahkamlash uchun o‘z g‘oyalarini olg‘a surmoqdalar.

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)Xalqaro sport harakatining rivojlanishi va uning tashkilotchisi Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi faoliyatining rivojlanishini e‘tiborga olgan holda bu ishlarni kuzatib borish, tegishli yordam qilish maqsadida o‘zining muhim tayanchi bo‘lgan YUNESKO huzurida jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha Xalqaro sport kengashini tashkil qildi. Bu tashkilot davlat hisobida bo‘lmagan davlat tashkilotlari bilan aloqador bo‘lib, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar, tajriba almashish ishlari bilan shug‘ullanadi. Xalqaro sport harakatida sport uyushmalarining ahamiyati va o‘rni juda kattadir.

Bular o‘z klassifikatsiyalariga (turlari) qarab jahon va regional uyushmalarga bo‘linadi.

1) Jahon sport uyushmasiga Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi va xalqaro sport federatsiyalari, jismoniy tarbiya va sportning xalqaro Kengashi, Xalqaro sport federatsiyalari Bosh Assambleyasi, milliy olimpiya qo‘mitalarining Bosh assambleyasi va boshqa uyushmalar kiradi.

2) Xududiy uyushmaga xududdagi milliy sport tashkilotining birontasi kiradi. Bunday tashkilotlarga Afrika sporti Oliy Kengashi, Osiyo Olimpiya Kengashi, Panamerika sport tashkiloti, Markaziy Amerika va Karib dengizi o‘yinlari sport tashkiloti, O‘rta er dengizi o‘yinlari xalqaro qo‘mitasi va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy-siyosiy xususiyati bo‘yicha xalqaro sport uyushmalari quyidagilarga bo‘linadi:

- milliy uyushmalar, ligalar, davlat va jamoatchilik asosida tuzilgan mamlakatlarning uyushmasini o‘z ichiga oluvchi Xalqaro sport uyushmalari;

- kapitalistik davlatlarni ichiga oladigan Xalqaro sport uyushmalari (harbiy sport xalqaro kengashi - jismoniy tarbiya va sportning xalqaro katolik federatsiyasi);

- milliy sport tashkilotlarining professional holatlari bo'yicha temiryo'lchilarning Xalqaro sport uyushmasi, aloqa, telegraf va telefon xizmatchilarining Xalqaro uyushmasi;

- ilmiy sohalar bo'yicha (sport tibbiyotining Xalqaro federatsiyasi, sport psixologiyasining xalqaro assotsiatsiyasi, Xalqaro sotsiologiya assotsiatsiyasi va boshqalar);

- jinsi bo'yicha (xotin-qizlar) jismoniy tarbiyasi va sportning xalqaro assotsiatsiyasi;

- diniy e'tiqodlar bo'yicha (Xalqaro katolik va xristian sport uyushmalari).

Har bir xalqaro sport uyushmasi o'z Nizomiga ega. Ustavda uyushmaning vazifasi, maqsadi, ish mazmuni, a'zolikka qabul qilish va undan chiqarish qoidalari, yig'ilishlar, kongresslar o'tkazish, qarorlar chiqarish tartiblari, moliyaviy masalalar, nashriyot ishlari va hokazolar aks ettirilgan. Nizomda rahbar xodimlarni saylash va ularning hisobot berib turishlari belgilangan.

Xalqaro sport uyushmalarining byudjetlari asosan milliy sport tashkilotlarining badallari, sport musobaqalaridan yig'ilgan mablag'larning bir qismi, televizion ko'rsatuvlar, nashriyot, ayrim shaxslarning homiyligi, hukumatlarning ba'zi badallaridan hamda homiylikdan tashkil topadi.

Xalqaro Olimpiya qo'mitasi jahon sport harakatini boshqaruvchi oliy tashkilotdir. Uning vazifasiga xalqlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish va har 4 yilda bir marta o'yinlarni tashkil qilish kiradi. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi havaskorlik sporti rivojlanishini taqdirleydi, kelgusi o'yinlarni o'tkazish vaqti va joyini belgilaydi. Bu o'yinlar xalqlar o'rtasida sportdagi do'stlikni mustahkamlaydi.

E'tirof etish kerakki, olimpiya o'yinlarining asosiy g'oyalari sportni rivojlantirish, u orqali xalqaro hamdo'stlikni mustahkamlashga qaratilgan. Bu

o‘rinda Per de Kubertenning «Sportga qoiyda»si (1912) muhim ahamiyat kasb etish bilan birga, u o‘zining mazmunan mohiyatini tobora rivojlantirmoqda.

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining faoliyatini belgilab beruvchi asosiy hujjat Xartiya hisoblanadi. Unda Xalqaro Olimpiya harakatining maqsadi va vazifalari, huquq va burchlari belgilangan. Shuningdek, unda Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining milliy va xalqaro sport uyushmalari bilan munosabatlari, olimpiya musobaqalarining dasturlari, olimpiada o‘yinlarini ochish va yopishdagi tadbirlar ham alohida ko‘rsatilgan.

Xartiyada olimpiada o‘yinlariga sportchilarni qo‘yish shartlari ifodalangan. Bunda professional sportchilarning xalqaro olimpiada o‘yinlarida qatnashishi man etilgan. Shuningdek, irqchilik, millatlarni kamsitish va diniy yo‘llar bilan harakat qilishga yo‘l qo‘ymasligi alohida qayd qilingan.

2008 yil ma‘lumoti bo‘yicha Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi 204dan ortiq mamlakatning milliy olimpiya qo‘mitalarini tan olgan.

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining Oliy organi har yilda o‘tkaziladigan sessiyasi hisoblanadi. Sessiyalar oralig‘ida Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi faoliyatini ijroiya qo‘mita boshqaradi. Olimpiya o‘yinlari oldidan Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi o‘zining Kongressi va Assambleyalarini tashkil etadi. Unda Prezident va ijroqo‘mni saylash, o‘yin qoidalari va dasturga kiritiladigan sport turalri va boshqa masalalarni hal etiladi. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining tarkibida Xalqaro Olimpiya Akademiyasi mavjud. U, asosan, Olimpiya g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Bunda Prezident, 3 ta vitse-prezident va a‘zolar bo‘ladi. Prezident har 8 yil muddatga saylanadi. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi a‘zolarini saylash muddati belgilanmaydi. Lekin u 72 yoshga kirsa, a‘zolikdan chiqib ketadi.

Xalqaro Olimpiya harakatining barcha davrlarida 9 ta prezident saylangan. Ular quyidagilar:

1. D.Vikelas, Gretsiya, 1894-1896 yillar.
2. Per de Kuberten, Fransiya, 1896-1925 yillar.
3. A.de Baye-Latur, Belgiya, 1925-1942 yil-lar.
4. E.Edstryom, SHvetsiya, 1942-1952 yillar.

5. E.X.Brendejd, AQSH, 1952-1972 yillar.
6. Lord M.Killanin, Irlandiya, 1972-1980 yillar.
7. X.Samaranch, Ispaniya, 1980-2001 yillar.
8. Jak Rogge, Belgiya, 2001-2013 yillar.
9. Tomas Bax, Germaniya, 2013 yildan.

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining (XOQ) moliyaviy manbai asosan Milliy olimpiya qo‘mitalari (MOQ) a‘zolidan, ya‘ni har bir a‘zo Amerika dollari hisobidan badallar to‘laydi, Olimpiya o‘yinlarining televizion ko‘rsatuvlaridan yig‘ilgan pullarning bir qismi, Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi byulleteniga obunalardan bir qismini tashkil qiladi. Olimpiya o‘yinlari jarayonidagi barcha harajatlarni o‘yinni tashkil qilgan mamlakat ko‘taradi.

Olimpiya o‘yinini o‘tkazish uchun mamlakatda Tashkiliy qo‘mita tuziladi va u barcha ishlar uchun Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi, Xalqaro sport federatsiyasi va Milliy Olimpiya qo‘mitasi oldida to‘la javob beradi.

Xalqaro sport uyushmalari, sport federatsiyalari, qit‘alardagi sport tashkilotlari. Osiyo sport uyushmalari, ularning asosiy tadbirlari. Markaziy Osiyo sport uyushmalari.

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi 32 ta Xalqaro sport federatsiyalarini tan oladi. Ma‘lum bir sport turini Xalqaro tan olishi uchun kamida 4 ta qit‘alardagi 75 ta mamlakatida erkaklar va 3 ta qit‘aning 50 ta mamlakatida ayollar tomonidan qo‘llanishi shart.

Yozgi Olimpiya o‘yinlari dasturi kam deganda 15 ta sport turi bo‘yicha o‘tkazilishi kerak. Sportchilarning Olimpiya o‘yinlari bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy harajatlarni (turar joyi, ovqatlanish, transport va boshqalar) milliy Olimpiya qo‘mitasi (MOQ) to‘laydi.

Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining rezidensiyasi Lozanna (Shveysariya) shahrida joylashgan.

Xalqaro olimpiya qo‘mitasining tashkiliy tuzilishi

Milliy Olimpiya qo‘mitalari (MOQ) Bosh Assambleyasi	Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi sessiyasi	Xalqaro sport federatsiyalarining Bosh Assambleyasi
	Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi Ijroiya qo‘mitasi	
Mamlakatlarning milliy Olimpiya qo‘mitalari (MOQ)	Prezident Vitse-prezidentlar A‘zolar	Olimpiya sport turlari bo‘yicha xalqaro federatsiyalar
Komissiyalar		Kichik qo‘mitalar

Ta’kidlash zarurki, har bir qit’ada Olimpiya o‘yinlari Kengashi mavjud, ular Milliy olimpiya qo‘mitalari, sport uyushmalari bilan hamkorlik qiladi.

Xalqaro sport harakatida hozirgi davrda bir qator muxim muammolar mavjud. Turli mamlakatlarning sportchilari yig‘ilib musobaqa o‘tkazish joyi faqat sportdagi kurashgina bo‘lib qolmasdan, balki u progressiv davlatlar bilan reaksiyon harakat namoyandalari o‘rtasida bo‘layotgan siyosiy va g‘oyaviy keskin kurash ob’ekti ham bo‘lib hisoblanadi. Bunday kurashlar Olimpiya o‘yinini o‘tkazishni hal qilish uchun yig‘ilgan jarayonlarda va o‘yin yakunlarida ko‘proq namoyon bo‘lmoqda.

Shu sababli xalqaro Olimpiya qo‘mitasining demokratik tamoyillar asosida ish tutishini progressiv kuchlar doimo taqib qilib bordi. Shunga qaramasdan ayrim kuchlarning vakillari o‘z foydalari uchun har xil nayranglarni ishlatib keldi. Demokratik kuchlar hali o‘z cho‘qqisiga to‘la chiqib etganicha yo‘q.

O‘tgan davrlarda sobiq Ittifoq va sotsialistik tuzumdagi barcha Miliy Olimpiya qo‘mitalarining haqqoniy talablari bilan Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi

tinchlik uchun kurashga da'vat etuvchi qaror qabul qildi. Milliy kamsitish va irqchilikka qarshi kurash hamma a'zolarining burchi bo'lib qoldi.

Kuba sportchilarini Xalqaro va kontinental musobaqalarga qatnashtirmaslik uchun imperialistik kuchlar qanchalik urinmasin, progressiv kuchlar uni puchga chiqargan edi. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi a'ziligiga Afrika mamlakatlaridan Senegal, Nigeriya sportchilari ham birinchi marotaba kiritildi. Sportdagi irqchilik va kamsitishlarga yo'l qo'yanligi sababli progressiv kuchlarning talabi bilan Isroil, janubiy Afrika respublikasi va boshqa bir qator mamalakatlar 1970 yillarda a'zolikdan chiqarildi. Ular faqat 1991 yilda qayta qabul qilindi.

Shuningdek, xalqaro sport federatsiyalari tomonidan musobaqada hakamlar ishlarini yaxshilashga qaratilgan birmuncha tadbirlar olib borildi va ular ijobiy hal qilindi. Progressiv kuchlar talabi bilan Xalqaro Olimpiya qo'mitasi yig'ilishlari muntazam o'tkazilishi va ularda Milliy olimpiya qo'mitalari hamda xalqaro sport federatsiyalari vakillarining qatnashishga erishildi. Shu bilan birga, olimpiya kongresslarining o'z vaqtida o'tkazilishi ta'minlandi.

1981 yil sentyabrda Baden-Baden shahrida xalqaro Olimpiya qo'mitasining XI Kongressi o'ikazildi. Bunda Olimpiya o'yinlari, xalqaro hamkorlik, olimpiya harakatining kelajagi kabi masalalar ko'rib chiqildi. Keyinchalik bu masalalar bo'yicha yangi komissiyalar tuzildi.

Olimpiya harakati - yangi komissiyaga Xalqaro Olimpiya qo'mitasi sobiq Prezidenti X.A.Samaranch boshchilik qildi. Unga, asosan, Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, xalqaro sport federatsiyalari va Milliy olimpiya qo'mitalarining vakillaridan iborat 29 a'zo kirdi.

Olimpiya o'yinlari komissiyasi tarkibiga Xalqaro Olimpiya qo'mitasi a'ziligiga saylangan finlyandiyalik ayol birinchi xotin-qizlar vakili hisoblanadi.

Olimpiya o'yinlari hozirgi xalqaro hayotda eng muhim voqealardan biri bo'lib hisoblanadi. 1950 yilda 61 ta milliy olimpiya qo'mitalari mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 200 dan oshdi.

Olimpiya o'yinlari jahon miqyosida muhim pedagogik va ijtimoiy funksiyalarni bajarmoqda. Davlatlar va sportchilar o'rtasida itimoiy xususiyat

tobora rivoj topmoqda. Olimpiya bayramlari juda muhim tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyat kasb etmoqda.

Olimpiya o'yinlarida ishtirok etish sport mahoratini oshirishning eng yirik maktabi hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda, hozirgi zamon olimpiya harakatida htkazilayotgan o'yinlar, ularning natijalari, holati va kelajagi to'g'risida turli nazariyalar, dunyoqarashlar, kong'epg'iyalar va to'knashuvlar yuz bermoqda.

Bu o'rinda 1980 yilda Moskvada o'tkazilgan XXII Xalqaro Olimpiya o'yinlariga AQSH va uning tarafdorlari qatnashmaganligi va 1984 yil Los-Anjelesda (AQSH) bo'lib o'tgan XXIII Xalqaro Olimpiya o'yinlarida sobiq Ittifoq va boshqa sotsialistik davlatlar sportchilarining qatnashishiga qarshilik ko'rsatilgani va ularning havfsizligini saqlashga kafillik qilinmaganligi oqibatida sportchilarning bu o'yinlarda qatnashmaganliklarini eslashning o'zi kifoyadir.

Shunga qaramasdan, sobiq Ittifoqda 1984 yil «Do'stlik», 1986 yilda «Yaxshi niyat o'yinlari» xalqaro musobaqalarining muvaffaqiyatli o'tkazilishi jahon sportchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik iqlimini yanada mustahkamladi.

Natijada, 1988 yilda Seulda (Koreya) o'tkazilgan XXIV Xalqaro Olimpiya o'yinlari sobiq Ittifoq va AQSH sportchilarining yangi uchrashuvi va sportdagi keskin raqobatlarining qayta tiklanishiga sababchi bo'ldi.

Olimpiya harakatida hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar hali juda ko'p. Olimpiya o'yinlari dasturi, ayniqsa, xotin-qizlar ishtirok etadigan turlarni rivojlantirish talab etiladi. 1992 yilda o'tkazilgan Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik, bunda sobiq Ittifoq sportchilarining birlashgan (MDH) so'nggi jamoalari yutuqlari va eng yaxshi natijalarni o'rganishni zamon talab etadi.

Olimpiya o'yinlari moliyaviy harajatlarini kamaytirish, ulkan qimmatbaho qurilmalar bilan band bo'lib qolmasligi kerak. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, Milliy olimpiya qo'mitalari va xalqaro sport federatsiyalarining faoliyatlarini takomillashtirishni davr talab qilmoqda. Milliy olimpiya qo'mitalarining hukumat tashkilotlari bilan aloqasini mustahkamlashga e'tibor qaratish zarur. Yangidan a'zo

bo'lib kirgan Milliy olimpiya qo'mitalari faoliyatlariga amaliy yordam berilishi lozim.

Hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyotini ilmiy o'rganish nuqtai nazaridan qaralganda, Olimpiya harakati o'z maqsad va vazifalarini to'la amalga oshirish uchun quyidagilarni o'ziga mujassamlashtirib olishi zarur ko'rinadi:

- Olimpiya harakati insonparvarlik yo'nalishida ravnaq topishi, uning ma'naviy va ahloqiy tamoyillari rivojlanishi va sport faoliyati bilan bog'lanishi;
- xalqlar o'rtasidagi tinchlik va do'stlikni mustahkamlash, insoniyat taqdirini Olimpiya harakati vositasi bilan echib berish;
- Olimpiya harakatiga qabul qilishda, sportchilarning millati, irqi, diniy dunyoqarashlaridan qat'iy nazar, teng huquqlikni ta'minlash;
- jahonda havaskorlik sportini ommalashtirish, bu bilan talantlar va eng yuqori natijalarni qo'lga kiritish;
- eng yaxshi Olimpiya an'analarini saqlash va mustahkamlash bilan uni yanada takomillash-tirish.

Bu yo'llar kelajakda Xalqaro sport harakati va Olimpiya o'yinlarini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar ochib berishiga shak-shubha bo'lishi mumkin emas.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 1991 yilda 38 kishiga xalqaro toifadagi sport ustasi unvoni berildi, 350 kishi esa sport ustasi unvoniga sazovor bo'ldi.

Ma'lumki, 1992 yilning yozida Barselonada (Ispaniya) bo'lib o'tgan yozgi XXV Olimpiya o'yinlarida O'zbekistonning 17 nafar sportchisi sobiq Ittifoq tarkibida so'nggi bor qatnashdilar. Ular orasida Roziya Galieva , Oksana Chusovitina (gimnastika), Marina Shmonina (engil atletika) oltin medal, Sergey Sirsov (og'ir atletika), Asrabaev A.(o'q otish) kumush medal va Zaxarevich V. (qilichbozlik) bronza medali sovrindorlari bo'lishdi. 1996 yil Atlanta (AQSH)da o'tkazilgan XXVI Olimpiya o'yinlarida Armen Bagdasarov (dzyu-do) kumush, Karim To'laganov (boks) bronza medaliga sazovor bo'lishdi. 2000 yil Sidneydagi (Avstraliya) XXVII Olimpiya o'yinlarida Muxammadqodir Abdullaev boks bo'yicha oltin; Artur Taymazov (kurash) kumush, Rustam Saidov, Sergey

Mixaylov (boks) bronza medallarini qoʻlga kiritdilar. Oʻzbek kurashi boʻyicha Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tuzildi va 3 marta jahon chempionati oʻtkazildi. Umuman, Respublika sporti taraqqiyoti yangi bosqichga koʻtarildi.

Oʻz-oʻzini nazorat qilish uchun savollar:

1. Xalqaro sport harakati taraqqiyotining asosiy bosqichlarini tushuntirib bering.

2. Xalqaro Olimpiya qoʻmitasi, uning tashkiliy tuzilishi, maqsadi va vazifalarini sanang.

3. Bosh Assambleya, milliy olimpiya qoʻmitalari assambleyasi, sessiya, kongress tushunchalarini izohlang.

4. Xalqaro sport uyushmalari, sport federatsiyalari, qitʼalardagi sport tashkilotlarini faoliyatini ayting.

5. Osiyo sport uyushmalari va ularning asosiy tadbirlari nimada?.

6. Markaziy Osiyo sport uyushmalarini izohlang.

4. Xalqaro sport va Olimpiya harakatining hozirgi muammolari nimada?.

Adabiyotlar ro‘yxati

I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: “O‘zbekiston”, 1992 y
- 2.O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” gi qonuni., Toshkent, 2015 y.
- 3.O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. 1998 yil 24 dekabr (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi). 1999-1 son, 10-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi qonuni. 1998 yil 30 aprel.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi qonuni. 1998 yil 30 aprel.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va qarorlari.

- 6.«Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi PF-5368-sonli farmoni
- 7.“2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.
- 8.O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2015 yil 4 martdagi “2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va tarkibiy o‘zgartirishni ta‘minlashning dasturiy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4707-sonli Farmoni.

9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-4947-sonli Farmoni. 4.4-bandi.

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 03 iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-3031-sonli Qarori

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari” gi, PQ-3151-sonli Qarori.

12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3775-son qarori.

III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va

O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me’yoriy hujjatlari

13.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 03 martdagi “O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1146-sonli qarori

14.Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Hay’at yig‘ilishining 2013 yil 9 dekabrda “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etilishini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 8/4 sonli qarori.

IV.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma’ruzalari

15. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s’ezdidagi ma’ruzasi. 20 oktyabr 2016 y.

16. Sh.Mirziyoyev. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” //Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi, 2017 yil 16 yanvar.

V.Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar

17.Nabiullin R.X. “Jismoniy tarbiya va sport menejmenti” darsligi. Muvofiqlashtiruvchi Kengashdan o‘tganligi to‘g‘risidaga guvohnoma raqami №303-014 va sanasi 2016 yil 21 aprel. I va II TOM.

18.Yarashev.K.D., Ommaviy sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va xalq milliy o‘yinlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash masalalari, monog.T., O‘zDJTI nashr., 1997 yil.

19. Yarashev K.D. Abdumalikov R., Komilov X.K. “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari majmuini ommalashtirish yo‘llari, o‘quv-uslubiy qo‘llanma., T., O‘zDJTI nashr 2002 yil.

20. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O‘zDJTI, 2005 yil

21.Salomov R.S. Sport mashg‘ulotning nazariy asoslari – Toshkent., O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2005 yJoseph

22. Akromov A.K, «O‘zbekiston jismoniy madaniyat madaniyati va sport tarixi», o‘quv qo‘llanma, T, O‘zDJTI nashr 1997 yil.

23. F.Xujaev, O‘zbekistonda jismoniy madaniyat T., «O‘qituvchi» 1997 yil.

24. Axmedov B.A., Amir Temur, tarixiy roman., T., 1995 yil.

25. F.Xujaev, Meliev Jismoniy tarbiya tarixi., «Iqtisod» 2010yil.

26.Kerimov F.A. Sport soxasida tadqiqot usullari. T., 2004.

27.Maxkamova M.A. Innovatsion menejment. O‘quv qo‘llanma. – T: Fan va texnologiya, 2013.

28. Экономические и социальные аспекты развития спортивных услуг: Монография /Под.ред. Н.А. Восколович –М.: ТЕИС, 2012.-144 с.

29. И.Б.Гурков Стратегический менеджмент организации. Учебное пособие. – М.: ТЕИС, 2009.-250 с.
- 30.Shomurodov H.S. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport faoliyatida tadbirkorlik. Monografiya.T.:”Tafakkur qanoti”, 2014.
31. Экономика физической культуры и спорта. Учебное пособие./Под ред. Кузина В.В. –М.: СпортАкадемПресс,2001
- 16.European Sport Management Quarterly. Vol. 3. - n. 3 - September 2003.
32. David C. Watt Sports management and administration © 1998 David C. Watt
- 33.Abdumalikov R., Jismoniy madaniyat va sport ixtisosligidagi talabalarni boshqaruvchilik faoliyatlariga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari, monografiya, T., O‘zDJTI nashriyoti, 1994.
- 34.Abdumalikov R., Qudratov R., YArashev K.D., Ko‘pkurash, ilmiy ommabop risola, T., O‘zDJTI nashriyoti, 1997.
- 35.«Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari, 2000.
- 36.Akramov A.K., O‘zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi, o‘quv qo‘llanma, T., O‘zDJTI nashriyoti, 1997.
- 37.Botirov X.A., O‘zbekistonda jismoniy tarbiya tarixi, ommabop kitob, T., Ibn Sino, 1993.
38. Вилкин Р., Каневец Т.М., Организация работу по массовой физической культуре и спорту, уч.пос., М., ФиС, 1985.
- 39.Jismoniy tarbiya va sport lug‘ati, 1-2 qism, O‘zDJTI nashriyoti, 1993.
- 40.Jismoniy tarbiya, sport va ma’naviyat, ilmiy-amaliy anjuman materiallari, T., O‘zDJTI nashriyoti, 1-2-3- qismlar, 1995.
- 41.Ismoilov R., Spolomitskiy Yu., O‘zbekistonda fizkultura tarixi, o‘quv qo‘llanma, 1968.
42. Казиева Р.А., Развитие женского физкультурного движения в Узбекистане, Т., «Узбекистан», 1979.
43. Кошбахтиев И.А., Осново оздоровительной физкультуро молодёжи, Т., 1995.

44. Кун Л., Всеобщая история физ.культуры и спорта, М., «Радуга», 1982.
45. Мирсаидов М.М., Шакиров А.Р., Физкультура и спорт в условиях рынка, Т., «Узбекистан», 1992.
- 46.Nurmuxamedov K.I., Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, o'quv qo'llanma, T., O'zDJTI nashriyoti, 1991.
- 47.Olimpiyskaya Xartiya, metod.ukaz, M., 1990.
- 48.Ostonov S., Besh xalqa qissasi, T., «Yosh gvardiya», 1984.
49. Пономарев Н.К., Возникновение и первоначальное развитие физического воспитания, М., ФиС, 1970.
50. Романов А.О., Международное спортивное движение, М., ФиС, 1978.
51. Рубцов А.Т., Группу здоровья, М., ФиС, 1984.
- 52.Ruziev S.S., Shaternikov E., Baraban M., Uzbekistan Olimpiyskiy, T., «Yozuvchi», 1996.
53. Саламов Р.С., Проблеме высшего физкультурного образования, монография, Т., 1992.
- 54.Sog'lom avlod tarbiyasi - buyuk davlat qurish zaminidir, Ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 1-2 qism, T., O'zDJTI nashriyoti, 1994.
- 55.Toshpo'latov J., Surxondaryoda jismoniy tarbiya va sport, Termiz, 1991.
- 56.Ten K.P., O'zbekiston studentlarining jismoniy tarbiyasi, T., 1983.
- 57.Tulenov J., YUsupov q. va boshqalar, Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi, T., «O'zbekiston», 1993.
- 58.Usmonxo'jaev T.S., Xo'jaev F., 1001 o'yin, T., «O'qituvchi», 1991.
- 59.Xalqaro Olimpiya qo'mitasining 100 yilligiga bag'ishlangan I Respublika ilmiy anjumani, ma'ruzalar to'plami, T., O'zDJTI nashriyoti, 1994.
- 60.Chernyavskiy V.R., Fizkultura va salomatlik, metodik qo'llanma, Ibn Sino, 1990.
- 61.Yunusov T.T., Abdumalikov R., Yarashev K.D., Assalom Olimpiada, T., O'zDJTI nashriyoti, 1993.
- 62.O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 40 yil, buklet, prof. A.Q.Hamroqulov tahriri ostida, T., O'zDJTI nashriyoti, 1995.

- 63.Hamroqulov A.Q., Nasriddinov F.N. va boshqalar, O‘zbekiston Respublikasi viloyatlarida xalq harakatli va sport o‘yinlari bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish, T., O‘zDJTI nashriyoti, 1992.
- 64.N.YA.Satskov Metodo‘ i priemo‘ deyatelnosti menedjerov i biznesmenov, M. Institut prakselologii 1993 g.
- 65.Marketing v Rossii i za rubejom, № 3 - 2001 g.
- 66.Abdumalikov R., Yunusov T.T., Akramov A., Fizkultura harakatini kengaytirish yo‘llari, o‘quv qo‘llanma, T., Ibn Sino, 1988.
- 67.Abdumalikov R., Jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning nazariy asoslari, o‘quv qo‘llanma, T., O‘zDJTI nashriyoti, 1996.
- 68.Abdumalikov R., Abdullaev A. va boshqalar, jismoniy tarbiya ta’limi ilmini takomillashtirish masalalari, metodik qo‘llanma, T., O‘zDJTI nashriyoti, 1996.
69. Кутепов М.Е., Маркетинг в зарубежном спорте, уч.пос., М., 1993.
70. Управления физической культурой и спортом, учеб.для ИФК, под.ред. И.И.Переверзина, М., ФиС, 1987.
- 71.Yunusov T.T., Abdumalikov R., O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni boshqarishni tashkil etish yo‘llari, o‘quv qo‘llanma, T., O‘zDJTI nashriyoti, 1992.
- 572.Yunusov T.T., Organizatsiya upravleniya fizkulqturno‘m dvijeniem v Respublike Uzbekistan, uch.pos., T., 1995.
- 73.Yarashev K.D., Ommaviy sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va xalq milliy o‘yinlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash masalalari, monografiya, T., O‘zDJTI nashriyoti, 1997.
- 74.A. O‘lmasov, Iqtisodiyot asoslari. Toshkent 1997.
75. B.Umarov,D.Artaqov. Ma’muriy huuq va proses – T.: TDYuU nashirayoti, 2018. – 105 bet.

VI. Statistika to‘plam va nashrlar

76. O‘zbekiston Respublikasi davlat Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. 2010-2018 yu.
77. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma’lumotlari. 2010-2017 yu.

VII. Internet saytlari

www.gov.uz

www.mineconomy.uz (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)

www.mehnat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)

www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)

www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi)

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.ziyonet.uz

www.istedod.uz

GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<i>Ta’limning insonparvarlashuvi</i>	Shaxsning turli ta’lim xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi va ta’lim jarayonida inson qobiyatining ochilishini anglatadi. ESTS ta’limni davom ettirish uchun oliy ta’lim muassasasini, o‘quv fanlarini va o‘qituvchilarni tanlash imkoniyatini beradi.	Is a variety of educational services to meet the needs of the person in the educational process of opening of the human abilities. ESTS gives the opportunity for the teachers to choose higher education institutions, academic disciplines to continue education.
<i>Ta’limning individuallashtiruvi</i>	Har bir talabaning individual reja va ta’lim dasturlariga ega ekanligini ifoda etadi. Talaba tanlovi asosidagi fanlar 70%ni, majburiy fanlar esa 30% dan oshmaydi. Talabaning mustaqil ish hajmi 70%ni, auditoriyadagi ishi esa 30%ni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkichlar individual ta’limni tashkil qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi.	It means that each student has individual education plan and education programs with that organization. 70% of the student’s selection based on science, do not exceed 30% of the compulsory subjects. The size of the independent work of the student is 70%, and the audience is 30%. These indicators serve as a basis for individual education. <i>I</i>
<i>Ta’limning samaradorligi</i>	Guruhda individual o‘qitishli auditoriya mashg‘ulotlari va	Is provided through the harmonization of

	talabani mustavqil ishlarini uyg'unlashtirish orqali ta'minlanadi. Auditoriya o'quv vaqtining 70% gacha qismini individual o'qitishga, shuningdek umumiy o'quv vaqtining 70% gacha qismini mustaqil ishga ajratilishi o'quv fanlarining talabalar tomonidan o'z qobiliyatlari darajasida o'zlashtirishga imkon yaratadi. Ushbu bilan ta'limning samaradorligi ta'minlanadi.	independent works of student and individually teaching of auditory lessons in the group. Auditory training takes up to 70% of individual training, as well as up to 70% of the total teaching time allocation of part of the independent academic science students the opportunity to develop their skills at the appropriate level. The effectiveness of the education is provided by that.
<i>Qiziqtirish tamoyili</i>	Bu tamoyilning mohiyati ta'lim oluvchining bilim olish faoliyatini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Modulning o'quv materialiga qiziqishni uyg'otish, bilim olishga rag'batlantirish, mashg'ulotlar paytida faol ishtirok etish, ijodiy fikrlashga da'vat etish modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.	The essence of this principle is the principle of an interest in learning will stimulate the activity of the recipient's knowledge. Most materials intriguing, stimulating knowledge, active participation during the training, and to encourage creative thinking module historical elements and problematic tasks.
<i>Modulli o'qitish</i>	O'quv dasturlarini to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o'qitish imkoniyati yaratiladi. YA'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi. O'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.	Systematic quantum theory of the method is the principle of didactic units based on the generalized theories requirements. Activity principle: This principle is in line with the content of the professional activities of the formation. According to this principle or approach to science modules can be created on the basis of a systematic approach.
<i>Sport</i>	(fr. <i>desporter</i> - "maza qatnashuvchilarning jismoniy va yoki aqliy qobiliyatlarini solishtirishga va yoki zavqlanishga mo'ljallangan, tayinli qoidalarga ega faoliyat turidir.	(fr. <i>Desporter</i> "play", "pleasure" upon their physical or mental abilities and to compare and / or regulations designed to enjoy certain activities.

<i>Innovatsiya</i>	(ingl. “innovation” – yangilik kiritish, ixtiro) o‘qituvchida yangi g‘oya, me‘yor, qoidalarni yaratish, o‘zgaralar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalarni qabul qilishga oid sifat, malakalarni shakllantirish imkoniyatini beradi.	add news, invention) of teachers in the new ideas, Norms, rules, creating itself, created advanced ideas regarding the received quality, allows the formation of abilities and skills
<i>Strategiya</i>	(strategia) yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, harbiy sohada, siyosiy partiyalarda eng samarali yo‘l, usul yoki vositani tanlab, g‘alaba sari olib borish ma‘nosini ifodalaydi.	(from Greek στρατηγία <i>stratēgia</i> , "art of troop leader; office of general, command, generalship" ^[1]) is a high level plan to achieve one or more goals under conditions of uncertainty.
<i>Didaktika</i>	(ot grech. <i>didaktikos</i> – o‘qitaman, o‘rgataman) – ta‘lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogik ta‘lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.	i teach teachers I) – the process of education, content, and qonuniyat principles, forms, methods and teaching means of numerous Scientific fundamentals of the theory of education, pedagogy, specific area.

MUNDARIJA

1-MAVZU	JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	12
1.1	Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqadorligi	12
1.2	Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi qonun hamda qarorlar – boshqarishning asosiy manbalari	13
1.3	O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport taraqqiyoti	24
1.4	Boshqarish tamoyillari. “Jismoniy tarbiya harakati”, “Boshqarish”, “Boshqarish tizimlari, “Ilmiy boshqarish”, “Boshqarish usullari” “Aqlli boshqarish” tushunchalarining umumiy ta’rifi	53
2-MAVZU	JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISH TIZIMLARI VA DAVLAT IDORALARIGA TAVSIF	56
2.1	O‘zbekiston respublikasida davlatni boshqarish, Prezidentlik instituti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi, Sud va ma’muriy idoralar haqida tushuncha	56
2.2	Boshqarish tizimlari. Davlat idoralari, xo‘jalik idoralari va jamoat tashkilotlari	64
2.3	Boshqarishning davlat organlari, umumiy va maxsus vakolatli davlat organlari	67
2.4	Sport tashkilotlari. “Dinamo”, “Yoshlik”, “Talaba” sport jamiyatlari, Mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti	80
3-MAVZU	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JISMONIY TARBIYA VA SPORT VAZIRLIGI	94
3.1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni va uning asosiy mazmuni	94

3.2	O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligining tashkiliy tuzilishi	9
3.3	O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligining ichki tuzilishi	96
3.4	Jismoniy tarbiya va sport boshqarmalarining faoliyatlari: mutaxassis xodimlar, sport jamoalari, uyushmalar (federatsiyalar) bilan ishlash, jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishning ilmiy asoslari	99
4-MAVZU.	JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISHNING DAVLAT IDORALARI	105
4.1	O‘quv yurtlariga ega bo‘lgan davlat idoralari, ularning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi asosiy vazifalari	105
4.2	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligining jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilishdagi ishtiroki	106
4.3	Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil qilish, aholining sog‘lig‘ini muhofaza qilish, «Sog‘lom avlod uchun» davlat dasturini amalga oshirishdagi faoliyati	110
4.4	Ichki ishlar, mudofaa, qishloq va suv xo‘jaligi, engil sanoat, madaniyat ishlari va boshqa sohalar bo‘yicha idora qiluvchi vazirliklarning jismoniy tarbiya va sport ishlarini tashkil qilishdagi asosiy vazifalari	113
5-MAVZU	SPORT MAKTABLARI VA MARKAZLARI FAOLIYATINI TASHKIL QILISH	118
5.1	Iqtidorli sportchilarni tarbiyalashda bolalar va o‘smirlar sport maktablarining ahamiyati. Sport maktablarining turlari va ularning Nizomi xaqida tushunchalar	119
5.2	Ixtisoslashgan va majmuiy kompleks sport maktablari.	

	Murabbiylar kengashi. Iqtidorli yoshlarni tanlash, qabul qilish tartiblari	123
5.3	Olimpiya zahiralari sport kollejlari	125
6-MAVZU	AHOLI TURAR JOYLARIDA OMMAVIY SOG‘LOMLASHTIRISH VA XALQ MILLIY O‘YINLARINI TASHKIL QILISH	130
6.1	Aholining jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan e’tiyojlarini o‘rganish	131
6.2	Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi	134
6.3	Sport turlari va xalq milliy o‘yinlari bo‘yicha jamoalar (komanda) tashkil qilish	137
7-MAVZU	ALPOMISH VA BARCHINOY MAXSUS TESTLARI AHOLINI JISMONIY TAYYORGARLIGINI ANIQLOVCHI ASOSIY ME’YORLAR	142
7.1	Alpomish va Barchinoy maxsus testlarining maqsad va vazifalari	142
7.2	Alpomish va Barchinoy maxsus testlarining tasniflanishi.	145
7.3	Alpomish va Barchinoy maxsus testlarining me’yorlari.	146
8-MAVZU.	JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI TARG‘IBOT VA TASHVIQOT ISHLARI	148
8.1	Jismoniy tarbiya va sportni targ‘ibot va tashviqot ishlarining maqsadi, vazifalari va asosiy tamoyillari	148
8.2	Jismoniy tarbiya va sportni targ‘ibot ishlarining xususiyatlari	149
8.3	Jismoniy tarbiya va sportni targ‘ibot qilish ishlarining turlari, shakllari va vositalari	151
9-MAVZU	JISMONIY TARBIYA JAMOALARI FAOLIYATINI NAZORAT QILISH	154
9.1	Jismoniy tarbiya va sport sohasida nazoratning asosiy	

	tamoyillari	154
9.2	Sport tashkilotlari faoliyatida nazorat qilish, tekshirish tartiblari va turlari	157
9.3	Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida hisobga olish va hisobot ishlari	164
9.4	Jismoniy tarbiya va sport sohasida nazorat, hisobga olish va hisobot ishlarining ahamiyati	169
10-MAVZU	JISMONIY TARBIYA VA SPORT ISHLARINI BOSHQARISH USULLARI	180
10.1	O‘zbekistonda boshqarish usullarining xususiyatlari haqida qisqacha tushuncha. Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faoliyatini tashkil qilishda boshqarish usullaridan foydalanishning mohiyati	180
10.2	Jismoniy tarbiya va sport sohasida tashkiliy farmoyish berish usulining asosiy xususiyatlari va uni quyi tarmoqlarda qo‘llash tartiblari	183
10.3	Bozor iqtisodiyoti islohotlari jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy usullarning o‘ziga xos xususiyatlari. Boshlang‘ich jamoalarda homiylar, jamg‘arma uyushmalari faoliyatidan foydalanish	189
11-MAVZU	JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK, PEDAGOGIK VA HUQUQIY ASOSLARI	192
11.1	Jismoniy tarbiya va sport harakati jarayonida ijtimoiy-psixologik holatlar	192
11.2	Boshqarish va ta’lim-tarbiya jarayonlarida o‘zaro munosabatlar	193
11.3	Tarbiya - boshqarishning muhim bosqichidir. Onglilik va salomatlik muvozanatlarini saqlash, milliy	

	qadriyatlardan foydalanish	197
11.4	Jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy-tarbiyaviy va ma'naviy mohiyatlarini o'rganish, tadqiq qilish	200
12-MAVZU	JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISHNING IQTISODIY ASOSLARI	207
12.1	Moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minot xaqida tushuncha	207
12.2	Jismoniy tarbiya va sport sohasida o'zini-o'zi moddiy ta'minlash, pullik xizmatlar	209
12.3	Sport tashkilotlari va ularning boshlang'ich jamoalarida smeta tuzish tartiblari	210
12.4	Sport buyumlarini ishlab chiqarish, ularni sotish va xarid qilish tartiblari	212
13-MAVZU	HAMDO'STLIK MAMLAKATLARDA JISMONIY TARBIYA ISHLARINI TASHKIL QILISH. XORIJ MAMLAKATLARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI BOSHQARISH	219
13.1	Hamdo'stlik mamlakatlarda jismoniy tarbiya ishlarini tashkil qilish	219
13.2	Evropa mamlakatlarda jismoniy tarbiya ishlarini tashkil qilish	223
13.3	Horiy mamlakatlarida jismoniy tarbiya va sportni boshqarish	228
14-MAVZU	OMMAVIY SPORTNI TASHKIL ETISH VA SPORT MUSOBAQALARI BOSHQARUVIDA XORIJIY TAJRIBALARNI JORIY ETISH	231
14.1	Xorijiy davlatlarda ommaviy sportni tashkil etish tamoyillari	231
14.2	Xorijiy davlatlarda sport musobaqalarini tashkil etish	

	va boshqaruvida xorijiy tajribalarni joriy etish	232
14.3	Ommaviy sport yoki barcha uchun sport ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni echishda asosiy tamoyillarini o'rganish	237
15-MAVZU	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY OLIMPIYA QO'MITASI	241
15.1	O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasining Nizomi. Uning tarkibiy tuzilishi: Bosh Assambleya, Kongress, sessiya, ijroqo'm	241
15.2	O'zbekiston Respublikasi Milliy Olimpiya qo'mitasining asosiy vazifalari	243
15.3	Olimpiya klublari. Olimpiya Akademiyasi, ularning vazifalari	244
16-MAVZU	XALQARO ZAMONAVIY SPORT HARAKATINI TASHQIL QILISH VA RIVOJLANTIRISH. XALQARO SPORT HARAKATINI TASHKIL QILISH	251
16.1	Xalqaro sport harakati taraqqiyotining asosiy bosqichlari haqida tushunchalar. (1860-1894, 1896-2008)	252
16.2	Xalqaro Olimpiya qo'mitasi, uning tashkiliy tuzilishi, maqsadi, vazifalari. Bosh Assambleya, milliy olimpiya qo'mitalari assambleyasi, sessiya, kongress	253
16.3	Xalqaro sport uyushmaalri, sport federatsiyalari, qit'alardagi sport tashkilotlari. Osiyo sport uyushmalari, ularning asosiy tadbirlari. Markaziy Osiyo sport uyushmalari	257
	Mundarija	273

Содержание

1-ТЕМА. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ	12
1.1. Цель и задачи дисциплины Управление физической культурой и спортом, а также её связь с другими дисциплинами	12
1.2. Законы и постановления в области физической культуры и спорта-основные источники управления	13
1.3. Развитие физической культуры и спорта в Узбекистане.	24
1.4. Принципы управления. Общее определение понятий «физкультурное движение», «управление», «Принципы управления», «научное управление», «методы управления».	53
2-ТЕМА ОПИСАНИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ И СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ	56
2.1 Понятие о государственном управлении, президентском институте, Олий Мажлисе, Кабинете Министров, судебных и административных ведомств в Республике Узбекистан	56
2.2 Системы управления. Государственные ведомства, хозяйственные учреждения, общественные организации.	64
2.3 Государственные органы управления, государственные органы общей и специальной компетенции	67
2.4 Спортивные организации. Спортивные общества «Динамо», «Ёшлик», «Талаба», организация содействия обороне «Ватанпарвар»	80
3-ТЕМА. МИНИСТЕРСТВО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И	

СПОРТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	94
3.1 Указ Президента Республики Узбекистан «Об организации деятельности Министерства физической культуры и спорта Республики Узбекистан» и его основное содержание	94
3.2 Организационная структура министерства физической культуры и спорта Республики Узбекистан	96
3.3 Внутренняя структура Министерства физической культуры и спорта Республики Узбекистан	97
3.4 Деятельность управлений физической культуры и спорта: работа со специалистами, спортивными командами, ассоциациями (федерациями), научные основы организации физической культуры и спорта	99
4-ТЕМА. ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ОРГАНЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ	105
4.1 Государственные учреждения, имеющие учебные заведения, их основные задачи в сфере физической культуры и спорта	105
4.2 Участие в организации физической культуры и спорта Министерства высшего и среднего специального образования, Министерства народного образования	106
4.3 Деятельность Министерства здравоохранения по организации физической культуры и спорта, охране здоровья населения, реализации государственной программы «Соглом авлод учун»	110
4.4 Основные задачи министерств внутренних дел, обороны, сельского и водного хозяйства, легкой промышленности, культуры и других сфер в организации физической культуры и спорта	113

5-ТЕМА. ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СПОРТИВНЫХ ШКОЛ И ЦЕНТРОВ	118
5.1 Значение детских и юношеских спортивных школ в воспитании одарённых спортсменов. Понятия о видах спортивных школ и их уставах	119
5.2 Специализированные и комплексные спортивные школы. Тренерский совет. Порядок отбора, приема одаренной молодежи	123
5.3 Спортивные колледжи олимпийского резерва	125
6-ТЕМА. ОРГАНИЗАЦИЯ МАССОВЫХ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГР В НАСЕЛЕННЫХ ПУНКТАХ.	130
6.1 Изучение потребностей населения в физической культуре и спорте	131
6.2 Социально-культурные центры для населения	134
6.3 Организация команд по видам спорта и национальным играм	137
7-ТЕМА. СПЕЦИАЛЬНЫЕ ТЕСТЫ АЛПОМИШ ВА БАРЧИНОЙ ОСНОВНЫЕ НОРМЫ, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЕ ФИЗИЧЕСКУЮ ПОДГОТОВЛЕННОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ	142
7.1 Цели и задачи специальных тестов Алпомиш и Барчиной.	142
7.2 Классификация специальных тестов Алпомиш и Барчиной	145
7.3 Нормы специальных тестов Алпомиш и Барчиной.	146
8-ТЕМА. РАБОТА ПО ПРОПАГАНДЕ И РАСПРОСТРАНЕНИЮ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА	148
8.1 Цели, задачи и основные принципы работы по пропаганде и распространению физической культуры и	

спорта	148
8.2 Особенности работы по пропаганде и распространению физической культуры и спорта.	149
8.3 Виды, формы и средства работы по пропаганде и распространению физической культуры и спорта.	151
9-ТЕМА КОНТРОЛЬ ЗА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ФИЗКУЛЬТУРНЫХ КОЛЛЕКТИВОВ	154
9.1 Основные принципы контроля в сфере физической культуры и спорта	154
9.2 Виды и порядки контроля и проверок деятельности спортивных организаций.	157
9.3 Учетная и отчетная работа в физкультурно- спортивных организациях	164
9.4 Значение контрольных, учетных и отчетных работ в сфере физической культуры и спорта	169
10-ТЕМА. МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ	180
10.1 Краткое представление об особенностях методов управления в Узбекистане. Сущность использования методов управления в организации деятельности физкультурно-спортивных организаций.	180
10.2 Основные особенности метода выдачи организационного распоряжения в сфере физической культуры и спорта и порядок его применения в подведомственных отраслях.	183
10.3 Особенности социально-экономических методов в процессе реформирования рыночной экономики. Использование деятельности спонсоров, сберегательных союзов в первичных обществах	189

11-ТЕМА. СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ, ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ	192
11.1 Социально-психологические состояния в процессе физической культуры и спортивного поведения.	192
11.2 Взаимодействие в управленческих и учебно- воспитательных процессах	193
11.3 Воспитание-важный этап управления. Сохранение баланса сознания и здоровья, использование национальных ценностей	197
11.4 Изучение, исследование социально-воспитательных и духовных ценностей физической культуры и спорта.	200
12-ТЕМА. ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ	207
12.1 Понимание финансирования и материально- технического обеспечения	207
12.2 Самофинансирование, платные услуги в сфере физической культуры и спорта	209
12.3 Порядок составления сметы в спортивных организациях их первичных организациях	210
12.4 Порядок производства, реализации и приобретения спортивных изделий	212
13-ТЕМА. ОРГАНИЗАЦИЯ РАБОТЫ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ В СТРАНАХ СОДРУЖЕСТВА. УПРАВЛЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ ЗА РУБЕЖОМ	219
13.1 Организация работ по физической культуре в странах СНГ	219

13.2	Организация работ по физической культуре в странах Европы	223
13.4	Управление физической культурой и спортом за рубежом	228
14-ТЕМА	ОРГАНИЗАЦИЯ МАССОВОГО СПОРТА И ВНЕДРЕНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В УПРАВЛЕНИЕ СПОРТИВНЫМИ СОРЕВНОВАНИЯМИ	231
14.1	Принципы организации массового спорта в зарубежных странах	231
14.2	Организация спортивных соревнований в зарубежных странах, внедрение зарубежного опыта в управлении физкультурой и спортом	232
14.3	Изучение основных принципов решения социально-экономических проблем массового спорта или спорта для всех	237
15-ТЕМА.	НАЦИОНАЛЬНЫЙ ОЛИМПИЙСКИЙ КОМИТЕТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	241
15.1	Устав Национального Олимпийского Комитета Республики Узбекистан. Его структура: Генеральная Ассамблея, Конгресс, сессия, исполнительный комитет	241
15.2	Основные задачи Национального Олимпийского комитета Республики Узбекистан	243
15.3	Олимпийская академия и Олимпийские клубы, их функции	244
16-ТЕМА.	ОРГАНИЗАЦИЯ И РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО СОВРЕМЕННОГО СПОРТИВНОГО ДВИЖЕНИЯ.	251
16.1	Понятия об основных этапах развития международного спортивного движения. (1860-1894, 1896-2008)	252

16.2	Международный олимпийский комитет, его организационная структура, цели, задачи. Генеральная Ассамблея, ассамблея национальных олимпийских комитетов, сессия, конгресс	253
16.3	Международные спортивные союзы, спортивные федерации, континентальные спортивные организации. Азиатские спортивные ассоциации, их основные мероприятия. Центральноазиатские спортивные ассоциации	257
	Содержание	273